


Таълим тизимида узлуксиз касбий
ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва

ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК

асослари



ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ
ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ
ОШИРИШ ҲУДУДИЙ МАРКАЗИ

**«ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ
РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ ВА
ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ»**

МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

Мақолалар тўплами
4-ҚИСМ

Тошкент-2022

Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2022. – 327 бет.

Мазкур тўплам “Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари” мавзусига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, бошқа турдош йўналишлар вакиллариغا мўлжалланган. Мазкур тўплам жамият илмий-маърифий ҳаётини янада такомиллаштиришга, соҳадаги тадқиқотларни жадаллаштиришга хизмат қилади.

ТАШКИЛОТЧИЛАР:

Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Тошкент вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази

ТАҲРИР КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ:

ЗЕБО КАСИМОВА - пед. фанлари номзоди, профессор, ЎзХИА кафедра мудири

МУҲАББАТ МУСАЕВА - пед. фанлари номзоди, доцент, ТВХТХҚТМОҲМ кафедра мудири

АБДИМУМИН РАСУЛОВ - психология фанлари доктори, доцент

МИРМУҲСИН АКРАМОВ - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

ДОНО КАЛАНДАРОВА - фалсафа фанлари бўйича PhD

АЗАМАТ НАЗАРОВ - катта ўқитувчи

ЭРДАВЛАТ ЖУМАНОВ - ТВХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси

АЗИЗЖОН УМИДОВ - етакчи мутахассис

САРВАР ҚАХХОРОВ - таянч докторант, психолог

МАЪРУФ КУБАЕВ - стажёр тадқиқотчи, психолог

«Таълим тизимида узлуксиз касбий ривожланиш жараёнининг ижтимоий ва педагогик-психологик асослари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 13 апрелдаги 01-04/03 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг ҳолислиги ва ишончлилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

YOSHLARDA IQTISODIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHIDA OILANING O`RNI

Murodullayeva Dilbar Muhammadiyevna
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika
Universiteti Psixologiya o`quv ilmiy markazi QT talabasi

Annotatsiya: Maqolada oilada iqtisodiy tarbiya masalalari xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, oila, oilada iqtisodiy tarbiya, oila daromadlari, xarajatlari, daromadni investitsiya qilish yo`llari, mehnat qilish, mehnatni qadrlash kabilar xususida ma`lumotlar berilgan.

Tayanch so`z va tushunchalar: oila, ota-ona, farzand, tarbiya, iqtisodiy tarbiya, daromadlar, xarajatlar, investitsiya, mehnat, tejamkorlik.

Аннотация: В статье высказываются мнения по экономическому воспитанию в семье. В частности, дана информация по вопросам семьи, экономического воспитания в семье, семейной прибыли, расходов, методов инвестирования прибыли, работы и оценки труда.

Ключевые слова и понятия: семья, родители, дети, воспитание, экономическое воспитание, доходы, расходы, инвестиция, труд, экономность.

Annotation: The article describes points of view and problems of economic education in the family. In particular, there are given the information about family, economic education, family income, costs, investment methods, work and assessment of work.

Keywords: family, parents, children, education, economic education, incomes, investment, labor, economy.

Ma`lumki, tarbiya, jumladan, iqtisodiy tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi. Har qanday jamiyatning hujayrasi bu oila yoki uy, xonadon xo`jaligi bo`lib, u aynan xonadonning ahvoli, turmush darajasi va oxir-oqibat uning holati butun bir mamlakatning holatini, taraqqiyot darajasini ifodalab beradi. Oilaning vujudga kelishi mehnat unumdorligining o`shishi bilan bog`liq. Jamiyat taraqqiyotining ma`lum bir davrida insonlar mehnat unumdorligi o`shishi tufayli jamoadan ajralib chiqib, alohida yashash imkoniyatiga ega bo`lganlar. Ayol va erkak birgalikda yashab, farzand ko`rib,

ularni voyaga yetkazish, birgalikda mehnat qilish, yashash uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish bilan uy xo'jaligi vujudga kelgan. Oila tushunchasi ko'p asrlar davomida tubdan o'zgardi. Lekin uning eng asosiy vazifalaridan biri, bu zurriyot qoldirib, uni voyaga yetkazish, parvarishlash, tarbiyalash, turli xavf-xatarlardan himoya qilish kabilar hanuzgacha o'zgargani yo'q. Ota-onalar farzandlari uchun hamma narsaga tayyor, hatto o'zlarini qurbon qilishdan ham qaytmaganlar. Bu haqda hayotdan juda ko'p misollar keltirish mumkin. Oila – qarindoshchilik aloqalari, qondoshchilik his-tuyg'ulari orqali bog'langan inson (individd)larning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, iqtisodiy ehtiyojlarini birgalikda qondiruvchi kichik guruhdir. Oila o'z ehtiyojlarini iloji boricha maksimal darajada qondirishga harakat qiladi va uni amalga oshiradi. U ishlab chiqarish omillari, hech bo'lmaganda mehnat omili egasi hisoblanib, «inson kapitali»ni takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Aniq hayotda oila mustaqil xo'jalik yurituvchi bir kishidan ham iborat bo'lishi mumkin. An'anaviy ravishda oila nikohdan boshlanadi. Nikoh jarayoni mamlakatning taraqqiyoti, qabul qilingan konstitutsiya va asrlar davomida shakllangan an'ana, udumlar asosida amalga oshirilgan. Deyarli barcha mamlakatlarda oila qurish uchun bir birini tanlash jarayoni o'xshash bo'lib, mavqei, bilimi, dini, irqi va boshqa qator jihatlari bilan bir-biriga mos kelishiga e'tibor beriladi. Shuning uchun ham xalqimizda «Qozoniga yarasha qopqog'i», «Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan» degan naql aynan ana shu munosabatlarni ifodalaydi. Oila doirasida har bir tomon ma'lum bir yumushlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi. Deyarli barcha xalqlarda an'anaviy ravishda uy yumushlarini bajarishni ayollar, oilani moddiy jihatdan ta'minlashni erkaklar o'z zimmalariga olishgan. Hozirgi taraqqiyot bu an'anaviy mehnat taqsimotiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, uni har bir oila er-xotinning xislatlaridan kelib chiqqan holda yechishga harakat qiladi. Oilada har ikki tomon oila faollarini vujudga keltirish va mustahkam moddiy asosini yaratishdan manfaatdordir. Oila o'ziga xos investitsion loyiha bo'lib, bir necha yildan so'ng ma'lum natijaga erishishga qaratilgan. Bu jihatdan uni o'ziga xos biznesga, investitsiyaga o'xshatish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, insonlarni oila bo'lib yashashlari, ular uchun ratsional bo'lib, unda har ikki tomon o'z nafililigini maksimallashtiradi. Buning uchun inson yakka yashaganga qaraganda

nikohda yashashning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjudligini hisobga olib, qaror qabul qiladi. Ularning eng asosiylariga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Oilaviy hayotning muhim afzalliklaridan biri moddiy jihatdangina emas, balki ruhiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlovchi, qariganda tayanch bo'ladigan farzandlardir. Juda ko'pchilikni o'ylantiradigan ikkinchi tomoni esa erkinlik, mustaqillikning cheklanishi bo'lishi mumkin. Umuman olganda, odamlar hech qachon erkin emas, chunki uning faoliyati, hayoti boshqalarning harakati, faoliyati bilan bog'liq, doimo uni hisobga olish zarur, oilada esa ana shu holat nisbatan to'g'ridan to'g'ri va ko'proq bo'lsa, birgalikda yashagandan so'ng, albatta bir-biriga moslashishni talab etadi. Oilaviy masalalarga oid qaror qabul qilinganda odatda oila a'zolarining fikri ham hisobga olinadi. Odatda, oila a'zolari ko'pchilik bo'lsa qaror qabul qilish qiyinroq bo'ladi, uzoqroq muddat talab etiladi, sababi ko'pchilik o'rtasida bir fikrga kelib, qaror qabul qilish qiyin. Masalan, oddiygina oilali odam mashina olishi uchun umr yo'ldoshining ham roziligini olishi kerak. Yakka kishi esa mablag'i bo'lsa, o'zi istagan narsasini sotib olaveradi. Hayot ko'rsatadiki, namunali (ideal) oila a'zolari bir-birlarini xurmat qiladi, sevadi. Dunyoqarashi, qadr-qimmati o'lchovi bir-biriga yaqin kishilar qurgan oila eng ideal oila hisoblanadi. Bunday oilalarda kelajakda el hurmat qiladigan komil insonlar tarbiyalanadi. Aniq hayotda ko'p jihatlari bilan bir-biriga o'xshash, lekin bir-birini sevmagan yoki aksincha qattiq sevadigan, dunyoqarashi, ma'naviy qadr-qimmati o'lchovi jihatidan katta farq qiladiganlar ham oila qurishi mumkin. Ko'pincha, ma'naviy jihatdan katta farq qiluvchilar o'rtasidagi nikoh uzoqqa cho'zilmaydi, oila buzilib ketadi. Demak, yoshlar oila qurishda bir-birlarini ana shu fazilatlariga diqqat qaratishlari lozimligini uqtirish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaning jamiyatdagi o'rni yanada ortadi. Oila, ya'ni uy xo'jaligi nihoyatda murakkab iqtisodiy vazifalarni bajaradi. U oilaviy biznes yurituvchi, ish kuchi-mehnat omilini takror yaratuvchi, ya'ni inson kapitaliga investitsiya qiluvchi, zarur darajada iste'mol talabini hosil qiluvchi va boshqalarni amalga oshiruvchi sub'yekt hisoblanadi va ana shu jarayonda oila juda ko'plab muammolarni hal qiladi. Bozor iqtisodiyotida har bir oilaning o'z manfaatlarini ko'zlashi yuqori darajada bo'lsa-da, oilada qarindoshchilik majburiyatlari, qarindoshchilik aloqalarida beg'arazlik, xolis yordam berish kuchlidir. Firmalar,

korxonalar, tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar esa ichki va tashqi munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Oila – uy xo'jaligi firmalar, korxonalarga resurslar, ya'ni ishchi kuchini yetkazib beradi. Firmalar oilani tovar va xizmatlar bilan ta'minlaydi. Oilaning resurslari evaziga daromadlari iste'mol xarajatlariga teng bo'lishi kerak. Daromad bilan xarajat tengligi butun iqtisodiyotga xosdir. Bizga ma'lumki, bozor iqtisodiyoti doiraviy aylanishida oila yoki uy xo'jaligi turli tuman vazifalarni bajaradi. U jamiyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi va jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning yo'nalishini belgilab beradi. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, u bajaradigan vazifalarda namoyon bo'ladi. Oilaning bosh vazifasi farzand tarbiyasi, uni komil inson qilib voyaga yetkazishdir. Avlod davomchisi, iqtisodiyot uchun ish kuchi va mehnat omili takror yaratiladi. Boshqacha iqtisodiy termin bilan aytganda, inson kapitaliga investitsiya qilish jarayoni nuqtai nazaridan, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish jarayonini quyidagi uch jihatlariga ajratish mumkin (1-rasm): 1. Oilada moddiy bazaning yaratilishi. 2. Oilada farzandning dunyoga kelishi va uning tarbiyasi. 3. Bilim olish va kasb-hunar o'rganish. Oilada moddiy bazaning yaratilishi shundan iboratki, unda yangi qurilgan oilaning moddiy bazasi yaratiladi. Yahni uy xo'jaligi yuritilib, oilaning daromadi shakllantiriladi. O'zbekistonda bu jarayon ko'pincha mustaqil emas, balki ota-onaning ko'magida amalga oshiriladi. Ota-ona o'z farzandini o'ylaydi, beminnat yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi. Yangi qurilgan oilaning ko'pincha ham moddiy, ham mahnaviy jihatdan ota-onaning ko'magiga tayanishi bir tomondan yangi oilaning tajribasizligidan kelib chiqadigan muammolarini yechishga yordam bersa, ikkinchi tomondan bu jarayonning cho'zilib ketishi, ularning mustaqil ravishda muhim qarorlar qabul qilishi, mashuliyatni zimmasiga olishi va uni natijasi uchun javob berishini cheklaydi. Hamma narsa o'z-o'zidan bo'layotganday tuyulib, yosh oila uchun hayot kechirishning oson yo'lga o'tib, keyin kelajakda qattiq qiynalishi mumkin. Oilada farzandning dunyoga kelishi va uning tarbiyasida yosh oilada farzand ko'rish, ularni tarbiyalash va voyaga yetkazish amalga oshiriladi. Inson kapitalining tabiiy asosi yaratiladi. Farzand insonga cheksiz baxt, quvonch, his-tuyg'u, shodlik olib keladi va uni boshqa hech qanday ne'mat bilan taqqoslab bo'lmaydi. Tug'ilgan farzandning kelajakda qanday inson bo'lishi faqat irsiyatning natijasi emas, balki uning

sogʻligʻi, taʼlim-tarbiyasi, irodasi, feʼl-atvori, sharoitga moslashishi, muhimi ijtimoiy taʼlim-tarbiyaning murakkab natijasi boʻlib yuzaga chiqadi. Har bir ota-ona oʻz oilasi uchun jamiyat oldida javobgardir. U qonun yoʻli bilan ehtirol etilgan. SHuning uchun ota-onalar farzandlariga nisbatan maʼlum darajada hokimiyat ushlab turishi hamda oʻz oilasi oldida obroʻga ega boʻlishi kerak. Oila aʼzolari huquqiy jihatdan muhofazalangan jamiyatning aʼzosi boʻlsalar-da, ota-onalar va farzandlarining oilada tutgan oʻrni tubdan farqlanadi: eng avvalo, birinchilari oila boshqaruvchilari, ikkinchilari esa oiladagi tarbiyalanuvchilar hisoblanadi. Har bir ota-ona bilishi, aniq koʻz oldiga keltirishi kerakki, u oilada xoxlaganini qila olmaydi. Ular aynan farzandlarini tarbiyalashi, voyaga yetkazishi uchun mashuldir. Bilim olish va kasb-hunar oʻrganishda oilada tarbiyalanayotgan farzand bilimli, kasb-hunarli boʻlib voyaga yetib, oilada shu oʻrgangan bilimi, qobiliyati, egallagan kasbhunarini hayotga tatbiq etishni oʻrganadi. Farzand koʻrish va uni tarbiyalashda yoʻl qoʻyilgan yoki qoʻyiladigan xato va kamchiliklarning oqibati ayanchli boʻladi. Ayniqsa, farzandni tugʻilganidan voyaga yetkazish davrida ota-onaning hayot tajribasining kamligi ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bunda, odatda, farzandga tarbiya berishda bobo, buvilarining yordami nihoyatda muhim hisoblanadi. CHunki bobo-buvilar katta hayot tajribasiga ega boʻlib, oʻzlari yoʻl qoʻygan xato kamchiliklarini farzandlari takrorlamasliklari uchun harakat qilishadi. Farzandlar oʻz ota-onalarini qariganlarida yolgʻizlatib qoʻymasliklari, ularni parvarishlashlari lozim. Bu jihatdan qaraganda, farzand ota-ona uchun oʻziga xos «sugʻurta» vazifasini oʻtaydi. Hozirgi paytda pensiya, ijtimoiy sugʻurta kabilar mavjudki, ayniqsa Gʻarbda koʻp ota-onalar farzandlaridan koʻra ham ana shularga tayanishadi. Umuman olganda, ota-onalar bu muammoga ratsional nuqtai nazardan yondashishga harakat qilishadi. Bunda farzand tarbiyalashga sarflangan va sarflanadigan xarajatar hamda ota-onalarning maʼlumotlari muhim hisoblanadi. Buning asosiy sabablarini quyidagilarda koʻrish mumkin: 1. Ota-ona uchun farzand tarbiyasiga qaragandan ham yuqoriroq baholanadigan narsa bormi-yoʻqmi, shunga ahamiyat qaratishi. 2. Maʼlumoti yuqori boʻlgan sari ayolning farzand koʻrish ehtimoli yildan-yilga pasayib borishi. 3. Maʼlumoti yuqori boʻlgan ota-onalar oʻz farzandlarini talab darajasida yaxshi tarbiyalashi, farzand bilishi zarur boʻlgan nazariy va amaliy

ma'lumotlarni osonlik bilan tushuntirib berishi, ularning bilim olishi, dunyo sirlarini o'rganishi, kasb-hunarlar egallashiga qiziqtirish imkoniyatlarining katta bo'lishi. 4. Oiladagi farzandlar soni, ularning sog'lom, bilimli, odobli bo'lib yetishishlari uchun sarflanishi zarur bo'lgan xarajatlarni o'z daromadlaridan kelib chiqqan holda belgilashlari. Odatda, bu xarajatlarning bir qismini davlat ko'taradi. Bular tibbiyot, maorif, sport, ta'lim kabilar hisoblanadi. Qolgan xarajatlarni ota-onalarning o'zlari amalga oshiradilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan birga ana shu xarajatlarda oilaning hissasi tobora ortib bormoqda. Oilaning muhim vazifalarini uy xo'jaligini yuritish, tovar va xizmatlar yaratish, oilaviy biznes, ya'ni mulk egasi sifatida individual ishlab chiqarish tashkil etadi. Xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, fermer va dehqon xo'jaligini tashkil etib, faoliyat yuritadi. Oilaning yana bir muhim vazifasi oiladagi iqtisodiyotni kapital bilan ta'minlashdir. Bunda ayniqsa oilaning jamg'armasi (daromad)ning investitsiyaga aylanishi muhim ahamiyatga ega. Odatda, mamlakat miqyosida iqtisodiyotda rezerv (zaxira) fondi, barqarorlashtirish fondi tashkil etiladi. Daromad (jamg'arma) ham oila uchun ana shunday fond bo'lib hisoblanadi 1. Odamlar nima sababdan mablag'larini sarflashlari tushunarli, lekin nima sababdan jamg'aradilar? Buning sabablari juda ko'p. Ulardan eng asosiy 3 tasini ko'rsatishimiz mumkin (2-rasm): 1. Kelajakda ko'p mablag' talab qiladigan narsani sotib olish uchun. Odamlar joriy xarajatlarni deyarli har kuni amalga oshiradilar. Olingan daromad hammasi bir kunda sarflanmaydi. Uning ma'lum bir qismi oy davomida saqlanadi (naqd pul yoki kredit kartochkasida), qator narsalarni bir oylik topilgan daromadga sotib olish qiyin, shuning uchun pul to'plash kerak. 2. Har ehtimolga qarshi (sug'urta). Insonlar doimo kelajak haqida o'ylashadi. Kelajakda kamroq daromad olishlari yoki qo'shimcha xarajatlar qilishlariga to'g'ri kelishi mumkin. 3. Daromad olish uchun. Jamg'arma, investitsiya manbai yoki kapital o'zi nima? Daromad keltiradigan faol, qo'shimcha daromad topishga intilish jamg'arish uchun muhim stimuly bo'lib hisoblanadi. Jamg'arma qanday shakllarda bo'lishi mumkin? Agar mamlakatda moliyaviy institutlar rivojlanmagan bo'lsa, odamlar jamg'armalarini qanday shaklda saqlashadi? Birinchi navbatda, naqd pul shaklida. Sababi, uning likvidligi eng yuqori, lekin eng katta kamchiligi – inflyatsiya tufayli qadrsizlanadi. SHuning uchun ko'pincha odamlar pulini

ishonchli chet el valyutalarida saqlashga harakat qiladilar. Agar inflyatsiya uncha kuchli bo`lmasa va pul yaqin orada sotib olinishi lozim bo`lgan narsaga yig`ilayotgan bo`lsa, milliy valyutada saqlanadi. Ikkinchidan, qimmatbaho ko`chmas mulk, antikvariatlar (uy-joy va hokazo), qimmatbaho zeb-ziynatlar shaklida saqlash mumkin. Ular hech bo`lmasa nominal qiymatini saqlaydi yoki narxi ko`tariladi. Ularni saqlash kerak, saqlash esa qo`shimcha xarajatlarni talab qiladi. Likvidligi past, tezda naqd pulga aylantirish qiyin. Uchinchidan, kapitalga aylantirishga harakat qilish, o`z biznesini ochish. Bu yerda moliya bozori yoki banklar va boshqa moliyaviy muassasalarning vujudga kelishi shaxsiy jamg`armani ko`paytirish, daromad topishning yangi yangi imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Lekin yuqori daromad orqasida risk (tavakkalchilik) ham yuqori darajada bo`ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg`armani saqlashning turli-tuman yo`llari mavjud. Agar qarilik paytiga pul yig`ish kerak bo`lsa, pensiya fondi, hayotni turli hodisalardan sug`urta qildirish, istalgan turdagi qimmatli qog`ozlarni sotib olish mumkin. Moliya, bank muassasalari aholi pulini jamg`arish uchun ko`rsatilayotgan xizmatlari qulay va foydalidir. Moliya institutlari bu pullarni biznesga yo`naltiradi, egasiga ham daromad keltiradi. Uyda pulni saqlash, qo`riqlash tashvishlaridan holi qiladi. Ota-ona o`z farzandlarining birinchi tarbiyachisi hisoblanadi. Farzand xulqining shakllanishi va uning umumiy kamol topishida ularning ta`siri g`oyat katta. Farzand o`z ota-onasini hammadan yaxshi, har qanday ishning uddasidan chiqadigan deb his etadi. Farzand qanchalik yosh bo`lsa, kattalar xulq atvoriga shunchalik ergashuvchan bo`ladi. SHuning uchun o`z farzandiga ota-ona tarbiya berar ekan, ularga quyidagi tarbiya metodlari orqali ta`sir ko`rsatadi: – so`z orqali tarbiyalash (tushuntirish, hikoya, suhbat, savol-javob, namuna, o`rnak kabilar); – amaliy, ya`ni ta`lim-tarbiya oluvchilarning bandligini ta`minlash, bunda biror bir mashg`ulot, intellektual salohiyatlarni oshirishga qaratilgan hunar, sport, musiqa to`garaklariga yo`naltirish orqali ta`sir etish kabilarga jalb qilish; – rag`batlantirish va jazolash. Ushbu usullar orqali tarbiyalanuvchining ongi, irodasi, his-tuyg`ulari va munosabatlar tizimiga ta`sir etiladi. Ayniqsa, bolalarning murg`ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta`sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan ko`ra chuqurroq va mustahkamrog`i yo`q. Shuning uchun dono xalqimizda «Qush uyasida ko`rganini qiladi», deb bejiz

aytilmagan. Iqtisodiy tarbiya bilan esa asosan oilada ota-onalar shug'ullanishadi. Tarbiya natijasida farzand oilada quyidagi yumushlarni o'zlashtiradi: • ota-onasining uy-ro'zg'or ishlari, bozor o'charlarida yordam berish; • pulga bo'lgan munosabatlarda, ya'ni ota onaning topgan maoshlari, olib bergan kiyim-kechaklarining qadriga yetish; • oziq-ovqatni isrof qilmaslik, tejamkorlik; • mehnat qilish, mehnatdan zavqlanish. Mana shu davrda ularda dastlabki iqtisodiy tasavvurlar paydo bo'ladi. Shuni alohida tahkidlash joizki, yosh bolalar oilada sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga tabiatan tez moslashuvchan bo'ladilar. Demak, yoshlikdan to'g'ri yo'naltirilgan tarbiya, kelajakda o'sib kelayotgan yosh bolaning har tomonlama kamol topishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Unda tabiat bergan fazilatlar asosida tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob kabi xislatlarga tamal toshi oilada qo'yiladi. Keyinchalik u umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, qolaversa, oliy ta'limda ham rivojlantiriladi. Bola tarbiyasi va uning natijasi ham shaxsiy, ham ijtimoiy manfaat, ahamiyat kasb etadi. Yaxshi tarbiya oila uchun quvonch, baxt saodat, ruhiy barkamollik, iqtisodiy boylik keltiribgina qolmay, jamiyat uchun ham foyda keltiradi va shu tufayli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Oila iqtisodiyoti, uning farovonligi oilada mehnatga layoqatli a'zolar mavjudligi, ularning tadbirkorligi, bilimi, iqtidoriga ko'p jihatdan bog'liq. Oila iqtisodi mehnat bilan topilgan mol-mulk hamda tejamkorlik yo'li bilan yig'ilgan moddiy ne'matlardan iborat bo'lgani sababli, ana shu ne'matlarni yaratishda iqtisodiy bilim muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy bilim shaxsning nafaqat o'zi va oilasiga, ayni paytda xalqning farovonligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bola tarbiyasi ota-onaning suhbat, bolalari bilan muloqotida, o'yin o'ynashida, unga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshadi, degan fikr mavjud. Lekin xo'jalik yuritishda qatnashish alohida ahamiyatga ega. Chunki nafaqat halol, yaxshi odam, balki kelajakda yaxshi xo'jalik yurituvchi inson tarbiyalashimiz zarur. Bola ota-onasini qayerda ishlashi, bu ishning qanday mashaqqatli ekani, qanday qilib muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini his qilishi, bilishi kerak. Umuman olganda, bola ota-onasi ishlab topayotgan pul hamma narsani olish uchun zarur narsa ekanligi bilan birga uni topish uchun ko'p mehnat qilish kerakligini ham bilishi kerak. Eng avvalo, bolalarni uy

yumushlari, uy xo`jaligidagi turli ishlarni bajarishga jalb etish kerak-ki, bu ularning ota-onalari mehnatlarining qadriga yetishlarida yordam beradi. Mehnatni qadrlashning muhim ko`rinishi tejamkorlikdir. Tejamkorlik jonkuyarlikning o`ziga xos jihati bo`lib, agar jonkuyarlik ko`proq insonning o`y-xayolida bo`lsa, tejamkorlik aynan uning odatida namoyon bo`ladi. Jonkuyar inson bo`lish, lekin shu bilan birga tejamkor bo`lmaslik mumkin. SHuning uchun yoshlikdan boshlab oilada ana shu fazilatni tarbiyalash kerak. Bu fazilat, eng avvalo, ovqatlanishdan boshlanadi. Ovqatni to`kmay, isrof qilmasdan yeyish, o`yinchoqlarni buzmay o`ynash, kiyimlarni iflos qilmaslikka odatlantirish lozim. Bolani tejamkorlik qilgani uchun rag`batlantirish lozim. Ularni nafaqat o`zini, balki boshqalarning narsalarini, ayniqsa, atrof-muhitni asrab-avaylashga o`rgatish zarur. Inson mehnati bilan ulug`, kishilik jamiyatining asl tarixi ham mehnatdan boshlangan. Bilimlarni egallash va hunar o`rganish uchun ham mehnat qilish zarur. Mehnatga tayyorlash, insonda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish nafaqat insonning kelajagi, qolaversa mamlakat kelajagini ham belgilaydi. Mehnat qilish faqat zaruriyatdan, muhtojlikda qolmaslik uchun harakatdangina iborat bo`lmay, u ijodiy bo`lishi, quvonch, qoniqish, g`ururlanishga olib kelishini his etish muhim ahamiyatga ega. Mehnatga o`rgatish tufayli nafaqat kasb-hunar egasi tarbiyalanadi, balki atrofdagi insonlar, narsalarga munosabat ham tarbiyalanadi. Mehnat insonning nafaqat jismonan, balki ruhiy, ma`naviy jihatdan rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Bolani mehnatga yoshligidan oilada o`rgatish kerak. Iqtisodiy faoliyatning asosini mehnat tashkil etar ekan, demak, mehnat iqtisodiy tarbiyaning ham asosidir. Bolaga dastlab oilada o`yinlar orqali o`yinchoqlarini buzmaslik, ozoda saqlash, tartibga solish kabilar o`rgatilsa, keyinchalik u uy xo`jaligidagi mavjud ishlarni bajarishda yordamlashish, hovli supurish, suv keltirish, changlarni artish, pol yuvish, idish-tovoqlar yuvish, uy hayvonlariga qarash va hokazolar orqali mehnatga jalb qilinadi. Shaharga qaraganda qishloq joylarda bolalarni mehnat bilan band qilish yo`llari ko`p bo`lsa-da, har bir oila qaerda yashashidan qatiiy nazar, bolalarni mehnat bilan band qilish uchun ular bajaradigan ishlarni yetarli darajada topish mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash mumkinki, oila – qarindoshchilik aloqalari, qondoshchilik his-tuyg`ulari orqali bog`langan inson (individd)larning ijtimoiy,

ma'naviy, ruhiy, iqtisodiy ehtiyojlarini birgalikda qondiruvchi kichik guruhi. Oilaning jamiyatda tutgan o'rnini u bajaradigan vazifalarda namoyon bo'ladi. Oila daromadi – oilaning daromadlari va xarajatlarning (smetasi) balansi oilaning o'z vazifalarini bajarishni moliyaviy ta'minlash maqsadida pul mablag'larini to'plash va sarflashning muvozanatidir. Ota-onalar farzandlariga buni tushuntirishlari, ularga oila daromadlari va xarajatlari haqida tushuncha berib borishlari taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarsenbayeva R.M. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: TMI, 2015.
2. Tojiboyeva D. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2007. –242-b.

БОЛАЛАРДА ЖАҲЛИ ТЕЗЛИК ВА УНИ ЙЎҚОТИШ ЙЎЛЛАРИ

*To'rayeva Zohidaxon Saydaxmadovna
Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Жаҳл бошқа эмоциялар сингари инсоннинг атроф муҳитга мослашиш вазифасини бажаради. Жаҳл одамларда ҳам, ҳайвонларда ҳам маълум мақсадга етишиш йўлида пайдо бўладиган тўсиқларни енгиш учун керак бўлади. Шунинг учун жаҳлни ҳамини ҳам касаллик деб қараш нотўғри. Жаҳл – маълум вазият тақозоси билан пайдо бўладиган ҳаракат ва шунинг учун ўша вазиятдан инсон чиқмас экан, унда жаҳл сақланиб қолаверади. Агар жаҳл маълум вазиятда эмас, доимий сақланиб қолса, буни энди соғломлик деб бўлмайди. Бу маълум маънода ўз-ўзини бошқариш механизмининг бузилганлигидан далолат беради.

Б.Спокнинг фикрича, куйидагилар нормал ҳолат ҳисобланади: бир ёшга кирган бола онаси қилган нохуш ҳаракатга қаршилик кўрсатса; - икки яшар боланинг ўзга болани уриши; агар унинг бирор нарсасини тортиб олишсалар ва ҳ.к. Мазкур жаҳлдор ҳаракатлар маълум вазиятлардан келиб чиқаяпти. Бироқ улар касаллик чегарасига ҳам ўтиб қолиши мумкин. Ҳар қандай бузилиш ўз ибтидосини маълум вазиятдан олиши мумкин.

Нормал жаҳл ҳолатининг касаллик ҳолатига ўтиб қолиш шартлари қуйидагилар:

Ота-оналарнинг доимий жаҳлли ҳатти-ҳаракатлари. Бундай ҳулққа болалар тақлид қиладилар, беихтиёр ўша жаҳлни ўзларига юқтирадилар. Бу ҳодисанинг психологик механизми қуйидагича: боланинг эмоционал ўз-ўзини бошқариш типига мослашади;

- болага ота-она муҳаббатининг берилмаслиги. Бу нарса болада ҳимоясизлик туйғусини шакллантиради, атрофдагиларга нисбатан шафқатсизликни пайдо қилади;

- ота-она томонидан боланинг ҳақорат қилинишини ва камситилиши. Бу тарбиядаги хусусий ҳол бўлиши мумкин, бироқ бола шахси ривожига бу нарса ўта муҳим аҳамият касб этади;

- икки йўлдан бирини танлаш ҳолатини болада тез-тез пайдо қилиш. Бола қай томонни танлашга қийналади. Агар нотўғри қуйилган қадам учун жазо оладиган бўлса, жаҳл касалликка айланиб кетиши мумкин.

Бундай ота-оналар билан ишлаш жуда мураккаб, чунки жаҳлдор боласи бор ота-она одатда унга нисбатан ўзларида адоват туйғусини ҳис қилади ва улар психолог-консультантга ёрдам учун эмас, балки уни тинчлантириб қўйиш учун мурожаат қилишади. Уларга қолса болани тинчлантирувчи битта дори беришсаларда, бола бирданига жаҳлидан тушиб қолса. Улар билишмайдиларки, боладаги жаҳлнинг илдизлари уларнинг турмуш тарзларига бориб тақалади. Аксарият ҳолларда ўша ота-оналарнинг ўзлари ёшлигида сержаҳл бўлган бўлишадилар. Улар ўзларидаги психологик ҳолатларини ўз фарзандларига узатишади. Шунинг учун психолог одатда илк ишини жаҳли тез боланинг ота-оналаридан бошламоғи керак.

Биринчидан, улар билан ишлаганда уларнинг ўз-ўзини баҳолашига салбий таъсир кўрсатиб қўйишдан эҳтиёт бўлиш керак. (Сиз ўз болангизни яхши билмайсиз, мен сизга ўргатиб қўяман қабилидаги гаплар уларнинг шахсиятига тегиши мумкин). Аксинча, уларни ўз фарзандларини янада билишликка чорлаш лозим.

Иккинчидан, ота-онанинг болага бўлган муносабатини ўзгартириш зарур. Улар сержаҳл боласини ношукурликда айблашадилар. Улар болани тергаганларида, уришганларида болалари кечирим сўрашларини, айбдор эканлигини айтишини кутишади. Бола бу ишни қилмаганлигини кўргач, уларнинг жаҳли чиқади ва болани беодобликда бузилиб кетганликда айблашади. Иложи бориша, ота-оналарда ўз болаларига нисбатан раҳм-шафқат туйғусини уйғотиш керак. Сержаҳл бола-бу аввалом бор бахтсиз бола эканлигини уларга уқдириш керак. Ота-оналарга жаҳлнинг пайдо бўлиш механизмини, жаҳлитезлик боланинг эмоционал жиҳатдан касалланиши эканлигини тушунтириш лозим.

Учинчидан, ота-оналарнинг ўз болаликлари ҳақидаги хотираларини тиклаш керак. Ўзларининг ҳам қилган жаҳлли хулқ-атворининг сабабларини биргаликда муҳокама қилиш зарур. Эҳтимол, бу нарса бола билан ота-оналар ўртасидаги муомаланинг шахсий сабабларини очишга ёрдам берар ва шу йўл билан психологик ёрдам олар.

Тўртинчидан, ота-онанинг болага туғилгунча ва туғилгандан кейинги биринчи ойлардаги муносабатини аниқлаб олиш зарур. Агар бола бошиданоқ исталмаган бўлса (балки бола тасодифан ёки мажбурликдан туғилгандир), ота-она билан ҳамкорликда аниқ бир қарорга келиш зарур. Масалан, бола исталмаган бўлса-да, ҳар қалай унга ғамхўрлик кўрсатиш зарурлиги уқтирилиши даркор.

Сержаҳл хатти-ҳаркатни ёмон деб бўлмайди. Кутилмаган вазиятларда у ҳимоя вазифасини бажаради, баъзида маълум вазиятдан чиқишга хизмат қилади. Жаҳлитезлик болаларда аксарият ҳолларда кузатилади. Ўтиш босқичлари – бу ижтимоий муаммолар билан пайдо бўладиган кризислар бўлиб, инсон ҳаётининг турли босқичларида кузатилади. Америкалик психолог Э.Эриксон инсон ҳаётида 8 та кризисни фарқлайди. Булар қуйидагилар:

1) Биринчи кризисни бола умрининг биринчи йилида бошидан кечиради. Бу бола физиологик эҳтиёжларнинг қондирилиши билан боғлиқ. Агар яхши қондирилмаса, болада атрофдагиларга ишончсизлик пайдо бўлади.

2) Иккинчи кризис боланинг тозалikka ўргатиш пайтига тўғри келади. Агар болага қатъий ташқи назорат ўрнатилса, унда уят ва шубҳа пайдо бўлади.

3) Учинчи кризис иккинчи болалик даврига тўғри келади. Бунда бола мустақил фаолият кўрсата бошлайди. Агар унинг омадсизлигини ҳадеб рўқач қилинса, унда айбдорлик туйғуси шаклланади.

4) Тўртинчи кризис мактаб ёшида содир бўлади. Мактабдаги муҳитга мослаша олмаган ўқувчида ўзига ишончсизлик туйғуси пайдо бўлади.

5) Бешинчи кризис ўсмирларда кузатилади. Ундаги биологик етилиш билан социал жихатдан етилмаганлик ўртасидаги зиддият бу кризисни келтириб чиқаради.

6) Олтинчи кризис ёш йигит-қизларда кузатилади. Бунда айрим ёшларда изоляция яъни ўз-ўзи билан бўлиш кузатилади.

7) Еттинчи кризис 40 ёшда кузатилади. Унда ҳам оилавий муносабатларда турғунлик кузатилади.

8) Саккизинчи кризис қариликда содир бўлади. У ўлимдан кўрқиш ва янгидан ҳаёт бошлай олмаслигидан надомат туйғуси билан характерланади.

Шу 8 та кризиснинг ҳар биридаги салбий ҳолатлар одамда жаҳлни чиқаради ва у хулқ-атворига таъсир қилади. Жаҳлитезликни таҳлил қилганда албатта бу психосоциал кризисларни ҳисобга олмоқ лозим.

Бола хулқ-атворидаги сержаҳллик улар билан муносабатни қийинлаштирса ҳам жаҳлни мутлақо салбий сифат деб баҳолаш нотўғри. Унутмаслик керакки, боладаги фаолликнинг ошиши унинг бўлиши мумкин. Агар махсус тузатиш ишларини олиб борилса, унда атрофдагилар билан нормал муомала пайдо бўлади.

Боладаги жаҳлни тузатиш ишлари уни келтириб чиқарган сабабларни аниқлашдан бошланади. Агар жаҳл боланинг эмоционал – мотивацион оламидаги бузилиш бўлмаса, унда ишлар жаҳлни олиб ташлаш йўлидан эмас, балки бола хулқ-атворидаги жаҳлни юмшатиш, болага яхши томондан таъсир қилиш ишларини олиб бориш талаб қилинади. Бундан ташқари, ота-оналарни боладаги ўзгаришларга тайёрлаш керак.

Ўзга ҳолатда, агар жаҳлитезлик бола шахсининг эмоционал – мотивацион соҳасидаги бузилиш бўлса уни бола хулқ-атворидан йўқотиш йўлидан бормок лозим.

Жаҳли тезликни йўқотиш йўлида қўлланиладиган психокоррекцион усуллар уни келтириб чиқарган сабабларнинг характериға боғлиқ. Коррекцион методларни танлашда конкрет ҳодисадан ва конкрет боладан келиб чиққан ҳолда танлаш керак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Е.И.Рогов. Настольная книга практического в образовании. М.“Владос” 1996.
2. Ж.Годфруа. Что такое психология. Том 2. М. “Мир” 1992

BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHDA DASTLABKI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Toshmatova Zilolaxon Abdusattarovna

Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang‘ich sinfi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta‘lim tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boyicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishda ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka‘bi vazifalar belgilangan [1].

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o‘qituvchi va murabbiylarimizning hissasi beqiyos ekanini ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, o‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi.

Mazkur tasavvurning realligini ta’minlashda o‘qituvchining katta o‘rni bor. Negaki, o‘qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go‘yoki bir “sehrGAR”, tengsiz murabbiydir.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo‘lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo‘lgan shaxs xislatlari bor, bular:

- Mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
- mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
- o‘z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish;
- ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo‘lish;
- toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasini o‘quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim [2, b. 6].

O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar:

- kognitiv (axborotga ega ekanligi);
- kasbga qiziqish mezon;
- amaliy mezon [3, b. 46].

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir o‘sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘prok o‘z ifodasini topadi va namoyon bo‘ladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan.

O'qituvchining vazifasi — o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [2, b. 9].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin [2, b. 12-14].

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o'qitirib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo'naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir.

Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo'naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o'quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- kasbga yo'naltirishda yakka tartibda ishlashga e'tibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;
- turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo'naltirish;
- turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- madaniy tadbirlar tashkil etish;
- kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, o'quvchilarni o'z vaqtida to'g'ri kasbga yo'naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. — 21 b.
2. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASI XUSUSIYATLARI

Abdurahmonova Munosib Abdurashitovna

Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hozirgi davr talabi ma'naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo'lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma'naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Ta'limning sifatli tashkil qilinishi o'quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan,

o`quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o`rganilgan hamda ko`pgina tadqiqotlar o`tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo`yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib borishi xususida ma`lumotlar olishimiz mumkin. Umumiy psixologiya darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko`pgina ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining pedagogik jarayondagi ahamiyati, o`qituvchi hamda o`quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta`lim jarayoniga ta`siri hususiyatlari o`rganilgan.

Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari, xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma`lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo`yicha o`tkazilishi mumkin bo`lgan turli yosh davrlari bilan bog`liq holda metodikalar majmuyi mavjud.

Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to`xtalganimizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarga guvoh bo`lamiz. Ularning har qaysisi o`z nuqta`i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o`tmoqdalar. Demak, bundan ko`rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi.

Shu o`rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog`liq ekanligi haqida to`xtalib o`tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o`zimizga kerak bo`lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba`zan xafa yoki ba`zan jig`ibiyron bo`lamiz va o`zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jummalarni aytamiz. Biroq unutmasligimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni

ko`rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to`laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o`rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ma`lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma`lum bir sharoitda qayta namoyon bo`luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirga va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni yanggi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g`oyaviy yo`nalishi kata o`rin egallaydi. Ko`pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta`riflanadi: “Individning o`z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi”

Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo`lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyani har xil mezonlar bilan o`lchashda o`z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog`liq tadqiqotlarda markaziy o`rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo`nalishda o`rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog`liq bo`lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi.

Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo`lishi shaklida o`rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta`riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo`lib, subyektlarning oldiga qo`yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta`siri ostida o`zgartirish mumkin.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo`lib oliy ruhiy jarayon bo`lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirga va keng ko`lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo`nalishini ishlab chiqdi. German Ebbingauz o`z “sof” xotira qonunlarini o`rganish imkonini beruvchi, boshqacha so`z bilan aytganda tafakkurga bog`liq bo`lmagan holda izlarning esda qolish jarayonini tadqiq etishning

yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub materialni esda olib qolishning egri chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratdi.

Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o'z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan.

A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qoling materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta'kidlagan. Kata yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. Shuningdek ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Nemis psixologiyasida ham xotira bo'yicha turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, jumladan psixolog Vilyam Shtern bolalarda ham kattalarda ham ma'nosiga qarab tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash miqdori kam miqdor ekanligini ilmiy ishlari davomida aniqlab shu xulosaga kelgan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo'lmish xotiraning kuchli bo'lishi va ko'lamining kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki

voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qolingani narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o`qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi eslab qolish ustida ko`plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qolingani materialni tushunish oson bo`ladi.

Adabiyotlar:

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
2. Ibdullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;
3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014;
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya// Toshkent, 2010.

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA ROSTGO`YLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Gulshanoy Kozimjonovna

Namangan viloyati Norin tumani 24-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: Bizga ma`lumki, boshlang`ich sinf o`quvchilari ertak o`qishni,ertak eshitishni yaxshi ko`radi.Ertak o`qish darslarining muhim vazifalari darsni qanday tashkil etish kerak,nazmiy va nasriy usulda berilgan ertaklar o`qilishi haqida o`qituvchi qisqacha ma`lumot ham berib o`tish kerak.Xulosa qilib aytganda,ushbu maqola orqali boshlang`ich sinf o`quvchilari qanday usul va metod bilan o`quvchilarni ertakni ifodali o`qishga ,u orqali rostgo`ylikka o`rgatish haqida nazariy ,amaliy-uslubiy ma`lumotlarni berib o`tish joiz deb topdik.

**Kalit so`zlar:** milliy qadriyat,an`ana ,Vatanga muhabbat,tarbiya, rostgo`ylik pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, ularni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish, insonparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish bevosita ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Bola maktabga qadam qo'ygan ilk kunlarda o'quvchi qarshisida yangi dunyo, rang-barang va jozibali o'quv predmetlari turadi. Ularning o'z yurtinig haqiqiy egasi qilib, yurtimiz taqdiri va taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir shaxslar qilib tarbiyalash biz o'qituvchilarning o'z oldimizga qo'ygan ustuvor vazifalarimizdir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoyev Miromonovich "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" bandida qayd etilganidek,jismonan ,sog'lom va ruhan ,mustaqil fikrlaydigan ,Vatanga sodiq ,qat'iy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ,demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularni ijtimoiy faolligini oshirish"dan iboratdir.1

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertaklar orqali rostgo'ylikka o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'rta ta'limning boshlan'ich sinflarida o'qish fani o'quvchilarni ongli ,to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan bir qatorda, ularda kitobxonlik va nutq madaniyatlarini oshirish, fikrlab berilgan hikoya va ertaklardan ,she'rdan o'zi uchun ibratli xulosa chiqarishga o'rgatadi. Dunyoqarashini kengaytirib, har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi

"Rostgo'y bola "ertagida podsho o'ziga merosxo'r tanlab olish maqsadida vaziriga barcha bolalarga gul urug'lari tarqatishni buyuradi. Oradan vaqt o'tib, gullarni ko'rish uchun shahar aylangani chiqadi va ko'zi bir chekkada gulsiz tuvak ushlab turgan bolaga tushadi. Bola gul unib chiqmaganini aytib, yig'laydi. Podsho esa, aynan shu yigitni o'ziga farzand etib

tayinlaydi. Chunki, gul urug`lari qaynatilgan edi. 2 Bundan o`quvchilar rostrgo`ylik hislatini yanada rivojlantirib boradi.

Inson faoliyatida ma`naviyat 1-darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo uni ilmsiz shakllantirib bo`lmaydi. Ilm inson uchun muqaddas fazilatlardan biridir. Ilm tufayli inson ona yurtning taraqqiyotiga ko`mak beradi. Yuqoridagi ertak ham yomon xulq-atvordan, jaholat qorong`uligidan saqlab, yaxshi xulq sohibi qiladi, insoniy fazilatlarini kamol toptiradi.

Ertak qahramonlarini tasvirlashda kichik yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalardan foydalanishda, so`z boyligi chegaralangan bo`ladi. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to`g`rilik, mehnatsevarlik, rostgo`ylik, yaxshilik tushunchalarini ko`p ishlatadi. O`qituvchining vazifasi o`quvchilar bilan ertakni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy intellektual, emotsional sifatlarni tasvirlovchi so`zlarni iritishdan iboratdir.

Qahramonlarning harakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda ertak qahramonlarining axloqiy sifatlari haqida ko`proq ishlash lozim.

O`zbek xalq ertaklari o`qituvchilarga bolalarni axloqan, ma`naviy jihatdan tarbiyalashda juda katta yordam beradi. Ertakni o`qib yoki aytib berayotganda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va shu ertak qahramoni tasvirlangan rasmlardan foydalanish kerak. bu orqali bola o`qishni bilmagan taqdirda ham, rasmi orqali ertaklarni nomini ajratib oladigan malakaga ega bo`ladi.

“Rostgo`y bola” ertagi ham ijobiy harakteri bilan bolalarga namuna bo`lib xizmar qiladi. “Zumrad va Qimmat “ertagini o`qib berib, so`ng so`raydigan bo`lsak, Zumradning mehnatsevarligini, Qimmatning axloqi yomonligini, yalqovligini aytadi.

Hozirgi zamon pedagogik texnologiyalar umumiy o`rta ta`lim maktablarida keng qo`llaniladi. Ya`ni kompyuter texnologiyalaridan foydalanmoqda. Foydali

tomoni ertak kitoblarini hoхlaganini tppish va professional aktyorlar tomonidan ijro etilgani bo`lsa, salbiy tomoni bola kompyuter monitori oldida uzoq vaqt o`tirishi mumkin emas.Oddiy ertaklarni har doim ham o`qish mumkin,lekin kompyuterdagi ertaklarni albatta,kattalar yordamida o`qish kerak.

Xalqimizda “Ta`lim –tarbiya beshikdan boshlanadi” - degan hikmatli gap bor.Faqat ma`rifatli insonni kamolga ,jamiyatni taraqqiyotiga yetaklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ilm-ma`rifat va texnologiyalar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratdi:”Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm,eng katta meros –yaxshi tarbiya,eng katta qashshoqlik bu ilmsizlikdir”.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak,yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq og`zaki ijodi bilan tanishtirish, nafosat va go`zallikka intilishi, uni his etishi va bu jarayondan zavqlanishi milliy badiiy qadriyatlarni va o`zidan keyingi avlodga uni yetkazish uchun ma`sul ekanini his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.

2.www. ziyo uz kutubxonasi

3.T.G`affarova ,E. Shodmonov,G.Eshturdiyeva 1-sinf o`qish kitobi

4.O`zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2017-yil 7-fevraldagi O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risidag”gi Farmoni.www.uza.uz

5. Jumaboyeva M. Umumiy o`rta ta`limda kasbga yo`naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo`jaligi instituti, 2014. 21 b.

6. Mardanov D. Maktabda kasbga yo`naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.

BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINING MAKTABGA MOSLASHUVIDA EMOTSIONAL – IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRUVCHI KORREKSION MASHG'ULOTLAR

Umarova Mohira Qodir qizi

Namangan viloyati Norin tumani 31- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisiy

Maktabga moslashish – bu har bir 1- sinf o'quvchisi o'z hayotida boshdan kechiradigan va tushunadigan yangi maktab sharoitlariga ko'nikish jarayonidir. Bola maktabga borgan paytidan boshlab, moslashishi jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Bolalar maktabga moslashishi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab amaliyotchi – psixologlari hamda ota – onalar uchun kuch va vaqt kerak bo'ladi. Bolaning maktabga moslashish jarayoni 2 – 3 haftadan olti oygacha davom etadi. Bu ko'pgina omillarga bog'liq: bolaning individual xususiyatlari, o'quv muassasasi turi, o'quv dasturining murakkabligi darajasi, bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, boshlang'ich ta'lim davri maktabga kelgan barcha bolalar uchun yetarlicha qiyin. O'quv jarayonining birinchi haftalari va oylarida 1 – sinf o'quvchisining tanasi uchun ortib borayotgan talablarga javoban, bolalarda charchoq, bosh og'rig'I, uyqusizlik kabi shikoyatlar paydo bo'lishi mumkin. Bolalarning ishtahasi va tana vazni kamayadi. Shuningdek, psixologik qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, qo'rquv hissi, tortinchoqlik, kamgaplik hamda o'qishga nisbatan salbiy munosabat kabi.

Birinchi sinf o'quvchisi uchun eng muhim narsa o'qituvchi bilan aloqa o'rnatishdir. Zero, birinchi muallimning shaxsi uning kelgusidagi maktab hayotiga, maktabga bo'lgan munosabatiga aniqlik kiritadi. Shu sabab, to'g'ri tarbiyalash sizning birinchi sinf o'quvchilaringizga maktabga tezda moslashishga yordam beradigan bir nechta korreksion – rivojlantiruvchi mashg'ulotlar mavjud.

Ushbu mashg'ulotlarning maqsadi:

- Bolalarning psixik taraqqiyotiga ta'sir etuvchi salbiy hissiy faktorlarni bartaraf etishga o'rgatish;
- Hissiy – irodaviy sferasini rivojlantirish;

- O'qishga tez moslashishini shakllantirish;
- O'z – o'ziga bahoni oshirish;
- Yomon xatti – harakatlardan muhofaza qilish;

Mahg'ulotlar strukturasi:

- Muammolarni muhokama qilish;
- Bolalarni o'ylantirayotgan mavzularda suhbatlashish;
- O'z muammolarini chiza olish va ularni bartaraf etishga o'rgatish;
- O'z – o'ziga yordam bera olishni shakllantirish, irodaviy o'z – o'zini tarbiyalash,

relaksatsiya, enerjayerlar.

Mashg'ulotlar 30 daqiqadan 40 daqiqagacha davom etishi mumkin.

1 – mashg'ulot

Maqsad: bolalarda himoya mexanizmlarini aniqlash, rasm chizish orqali salbiy emotsiyalarini bartaraf etishga o'rgatish.

1. Suhbat. Mavzu: Qachon men o'zimni yomon his etaman?

- Inson qalban qachon o'zini yomon his etadi? (hayajon, g'azab, tushunmovchilik, alam va boshqalar)

- Eslab ko'ring, qachon o'zingizni yomon his etgansiz? Shunday paytlari nima qilgingiz kelgan?

- O'zingizni yaxshi his qilish uchun nimalar qilasiz?

Trener: Barcha insonlar shunday vaziyatga tushishlarini va bundan chiqish avvalom o'zi boshqalarga zarar qilmaslik kerak ekanligini unutmaslik lozimligini uqtirish.

2. Do'stimdan xat.

Bolalarga ularning tengdoshi yuborgan xat o'qib beriladi.

“Aziz do'stim! Sen o'zingni yomon his qilganingda va noxushliklaringda nima qilish kerakligini aytishni istayman. Bilasanmi, bunday hollarda men rasm chizaman.

Agar:

- seni qo'rquvlar qiynasa, ularning rasmini chiz va qora qalam bilan ustidan chizib tashla;

- seni hafa qilgan odamning rasmini bilganingcha chiz va barcha aytmoqchi bo'lgan gaplaringni shu rasmga ayt;

- rasm chizib fantaziya qil, o'z orzularingni chiz.

2 – mashg'ulot

Maqsad: Inson psixikasini shikastlovchi vaziyatlarni yengishni, xatti – harakatlarni irodaviy boshqarish yo'llarini o'rgatish.

1. Suhbat. Mavzu: Qachon va nima uchun uyalaman?

Trener bolalardan uyat bu qanday his ekanligini so'raydi.

- Nima uchun biz uyalamiz?
- Uyat nimaga o'xshaydi?
- Uning rangini aniqlay olasizmi?
- O'zingiz uyalganingizda nimalarni his etasiz?
- Shunday paytlarda nima qilish kerak?
- Uyalish kerakmi?

2. Rasm chizish. Mavzu: Mening uyatim.

Trener bolalarga uyatni qanday ifodalashimiz mumkinligini, uning rangini ifodalashni so'raydi. Rasm mazmuniga ko'ra suhbat amalga oshiriladi.

3 – mashg'ulot

Maqsad: Irodaviy o'zini boshqarishni rivojlantirish, relaksatsiya qilishga o'rgatish, o'z – o'zini boshqarishni shakllantirish.

1. Suhbat. Mavzu: Ayb ish qilganimizda o'zimizni qanday tutishimiz kerak?

Trener: Bolalar ba'zida biz nojo'ya xatti – harakatlar qilib qo'yamiz va u Atrofimizdagilarni hafa bo'lishiga yoki ranjishiga olib keladi. Ba'zan biz ularni hafa qilmaslik yoki o'zimizni oqlash maqsadida yolg'on gapiramiz va natijada vijdonimiz azoblanadi. Aybga iqrор bo'lish har doim ham yengil emas. Aytingchi?

- Insonni o'z aybiga iqrор bo'lishiga nima xalaqit beradi?(jazolanish, ishonchni yòqotish, sevgi, hurmat va h.k)
- Aybga iqrор bo'lish bo'lish nima qilish kerak?(irodaga zo'r berish, qo'rquvni yengish)

Quyidagi hikmatli so'zlarni qanday tushunasiz?

1. Aybini yashirsang istimasi oshkor qiladi.

2. Shirin yolg'ondan achchiq rost yaxshi.

2. Rasm chizish. Mavzu: Quvonch.

Trener: bolalarga quvongan paytlarida qanday ranglar ko'z oldilarida namoyon bo'lishini chizib berishlarini so'raydi. Shundan so'ng, ranglar muhokamasi amalga oshiriladi.

4 – mashg'ulot

Maqsad: Bolalarda qo'rquv, o'zini aybdor his qilish hissini yengishga o'rgatish, o'zini himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish, biquqlikni yengishga o'rgatish.

Rasm chizish. Mavzu: Mening kayfiyatim.

Trener rangli bo'yoqlar yordamida o'zlarining yaxshi kayfiyatlarini chizishni taklif etadi. Söng rasmlar muhokama qilinadi.

1. “Gullar ifori” o'yini.

Turli gullar rasmlari bolalarga tarqatilib, kimga qanday gul tekkan bo'lsa uning iforini ifodalab berish taklif qilinadi.

Trener: Aytingchi, bu gullar sizda qanday kayfiyatni yuzaga keltirdi?

Kattalar uchun yo'llanma. Bolalar gullarni ifodalayotganlarida hissiyotlariga e'tibor bering. O'yin tugagach, bolalardan ularning kayfiyati yaxshilanganligi haqida fikr bildirish so'raladi. Quyidagi maslahatlar beriladi. “Kayfiyatingizni buzishgan bo'lishsa, yoting, o'zingizni bo'sh qo'ying va gullar to'la keng bog'ni tasavvur qiling. Ularni isidan hidlang va ko'rayotgan narsalaringizdan bahra oling.”

5 – mashg'ulot

Maqsad: Bolalarning qilayotgan ishlariga javob berishga o'rgatish, salbiy vaziyatlardan o'zi uchun ijobiy jihatlarni topishga harakat qilish.

1. O'yin.

Bolalar doira shaklida turib oladilar. Trainer ularga ko'ptokni otib “Men hafa qilmayman...” gapini tugatishini aytadi tugatishini aytadi. Masalan: “Men ustozimni hafa qilmayman va h.k”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.F. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). – T.:O'qituvchi,1994.

2. Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Ped. Institutlarning talabalari uchun o'quv qo'llanma.tuzuvchi: A.I. Sherbakov tahriri ostida. – T.: “O'qituvchi”, 1991.
3. G'oziyev E.F. Umumiy psixologiya.T.: 1995

FANLARNI O'ZLASHTIRISHI PAST BO'LGAN O'QUVCHI YOSHLARDA MUAMMOLARNING SABABLARI VA ULARGA YORDAM KO'RSATISH

Toshmatova Sarvinoz Abduqaxorovna

Namangan viloyati Norin tumani 31-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'zbek zaminida farzand tarbiyasi jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida azal-azaldan muqaddas sanaladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O’zining qadr-qiymatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotga aniq maqsadga ega bo’lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz.” deb ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham barkamol shaxs tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bolalarimizni birovlarining qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalahimiz lozim.”

Har tomonlama yetuk sog'lom mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang'ich sinflarda beriladigan ta'lim va tarbiyaning roli beqiyosdir.Chunki o'quvchi oladigan bilimlari ,ko'nikma va malakalariga asos xuddi shu boshlang'ich sinflarda qo'yiladi.Har bir sinflarda 3-4 tadan bo'lsada, o'zlashtirmovchi o'quvchilar mavjud.Bunday o'quvchilarni bilish jarayonlari orqada qolibgina qolmay, bevosita sinfdoshlarining ham o'zlashtirihiga bilim asoslarini egallashiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.Xuddi shu bois boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va uni korreksiya qilish pedagogik va yosh psixologiyasidagi doizarb muammolardan biridir.Har bir alohida

olingan o'zlashtirishning vujudga kelish tarixi har xildir, bu shaxsning individual xususiyatlari va atrofida yashovchi munosabatlarining xususiyatlariga bog'liqdir. Shu bilan birga o'zlashtirmovchi o'quvchilarning ma'lum tiplarini ajratish mumkin. P.P. Blonskiy "Qiyin o'quvchilar" asarida psixik va jismoniy tayyorgarlik turli xususiyatlarning birikuvchi xarakterga bog'liq ravishda o'zlashtirmovchi o'quvchilarni quyidagi tiplarga ajratgan. P.P. Blonskiy o'zlashtirmovchi o'quvchilarni tavsiflaganda birinchi o'rinda jismoniy sog'likka katta e'tibor beradi. O'quvchi sog'lig'iga bog'liq quyi ishchanlik qobiliyati, o'zini to'g'ri tashkil etish olmaslik "ishlay olmaslik" o'qishga qiziqishning yo'qligi, o'quvchilarni bo'sh rivojlanganligi.

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun eng avvalo o'zini kuchsiz boshqarish, o'z psixik jarayonlari (diqqat, xotirasini) boshqara olmaslik, o'quv ishining oqilona usullari shakllanmaganligi, o'quv masalalarini yechishda o'ylashni istamaslik, bilimlarni shartli o'zlashtirish xos. Bunday o'quvchilar aqliy ishdan qochishga intilib, faol fikrlash zaruratidan ularni xalos qiladigan har xil aylanma yo'llarni izlaydilar.

Bolada vujudga kelishi mumkin bo'lgan qinyinchiliklarni o'qituvchi asosan o'zlashtirish bilan belgilaydi. Bunda bolalar bir xil baholanadi: a'lochi demak yaxshi o'quvchi, ikkinchi-yomon o'quvchi. Bunday o'quvchiga qo'llaniladigan choralar ham bir xil. Bolaning ota-onasi maktabga chaqirilib, farzandi bilan shug'ullanmayotgani haqida ma'lumot beradi. Yoki o'qituvchi oqibatini o'ylamasdan, o'quvchini butun sinf oldida baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar o'quvchilar o'zlashtirishini uning dangasaligi, tarbiyasizligi, ishyoqmasligi bilan bog'laydilar. Ko'p kasal bo'luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o'qishga qobiliyatlari kamayadi. Bunday bolalar bilan individual shug'ullanmasa tez orada ular o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar qatoriga kiradilar.

Biron narsadan qo'rqqan bolalarga asabiylashish alomatlari –duduqlanish, enurez va boshqalar paydo bo'ladi. Bunday bolalar bilan ham o'qituvchi maxsus shug'ullanmasa, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar soni ortishi mumkin. O'quvchilar o'zlashtirishining sabablaridan biri bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi bilan ko'pincha bog'liq. Turli mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirish 50% psixik

taraqqiyotga orqada qolish bilan, 24% xulq-atvorning buzilishi, 4% aqliy yetishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pincha o'qituvchilar o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadilar. Bunda ular darsda o'tilgan materiallarni qaytarish, bir mashqni bir necha marta yozdirish bilan chegaralanadilar. Bunda bola nimada xato qilayotganiga e'tibor berilmaydi.

Ko'pincha o'qituvchilar sababini tushunmasdan o'zlashtirmovchi o'quvchilarni “qobilyatsizlar”, “aqli yetishmaydiganlar” safiga kiritib qo'yadilar. Tez orada o'qituvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchilarga e'tibor bermay qo'yadilar, sinfdan qolmasliklari uchun “uch” baho qo'yadilar.

Keyinchalik bunday o'quvchilarda maktabga nisbatan salbiy munosabat rivojlanadi, shaxs xarakteri potologik shakllanadi. Psixik taraqqiyotda vaqtinchalik orqada qoladigan bolalarga individual ishlashning mahsuldor usullari qo'llanilsa, umumta'lim maktabida bemalol o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatorida bo'ladilar.

Har qanday o'qituvchi shuni aniq idrok etadiki, yoshi teng tarbiyalanuvchilar bir-biridan nafaqat o'zlarining jadalligi bilan aynan bir xil topshiriqni bajarishdagi aqliy salohiyati yoki toliquvchanligi bilan ajralib turadi. Qaysidir o'quvchining “matonati” bir-ikki darsga yetadi, kimdir kun bo'yi intensiv ishlashi mumkin, boshqa bola esa birinchi darsdanoq diqqatini ob'yekt ustiga to'play olmaydi. Bola diqqatining ko'chuvchanligi va tarqoqligi uning darsni to'liq o'zlashtira olmasligiga olib keladi.

Xolerik-temperamentli bolalarning asab sistemasi turg'un emas, ularda tashqi ta'sirga javob berish faollikka nisbatan ustunroq.

Flegmatiklar og'ir –bosiqdirlar. Ishga jiddiylik bilan yondoshib uzoq va unumli mehnat qilishadi.

Sangviniklar odatda yuqori faollikka ega. Yangi ish ularni toliqtirmaydi.

Melanxoliklarda bu jarayon biroz qiyin kechadi. Chunki ularning oliy nerv faoliyati zaifroq. Ularda faollik deyarli sezilmaydi.

O'qituvchilar o'quvchilarning ishchanligini oshirish maqsadida oliy nerv faoliyati to'rtta tur tafovutini yodda tutishlari kerak.

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar asosiy psixik jarayonlar bo'lgan xotira va diqqat shakllanmaganligi kuzatiladi. Lekin tafakkurning rivojlanmaganligi o'quvchilarning bilimlarni past o'lashtirishiga asosiy sabab hisoblanadi. Masalan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar tanish bo'lgan matndagi so'zlar va sonlarni oson eslab qolishlari mumkin, lekin murakkabroq, ularni eslab qolish uchun mantiqiy xotira zarur bo'lgan, tafakkur jarayoni bilan uzviy bog'liq matnlarni eslab qolomaydilar.

O'quvchilarda o'quv faoliyatiga ijobiy motivasiya shakllanmaganligi past o'lashtirishning yana bir sababi bo'lishi mumkin. Motivasion sohaning shakllanmaganligi bilimlarning o'zlashtirishga salbiy ta'sir etib, natijada bola shaxsiga ma'naviy ziyon yetadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablari quyidagilardan iborat.

1. Oiladagi nosog'lom muhit. Ota-onalarning befarqligi.
2. Oilada har xil avlod yashashi.
3. Ota-onalarning ajralishi.
4. Ota-onalarning ish bilan bandligi.
5. Ota-onalarning bilim saviyasi pastligi va savodsizligi.

Tadqiqot natijalari o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablari asosan ota-onalarning befarqligi, farzandlarining uy vazifalarini bajarishini nazorat qilishga vaqt ajrata olmasligi, o'quvchilarni ko'p dars qoldirishi, ularda bilish jarayonlarini yetarli rivojlamaganligi ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytish kerakki, har bir pedagog o'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini va bu muammoni bartaraf etish mazmunini bilishi zarurdir. Bu jarayon samarali bo'lishi uchun ota-onalar bilan doimiy hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish va ularning o'zini ham bunga jalb etish kerak.

Adabiyotlar

1. Blonskiy P.P. Trudniye Shkolniki. - M. Rabotnik Prosvesheniya. 1930
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Bu kitobda : Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq. 1999. - B. 13

3.Nishonova Z.Alimova G. “Bolalar psixologiyasiva uni o’qitish metodikasi”
T.:2006y.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Xamraqulova Marxabo Sultonovna

Namangan viloyati Norin tumani 1- maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Ta’limga beriloyatgan katta e’tibor tufayli ta’lim-tarbiya sohalaridaham islohatlar va yangilanish jaroyonlari bo’lmoqda. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakillanip kelayotgan boshlang’ich sinflarda o’qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarini ta’lim jaroyanida mohirona tadbiq etaolishi, ta’limning yangidan yangi yo’l va usullarini izlash ilg’or pedagogik tajribalardanani jobiy foydalana olishi juda muhimdir. Chunki hozirgi texnika asrida bola ongi va tafakkuri kattalarga niabatan tezroq, jadalroq rivojlanmoqda. Maktab yoshiga yetmasdanoq telefon, kompyuter, planshet kabi elektron gadjetlarni o’zlashtirip olmoqdalar. Bu holatni e’tiborga olgan har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo’lib, zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishlari lozim.

Bola birinchi sinfga qadam qoygan ilk chog’ida brinchi ustoziga mexri bo’lakcha bo’ladi, bola uchun dunyoda eng blimdon, aqlli va qadrdon inson bu birinchi uztozi bo’ladi. Birinchi muallimini allomalarni ulug’lagandek ulug’laydi har bir so’zini tinglab, harbir gapini bajarishga oshiqadi. Oila a’zolaridan ham ulug’ ko’radilar lekin bu holat vaqt o’tgan sari o’zgarib boradi. Bola mukammal deb bilgan insonining oddiy telefon yoki komputerdan foydalana olmasligi bolada hayrat va uztozga nisbatan ishonchsizlik hisi paydo bo’lishiga olib keladi. Bola tarbiyasida va texnologiyalarni qo’llashda qolipga tushib olihs va o’zgarishlardan qochish o’qitiuvchining obro’si tushishiga sabab bo’ladi. O’zbek xalqi yosh avlodga ta’lim tarbiya berishda ko’p asrlar davomida qo’llagan usul va vositalar, shakillari o’ziga xo urf-odatları va an’analari,

ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Hozirgi kunda shu meroslardan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Bir metod va usulni harkuni qo'llash bolada zerikish, bezish kabi holatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabga kelayotgan bola har kuni yangidan yangi o'yin, texnologiya va metodlarni ko'rsa darsni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Yosh avlod erkin fikirlaydigan, o'z mulohazalarini ochiq bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabulqilaoladigan va ularning shu hislatlarini rivojlantiradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Har kuni bitta parta va bitta partadosh emas tanlash imkoniyati va hohishiga qarab joylashishi bolaning ruhiyatigaham ijobiy ta'sir qiladi.

Dehqon dalaga urug' qadashdan oldin yerga ishlov berip tayyorlab olganidekpedagoklarham bolaga bilim berishdan oldin uning ruhiy holati haqida bilimga ega bo'lishi lozim. Buyuk bobomiz Ibn Sino aytgnidek "bola darsdan darsga o'tganda huddi turli bog'ni kezgandek, turli gullar hidlagandek bo'lsin". Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolaga huddi shunday holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchi birxillikda o'zining turli hislarlarini ochib beraolmaydi. Darsda bir og'izham gapirmaydigan o'quvchi tanafus chog'ida bul-buldek sayrab, burro burro gaplar tuzip she'r va latiflar aytadi.

Har bir alohida dars darslar zanjirining bir bo'g'inini tashkil qiladi. Dars ma'lum tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Dars strukturasi deganda darsning asosiy komponentlarining maqsadli ketma – ketligi, o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Dars strukturasi zamonaviy talqini barcha qismlarning egiluvchanligi, mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib turli bog'lanishi va ketma – ketligini nazarda tutadi. Interfaol darsning strukturasi 5 asosiy elementdan tarkib topadi: Motivatsiya (vaqtning5%) Maqsad – o'quvchilarning diqqatini muammoga qaratish. Mavzu muhokamasiga qiziqish uyg'otish. Bu savol, iqtibos (sitata), kichik hikoya, topshiriq ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kutilayotgan natijalarni e'lon qilish (vaqtning 5%) Maqsad- o'quvchilarning o'z faoliyatlari mohiyatini tushunib yetishlarini ta'minlash, ya'ni dars yakunida ular nimaga erishadilar va o'qituvchiulardan nimani kutyapti. Zarur axborot bilan ta'minlash (vaqtning 10%) Maqsad- ta'lim oluvchilarga amaliy mashq va topshiriqlarni bajarish uchun yetarli axborot taqdim etish. Bu kichik ma'ruza, tarqatma

material, uy ishini tekshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Interfaol mashqlar (vaqtning 60 %) Maqsad- materialni amaliy o`zlashtirish, mashg`ulot (dars) maqsadlariga erishish. Bunda o`qituvchi topshiriqni tushuntiradi. O`quvchilar yakka–juftlikda kichik guruhlarda ishlaydilar, natijalarni taqdimot qiladilar. O`qituvchi kuzatishlariga asoslanib, ishni umumlashtiradi. Yakun yasash (o`rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash) (vaqtning 20%) Maqsad-refleksiya, qayta bog`lanish, mashg`ulot davomida amalga oshirilgan, faoliyatni anglash, maqsadga erishilganlik, olingan BKM larni hayotda qo`llash imkoniyatlarini tahlil qilish. Dars strukturasi to`g`risida fikr yuritganda “dasr rejasi”, “texnologik xarita”, “dasr turlari” kabi tushunchalarni aniqlashtirish zaruriyati tug`iladi. Dars rejasi: Sana, Sinf, Fan, Mavzu, Maqsad, Darsturi, Metodlar, Dars jihozi, Darsning borishi.

Yuqorida dars rejasining tarkibiy qismlari ifodalangan bo`lib, dars rejasi har bir dars ishlanmasi, texnologik xaritaning ajralmas qismidir.

Texnologik xarita-bir soatlik dars ishlanmasining o`qituvchi foydalanishi uchun qulay sxemasi bo`lib, darsni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o`rganish usullari, yo`llari, ko`rsatmalari hamda ko`rgazmali –texnologik topshiriqlar yig`indisidan iborat.

Maqsad nima? Ko`pincha o`qituvchilar maqsad bu – “biz intilayotgan narsa”, “oldimizga qo`ygan reja, ish”, “orzu” deb ta`rif beradilar.

Hayotiy misol

Keling ,bu masalani keling olish misolida ko`rib chiqaylik. Inson farzandi dunyoga kelganda “katta bo`lsa, yaxshi to`ylar qilsam” deb orzu qiladi. O`g`il farzand voyaga yetganda, nasib qilsa, to`y – tomosha qilaman, elga osh beraman” deb yana o`ylaydi, orzusi yaqinlashgandek bo`ladi (qizlarning ishi biroz murakkab, sababi to`yning qachon bo`lishi ota – ona yoki qizga bog`liq emas).Lekin bularning barchasi hali orzu.

Orzuni qanday qilib maqsadga aylantirish mumkin?

Birinchidan, farzandingiz oila qurishga, oilani boshqarishga jismoniy va ma`naviy jihatdan tayyorligini hisobga olasiz.

Ikkinchidan, to`y qilishga moddiy ta`minot yetarliimi?

Uchinchidan, yoshlar to`ydan keyin qayerda yashaydilar?

To`rtinchidan, siz qanday oiladan, qaysi kasbdagi, ma'lumoti, yoshi qanday qizni kelin qilmoqchisiz?

Beshinchidan, to`yni qaysi oyda o`tkazmoqchisiz?(Albatta o`g`lingiz kelinni topibq o`ygan bo`lsa, ishingiz osonlashadi). Barcha savollarning javobi topilganidan keyin, orzu maqsadga aylanadi.

Demak, maqsadni belgilashda biz 5 ta mezonni hisobga olishimiz zarur. Mazkur mezonlar inglizcha so`zlarning qisqartmasidan olingan bo`lib, SMART mezonlari deyiladi.

Dars maqsadi o`quvchilarning talab va ehtiyojlari, imkoniyatlari, avval egallagan bilim, ko`nikma va malakalari, o`qituvchining salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqadi.O`qituvchining o`z darsi oldiga qo`ygan maqsadi, DTS talablari asosida belgilanishi lozim.

Ta'limiy maqsad o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim hajmini belgilaydi.U quyidagicha bo`lishi mumkin: "O`quvchilar gap turlari haqida tushunchaga ega bo`ladilar" , "Undalma haqidagi bilimlarini kengaytiradilar", rivojlantiruvchi maqsadda o`quvchilar ega bo`ladigan ko`nikma va malakalar ko`rsatiladi. Ko`pincha o`qituvchilar aynan rivojlantiruvchi maqsadni belgilashda qiynaladilar. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda "o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish", "so`z boyligini oshirish", "og`zaki va yozma nutqni o`stirish" kabi rivojlantiruvchi maqsadlarning bir soatlik dasr davomida amalga oshishi mushkulligi barchaga ayonligini ta'kidlash lozim, tarbiyaviy maqsadda bunda asosan, o`quvchilarda shakllantirilishi muhim bo`lgan fazilatlar, ularning psixologik holatiga e'tibor qaratish muhim.

Xulosa. Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikirlash jarayonini shakilantiradi. O`quvchining bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o`zlashtirish ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalrini shakillantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Yo'ldashov. S.A. Usmanov "Pedagogik texnologiya asoslari" T.O'qtuvchi 2004.

2. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar"
T.:Tafakkur 2011.

ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA YOSHLARNING SHAXSIY XUSUSIYATLARI

Eshchanova Feruza Kenjaevna
Xorazm viloyati Shovot tumani 18-maktab psixologi

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxsiy xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala, muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi.

Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai - bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar, o'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop, badiiy, publitsistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'spirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan, o'tgan yillardek "haqqoniylik bu hammaga bir xil emas, balki har kimning imkoniyatiga harab va hammaning ishiga yoki inson manfaatlariga qo'shgan hissasiga qarab belgilanadi", deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib, juda ko'p o'smirlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma'lum axloq normalari qat'iylashgan xususiyatlariga ega bo'ladilar.

O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik,

axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlaridir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida, o'z xatti-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- birinchidan, bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;
 - ikkinchidan, o'zining shaxsiy "Ideal"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi;
 - uchinchidan, o'zining psixik xususiyati va hislatlarini anglashi;
3. to'rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi.

Mana shu elementlarning barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog'langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi,. Bolaning "Ideal"ligini anglashi tahminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va hokazo, o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'spirinlik yoshida borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi. O'spirinlar har joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan ; o'smirlik vaqqidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi, semizlik, yuzidagi xusnbuzarlar, yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan o'gil va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi - bu o'spirinlikning o'zini anglashi ancha muhim komponent bo'lib hisoblanadi. O'spirinlikda o'z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi. O'spirin ham o'smir singari o'z qadr-qimmatini, o'ziga nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benihoya bilgisi keladi. O'ziga bahoberish ikkita usulda bo'ladi. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: bola qiyin vaziyatda o'zini yo'qotmaydi . Ma'lum qiyin topshiriqni bajaradi.

“Men qobiliyatliman”, deydi. Axloqqa oid bunday xatti - harakatlar, o’spirinning oz qat’iyligini sinashi hamdir.

Ijtimoiy taqqoslash, ya’ni o’zi haqidagi boshqa ishlarni fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o’quvchilar tomonidan “mardlik” deb ma’qullangan xatti-harakatni o’qituvchi “qalbaki o’rtoqlik” deb aytadi. Bunda bolalar o’z xatti-harakatlari to’g’risida o’ylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy “men” obrazi, juda murakkabdir. Hatto kattalarning o’zini anglashi qarama-qarshiliklardan holi emas. O’spirinlarda yanada kuchliroq bo’ladi. Ba’zi o’spirinlar o’zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko’proq uchraydi. Bu holat shunchaki o’sishni bildirib qolmasdan, balki shaxsda mohiyat jihatidan tubdan boshqacha tarzda o’z shaxsiyatining ma’naviy-ruhiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi, maqsad va vazifalarini anglashi, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi o’z - o’zini anglash, turmush, yashash, o’qish, mehnat va sport faoliyatlari tarzida bilan namoyon bo’ladi. O’quv muassasa, mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muommala ko’lamining kengayishi o’ziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, hissiy xususiyatlarini oqilona baholash, qo’yilayotgan talablarga javob berish tariqasida yondashish, o’z – o’zini anglashini jadallashtiradi. O’spirin o’quvchilarining o’z – o’zini anglashga aloqador o’ziga xos xususiyatlari mavjud, ular dastavval o’zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklariyi aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo’ladilar. O’spirin o’quvchining o’smirlik davridagi boladan o’zgacharoq yana bir xususiyati - bu, murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o’z qadr – qimmatini e’zozlashi, sezishi va fahmlashga ko’proq moyilligidir. O’spirin o’quvchida o’zini anglashi negizida o’zini tarbiyalash istagi tug’iladi. Natijada unda o’z – o’zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko’rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o’z – o’zini tarbiyalash jarayoni o’spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish . bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga yetgan kishilarga xos ko’p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo’naltirilgan bo’ladi.

O’quvchilar o’zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o’quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga,

shaxsning muayyan bir fazilatlari va xislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma'naviy-ruhiy qiyofani shakllantirishga intaladilar.

O'spirin uquvchilarning o'z – o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida bo'lmog'i shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashtirishi jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri izga solib yuborish uchun uyg'un bir ishni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida ta'sir o'tkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan ba'zi bir yaramas yurish – turish ko'rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. O'spirinlarda balog'atga yetganlik tuyg'usi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z ma'naviy qiyofasini ifodalash tuyg'usi o'sib o'tadi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intalishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, tasviriyl san'atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. O'quv va mehnat jamoalari ta'sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqaydlilik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Mana bo'lardan ko'rinib turibdiki, o'spirinlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esa o'spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T., TDPU, 2002.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.

4. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.:Noshir. 2010.
5. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M., "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2004

PEDAGOG FAOLIYATIDA KOMPETENTLIK DARAJASINING AHAMIYATI

Urolova Umida Arshidin qizi

Pastdarg'om tuman 128-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda pedagog faoliyatida kompetentlik darajasining ahamiyati keng yotirilgan.

Abstract. In this article the importance of the level of competence in pedagogical activity today is widely laid out.

Аннотация. В данной статье широко раскрыто значение уровня компетентности в педагогической деятельности.

Kalit sozlari. kasbiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, kreativ kompetentlik, informatsion kompetentlik, o'qituvchi, dars

Ключевые слова. профессиональная компетентность, личная компетентность, творческая компетентность, информационная компетентность, учитель, урок

Keywords. professional competence, personal competence, creative competence, information competence, teacher, lesson

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining tutgan o'rnidan oqilona va odilona foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'zaro hurmat kabi axloqiy fazilatlarni, o'qishga ongli munosabat, o'z faoliyatini maqsadli yo'lga qo'yish kabi aqliy sifatlarni, shu bilan birga, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi irodaviy fazilatlarni shakllantirishi lozim.

O'qituvchi darsni qanchalik ijodiy tashkil etishga urinmasin, o'quvchilarning aqliy faolligi ta'minlamasa, o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilmasa, ma'naviy barkamol insonni, shaxsni talab darajasida tarbiyalash ishida kamchiliklar saqlanib qolaveradi.

Davlatimiz tomonidan pedagoglar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilib, oliy toifali mutaxassislar safini kengaytirishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishi, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollanishi eng dolzarb muammolardan biridir. Zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyatida shakllanib, asosan amaliy ishlarda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib-rivojlana boradi.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi – bir tomondan o'qituvchilar faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli takomillashib borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi, chunki bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Pedagoglik kasbi, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatda yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglarga erisha oladi. Biz quyida pedagogning kompetentlik darajasi haqida fikr yuritamiz.

Kompetentlik (lot. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi mezon hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatining o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish, kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul

qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.

Shaxsiy kompetentlik – shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot – munosabatlariga faol kirisha olishi, muammolarni hal etishga turlicha yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Metodik kompetentlik – o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

Kreativ kompetentlik (inglizcha “create” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Kreativ kompetentlik faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Informatsion kompetentlik – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga yo'nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integratsiyalashuvini ta'minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omillar sifatida baholanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, madaniyati va kompetentligiga bog'liq

ekan bugungi kun o'qituvchilari o'z kasbiga ma'suliyat bilan yondashishlari, ota-onalar va xalq ishonchini o'lashlari uchun o'z ustida tinimsiz ishlab, bilimlarini boyitib, tajribalarini oshirib borishlari lozim. Zamonaviy pedagog o'quvchiga ta'sir etish, uning istaklarini, e'tiqodini, qiziqishi va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak. Zero, zamonaviy maktabga yuksak ma'naviyatli, faol, izlanuvchan pedagog – ustoz kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015

MULOQOT JARAYONIDA SUHBATDOSHDA ATRAKTSIYANI SHAKLLANTIRISHGA DOIR PSIXOLOGIK USULLARDAN FOYDALANISH

*Axmedova Durdona Orif qizi
Samarqand davlat universiteti psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talaba yoshlarga muloqot va uning psixologik vositalari to'g'risidagi dastlabki bilimlarni berish asosida, ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga doir psixologik usullardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье освещаются особенности процесса общения, вопросы использования психологических методов развития культуры социального общения на основе предоставления учащейся молодежи первоначальных знаний о коммуникации и ее психологических средствах.

Abstract. This article covers the issues of the use of psychological methods of developing a culture of social communication on the basis of specific features of the

communication process, giving the student the initial knowledge about communication and its psychological tools.

Kalit so'zlar: muloqot, shaxs, jamoa, jarayon, atrakstiya, suhbatdosh, trening.

Ключевые слова: общение, личность, коллектив, процесс, атрибуция, собеседник, обучение.

Keywords: communication, person, team, process, atracstia, interlocutor, training.

Muloqot - kishilar o`rtasidagi o`zaro aloqa o`rnatilishi, rivojlanishi, o`zaro ta'sir etishi jarayoni bo`lib, bu jarayon ularning o`zaro hamkorlik qilishga nisbatan ma'naviy ehtiyojlari, anglashilgan motivlari asosida vujudga keladi va quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- o`zaro tushunish, anglash:
- o`zaro bir-birini idrok qilish:
- o`zaro axborot almashish:
- o`zaro harakat qilishning yagona uslubini ishlab chiqish.¹

Ta'limning mohiyati o`quvchilardagi bilish faoliyatini bevosita boshqarish ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, pedagogik muomala bilan muomalaviy boshqarishning ko`pgina vazifalari o`zaro o`xshashligiga ishonch hosil qilamiz. Shuning uchun ham muomalaviy boshqarish jarayoniga berilgan tavsiyanomalar pedagogik muomala jarayoniga ham xosdir. Muomalaning eng muhim xususiyatlari o`zaro anglash va o`zaro idrok qilish, o`zaro ta'sir o`tkazishdir. O`zaro anglash quyidagi lahzalarga bog`liqdir:

- milliy tilning birligi;
- kasb bilan bog`liq bo`lgan tilning birligi;
- ma'lumotning to`laligi, uning mantiqiy bayon qilinishi;
- suhbatdoshning aqliy darajasi, madaniyati va kasbiy tayyorgarligini hisobga olish;

¹ Maxsudova.M. «Muloqot psixologiyasi». –N. 2005.

- diqqatini to'play olish;

- ko'rilayotgan masalani hal qilishda suhbatdoshlarning shaxsiy qiziqishida umumiylik.

O'zaro idrok qilish esa quyidagi holatlarga bog'liq:

- suhbatdoshning avtoriteti, nufuzi, obro'si uning kasbi bilan bog'liq bo'lgan bilimi, amaliy ko'nikmasi;

- o'zaro shaxsiy munosabatning holati, uning qanchalik his-hayojonga boyligi: rahbar o'z suhbatdoshida qanchalik ko'p ijobiy hissiy holat, kechinma uyg'ota olsa, ularning o'zaro bir-birlarini anglash va idrok qilish shunchalik tez amalga oshadi.

O'zaro shaxsiy munosabatda hissiy holatning namoyon bo'lish darajasiga qarab, insonlarda: empatiya, simpatiya, do'stlik yoqtirib qolish, ya'ni ijobiy hissiy holatlarda: befarqlik, nafrat, yoqtirmaslik, ya'ni salbiy hissiy holatlarda: ko'rish mumkin. Shuning uchun ham muamolaviy boshqaruv jarayonidagi eng muhim qoida: har qanday yo'l va usul bilan ham suhbat jarayonida ijobiy hissiy holatni vujudga keltirishdir. Bu hol qanchalik kuchli namoyon bo'lsa, demak muomalaviy boshqaruv shunchalik oson kechadi.²

O'zaro shaxsiy munosabatlarda vujudga keladigan ijobiy hissiy holatlar natijasida namoyon bo'ladigan bir-biriga intilish, bir-birini yoqtirib qolish **attraktsiya** deb ataladi.

Insonlardagi attraktsiyani shakllantirishning psixologik usullari.

- "Munosabatlar oynasi";

- «Ismi bilan atash»;

- «Oltinga teng so'zlar»: (kompliment) xushomad.

- «Sabr-toqatli tinglovchi»;

- «Savollar bering»;

Ushbu usullar ko'p hollarda suhbatdoshda uning o'zi ham anglamagan holda attraktsiyani vujudga keltiradi.

“**Munosabatlar oynasi**” usulining ta'sir ko'rsatish mexanizmi:

Shirin jilmayish, yuzning yoqimli ko'rinishi, istarasi issiqlik.

² Ergashev. P. S. «Muloqot psixologiyasi».- T. 2003 ToshDPU

Signal: “Men - sizning do'stingizman! “Do'st esa insonni kerakli paytda himoya qiladi.

Himoyalanişhga bo'lgan extiyojning qondirilishi. Ijobiy xissiy holat vujudga keladi. Ijobiy xissiy holatni vujudga keltirgan insonga moyillik- attraktsiyaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

“ Ismi bilan atash” usulining ta'sir ko'rsatish mexanizmi:

Suhbatdoshiga ismi va sharifi bilan murojaat qilish, uning shaxsiga nisbatan e'tiborni bildiradi.

Inson o'z ismi orqali o'z shaxsini namoyon qiladi. O'z shaxsini namoyon qila olish ehtiyojining qondirilishi insonda ijobiy hissiy kechinmani vujudga keltiradi. Ijobiy hissiy holatni vujudga keltirgan insonga moyillik-attraktsiyaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

“Oltin teng so'zlar” usulining ta'sir ko'rsatish mexanizmi: Kompliment (xushomad)- insondagi ijobiy sifatlarni bir oz bo'rttirib aytilgan so'zlarning majmuasidir.

“Oltin teng so'zlar “ (kompliment) samarali ruxiy ta'sir etish va o'zligining o'zgalar tomonidan tan olinishiga nisbatan extiyojning qondirilishidir. Ya'ni, ijobiy xissiy holatni vujudga kelishidir. Ijobiy xissiy holatni vujudga keltirgan insonga moyillik-attraktsiyaning barpo qiladi.

Kompliment vazifalari:

- suhbatdoshda moyillikni vujudga keltirish va o'z navbatida unda kompliment hosil qilishga extiyojni vujudga keltirish:

- attraktsiyaning mustahkamlash:
- berilgan ko'rsatmani bajarishga undash:
- muvaffaqiyatga undovchi turtki berish:
- muvaffaqiyatsizlikdan saqlovchi faol motivlar hosil qilish:
- suhbatdoshning moslashishiga yordam berish.

«Sabr-toqatli tinglovchi» usulining ta'sir ko'rsatish mexanizmi:

Suhbatdoshni sabr-toqat va e'tibor bilan tinglash.

Shaxsdagi o'z fikrini to'liq ayta olish ehtiyojining qondirilishi va shu bilan bog'liq ravishda ijobiy xissiy holatning vujudga kelishi.³

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar (attraktsiya) har xil muomala jarayonlarida insonlar bilan samarali aloqa qilish imkonini yaratib, mehnat unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Suhbatdoshingizni o'zingizga moyil qilish uchun quyidagilarni hisobga oling:

- ochiq ko'ngilliligingizni namoyon qiling, bunda "doimo yuzingizdan tabassum bo'lsin»:

- suhbatdoshingizni tez-tez ismini tilga olgan holda gapiring:
- suhbatdoshingizga nisbatan doimo hurmat va e'tiborda bo'ling:
- suhbatdoshingizni diqqat bilan eshitishni o'rganing:
- doimo suhbatdoshingizni qiziqtirgan narsalarni hisobga olgan holda suhbatni olib borishga harakat qiling:

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqat texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ergashev P. S. «Muloqot psixologiyasi».- T. 2003 ToshDPU.
2. Maxsudova M. «Muloqot psixologiyasi». –N. 2005.
3. Mustafoev F. «Suhbatdoshni sirli boshqarish». -F., 2005 y.

³ Mustafoev F. «Suhbatdoshni sirli boshqarish». -F., 2005 y.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Mustafayeva Madina Xaydarovna

Nurobod tumani 2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim o'quv tarbiya jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье описываются особенности использования дидактических игр в образовательном процессе начального образования в общем среднем образовании.

Abstract. This article describes the specifics of the use of didactic games in the educational process of primary education in general secondary education.

Kalit so'zlar: dars jarayoni, o'yin, texnologiya, o'qituvchi, o'quchi, guruh

Ключевые слова: урок, игра, технология, учитель, ученик, группа

Keywords: lesson process, game, technology, teacher, pupil, group

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin-boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul hisoblanadi. O'yin vositasida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng

to'g'ri va samarali metodidir. U ma'lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o'qituvchidan o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi.

“O‘zim tekshiraman”

Bunday o'yinlar o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Bunday o'yinlarni har bir boshlang'ich sinfda darsning avvalida o'tkazish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgach o'qituvchi hattaxtaga diktant yozib ko'rsatadi. Diktant hattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi pardani ochadi. O'quvchilar esa o'qituvchi yozganiga qarab o'zlarining diktantini tekshiradi.

“Kim ko‘p so‘z biladi”

Bu o'yin o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga yordam beradi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo'linadi va 1-guruh o'quvchilariga boshlanishi va tugallanishi bir xil unidan tashkil topgan, ikkinchi guruhga esa xuddi shunday: bir xil undosh bilan boshlanib, shu undosh bilan tugallangan so'zlarni doskaga yozish topshiriladi.

Masalan: 1-guruh “ikki”, “alla”, “ukku”, 2-guruh esa “qiziq”, “katak” kabi so'zlarni yozishi mumkin. O'yin shartiga ko'ra, guruhlardagi o'quvchilar navbat bilan shartni bajaradilar. So'z topolmay yozishdan to'xtab qolgan guruh yutqazgan hisoblanadi.

“Jumlani davom ettiring”

O'yin qoidasiga ko'ra, birinchi o'quvchi qisqa biror gap aytadi, boshqa biror o'quvchi aynan shu gapga boshqa biror gap qo'shib boraveradi.

Masalan:

1- o'quvchi: Men hikoya qildim.

2-o'quvchi: Men qiziqarli hikoya o'qidim.

3-o'quvchi: Men kecha qiziqarli hikoya o'qidim va h.k.

So'z qo'sha olmagan yoki hatoga yo'l qo'ygan o'quvchi o'yinni tark etadi. 6-7 daqiqa mobaynida o'yin davomiyligini ta'minlab turgan o'quvchilar g'olib bo'ladi va baholanadi.

“Kim nima qiladi?”

O‘quvchilar guruhga bo‘linadi va har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doskaga taklif etiladi. Birinchi guruh ishtirokchisi “Kim?” yoki “Nima?” so‘roviga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi “Nima qiladi?” so‘roviga javob bo‘ladigan so‘zlarni qayd etadi. Natijada quyidagi yig‘iq gaplar hosil bo‘ladi.

1-guruh

O‘qituvchi

O‘quvchilar

Qush

SHamol

Gul

Paxta

YOmg‘ir

Quyosh

2-guruh

O‘qitadi

O‘qiydilar

Sayraydi

Esadi

O‘sadi

Ochiladi

YOg‘adi

Isitadi

“Bo‘lishi mumkin emas”

Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi matnni o‘qiydi. O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim.

Hazil-mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin ham o‘quvchilardan ziyraklik, sinovchanlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarga befarq bo‘lmaslikni ham talab qiladi. Undan tashqari ularning darsdan tashqari bo‘lgan ilmiy va badiiy adabiyotlarga va ilmiy-ommabop filmlarga qiziqishni orttiradi va hikoya tinglash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

1-variant: Dushanba dam olish kuni bo‘lgani uchun Olim maktabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog‘iga bordi. Ular hayvonot bog‘ida suvda suzib yurgan sherni qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko‘rdilar.

2-variant: Ibratjon yozgi ta‘til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda o‘rtoqlari bilan qor bo‘ron o‘ynadi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi. Buvisi sigir sog‘ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi.

3-variant: Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O'qituvchi uni maqtadi va "nol" ball qo'ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o'tdi.

“Oltin toj”

Ushbu o'yinni oyda bir marta o'tkazib turish o'tilgan mavzularni mustahkamlashga, o'quvchilar bilimining darajasini aniqlashga, bilim olish ishtiyoqini, intilishini kuchaytirishga yordam beradi. Biroq yil davomida oltin toj sovrindori bo'lib yurish kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ko'tarinki ruh beradi, ularning darsga, til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta'limiy o'yinlardan foydalanish samarali natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish – T.: “Fan va texnika” 2008 y.
2. Umarova F. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.T.: 2012

KONFLIKTLI VAZIYATDA MUOMALA MADANIYATI VA TO'G'RI MULOQOT QOIDALARI

*Namozova Latofat Rustamovna
Pastdarg'om tuman 3-son kasb-hunar maktab psixologi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada konfliktli vaziyatda muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari yoritilgan.

Аннотация: В этой статье обсуждается культура обращения с конфликтными ситуациями и правила правильного общения.

Abstract. This article discusses the culture of dealing with conflict situations and the rules of proper communication.

Kalit soʻzlar: konflikt, konfliktogenlar, muloqot madaniyati, konflikt yechimi

Ключевые слова. конфликт, возбудители конфликтов, культура общения, разрешение конфликтов

Keywords. conflict, conflict pathogens, communication culture, conflict resolution

Oʻzbeklar mentalitetida muomala madaniyati koʻpchilik hollarda oʻzaro salom-alik qilish, ahvol soʻrash, oiladagi ahvol boʻyicha axborotlarga qiziqish koʻrsatish kabi koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Ammo aslida muomala madaniyati – oʻzga insonga boʻlgan munosabat madaniyati bilan belgilanadi. Faqat salom-alik qilgandagiga emas, balki hayot tartibida, har kunlik hayot tarzida insonga koʻrsatiladigan hurmatli va eʼzozli, samimiy va toʻgʻri munosabatni anglatadi. Ichki madaniyatga ega boʻlgan odamgina har turli vaziyatlarda har qanday boshqa insonga nisbatan doimiy toʻgʻri, samimiy va aniq munosabat koʻrsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat koʻrsatilishini talab etadi. Qarshingizda turgan odam boymi, qambagʻalimi, qishloqlikmi, yoki shaharlikmi, mansabdormi, yoki oddiy oʻqituvchimi, bundan qatʼiy nazar unga toʻgʻri munosabat koʻrsata olish haqiqiy insonparvarlik mezoni boʻlib kelgan. Ammo muloqot madaniyati insondan oʻz ustida muntazam ish olib borishni talab etadi. Muloqot madaniyati oʻz oʻzidan vujudga kelib qolmaydi.

Odamlar baʼzan bir-birlarini tushunmaydi yoki oʻz oʻy–fikrlarini aniq ifodalay olmaydilar. Ularning bir–birini tushunmasligi esa konfliktga olib kelishi mumkin. Quyida iliq muomala va qanday qilib hamsuhbatni toʻgʻri tushunish va unga oʻz oʻylaringizni aniq anglatish buyicha 10 maslahat keltirilgan.

1. Suhbat uchun qulay, tinch va toʻgʻri joy tanlash. Muammoni tanaffus paytidagi tor koridorda, darsga ikki minut vaqt qolgan paytda, shovqin orasida, bola yigʻlab turganida, opponetingiz ishga shoshilayotgan vaqtda, u bemor boʻlganida.... hal etish mushkil. Hamsuhbatingiz va oʻzingiz tinch, hyech kim halaqit bermaydigan, ikkalangiz boshqa joyga shoshilmay, bafurja suhbat quradigan joy borligiga amin boʻling. Suhbat uchun qulay joy boʻlsagina, tomonlar orasidagi muloqot uchun sharoit yaratilgan boʻladi.

2. **Hamsuhbatingizning gaplarini bo'lmang.** Sizning uzluksiz so'zlashingizni diqqat bilan eshitish mushkul. Shu bois, hamsuhbatingizga ham so'zlash imkonini bering va uning so'zlarini bo'lmay, sabr – qanoat bilan tinglang.

3. **Sabr – qanoatli bo'ling!** Ba'zan o'z fikrini to'g'ri ifodalab gap aytish uchun ham vaqt kerak. Nizo ichiga kirganlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri butun dardini dasturxon qilib, konkret nizoga aloqador bo'lmagan axborotlarni bir boshdan bafurja bahs jarayoniga tortishdan iborat.

4. **Tana zaboniga quloq soling!** Biz suhbat jarayonida faqat so'zlar bilan axborot ulashmaymiz. Suhbat jarayonida bizning tana harakatlarimiz, mimikamiz, ovozimiz xarakteri (past, tiniq, tinch, osoyshta ovoz, yoki dag'dag'a, qo'pol, tahdidli, agressiv ovoz), bularning barisi muhim ahamiyat kasb etadi va ma'lum bir ma'lumotlarni opponeningiz, yoki o'zingiz holatingiz va xis-uyg'ularingiz haqida qarshida turganlarga uzatadi.

5. **Etibor bilan tinglang!** Opponeningiz sizni eshitishingizni istaydi. Chunki u so'zlar orqali o'z fikri, o'yi, xissiyotlarini sizga yetkazmoqchi.

6. **Ma'ruza o'qimang!** Siz bilan suhbatlashganda odamlar o'z fikr va o'ylarini sizning ongingiz va qalbingizga yetkazib berish uchun gapiradilar. Agar bu odamlarga sizning maslahatingiz zarur bo'lsa, ular “Maslahat bering”, deyдилar. Agar ularga sizning tanqidigiz yoki tasdiqingiz kerak bo'lsa, ular o'zlari sizdan so'raydilar. *Hamsuhbatingiz gaplari uni tarbiyalash uchun bahona bo'la olmaydi.*

7. **Ochiq va aniq savollardan foydalaning!** Konflikt vaziyatida tomonlar muloqoti imkon darajasida har ikki tomonga tegishli bo'lgan axborotlarni yig'ish va tahlil qilish asosiga qurilmog'i lozim. Aslida konflikt emosiyalar to'qnashuvidan axborotlar almashuviga o'tilishi asosida yechiladi. Shu bois, suhbat, ya'ni muloqot jarayonida ochiq va aniq savollar beribgina siz boshqa inson sizdan nimani so'rayotganligini, uning qanday talablari mavjudligi, uning xissiyotlari va xulosalari nimalarga asoslanganligini to'g'ri tushuna olasiz.

8. **Hech narsa taklif qilmang!** Nima uchun aynan mana shunday talab qo'yiladi? Chunki, emosiyalar va ehtirolar ichida odam ba'zan so'zlashga berilib ketib, aslida

o'zida mavjud bo'lmagan, yoki soniyalik, bir zumlik bo'lgan xis-tuylarni ifodalab yuboradi.

9. **O'zingizni nazorat qiling!** Ziddiyat jarayoni ko'pincha tomonlar qalbida va fikrida mavjud bo'lgan barcha negativ holat va qarashlarni yuzaga olib chiqadi. Shu bois, har ikkala tomon ham qarama-qarshi tomonni hamma nuqsonlarda ayblash, o'zini esa himoya qilish bosqichidan o'tadi. Qarama-qarshilik kuchaygan paytda har doim ham boshqalar bizga aytayotgan ba'zi "achchiq", "adolatli", shu bilan birga, boshqa bir "bo'hton", "yolg'on", "amalda bo'lmagan" so'zlar bizlarga yoqavermaydi.

10. **Birovning nafsoniyatiga tegmang!** Har inson o'zicha bir olam hisoblanadi. Har bir inson, uning ilmi, bilimi, madaniyati, shaxsiyati va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar o'ziga ma'lum bir ijobiy daraja bilan munosabat bildirishga bolalikdan o'rgangan bo'ladi.

Shunday qilib,

- konfliktning yuzaga kelishi tabiiy hol hamda uning vujudga kelishidan qo'rqmaslik va dovdiramaslik lozim;
- konfliktning subyektiv va obyektiv kelib chiqish sabablarini muhokama qilish darkor;
- konflikt tomonlar manfaatlarining to'qnashuvi hisoblanadi;
- konfliktning yechimini topish uchun ikki tomonning ixtiyoriy sayi-harakalar olib borishi va konflikt yechimini topishga rozi-rizoligi talab etiladi;
- har qanday konfliktning o'z yechimi mavjud, faqat uni topa bilish zarur;
- konfliktning yechimi topilmaganda, u "so'nishi", yo'q bo'lganday ko'rinishi mumkin, aslida konflikt o'z-o'zidan hal bo'lmaydi, balki keyinroq boshqa kattaroq nizolarni keltirib chiqaradi;
- konflikt yechimini ijobiy topish uchun ma'lum bilim va malakalarni egallash darkor;
- konflikt yechimini topish jarayonida ziddiyat qarama-qarshi odamga, uning shaxsiyatiga emas, balki ikkala tomon o'zaro birlashib, o'z mulohazalarini mavjud muammoga qaratishi darkor;
- konfliktni insonlar emas, balki vaziyatlar va manfaatlar vujudga keltiradi;

- konfliktlar har doim mavjud bo'ladi, shuning uchun ham yoshlar ularni boshqarish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Konflikt sharoitida quyidagi amallar maslahat beriladi:

- O'z so'zlaringiz va amaliy ishlaringizda mas'uliyatni o'z zimmangizga oling.
- Tomonlar o'rtasidagi turli shartnomalar va o'z mas'uliyatingizdagi vazifalarni albatta bajaring.
- Agar sizning sa'y-harakatlaringiz behuda ketayotganligi va yordam bermayotganligini sezsangiz, harakatlaringizni qaytadan boshlang va opponentingiz bilan samimiy o'rtoqlashing.

Konflikt vaziyatlarda faol eshitish uch epatda o'tadi. Ularda axborot olish va uzatishning uch turi aks etadi: axborot almashuv, tasdiqlash bosqichi va tinchlantirish bosqichi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barotov Sh. R. Psixologik xizmatning nazariy va amaliy muammolari. Buxoro-2008.
2. To'ychiyeva G. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o'rganish. Toshkent.2008 y
3. T. Eshquvvatov. Psixologik konfliktologiya. UUM. Samarqand 2012 y.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАРЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ТАҲЛИЛИ

*Халбаева Гулноза Аршидиновна
Самарқанд давлат университети 1-босқич таянч докторанти*

Бугунги кунда болалар қаерда яшашидан қатъий назар, доимий равишда ижтимоий, сиёсий, экологик, илмий, техникавий ва индустриал соҳалардаги ўзгаришлар билан тўқнаш келишларига тўғри келади. Боланинг ривожланиши ва ўсиши узлуксиз давом этадиган жараёндир. Бу даврда унинг шахс сифатида

шаклланиши, илк бор оламни атрофидаги ашё ва буюмлар орқали англаб, ундан ўзича маъно топишга интилиши, қизиқиш ва ҳиссиётлари ривожланишини кузатамиз.

Ҳаётнинг ҳар бир даври, ривожланиш хусусиятлари ва эҳтиёжларига кўра ўзига хос босқичларга эга. Боланинг ўсиб, улғайишида мактабгача бўлган даврни шулар сирасига киритиш мумкин. Болалар оҳанграболи олам ҳисобланган даврда, жуда тез ўсиш, ривожланиш ва ўзгаришлар ичида яшайдилар. Бу даврда болаларда жисмоний сифатлар билан бир қаторда психологик жараёнлари, психик ҳолат ва хусусиятлари ҳам шаклланиб боради. Айнан мана шу даврда ота-оналар ва тарбиячи педагоглар болаларга катта эътибор берилиши талаб қилинади. Бу фарзанд тарбиясида айнан шу давр қанчалик аҳамиятли эканининг яна бир бор исботлаб беради.

Болалик дунёсидан чиқиб кетган катталар унга қайтиб кира олмайдилар. Турмуш ташвишлари бунга йўл қўймайди. Катталар фақатгина болалар билан мулоқот давридагини бу оламни кузатишлари ва унинг ажойиблигидан қувонишлари мумкин. Лекин шуниси қизиқ-ки, биз катталар бу ажойиботни кўриш ва ундан баҳраманд бўлиш ўрнига ундан қочамиз ва бу ишни кимларгадир топширамыз. Баъзан ота-оналар бўла туриб қўйидаги хатоларга йўл қўямиз:

- Бола тарбиясида оиладагиларнинг турлича муносабатлари (бува, буви, ота, она).
- Ҳиссий илиқликнинг етишмаслиги.
- Асабийлашган болани бошқариш малакасининг етишмаслиги.
- Болага қўйилаётган талабнинг бир-бирига мос келмаслиги.

Бу хато ва камчиликларимиз болажонларимиз хулқида муаммоларни келтириб чиқаради. Баъзан бу муаммоларни ечимини топишга ҳам қийналамыз.

Оиладаги носоғлом муҳит жанжалкаш болалар тарбияланишига сабаб бўлади. Ҳар қандай одам стресс ҳолатида жанжаллашишга мойил бўлиб қолади. Табиийки жаҳл ва унинг турлари ёш хусусиятларига кўра турлича бўлади. Бир икки ёшли бола жаҳли чиққанда жаҳлини чиқарган одам билан урушмайди, балки у ерга ётиб йиғлайди, ўзини ўзи уради.



Болани қанча шошилтирсак у шунчалик секин ҳаракат қилади. Имиллаган болалар устидан одатда оналар шикоят қилади. Бир ёшгача боладан ҳеч нарса талаб қилинмайди. Шунинг учун бу ҳолат сезилмайди. Аста-секинлик билан бу ҳолат намоён бўла бошлайди. Бу вақтда олийжаноб оналар болаларини шоширмайди. Бирор нарсага қизиқтириб тезроқ ҳаракатланишга ўргатади. Тезда жаҳли чиқиб бақириб кетадиган оналарнинг болалари ҳам қайсар бўлади. Бесабр ота-оналар доимо фарзандларини шошилтириб унинг имиллашига сабабчи бўладилар.

Болалар ўсаётганда иштаҳа билан боғлиқ муаммоларни аксарияти бир ёшдан икки ёшгача бўлади. Болакайларнинг бир йилдан сўнг иштаҳалари пасая бошлайди. Иштаҳа тишлар чиқаётганда ҳам йўқолади.

Одатда болалар икки ёшдан уч ёшгача инжиқ бўлишади. Ҳаммамиз бола инжиқлигини кўрганмиз ва кузатганмиз. Сайрга бирга олиб чиқмаганимизда, ўйинчоқ ёки ширинлик олиб бермаганимизда у айтганини қилдирмоқчи бўлади. Шу вақтда озгина иккилансак, бола буни сезиб ҳаракатга тушади. Натижада ўзимиз боламизнинг инжиқланишига шароит яратган бўламиз. Қатъий турганимизда уларни осон бошқаришимиз мумкин. Бола буни ҳис қилади ва кўнади.⁴

Инжиқланишига бирор ери оғриётгани ҳам сабаб бўлиши мумкин. Хуллас, агар болангиз инжиқланса уни рухий ва жисмоний сабабларини қидиринг.

Икки уч ёшли бола одатда кечаси ўрнига сийиб қўймайди. Баъзиларида бу ҳол уч ярим ёшгача чўзилса, баъзиларида эса икки ёшданок ўрни қуриб туради. Болалар кечаси ўрнини ҳўл қилиб қўйишининг бир неча сабаблари бор. Шулардан бири жисмоний касалликдир. Одатда бундай болалар кундузи ҳам сийдик ушлашга қийналадилар. Уч ёшдан ошган бундай болалар албатта врач

⁴ Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари. Тошкент – 2012.

назоратидан ўтиши лозим. Энурез (сийғоқлик) ўғил болаларда кўп учрайди ва бу ўсмирлик чоғларида қолиб кетади.

Боланинг ривожланиши ва ўсиши кечасию- кундузи давом этадиган узлуксиз жараёндир. Бу даврда бола мустақилликка ўргатилиб борилади. Эндигина қадам қўйиб юришни ўрганган болангиз қўлини қўйиб юборишингизни талаб қилади. Эндигина тили чиқиб гапиришни ўрганганида эса “Мен каттаман” дейди. Отаси ёки онаси каби тезроқ катта бўлиш истаги уларда ҳамма нарсани мустақил равишда бажаришга бўлган интилишни келтириб чиқаради.

Юришни биладиган болани аравада олиб юриш, тўкиб сочиб ҳам овқатни ўзи ейишга интиладиган болага едириб қўйиш ва шу аснода унга тўхтовсиз равишда “Сен ҳали кичкинасан” дейиш боланинг ўсишига ҳалақит беради.

Ёш даврлари муаммосини ўрганиш кўпгина олимларни қизиқтириб келган муаммолардандир. Л.С.Выготский биринчилардан бўлиб шахс онтогенетик ривожланишини даврлаштиришда тарихийлик тамойилига амал қилиш лозимлигини таъкидлаган. Унинг фикрича, болали – бу мураккаб ижтимоий маданий ҳодиса бўлиб, табиатан тарихий келиб чиқиш характериға эға.⁵

3.Фрейд бўйича даврлаштириш назариясида қуйидагича бўлинади:

- Орал босқич туғилгандан 18 ойгача давом этади. Бундан она сути билан озуқаланиш, овқатланишга асосий урғу берилади. Бу даврда онанинг ишончи ва меҳри етакчи ўринга эға.

- Анал босқич 1-1.5 ёшдан 3 ёшгача давом этади. Асосий жиҳат Эгонинг ривожланиши билан белгиланади. Айнан мана шу даврда ота-она ёрдамида болада ўзини – ўзи бошқариш механизми ривожлана бошлайди.

- Фаллик босқич 3 ёшдан 6 ёшгача давом этади. Бу даврда жинсий идентификация шаклланади. Ўғил болаларда Эдип, қиз болаларда Электра комплекслари айнан мана шу даврда кузатилади.

- Латент босқич 6-7 ёшдан 12 ёшгача давом этади. Таълим, спорт, дўстлар билан мулоқотга бўлган эҳтиёж ортади.

⁵ “Онтогенез психологияси” Э.Ғозиев. “Ношр” нашриёти., Тошкент, 2010

- Генитал босқич (12-18 ёш) – биологик етилиш билан кечадиган давр деб таъкидлаб ўтади.⁶

Айнан мактабгача даврда болаларда ролли ўйин фаолияти жуда яққол кўзга ташланади. Айнан мана шу даврда улар ҳаётни роллардан иборат эканлигини узларича тасаввур қилишади. Демак бу даврда айрим фаолиятнинг ижтимоий-мотивацион томони ривожланади, муносабатлар тизими, мотивлар шаклланади.

6-7 ёшли болалар учун янги фаолият бўлган ўқиш улардан янги сифат, янги хусусиятларга эга бўлишларини талаб этади. Ўқиш фаолияти учун болаларда барқарор диққат, ўткир зеҳн, мустақиллик, ишчанлик ва батартиблик хислатлари бўлиши керак. Боғчадан мактабга ўтишлари натижасида катталар билан бўлган муносабатларида ҳам бирмунча ўзгариш юз беради. Болаларнинг мактабга ўтишлари, уларнинг яслидан боғчага ўтишларига қараганда мураккаб босқичдир. Шунинг ҳам назарда тутиш керакки, бола мактабга ўтиши билан унинг ижтимоий ҳолатида ҳам ўзгариш рўй беради. Чунончи мактаб ёшига яқинлашган болалар боғчада “катта” деб ҳисобланар эдилар. Мактабга ўтгач, улар яна “енг кичкиналар” қаторига тушиб қоладилар. Шунинг учун бу даврда оилада болалар учун тўлиқ эътибор бериш талаб этилади.

Келтириб ўтилган фикр ва мулоҳазалардан оилада тўғри ташкил этилган шарт-шароитлар болаларни жисмоний ва психологик томондан тўғри ривожланишига замин бўлади деган хулосага келиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари. Тошкент – 2012.
2. “Умумий психология” Э.Ғозиев. Тошкент, 2010.
3. “Онтогенез психологияси” Э.Ғозиев. “Ношр” нашриёти., Тошкент, 2010

⁶ “Умумий психология” Э.Ғозиев. Тошкент, 2010.

ERTAK TERAPIYA ORQALI BOLAGA TA'SIR ETISH USULLARI

Bobojonova Odila Otanazarovna

Xorazm viloyat Xonqa tumani 7-maktab psixologi

Kengroq mushohada yuritadigan bo'lsak, millat barkamolligi, Vatan taraqqiyoti farzand tarbiyasi bilan bog'liqdir. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda u mustaqillikka o'rgatib boriladi. Endigina tetapoya qilib qadam qo'yishni, yurishni o'rgangan bola qo'lini qo'yib yuborishni xohlaydi. Tili chiqib gapirishni o'rganishi bilan "Men kattaman" deydi. Bolaning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan erkinlikni chegaralanishi o'z navbatida ota-onalar uchun ham ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Ertakterapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir.

Ertakterapiya atrof-muhit bilan o'zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to'g'rilashda foylaniladigan usuldir.

Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz, uningichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilib beramiz, xayolini o'stiramiz.

Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg'usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo'lmasin, yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo

olishlarini ko`radi. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o`tgan, o`zining barcha ijobiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo`ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko`rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo`lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi.

Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g`am-tashvishi uchun qayg`urish, o`zganing shodligi uchun xursand bo`lish, begona insonning taqdirini xuddi o`ziniki kabi boshdan o`tkazish kabi insoniylikni qanday bo`lmasin tarbiyalashdan iboratdir”. E`tibor bering-a, bu yerda ikki insonning o`zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g`amxo`rlik qilishi haqida gap bormoqda.

Ertaklarga o`z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar murojaat qilganlar. Ertaklardan bolalar adolat va adolatsizlik haqida o`zlarining ilk tasavvuriga ega bo`ladilar. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg`urishgamajbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to`qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi.

Aynan xotira bilan uyg`ulashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to`g`ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xatti-harakatlarini misli ko`rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba`zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o`zidir. Hayotda boshi berk ko`chalar bo`lmaydi. Ko`pincha inson shunchaki, ulardan chiqib ketishga tayyor bo`lmaydi.

Ertakterapiya bolaga nima beradi?

- 1.Ertakterapiya yordamida xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko`ngil xotirjamligiga erishiladi.
- 2.Bola o`zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o`z xatti-harakatlarida qo`llashni o`rganadi.
- 3.Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o`rtasida kommunikativ aloqa o`rnatiladi.

4. Ertakterapiya kattalarga ham o'z fobiya, qo'rquvlarini yengishga yordam beradi, ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi.

Ko'pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo'lib, bu aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg'aytiradi.

Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo'lsa, samarasi yaxshi bo'ladi.

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o'stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo'qotib, o'ziga ishonchni orttiradi. N.L.Kryajeva qizg'anchiq, egoist bolalarga – “Baliqchi va baliq” haqidagi ertakni, qo'rqqoq bolalarga – “Qo'rqqoq quyonlar: haqidagi ertakni, ishonuvchanlariga „Buratinonaning sarguzashtlari”ni, qaysar bolalarga “No'xat ustidagi malika” ertagini, tinib-tinchimas bolalarga esa “Etik kiygan mushuk” ertagini aytib berishni taklif qiladi.

Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o'zimizning o'zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi.

“Zumrad va Qimmat”ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, “Ur to'qmoq” ertagi yolg'onchilikka, “Susambil” ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bola qalbiga ezgulik urug'ini sochadi.

1-1,5 yoshdagi bolalar uchun ertak mazmuni tushunarsiz bo'lishi mumkin, lekin ertakdagi “bobo”, “buvi”, “sichqoncha” kabi so'zlar biroz tanish bo'lib, bu ertakni bola uchun qiziqarli qiladi hamda uyqu oldidan aytib berish uni tinchlantiradi. 3yoshdan keyin bolada obrazli tafakkur shakllana boshlaydi, u endi tasavvur qila oladi. Ularga endi murakkabroq mazmundagi sehrli ertaklarni taklif qilish mumkin.

Har bir bola bir yoki boshqa ertakni oʻzicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda kata ta'surot qoldiradi, boshqasi esa uning his-tuygʻularini qoʻzgʻatmay, yonidan oʻtib ketadi. Lekin bu “Hayotiy vaziyatlar daftarchasi yana bir katakchaga koʻpaymadi” degani emas, u shunchaki bola bu kabi muammoga, masalan, kuyov va qaynona, kelin va qaynona oʻrtasidagi tanlov muammosi, biror bir muhim va aziz narsasini yoʻqotish yoki oʻgʻirlatish va hokazolarga duch kelmaguncha ta'sir kuchiga ega boʻlmaydi.

Bu siz bilan bizning qoʻrquvimiz, ularni bolalarimizniki deb hisoblash kerak emas. Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta oʻyinlar, oʻyinchoqlar bolaning tasviriyl faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda sanʼat yordamida ham toʻgʻrilasa boʻladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir. Toʻgʻri tanlangan ertak yordamida boladagi koʻplab muammolar – qoʻrquv, inijlik kabilarni yoʻqotish, bolada qatʼiyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qoʻllamay, balki oila davrasida muntazam qoʻllash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini oʻtkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim. Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi asosida maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish (metodik majmua).
2. Стрелкова Л.П Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст.
3. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст.

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK OMILLARI

Bobojonova Odila Otanazarovna

Xorazm viloyat Xonqa tumani 7-maktab psixologi

Hammamizga ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. Y.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili

sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, Y.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi. Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar. Keyingi kasblarning tizimlash qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Talab etiladigan qobiliyatlar bo'yicha kasblarni tizimlash bo'yicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Dastlab, 1953 yilda D Paterson tomonidan taklif

etilgan. Kasblar tizimlashga to'xtalib o'tamiz. U juda keng tarqalgan bo'lib, tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlar tashkil etadi. Minnesota Occupational Rating Scale yordamida kasbshunos psixologlar tomonidan 432 ta kasb tanlab olinib, quyidagi 7 ta guruhga ajratiladi. Akademik, mexanik, ijtimoiy, diniy, musiqaviy, artistlik va jismoniy guruhlardir. Bitiruv ishi natijalarini umumlashtirish natijasida 432 kasbni 214 ta namunaga keltirildi, ulardan 137 tasi bitta kasb mutaxassislikka qolgan 77 tasi ikkitadan 18 tagacha, mutaxassislikni birlashtiradi. E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi ham keng tarqalgan. 15 Mehnat obektiga ko'ra 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson – tabiat. Bu tur namoyondalari o'simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agronom, zootexnik, vetenar, mikrobiolog.

2. Inson – texnika. Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob'ektlari bilan ishlashadi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3. Inson – inson. bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o'qituvchi va boshqalar.

4. Inson - belgilar tizim. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan, dasturchi, chizmachil - kartagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muqarriri.

5. Inson - badiiy obraz. hodisalarni badiiy aks etishi dalillari - mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va boshqalar.

Bu beshta kasb turlari maqsadlar belgisiga ko'ra 3 ta sinfga bo'linadi. 1. Gnostik kasblar (G) (qadimgi yunonchadan "gnosis" bilim); 2. O'zgartiruvchi kasblar; 3.

Qidiruvli kasblar; Asosiy ish qurollariga ko'ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin. 1. Qo'l mehnati kasblari; 2. Mashina qo'l mehnati; 3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo'llanishi bilan bog'liq kasblar; 4. Funksional ish quroli bilan bog'liq kasblar. Mehnat sharoitlariga ko'ra, YE.A.Klimov kasblarni 4 guruhga bo'ladi. Maishiy mikroiklimga xonakiga yaqin ish.(B) har xil ob-havo sharoitida ochiq havoda bo'lish bilan bog'liq kasblar agronom, payvandchi, avtonazorat inspektori. Odatiy bo'lmagan sharoitlarda balandlikda, suv tagida, yer tagida baland past darajalarda ishlash: havvos, o't o'chiruvchi va hokazo. Insonlar sog'ligi, hayoti uchun yuqori mas'uliyat sharoitida ishlash: moddiy qadriyatlar, bolalar boqchasi tarbiyachisi, o'qituvchi, tergovchi. Shartli belgilarni qo'llagan holda, kasblar dunyosi "xaritasini" va ma'lum kasbning na'munaviy formulasini tuzish mumkin. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ko'pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo'lsam ekan yoki qaysi sohaning mutaxassisi bo'lsam ekan? – degan savolni o'z oldilariga qo'yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o'quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib etmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunday misollarni keltirib o'tadigan bo'lsak juda ko'p, aslida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.

BOLANI MAKTABGA PSIXOLOGIK JIXATDAN TAYYORLASHDA OILADAGI TARBIYANING O‘RNI

Jumaniyozova Muhayyo Shuxrat qizi

Xorazm viloyat Xonqa tumani 28-maktab psixologi

Ma'lumki, bolaning yetuk shaxs bo'lib yetishishida ta'lim muassasalarning o'rni beqiyos. Shu bilan birga bolani maktabga ob'ktiv va sub'ktiv tayyorlashda oilaning, ya'ni ota-onaning o'ziga xos vazifalari va majburiyatlari ham mavjud bo'lib, aynan shu majburiyatlarning to'g'ri bajarilganligi bolaning maktabga tayyorligini ifodalaydi. Odatda, bolaning maktabga tayyorligini ota-onalar bolani hisoblashga, o'qishga, yozishga o'rgatish, deb tushunadilar. Kattalar bu malakalarni o'zlashtirish tushunchasi bolani maktabga tayyorgarligi va samarali o'quv jaraeni, deb hisoblaydilar. Agar bolaning maktabga qabul qilinishiga kengroq yendashadigan bo'lsak, bu davr nafaqat bola uchun, balki butun oila uchun murakkab davr, chunki bu yangi turmush tarzi va faoliyat sharoiti, jamiyatda yangi mavqeni egallashi, kattalar va tengdoshlari bilan yangi munosabatlar tizimidir.

Bolaning kun rejimi, ota-onalar, o'qituvchilar qo'yadigan talablari o'zgaradi. Sinfda bolalarning o'zaro munosabati bog'chadagidan keskin farq qiladi, boshqa o'quv malakalari tengdoshlari orasida mavqeni belgilaydi. Maktabdagi o'qish faoliyati maktabgacha ta'lim muassasidagi o'yin faoliyatidan o'z mazmuni va tashkiliyligi bilan farqlanadi. To'g'ri, bugungi boshlang'ich ta'limda dars jaraenida o'yin mashg'ulotlari ham o'rin olgan, ular bola diqqatini jalb qilish, taranglik va toliqishni bartaraf etishga mo'ljallangan bo'ladi. Biroq maktabning ilk kunlarida bola kuchli zo'riqish, stress holatida bo'ladi. Bolaning kun tartibi o'zgargan, "sen endi katta bola bo'lib qolding", degan gaplarni kun

bo‘yi eshitish, yangi tengdoshlar orasida moslashish, yozish, o‘qish ko‘nikmalarini egallash kabi yangi xolatlarga moslashish jaraenida bolada ruhiy zo‘riqish holatlari namoen bo‘lishi tabiiy albatta. Shuning uchun ham, bolani maktab ta’limiga tayyorlashda oila a’zolari ba’zi ilmiy asoslarni bilishlar va hisobga olishlari lozim.

Ushbu muammoning dolzarbligini A.V.Zaporojes alohida qayd etib, “Kichik bolaning potensial imkoniyatlari o‘zlashtirishdagi optimal pedagogik sharoitlari, uning uchun garmonik rivojlanishi tezlashtirilgan yil ilk ta’lim bilan yaratiladi, bu bolalikni qisqartirish ilk yoshdan, maktabgacha yoshdan esa, maktab yoshiga va hok. muddatidan oldin amaliy va tasviriyl faoliyatda, shuningdek bolalarning bir-biri va kattalar bilan munosabatini maksimal darajada boyitish zarurdir”, deb ta’kidlaydi.

Bola surat chizmoqda, ona unga yaqinlashab, “yana mashina, o‘yinchoqlarni chizyapsanmi! Kel undan ko‘ra yozishni, o‘qishni o‘rganamiz!”, deb murojaat qilmoqda. Bir qarashda bu oddiy vaziyat, ona bola bilan muximroq vazifa bilan shug‘ullanmoqchi. Biroq, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolaning ruhiy va shaxsiy rivojlanishi uchun surat chizish yetakchi faoliyat xisoblanadi. Binobarin, bola surat chizaetganda ota-onal u bilan suhbatlashishi, ko‘proq savol berishi, tasvirlangan predmetlar to‘g‘risida to‘laroq ma’lumot berishi, surat chizishni yangi usullarini o‘rgatishi, bolani har tomondan qo‘llab-quvvatlashi juda muxim.

Bolani maktabga tayyorlashda ota-onal avvalo bolaning diqqat turg‘unligini, xotira faolligini, so‘z boyligini, tafakkur rivojini ta’minlashi lozim. Ota-onaning faolligi bolaning maktab ta’limiga tez va oson moslashishiga, qo‘l motorikasini rivojlanishiga, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini mustahkamlanishiga zamin yaratishi mumkin. Bolaning maktab ta’limiga ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma’naviy tayyorlashida ota-onal nimalarga e’tibor berishi lozim?

Birinchidan, bolaning kun tartibi qat’iy bo‘lishi lozim. Bola vaqtida

ovqatlanishi, dam olishi, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishini ta’minlash kerak. Agar bolada kamqonlik alomatlari bo‘lsa, bu albatta uning o‘qish faoliyatiga ta’sir qiladi, bolada bilish jaraenlarining sustligi kuzatiladi. Shunday ekan, ota-ona bolaning ovqatlanish ratsioniga ham alohida e’tibor berishi darkor.

Ikkinchidan, ruhiy zo‘rqishni oldini olish uchun ota-ona avvaldan, bolani o‘qish jaraeniga, 45 daqiqalik dars jaraeniga, yangi muxitga moslashishiga tayyorlab borishi kerak. Buning uchun ota-ona uy sharoitida farzandining do‘stlari bilan “maktab-maktab”, oilaviy “bilag‘on-topag‘on” kabi o‘yinlarni tashkil etib, bolani ihtieriy ravishda uzoq muddat shu mashg‘ulot bilan shug‘ullanish ko‘nikmasini tarkib toptirishi zarur.

Uchinchidan, bosh miya strukturasining yaxshi rivojlanishi, asab-psixika xolatining tayyor bo‘lishi turli qo‘l-motorika o‘yinlariga ham bog‘liq. Shunday ekan, ota-ona bolani tayyorlashda mayda qo‘l harakatlarini talab qiluvchi o‘yinlar (misol tariqasida, xalqimizning “to‘p-tosh” o‘yini keltirish mumkin) va mashg‘ulotlarni (tugma qadash, mayda toshchalarni, cho‘plarni sanash va xoq.) tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bola ota-onaning mehrini, o‘zini kerakligini xis etishi lozim. Ota-onaning bunday ruhiy qo‘llab-quvvatlashi bolada o‘ziga ishonch xissini mustahkamlaydi, yangi sharoitga, muxitga tez moslashishiga yerdam beradi. Shunday ekan, ota-ona bolaning kuni qanday o‘tganligi, do‘stlari bilan munosabati qandayligini, maktabda qanday yangiliklar ro‘y bergani to‘g‘risida samimiy tarzda qiziqishi juda muxim.

Xulosa tarzida shuni ta’kidlash lozimki, bolani maktabga tayyorligini faqat uning yozishi va o‘qiy olish ko‘nikmalarigina tashkil qilmaydi. Ota-ona o‘z farzandini maktab ta’limiga tayyorlashda uning ruhiy, jismoniy, ma’naviy rivojlanishi shakllantirishi, o‘qish motivatsiyasini tarkib toptirishi, individual xususiyatlariga asoslangan xolda, diqqat, xotira, tafakkur, xayol, iroda sifatlarini mustaxkamlashi lozim. Har bir bola bolalar jamoasiga kira olish, boshqalar bilan

birga harakat qilish, ba'zan yordam berish, ba'zan o'zini himoya qilish o'quvlarini egallay olishi lozim. Shundagina u shaxslararo munosabatlarda ijobiy natijaga erishib, atrofdagilarga nisbatan samimiy va hayrixox bo'ladi, bu esa, komillik sari ilk qadam hisoblanadi.

NIKOH OLDI OMILLARI HAQIDA YOSHLAR TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Yusupova Sevara Odilbekovna
Xorazm viloyati Xonqa tuman 11- maktab psixologi

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi. Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo'lmaganidek, Sizning qurajak oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir.

Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri noo'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, bo'zilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, bu'zilib ketmagani taqdirda ham, unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi.

Xo'sh, shu poydevorlar ya'ni nikoh oldi omillari nimalardan iborat? Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shun ta'kidlab o'tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish

psixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'p qirrali omillar kompleksidan iborat bo'lib, oila qurayotgan yoshlarning, shu o'zlari qurayotgan oilaviy hayotlariga qaydarajada «yetilgan»liklarini belgilab beradi. Bu yerda eng muhimi shu yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qaydarajada javob bera olishi nazarda tutiladi.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudoddir. Agar odamning u yoki bu faoliyatga «to'la yetukligi» haqida gapiradigan bo'linsa, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab, u'zoq muddatli hamda o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etuvchi faoliyat jarayoni bo'lib, mazkur jarayon quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi ijtimoiy oilaviy munosabatlar negizida amalga oshiriladi:

1. Oilaning moddiy ta'minotini yo'lga qo'yish (oilaga budgetini yaratish, oilaga tegishli shaxsiy xo'jalik (tomorqa hamda chorvachilik)ni barpo etish, undagi ishlarni yuritish, qo'shimcha daromad manbalari (xunarmandchilik, ijara dexqonchiligi yoki chorvachilikni tashkil etish)ni izlab topish, kasbiy faoliyatni olib borish va xokazolar).

2. Oila a'zolari (keksa, o'rta va yosh avlod vakillari) o'rtasida muomala munosabatlarini yo'lga qo'yish.

3. Oilaviy xordiq (maishiy hamda ma'naviy mazmundagi)ni tashkil etish (bo'sh vaqt hamda ta'til davrlarini birgalikda o'tkazish).

4. Oilaviy tadbirlarni uyushtirish (tug'ilgan kun, beshik, sunnat, muchal, nikox, kumush va oltin to'ylar, turli o'quv yurtlarini tamomlaganlik, birinchi maoshni olganlik, xukumat mukofotlari bilan taqdirlanganlik, xizmat yoki ilmiy soxada muayyan yutuqqa (xususan, ilmiy daraja yoki unvonga ega bo'lganlik munosabati bilan tashkil etiluvchi tadbirlar, aza bilan bog'liq marosimlar).

5. Farzandlar tarbiyasini tashkil etish, ularga ilm va hunar sirlarini o'rgatish.

6. Oila a'zolarining ijtimoiy munosabatlar jarayoni (qo'ni qo'shni, qarindosh urug', hamkasb hamda do'stlar bilan ijtimoiy aloqani tashkil etish)dagi qatnashuvi.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan oilaviy hayotning bir maromda kechishini ta'minlash bir qator omillar mavjudligini taqozo etadi. Xususan:

a) oila a'zolarining ma'naviy axloqiy qiyofasi, muayyan axloqiy e'tiqodga egaliklari, ularning dunyoqarash hamda tafakkurlari ko'lamining kengligi;

b) oila a'zolari o'rtasida bir birini tushunish, shaxsiy istaklardan o'zgalar xoxish istaklarini yuqori qo'yish, ularni qadrlash, xurmat qilish, o'zaro yordamni tashkil etish tuyg'ularining qaror topganligi;

v) oila a'zolarining ijtimoiylashuv (ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroklari) darajasi.

Tadqiqot muammosi doirasida tashkil etilgan tajriba sinov ishlari jarayonida ushbu omillarga tayanib ish ko'rildi. Tajriba sinov ishlarini olib borish chog'ida biz qizlarni oila sharoitida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash oila tarbiyasining asos bo'lishi lozim degan xulosaga keldik.

Tadqiqot jarayonida oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyat quyidagi shakllar asosida tashkil etilganda kutilgan natijani berishi mumkinligiga guvoh bo'ldik:

a) nikox va oilani shakllantiruvchi asoslar, nikox va oila qurish shartlari, oilaviy munosabatlar mazmuni, oila mustahkamlligini ta'minlovchi hamda oilada sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltiruvchi omillar, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, shaxsiy, shuningdek, oilaning boshqa a'zolari salomatligini saqlash, oila byudjetini shakllantirish, undan oqilona foydalanish, oila muhitida farzandlar tarbiyasini tashkil etish, uy ro'zg'or yumushlari va oila xo'jaligini boshqarish, er-xotin munosabatlari, ota-ona va bolalarning burchlari kabi mavzularda uyushtiriluvchi suxbatlar.

b) "Qizlar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari", "Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida nimalarga e'tibor berish lozim?", "Ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar", "Balog'at davri murakkab jarayon", "Komillikning ma'naviy asoslari", "Muomala madaniyati va uni shakllantirish shartlari", "Oilalarning muqaddasligi", "Oilaviy ajrimlarning oldini olish", "Xalq pedagogikasida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarining yoritilishi", "Qizlarni

mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida jamoatchilikning ishtiroki” kabi mavzularda tashkil etilgan ma’ru’zalar.

v) “Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e’tibor berish lozim?”, “To’kis baxtning mezoni moddiy farovonlikmi?”, “Ibratli oila qanday bo’lmog’i kerak?”, “Namunali qaynona (kelin) o’zida qanday xususiyatlarni aks ettira olishi lozim?” kabi mavzularda o’tkazilgan baxs munozalar.

g) “Qizlar davrasi”, “Eng namunali kelin”, “Ibratli oila”, “Tadbirkor ayol”, “Ijodkor ayol” kabi mavzularda tashkil etilgan ko’rik (tanlov)lar;

d) “Oilaviy budjetni qanday shakllantirmoqchisiz?”, “Oila xo’jaligini qanday yo’lga qo’ymoqchisiz?”, “Oilaviy munosabatlarda yuzaga kelgan ziddiyatlarni bartaraf eta olasiz?” mavzularidagi seminar-treninglar

Ota-onalar (yoki oilaning boshqa a’zolari,xususan, keksa avlod vakillari) tomonidan ko’rsatilayotgan shaxsiy namuna qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Zero, qizlar shaxsiy hayotiy tajribani, eng avvalo, ota ona, buva buvi, aka uka, opa singil, qarindosh urug’, qo’ni qo’shni, pedagoglar, shuningdek, do’stlar, xullas, ular bilan o’zaro ijtimoiy aloqada bo’luvchi kishilarning xatti harakatlari, yurish turishlari, muomala odobi, ma’naviy axloqiy qiyofasi orqali o’zlashtiradilar.

ПСИХОГИМНАСТИКА МАШҒУЛОТЛАРИ ЁРДАМИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДАГИ РУХИЙ ЗЎРИҚИШЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ

Матназарова Фотима Мақсудовна

Хоразм вилоят Хонқа тумани 52-мактаб психологи

Бугунги кунда мамлакатимизда таълим тизимига давлат сиёсати даражасида эътибор берилмоқда. Бугунги кунда бола тарбиясига педагогик-психологик ёндашувнинг ўзига хос афзалликлари мавжуд. Жумладан, бола билан ишлаш, унга таълим-тарбия беришда самарали натижаларни кафолатлайди. Сўнгги вақтларда боланинг таълими ва тарбиясига дифференциал, индивидуал ёндашган тарзда муносабатда бўлинишига кўп дуч келмоқдамиз. Албатта, шундай болалар бўладик, улар билан муносабатга киришиш, гаплашиш – инсонга фақатгина завқ бағишлайди. Улар барча нарсага қизиқади, ҳаммаси “қўлларидан келади”, хушмуомала, қобилиятли ва жуда ёқимтойдирлар. Лекин ҳар қандай болани ҳам бу каби болалар тоифаси қаторига киритиб бўлмайди. Шунда педагог ҳар бир қиз ва ўғил қўнглига йўл топа олиш учун ўзида мавжуд барча тажрибани, ижодкорлик қобилиятини, ички ҳис-туйғуларини ишга солишига тўғри келади. Демак, бола шахсини шакллантиришда ўқитувчининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса, унинг ҳар бир боланинг шахс сифатида шаклланишида жавобгарлигини тақозо этади. Шунга кўра ўқитувчи ўқувчи-лар билан бўладиган муомалада, мулоқотда ибрат, намуна бўлиши, ўқувчини ҳар томонлама диққат билан ўрганиши, унинг шахсий хусусиятлари, қобилиятларини билиши, педагогик назокатини намоён қилиши, болаларнинг хулқ-атвори, иш натижаларини ҳаққоний баҳолаш ва уларга ўз вақтида ёрдам кўрсата олиш ҳамда оилавий аҳволи билан қизиқиши зарур ҳисобланади.

Бола ижтимоийлашуви унинг жисмоний ва руҳий ривожланишининг салбий хусусиятлари билан қийинлаштирилиши мумкин. Боланинг ижтимоий меъёр ва қадриятларни ўзлаштириши муҳитнинг салбий таъсири оқибатида нотўғри йўналишда кетиб қолиши мумкин. Натижада болада турли руҳий зўриқишлар ҳолатлари юзага келади. Бунинг натижасида бола меъёрий ижтимоий муносабатлардан четда қолиб кетиб, махсус ёрдамга муҳтож бўлиб қолади. Бугунги кунда асаб ва руҳият билан боғлиқ муаммолар бошланғич синф ўқувчиларида ҳам маълум кўринишларда ўзини намоён этмоқда. Демак, болаларнинг индивидуал ва жисмоний имкониятларидан ўринли фойдалантирган ҳолда таълим фаолият жараёнига турли психологик усуллари қўллаш ижобий

самара беради. Жумладан, психогимнастик машғулотлар бола руҳиятига сезиларли таъсир этади. Ҳозирги кунда мактабларда турли хил психотренинг турлари кенг қўлланилади, аммо амалий психотузатиш усули сифатида психогимнастика камдан-кам учрайди. Бошланғич синф ўқувчилари орасида турли хил руҳий зўриқишларни олдини олишда ҳам психогимнастик машқлар ижобий самара беради.

Психогимнастика 1979 йилда чех олими Ган Юнов томонидан аниқланган, яъни ишлаб чиқилган. Асосан унинг методикасида психогимнастик машқларга пантомимика, гуруҳ ўйинлари ва рақс киритилган. Психогимнастик машқлар гуруҳ ёки якка тартибда ўтказилади.

Психогимнастика 3 йўналишда амалга оширилади:

1. Релаксация – инсондаги руҳий зўриқишни енгиллатиш, қайта тиклаш.
2. Ишчанликни ошириш – фаолиятга киришишда руҳан қўллаб-қувватлаш, жисмоний фаолликни ошириш, энергиядаги мувозанатни сақлаш учун қўлланади.
3. Ҳиссиётни бошқариш – инсонни эмоционал ҳолатларини яхшилаш, ўзгаларни тўғри қабул қилиш, эмоционал ҳолатни тўғри намоён этиш кўзда тутилади.

Психогимнастика - бу ҳаракат активлигини ривожлантирувчи, идрок этиш процессини ўстирувчи (идрок, хотира, диққат, фикрлаш ва нутқ) дидактик ва ҳаракат уйинлари ва нафас гимнастикасидир.

Психогимнастика этюдлар, машқлар ва ўйинларни ўз ичига олади. Психогимнастиканинг мақсади бола психикасини ўстириш ҳамда бола психикасини коррекция қилишдан иборатдир. Боланинг ақлини ва ҳиссиётларини ривожлантириш билан бирга психогимнастика машғулотларида тана нуқсонларини (масалан, ҳаракат камчиликлари, нутқ камчиликлари) ҳам коррекция қилинади.

Психогимнастика 60-йилларнинг бошларида таърифланган атама амалиётга жорий қилинди. Чехия мутахассиси Ганя Жунова психогимнастикани психодраманинг махсус элементларига асосланган бутун тизимини яратди. Унинг ривожланиши дастлаб онгни тузатишга муҳтож болалар билан ишлашда

ишлатилган. Аммо, кейинчалик катта авлод бу усулга қизиқиб, уни катталардаги ҳиссий муаммоларни ечишга ўргатиш учун мослаштирилди.

Психогимнастика - бу сўзлашувсиз мулоқотда боланинг онгини амалий тузатиш, унинг мулоқот қобилиятини ва жамиятда ўз ўрнини топиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган.

Психогимнастикани амалга ошириш босқичлари

Психогимнастика саккиз босқичдан иборатдир:

3. Психорелаксация.
4. Психоритмика.
5. Пантомимика.
6. Мусиқа терапияси.
7. Уйин ва машқлар.
8. Ҳиссиётлар ҳосил қилиш босқичи.
9. Мусиқа ва рақс терапияси.
10. Яқун ясаб, ҳулосалаш ҳамда ўз ўзини тинчлантириш босқичи.

Бола психолог томонидан кузатилади. Ишланиши лозим бўлган ҳолат аниқлангач, психолог ҳар бир бола билан индивидуал шуғулланади. Боланинг эмоционал ҳолати диагностика қилинади индивидуал ёки гуруҳий психогимнастика машқи ҳамда мусиқа ва рақс танланади.

Бола психогимнастика машғулотини жараёнида қуйидагиларни ўрганади:

3. Бола ҳаракат машқларини ўрганади.
4. Ташқи таассуротларга ҳис-туйғу билан жавоб беришни ўрганади.
5. Болада тарбия меъёрлари шаклланади.
6. Ролли уйинлар ёрдамида ҳулқ-атвори коррекция қилинади.
7. Ҳиссиётларини мувозанатга келтиришни ўрганади.
8. Психомотор функциялар билан ишлаш ва шуғулланиш.
9. Ауторелаксация.

Ҳар хил уйин ва машқлар тарбиявий ва психотерапевтик мақсадни кўзлаган ҳолда бажарилади.

Психогимнастик машғулотларни ўтказиш бўйича кўрсатмалар:

- Сезгиларни тарбиялаш.
- Атроф муҳит билан мулоқот эркинлигига эришиш.
- Ижодкорлигини ривожлантириш.
- Ақлий ва эмоционал ривожланиш бузилишлари.
- Ҳаракат нуқсонларида.
- Нуткий нуқсонларда.
- Мактаб кўркуви.
- Бошқа турдаги кўркувлар.
- Уялиш. (нормал ҳолат чегарасидан чиқиш)
- Айбдорлик ҳисси.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1.Чистякова М.И. Психогимнастика. - М.: 2000. - 150 с.

2.Макшанов С.И, Хряжева Н. Ю. “Психогимнастика в тренинге” Ч.1, Ч.3
СПб.,1996. –29 с.

3.Ушатилов А.И , Ганишина И.С. “Аудиовизуальная психология как средство подготовки курсантов-психологов к диагностике индивидуально-личностных особенностей осужденных”. Рязан 2011.4.К.

ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TO'G'RI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLAR VA ERTAK TERAPIYA ORQALI TA'SIR ETISH USULLARI

*Yusupova Sevara Odilbekovna
Xorazm viloyati Xonqa tuman 11 maktab psixologi*

Ushbu maqola zamonaviy psixologiyada bola bilan ishlashda keng foydalaniladigan psixokorreksion metod – didaktik o'yinlar va ertak terapiyasi haqida.

Bolalarning samarali bilim olishida hozirgi paytda didaktik o'yinlarning ahamiyati kattadir.Didaktik o'yinlar diqqatni jamlashga,tafakkurni

rivojlanishiga,jamoadam hamkorlikda ishlashga o'rgatadi.Masalan: "Yashirin lider" o'yini diqqatni jamlashga, "G'aram tepalik" o'yini hamkorlikda ishlashga,"Bo'lgan-bo'lmagan voqealar" o'yini tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi. "Yashiringan buyumlar" o'yini.Maqsad:O'quvchilarning ixtiyoriy diqqat va ko'rishxotirasini rivojlantirish.O'yinni olib boruvchiishtirokchilarga biror buyumni ko'rsatib,so'ng berkitadi.Bolalarga qanday buyumlar bore di ,qanday rangda edi,qanday shaklda edi,deb so'raydi.Agar bolalarning esidan chiqib qolsa,narsalar yana ochib ko'rsatiladi va yana yopib qo'yiladi.Bunda muhimi bolalarning diqqatini jamlash va xotirasini rivojlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishi uchun eng yaxshi usuldir.

Ertakterapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir.

Ertakterapiya atrof-muhit bilan o'zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsionalbuzilishlarni to'g'rilashda foylaniladigan usuldir.

Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi.Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz,uningichki dunyosini boyitamiz,qalbini davolaymiz,hayot haqida bilib beramiz,xayolini o'stiramiz.

Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: „ Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g'am-tashvishi uchun qayg'urish, o'zganing shodligi uchun xursand bo'lish,begona insonning taqdirini xuddi o'ziniki kabi boshdan o'tkazish kabi insoniylikni qanday bo'lmasin tarbiyalashdan iboratdir''. E'tibor bering-a, bu yerda ikki insonning o'zaro bir-birini tushunishi,bir-biriga g'amxo'rlik qilishi haqida gap bormoqda.

Ertaklarga o'z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm,E.Bern,E.Gordner, I.V.Vajkov,M.Osorina,E.Lisina kabi psixologlar murojaat qilganlar.

Ertaklardan bolalar adolat va adolatsizlik haqida o'zlarining ilk tasavvuriga ega bo'ladilar. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg'urishgamajbur qiladi.Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to'qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi.

Ertakterapiya bolaga nima beradi?

- 1.Ertakterapiya yordamida xayol,ijodiy tasavvur rivojlanadi,ko'ngil xotirjamligiga erishiladi.
- 2.Bola o'zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o'z xatti-harakatlarida qo'llashni o'rganadi.
- 3.Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatiladi.
- 4.Ertakterapiya kattalarga ham o'z fobiya,qo'rquvlarini yengishga yordam beradi,ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin.Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi.

Ko'pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi,sababi bola bu paytda tinch bo'lib,bu aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak.

Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

- 1.Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o'xshaydilar?
- 2.Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?
- 3.Qahramonlarning xatti-harkatlari atrofdagilarga nima beradi – quvonchmi,qayg'umi? Qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini,mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib,nutqini o'stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo'qotib,o'ziga ishonchni orttiradi.N.L.Kryajeva qizg'anchiq,egoist bolalarga - „Baliqchi va baliq”haqidagi ertakni, qo'rqq bolalarga - „Qo'rqq quyonlar” haqidagi ertakni, ishonuvchanlariga „Buratinonaning sarguzashtlari”ni, qaysar bolalarga „No'xat ustidagi malika” ertagini,tinib-tinchimas bolalarga esa „Etik kiygan mushuk”ertagini aytib berishni taklif qiladi.

Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o'zimizning o'zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi. „Zumrad va Qimmat”ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, „Ur to'qmoq” ertagi yolg'onchilikka, „Susambil” ertagi noahillikka qarshi kurashadi.Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib,bola qalbiga ezgulik urug'ini sochadi.

Ota-onalarga maslahatlar:

- 1.Ota-onalar farzandiga ertakni o'qib emas,balki aytib bersalar maqsadga muvofiqdir.Chunki bu ota-onaga dilbandining ertakga qanday munosabat bildirganligini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, ota-ona farzandi bilan birgalikda ertaklar olamiga sayr qiladi, bu esa bolaning unga yolg'iz sayohatidan ko'ra avzaldir.
 - 2.Bolalar o'zgalar tomonidan tasvirlangan obrazlarni yaxshiroq qabul qilish qobiliyatiga ega.Shuning uchun farzandingizga ertak aytib berish chog'ida unda yozilgan barcha manzaralarni tasvirlab berishga harakat qiling.
 - 3.Muhim bo'lgan yana bir qoida – bolaga ertakning chuqur ma'nosini tushuntirib bermaslik kerak.Aks holda ertak o'ladi - o'z ahamiyatini yo'qotadi va undan hech qanday naf bo'lmaydi.
 - 4.Xalq ertaklariga iloji boricha tuzatish va o'zgartirishlar kiritmaslik kerak,aynisa real hayot bilan bog'liq bo'lgan.Bu o'zgartirishlar bolaning ertaklar olamini qabul qilishida qiyinchilik tug'diradi.
- Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o'yinlar,o'yinchoqlar bolaning tasviriyl faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san'at yordamida ham to'g'rilasa bo'ladi.Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir.To'g'ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko'plab muammolar – qo'rquv,injiqlik kabilarni yo'qotish, bolada qat'iyat va irodani shakllantiradi.Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo'llamay, balki oila davrasida muntazam qo'llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi.Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi,ertak terapiyasini o'tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim.Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Nishonova Z.T., Xodjaqulova D.I., Djumaboyeva M.B., Baykunosova G.Yu. „Kichik maktab yoshidagi bolalar xavotirlanish psixokorreksiya ertak terapiyasidan foydalanish uslubiylati”, Toshkent, 2013 yil, 27- bet;
- 2.Стрелкова Л.П Уроки сказки. – М.: Педагогика, 1989, 53 ст;

- 3.Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия. – М.:Класс,1997, 94 ст;
- 4.Salihova M o'smirlarda inqirozdagi depressive holatlarni oldini olish va korreksiyalash –T.,2015
5. Karimova V Psixologiya _T 2002

YOSHLARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING SALOHIIYATI

Matnazarova Zuxra Maqsudovna
Xorazm viloyat Xonqa tumani 37-maktab psixologi

Oila – insoniyat tarixining hamma davrlarida jamiyatning negizi bo'lib kelayotgan muqaddas dargohdir. Bu dargoh millatning urf – odatlarini saqlashga ko'maklashadi. Shu bilan birga oila, kelajakda farzandlar qanday inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Har bir millat o'z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko'radi.

Inson avvalo oila bag'rida unib-o'sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida –mahalla-ko'yda, ta'lim muassasalarida sayqal topadi. Shunday ekan, vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani oila – mahalla hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi.

Yoshlarimiz ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Inson ongi uchun ketayotgan bugungi kurashli zamonda, hamisha ogoh, hushyor bo'lish, hali oq-qorani ajrata olmagan go'r yoshlarni bunday oqimlar domiga tushib qolishdan asrash ta'lim-tarbiya ishiga mas'ul bo'lgan ota-onalarga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Ulug' ma'rifatparvar A.Avloniy aytganlaridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot ,yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir. "Agar farzandga avval

boshidan yaxshi tarbiya berilsa, yaxshi voyaga yetadi, ota-onanai ham baxtiyor etadi. O'z holiga tashlab qo'yilsa, baxtsiz bo'ladi. Donishmandlarimiz farzand tarbiyasi haqida ruhiy, ahloqiy, jismoniy, aqliy, nafsiy, ijtimoiy va jinsiy tarbiya berish lozimligini ta'kidlaydilar.

Darhaqiqat, oilaviy muhit , ota-ona timsoli munosib farzand tarbiyalashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki farzandlar ilk tarbiyani oilada oladilar. Oiladagi tarbiya oilaviy hayotni kuzatish ,o'rnak olish va yaxshi o'gitlar eshitish orqali shakllanadi.

Bir so'z bilan aytganda farzand oilada jismonan, fikran va ahloqan tarbiyalanishi, kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi ahloq bilan qurollantirilishi lozim. Biz ham ajdodlarimiz qadriyatlariga tayangan holda oila muqaddasligini ,butunligini saqlashimiz, farzandlarimizni vatanparvar, insonparvar, yuksak e'tiqodli, odob-ahloqli va albatta barkamol etib tarbiyalashimiz lozim.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy vazifalarini hisobga olish lozim.

Lekin shuni alohida qayd etish lozimki, oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vazifasi tarbiyadir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'ngi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning paydo bo'lishi tashvishlanarli holdir. Jamiyatning barkamol fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi.Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va

xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda “qush uyasida ko’rganini qiladi” deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarimizni o’zlashtiriradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Odam bolasi faqat o'z oilasidagina va faqat o'z yaqinlari qurshovidagina o'zini tom ma'noda xotirjam, erkin his qila olishi mumkin, xolos. Bu borada oilaning o'rnini hech bir ijtimoiy muassasa bosa olmaydi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasi ularni komillikka yetkazish, nafaqat ularni oilaga tayyorlashda balki, bilimli, ilimli bo'lib, jamiyatimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'g'il bolalarni oilada mustaqil hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash o'g'il bolalarni tafakkurini boy, irodasini mustahkam, hayot tashvishlari va qiyinchiliklarni yenga oladigan, mard, matonatli bo'lishiga va barkamol shaxs sifatlarini ko'rsatadigan barcha insoniy fazilat va xislatlarni shakllantirishga bevosita yordam beradi.

Oila osoyishtaligini va mustahkamligini saqlash oila a'zolarining burchi va vazifasi hisoblanadi. Farzandga to'g'ri tarbiya berish, ularni ahil-inoqligi, bir-biriga ishonch, o'zaro hurmat, e'tibor yoki kelajakda daho bo'lishida ota-onalarning o'rnini beqiyosdir, chunki har bir farzandning xarakteri, qobiliyat va temperamenti o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular alohida yondashuv talab etadi. Bolaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ota-onalari oilada shunday tartib-intizom o'rnatishi kerakki, kun davomida bolaning bo'sh vaqti bekorchi narsalarga sarflaydi. Buning uchun bola kun tartibini mazmunli tashkil etish yuzasidan maslahatlar berish, nazoratga olish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash lozim, chunki har bir rag'bat bolada o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda bolalar tarbiyasi, oiladagi emotsional muhit, oilani moddiy jihatdan ta'minlanganligi, sayr-tomoshalarni tashkillashtirish, “xo'ayin”, “uy bekasi” rollari, oilaviy submadaniyatni tashkillashtirish kabi nozik va e'tiborli jihatlarga mas'uliyat bilan yondoshish kerakki, bular kelajagimiz uchun foydadan xoli emas.

Shuning bilan bir qatorda ba'zi oilarda bolalarga bo'lgan e'tiborsiz va loqaydlik nosog'lom muhitning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda va bu bola ruhiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Jumladan, ota-onaning bolalar oldida tez-tez janjallashuvi, o'zaro hurmatsizlik, qo'pol muomalada bo'lish bolani kamgap, qo'rqq, jizzaki, odamovi bo'lishiga sabab bo'ladi, natijada ko'pchilik oldida fikrini bayon etishga qiynaladi. To'g'ri hech bir ota-ona farzandiga hech qachon yomonlikni ravo ko'rmaydi, aksincha, kelajakda yaxshi inson, yaxshi kasb egasi bo'lsin deb yaxshi niyatlar qilishadi. Ammo yuqoridagi kabi holatlar o'z vaqtida oldi olinmasa bola tarbiyasini izidan chiqarishi mumkin.

“Bola boshidan” - deydi dono xalqimiz. Farzand tarbiyasi ota-ona bergan tarbiyaga qarab baholanadi. Farzandning odobli yoki odobsiz bo'lishida ota-onaning o'rni kattadir.

Bola tarbiyasi bilan astoydil shug'ullangan oilalarning bolalari hayotda o'z imkoniyatlarini qiynalmasdan namoyis eta oladilar. Bola tarbiyasida ota-onaning roli muhim hisoblanadi. Tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko'zga tashlanadi. Oilada farzand tarbiyasida qo'yilgan har bir xato va kamchilik insonning kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, to'g'ri tarbiya kelajak poydevori. Bola tarbiyasi yengillik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, sezgirlik bilan bo'lishi kerak.

To'g'ri tarbiya, oilaviy muhit, to'g'ri tanlangan do'st, vaqtdan unumli foydalanish bu insonni ulug'likka chorlaydi va hayotida hech ham adashmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila qadim zamonlardan buyon hayot davomiyligini ta'minlab kelayotgan manbadir. Oilasiz jamiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Oilaning mustahkamligi, barqarorligi esa balog'at ostonasida turgan yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq.

Barchamizga aqlan yetuk, ma'nan barkamol, jismonan sog'lom farzandlar kamolini ko'rish nasib qilsin.

MAKTAB PSIXOLOGINING O'QUVCHILAR BILAN O'TKAZADIGAN INDIVIDUAL SUHBAT USULLARI

Matnazarova Zuxra Maqsudovna
Xorazm viloyat Xonqa tumani 37-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab psixologining o'quvchilar bilan o'tkazadigan individual suhbat usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: individual, hissiy holat, xulq-atvor, aloqa o'rnatish, tinglash, pozitsiya, o'smir, tajovuzkorlik, liderlik.

Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari ish faoliyatida uchrab turadigan eng katta kamchiliklardan biri o'quvchilar bilan individual ishlashda nimalarga e'tibor berish lozimligi haqida to'liq bilimga ega emasliklaridir. Individual suhbatda amaliyotchi psixolog eng avvalo suhbatni qanday o'tkazishni bilishi kerak, o'quvchi suhbat jarayonida o'zini qiynab turgan muammoni bemalol ayta olishi, psixologga ishonishi, uni yordam bera olishi, muammoni bartaraf etish yo'llarini topib berishiga ishonch hosil qilishi kerak. O'quvchi bilan individual suhbat jarayonida u bilan faqatgina tabiiy, ishonchli munosabatlarni o'rnatish zarur.

Avvalo suhbat olib borilayotgan bolaning hissiy holatini his qila bilish kerak. Masalan, bolaga jarohat yetkazishi mumkin bo'lgan savollarni bermaslik, xulq-atvorini his qila bilish, o'zining bolalikdagi tajribasiga tayangan holda, uni o'zidek qabul qila olish qobiliyati, bolaning rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlarini bilish, xulq-atvorning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

Agar bolaning jamiyat bilan aloqalari buzilgan bo'lsa, u bilan aloqa o'rnatishning birgina usuli – u yashayotgan muhitni o'rganish. O'quvchiga sezdirmagan holda uning ota-onasi bilan suhbatlashish, oilaviy sharoitini o'rganish, shundan keyingina o'quvchi bilan individual suhbat o'tkazish kerak.

Suhbatni o'tkazishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

Nima?, Qayerda?, Qachon? kabi savollarini berib ma'lumot olishga harakat qilish lozim. Birinchi suhbatlashganda Nima uchun? tarzidagi savollarni bermaslik kerak.

Bola balki bu haqida o`ylab ham ko`rmagandir va bu tariqa savol uni o`zini noqulay his qilishiga olib kelishi mumkin. Balki javobni bilar va u o`zida ichki qarshiliklarni his etib, bu haqida gapirishni istamas. Bola o`zi hohlamagan ma'lumotlarni berishi, hamda bunday savol uni keyingi uchrashuvga kelishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Birinchi suhbatda bola bera olishi mumkin bo`lgan ma'lumotlarnigina so`rang - uning his-tuyg`ulari va nafsoniyati bilan ehtiyotkorona munosabatda bo`lish lozim.

Individual suhbat o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. *Aloqa o`rnatish.* Aloqa o`rnatish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinishi zarur: Faol tinglash, pozitsiya, pozani suhbatdoshga nisbatan moslashtirish, samimiylik, suhbatdoshga, uning noverbal reaksiyalariga yo`naltirilgan diqqatlilik, suhbatga yo`naltirilgan e`tibor.

2. *Tinglash* – bolaga shunchaki o`z e`tiborini qaratish emas, balki o`zini haqiqatan ham uni tinglab, to`g`ri tushunayotganligingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish lozim.

Tinglayotgan bolaning ro`parasiga o`tirish. Bolani haqiqatan ham to`liq tinglash uchun, uni albatta ko`rib turish kerak. Bundan tashqari, u ham bizni ko`rib turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro`parasida o`tirish maqsadga muvofiqdir.

Ochiq bo`lish. Chalishtirib turilgan oyoq va qo`llar o`z o`rnida himoyalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi, qulayroq o`tirib olib, qo`l va oyoqlarni chalishtirmay, o`zii erkin tutib o`tirgan ma`qul.

Tinglayotgan bola tomoniga biroz og`ib o`tirgan ma`qul. Bunday harakat, odatda, suhbatdoshda bizning unga, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bo`layotganimizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishimiz darajasidan dalolat beradi.

3. *Oila haqida suhbat.* Oila haqida suhbatlashayotganda bola o`z oilasi deb bilgan yoki bir uyda yashovchi insonlar haqidagi gapirib bergan kerakli ma'lumotlarni yozib olishdan boshlash mumkin. So`ng oila a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga shoshmasdan ohista o`tilsa maqsadga muvofiq bo`ladi: kim uni qo`llab-quvvatlaydi, kim esa teskarisi, ko`mak bermasdan ruhini tushirib yuboradi.

3. *Munosabatlار haqida suhbat.* O`smir bilan muloqot o`rnatishda bunday so`zlashuv juda muhimdir. Ushbu suhbatda o`smirning harakteri, o`zaro munosabatlari, liderlik fazilatlarining mavjudligi, tajovvuzkorlik qay darajadaligi, spirtli ichimliklarga va chekishga bo`lgan munosabati, vaqtini o`tkazish uslubi, norasmiy guruhlardagi me`yorlar va unga bo`lgan munosabatlari haqida bilib olish mumkin.

4. *Maktab haqida suhbat.* O`smir bilan maktab haqida suhbatlashish juda muhimdir. Maktabdagi ta`limi haqida savollar berish mumkin: agar maktabni o`zgartirgan bo`lsa qachon va nima sababdan, barcha fanlar bo`yicha o`zlashtirishi qay darajada, maktabdan so`ng qayerda o`qimoqchi, qaysi fanlar yoqadi, shular haqida so`rashi mumkin.

5. *Qiziqishlari haqida suhbat.* Suhbatning aynan ushbu bosqichida, ayniqsa o`smirlar bilan aloqa o`rnatish osonroq bo`ladi. Hayotda unga haqiqatdan ham o`z tanlovi bo`yicha sodir bo`layotgan qiziqarli narsalar haqida gapiradi. U o`zida hamohang bo`lmaganlikni topishga va u haqida ozgina gapirib berishga qodir bo`ladi.

6. *Huquqbuzarlik haqida suhbat.* Ushbu mavzu bo`yicha suhbatni oxirgi bosqichda bundan oldingi mavzulardan so`ng olib borgan yaxshi. Birinchidan, o`smir tashqaridan o`zini qanchalik hotirjam ko`rsatmasin vaziyat u uchun yetarlicha jarohatli bo`lishi mumkin. Ikkinchidan, bizni unga munosabatimiz emas, o`z qilmishiga bo`lgan shaxsiy fikri, munosabati qiziqtiradi. Uchinchidan, odatda ushbu bosqichda aloqa deyarli o`rnatilgan bo`ladi. Suhbatdoshingizni mana shularga ishontirib, unga yordam bera olishingizga ishontirsangizgina u o`zining muammolarini siz bilan o`rtoqlashadi va maslahatlaringizga amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.

MULOQOT JARAYONINING IJTIMOIIY –PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qarriyeva Gulshan Zarifboyevna
Xorazm viloyat Xonqa tumani 32-maktab psixologi

Muloqot — odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya — tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi — bulaming barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Muloqot ijtimoiy faollikning ontogeneza (individual rivojlanish yo'li) paydo bo'ladigan birinchi turidir. Faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, faoliyat va muloqot o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati — nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Har bir kishining o'z «Men»i atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi. Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi.

Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ayrim hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz.

Muloqot — shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarini maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi.

Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish — o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'ziga o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab borish — bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi — o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish. L. S. Vigotskiy, A.N. Leontev, A.R. Luriya, D.B. Elkonin tadqiqotlariga ko'ra, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bu — muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V. Zaporozes va M.I. Lisina izlanishlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi:

1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarning kattalar tomonidan hurmat qilinishiga ehtiyoj tug'iladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlari o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamkorlik jarayonida ma'lum yutuqlarga erishadi:

Muloqotning yana bir muhim vazifasi — u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Kishilar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan kishining qo'li ishga bormaydi. Har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ishchilar, ulaming borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamning ishlash qobiliyatini oshiradi, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar.

Odamlar yonidagi hamkasbga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. Bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun amerikalik olim Dj. Moreno sotsiometrik uslubni ishlab chiqqan edi. Demak, muloqot kishilarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. G'oziyev. Psixologiya. T. «O'qituvchi» nashriyoti. 2003. (darslik)
2. E. G'oziyev. Sh. Azizova. Tashkiliy psixologiya. T. «Universitet» nashr. 1991.
3. F.Akramova. R.Abdullayeva. Oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar. T. 2002. Respublika «Oila» markazi.
4. M. Maxsudova. Umumiy psixologiya. (ma'ruzalar matni) Namangan. 2002.
5. M. Maxsudova. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo'llanma) Namangan. 2003.
6. M. Maxsudova. Z. Qurbonova. Umumiy psixologiya. (muammoli ma'ruzalar matni). Namangan. 2004.
7. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. (muammoli ma'ruzalar matni). Namangan. 2005.
8. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma'ruzalar to'plami). T. 2003. ToshDPU.

O'QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Qarriyeva Gulshan Zarifboyevna
Xorazm viloyat Xonqa tumani 32-maktab psixologi*

Ta'lim tizimida olib borilayotgan tub isloxlarning zamirida o'quvchi yoshlarning komil insonlar sifatida tarbiyalanishi va shakllantirilishi masalalariga aloxida e'tibor qaratilayotganligi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi zamon maktabi o'qituvchilik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zaruriy sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab etmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish"⁷ oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayirlashning boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy- pedagogik-psixologik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi. Talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy haëtiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jaraënida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim o'rin egallaydi.⁸

Bu muammoni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri- bu boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan, mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri-kadrlar tayyorlash sifatini jahon standarti talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonnigina emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish uquviga ega, o'zini o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Darhaqiqat, o'qimishli, ruhan tetik, sog'lom va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi tarzida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 – son Farmoni.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb-hunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorgarlik masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining kun tartibida turibdi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining amaliyotida shu narsa sezilmoqdaki, bo'lajak pedagog mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik mazmunini, shakllangan shaxs modelini va ixtisoslik faoliyatini ta'riflash me'yorlarini ishlab chiqish, faoliyat sub'ekting kasbiy tasavvuri va tafakkurini hamda o'zini o'qituvchi sifatida anglab yetishini tadqiq qilish masalalariga ilmiy jamoatchilikning e'tibori yanada ortmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy talablar asosida kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun mazkur jarayonning negizi hisoblangan pedagog mehnatining mazmunini hozirgi davr talablari darajasida tashkil etish zarur. Kasbiy tayyorgarlik jarayonining har bir qismi va holatini uyg'unlashtirib yaxlit tasavvur qilgandagina, uning o'ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi, murakkabliklarining tarkibini aniqlash, muammolarining yechimlarini topish osonlashadi, nozik qirralari va jihatlari anglanadi, ayni paytda umumpedagogik jarayonning sifati yanada ortadi. Ana shu maqsadda bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga nisbatan munosabat tizimini o'zgartirish muammoga yangicha yondashish, boshlang'ich sinf muallimlari kasbiy tayyorgarligining zamonaviy jihatlari o'rganishni taqozo etadi.

O'qituvchi kasbiy tayyorgarligining tub mohiyatini yechishda muammoning o'ziga xos tomoni, ya'ni o'ziga xos psixologik xususiyatlarini yoritish zarurati tug'iladi. Shu sohaga doir ijtimoiy-tarixiy manbalardan ham ko'rinadiki, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi zamirida insonning shaxsiy va kasbiy kamoloti; kasbiy faoliyatini ta'minlovchi zarur sifat, fazilat, malaka va mahorat; ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlar mazmuni hamda kasbiy qobiliyatdan iborat tizim mujassamdir. Bu esa muammoni eksperimental o'rganishdan oldin o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining ilmiy-nazariy, metodologik muammolari masalasini ijtimoiy-psixologik jihatdan yoritish kerakligini taqozo etadi. Aslida ham o'qituvchilar kasbiy

tayyorgarligini tashkil etishda, eng avvalo, uning sotsial va o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan bog'liq muammoni tekshirish kerakligi nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda inson omilining tobora ortib borishi umummanfaatlar uchun samarali mehnat qilishga undovchi motivlar va stimullar tizimini yaratish insonparvarlikka asoslangan har bir jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalaridan biri sanaladi. Bunday muammolarni hal etish uchun o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligi tizimiga va uni boshqarishga tub o'zgartirish olib kirish ijtimoiy-pedagogik va psixologik izlanishlarning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining pedagogik-psixologik tomonlarini bevosita tahlil qilishdan oldin, albatta, uning inson psixologiyasi va faoliyati bilan bog'liq mexanizmlar hamda qonuniyatlarga aloqador ayrim jihatlariga e'tibor qaratmoqchimiz. O'ylaymizki, o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining pedagogik-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish muammo mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi shaxsi, faoliyati va uning kasbiy tayyorgarligiga daxldor muhim muammolar, ayniqsa, uning kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos psixologik xususiyatlari hamda kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta'sir etuvchi muhim omillarni o'rganish, tahlil qilish bizni quyidagi xulosalarni chiqarishga olib keldi.

O'qituvchi to'g'risida ijtimoiy-tarixiy ta'limotlarda mujassamlashgan o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos psixologik tomonlariga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi davrda ham bo'lg'usi pedagoglar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari va bu jarayonga ta'sir etadigan ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy va pedagogik-psixologik omillarning ahamiyatiga doir qimmatli ilmiy natijalar qayd etilganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi hamda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarish bilan bog'liq muammolar, yoxud ularning yechimi har bir xalqning milliy-madaniy, o'ziga xos psixologik va hududiy xususiyatlari mavjudligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Vatanimiz psixolog olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bo'lg'usi

o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga doir muammolarning juda ko'p jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, biroq pedagogning milliy-madaniy muhitga xos keng imkoniyatlarini aniqlovchi, shaxsiy va kasbiy barkamolligini ta'minlovchi muhim mexanizm – pedagog kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos psixologik xususiyatlari masalasi izlanishlarning vazifalari qatoriga kirmagan. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos psixologik xususiyatlariga doir ba'zi bir muammolar hali ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Shu maqsadda maxsus psixologik tadqiqotlar o'tkazish va uning yutuqlarini kechiktirmay amaliyotga qo'llash zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos psixologik asoslarini tadqiq etishning bugungi kun holatini aniqlashda izlanishlarni olib borish talab etiladi.

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI BO'LGAN AYOLLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHDA INNOVATSION YONDASHUV

*Qodirova Norjonov Ergash qizi
Xorazm viloyati Xonqa tuman 34 maktab psixologi*

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda oilalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida ayollarga nisbatan qo'llanilayotgan zo'ravonlik holatlari va ularni bartaraf etish borasidagi tavsiyalar haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: stress, depressiya, ruhiy shikastlanish, zo'ravonlik, ishonch, tarbiya, trening, psixologik yordam.

Har bir ayol sirli bir hilqat egasidir. Uning qalb eshigini ocha bilgan inson esa cheksiz hurmat sohibiga aylanadi. Ayolni e'zozlash, qadr-qimmatini oshirish oliyjanob xalqimizga xos yuksak afzillatlardan biri hisoblanadi. Afsuski, guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi jamiyatimizda ayollarga nisbatan zo'ravonlik, e'tiborsizlik, tahdid va turli ko'rinishdagi ijtimoiy, jismoniy, ruhiy holatiga ziyon yetkazuvchilar ham uchrab

turgani juda achinarli. Bugungi kunda yosh oilalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolardan biri ham aynan shu. Xo'sh, aslida ayollar ana shu munosabatlarga loyiqmi? Turmush tarzi, yashash muhiti va tabiiy jarayonlar natijasida vujudga keladigan agressivlik, stress va depressiya holatlari ayollarga kuchli ruhiy zarba beribgina qolmasdan, ana shu tayziqlar ostida yashashga majburdek o'zini moslashtirib borishi ayollarda ayollik qadr-qimmati va oilada ham, jamiyatda ham o'z mavqeyini yo'qotishiga zamin bo'ladi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi mutaxassislarni xavotirga va tashvishga solayotgan savollar mavjud:

1. Jismoniy yoki ruhiy shikastlanishlarga psixologik reaksiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishining xususiyatlari ta'siri nimada?

2. Biz uning dinamikasini oldindan ko'ra olamizmi, bu reaksiyaning ana shu ziyon yetkazuvchi hodisalarga individual farqlari nimada va bu farqlar nimaga bog'liq?

Oxir-oqibat, bu savollarga javoblar zo'ravonlik holatini boshidan kechirgan ayol yoki bola bilan nimalar sodir bo'lishini, ularning psixologik reabilitatsiyasi va ijtimoiy qayta moslashuvi qanday amalga oshirilishini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

Oilaviy zo'ravonlik - bu o'z yaqinlariga hukmronlik va nazoratni qo'lga kiritish uchun ularning irodasiga qarshi qilingan jismoniy, iqtisodiy, psixologik va jinsiy ta'sirlarning muntazam ravishda takrorlanadigan harakatlaridir. Shuningdek, oiladagi zo'ravonlikning uchinchi asosiy xususiyatiga e'tibor qaratish lozim. Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oiladagi zo'ravonlik gender muammosining aniq konturiga ega.

Ko'pincha bu turdagi zo'ravonlik qurboni ayollardir. Agar ziddiyat mahalliy, izolyatsiya qilingan xarakterga ega bo'lsa, unda zo'ravonlik tizimli asosga ega va birin-ketin sodir bo'ladigan hodisalardan iborat. Zo'ravon o'z ishini oqlash uchun turli sabablar keltirishi mumkin, lekin ularning hammasi haqiqatdan yiroq. Zo'ravonlikka sababchi asosiy kuch - bu ayoliga (turmush o'rtog'iga) to'liq hukmronlik o'rnatish istagi. Ziddiyat odatda hal qilinishi mumkin bo'lgan muayyan muammoga asoslanadi. Oiladagi zo'ravonlikning "surunkali" holatida, bir kishi boshqasini doimiy nazorat qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, zo'ravonlik holatida nafaqat ayol azob chekadi.

Zo‘ravonlikning jismoniy, jinsiy, psixik, iqtisodiy va shaxs ustidan nazorat o‘rnatish uchun bolalardan foydalanish kabi turlari mavjud.

1. Jismoniy zo‘ravonlik-itarish, qattiq ushlash, otish, tupurish, kaft,musht yoki begona narsalar bilan urish, ushlab turish, bo‘g‘ish, urish, tepish, qurol ishlatish, kuydirish, jabrlanuvchining ijtimoiy yoki tibbiy yordamga murojaatini nazorat qilish va boshqalar. Bu zo‘ravonlik harakatlarining eng keng tarqalgan va xavfli turlaridan biridir.

2. Jinsiy zo‘ravonlik-doimiy jinsiy bosim, zo‘rlik, tahdid yoki shantaj orqali jinsiy aloqa qilishga majburlash (zo‘rlash; ayollarga, boshqa odamlar huzurida, bolalar yoki uchinchi shaxslar ishtirokida jinsiy aloqa qilishga majburlash;

3. Psixik zo‘ravonlik-og‘zaki haqoratlar; shantaj; turmush o‘rtog‘i ustidan nazorat o‘rnatish uchun bolalarga yoki boshqalarga nisbatan zo‘ravonlik harakatlari; o‘zingizga, jabrlanuvchiga yoki boshqalarga nisbatan zo‘ravonlik tahdidi; uy hayvonlariga zo‘ravonlik yoki mulkni yo‘q qilish orqali qo‘rqitish;

4. Iqtisodiy zo‘ravonlik-bolalarni qo‘llab-quvvatlashdan bosh tortish; daromadni ushlab qolish; oilaviy pulni behuda sarflash, ayoli xaridlarni amalga oshirganda cheklarni va ketgan sarf-harajatning miqdorini ko‘rsatib hisobot berishi lozim.

5. Shaxs ustidan nazorat o‘rnatish uchun bolalardan foydalanish-bolalarga jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik; bolalarni garov sifatida ishlatish; ularni jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik qilishga majburlash.

Oiladagi zo‘ravonlik xavfi va uning ta’sirining ko‘lami haqida gapirganda shuni hisobga olish kerakki, zo‘ravonlik harakatlari faqat bir kishiga qaratilgan bo‘lsa ham, boshqa barcha oila a’zolari ham azob chekishadi. Ayniqsa, otasi tomonidan onasining xo‘rlashini kuzatayotgan bolalarning boshiga og‘ir kechinmalar tushadi. Oiladagi zo‘ravonlik xuddi epidemiya kabi biron bir ijtimoiy yoki etnik guruhdan o‘z qurbonlarini tanlamaydi, u aholining turli qatlamlari oilalarida uchraydi. Oilaviy zo‘ravonlik guvohi bo‘lgan bolalar xavotirlanish, tushkunlik, maktabda o‘zlashtirishining tushib ketishi, o‘zini past baholash, qo‘rqinchli tushlar va jismoniy kasallik kabi emotsional va xulq-atvor muammolariga duch kelish xavfi yuqori. Bolalik va o‘smirlik davrida agressiv xatti-harakatlarga moyillik shakllanadi Umuman olganda,

ota-ona munosabatlarida zo‘ravonlik guvohi bo‘lgan bolalar, zo‘ravonlikka uchragan bolalar bilan bir xil psixologik muammolarga duch keladilar. Psixologik xizmat ko‘rsatish, avvalo, ayollardagi ruhiy holati bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Shuningdek, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, kelajakka umid paydo qilish, kayfiyatini ko‘tarish va o‘zi bilan bog‘liq ijtimoiy-ruhiy muammolardan xoli bo‘lishga erishish ko‘zda tutilgan.

Ayollarga psixologik yordam ko‘rsatishda suhbat, so‘rovnoma, proyektiv metodikalar, artterapiya mashg‘ulotlari, harakatli mashqlarni bajarish samaralidir.

Psixodiagnostik tashxis yo‘nalishida “Yomg‘ir ostidagi odam”, “Oila daraxti” kavi proyektiv hamda “Lyusher ranglar testi” “Men o‘zimga va o‘z kuchimga ishonaman” metodikalari tavsiya qilinadi.

Korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar yo‘nalishida “Gulchambar” “Qadriyatlar tizimi”, “Ijobiy va salbiy jihatlar”, “Kechirib yuborish” metodikalari tavsiya qilinadi.

Psixologik konsultatsiya yo‘nalishida “Artterapiya” mashqlarini bajarish, “Ertakterapiya” va rivoyatlardan o‘qib berish, Musiqaterapiyasi orqali ruhiy osoyishtalikka erishish, harakatli mashqlardan foydalish (“Yelka massaji” mashqi), badiiy adabiyotlarni muntazam o‘qib borishni yo‘lga qo‘yish tavsiya qilinadi.

Ruhiy tushkunlikdan chiqish hamda hayotda muvaffaqiyatga erishishda “Men o‘zimga ishonaman”, “Oila va oilaviy qadriyatlar tushunchasi”, “Orzu va maqsad”, “Hayotda o‘z xohishlarimizni anglash”, “Munosib hayot formulasi” va “Muvaffaqiyatli inson bo‘lish sirlari” kabi trening mashg‘ulotlarini olib borish samaralidir.

Bugun biz erkin va faravon yurtda demokratik jamiyatning ajralmas bo‘g‘ini sifatida maydonga chiqayapmiz. Har birimiz qonun ustuvorligi o‘z ifodasini topgan, konstitutsiyaviy majburiyatlar va erkinliklar yaratilgan, shuningdek, gender tengligi tan olingan mustaqil davlatning mustaqil fuqarosimiz. Himoya orderi ta’sis etilgan, xotin-qizlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan jamiyatda yashayapmiz. Yurtimizda ayollar qadr-qimmatini, jamiyatda teng huquqlilik va gender tenglikka ham katta e’tibor qaratilib, bir qator me’yoriy hujjatlar bilan mustahkamlab qo‘yilgani nafaqat ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldina oladi, balki barcha ijtimoiy-psixologik

muammolarni ham bartaraf etishga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 26-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 11-sonli bayoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi "gi PQ-5020-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi VM-250-sonli qarorlari bilan tizimli ravishda jamiyatimizdagi xotin-qishlarning huquqlari, jamiyatga ijtimoiy moslashuvlari mustahkamlab qo'yildi. Shunday ekan, har bir ayol baxtli hayot tarziga loyiqdir.

BUGUNGI KUN IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUA`MMOLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Qodirova Norjonov Ergash qizi
Xorazm viloyati Xonqa tuman 34 maktab psixologi*

Jannatmakon yurtimizda jamiyki inson nafaqat inson tirik jon borki ularning ushbu manzilda istiqomat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilgan va mavjud. Yaratganning o'zi ushbu yurtga rahmat nazari ila boqqanligi hech bir O'zbekistonlik yurtdoshlarimizga sir emas. Yurtimizda mavjud shart-sharoitlar dunyo hamjamiyatini ham e'tiborini tortmoqda.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miramanovich Oliy Majlisga murajaatnomalarida sizlarga yaxshi ma'lumki, dunyodagi ko'pchilik taraqqiy topgan mamlakatlarda davlat rahbarining milliy parlament a'zolari huzurida eng asosiy dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha murajaatnoma bilan chiqish tajribasi mavjud.

Davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli bugun O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor, xalq bilan muloqot prinsipiga g'oyat uyg'un va hamohang bo'lib, bizning ish faolyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman, deya o'z fikrlarini bayon etgandilar.

Shukur qilamizki, bizning davlatimiz islohotlari demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Yoshlarimiz va aholi muammolarini o'rganish uchun maxsus kunlar yuqori tashkilotlar tomonidan belgilab qo'yilgan, ammo ushbu muammolarni yechimini topishda hamma ham birdek ish va islohotlarni olib bormayotgani davlatimizni yanada rivojlanib keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishini toki o'sha o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan yoki bo'lmasa muammolardan o'zini olib qochib xo'jako'rsinga ish olib borayotgan xodimlar ham oramizda uchrab turayotgani fikrimizcha achinarli ahvol deb o'ylaymiz. Jilg'alar birlashib daryoni hosil etadi. Agarda yurtimizda jonkuyar, fidoyi insonlar faoliyat olib borsalar, ana o'sha jilg'alar o'z yo'nalishida daryoga quyiladi hali yetib kelmay qurimasdan.

Fikrimizcha, bugungi kunda ijtimoiy-psixalogik muammolardan birini yuqorida keltirib o'tdik. Ushbu holatni yanada yorqinroq tarzda tushuntirib o'tishni joiz deb bildik. Bilishimizcha, muammosiz xonadon bo'lmaganidek mammosiz jamiyat ham dunyoning hech bir joyida topilmaydi. Bizning vatandoshlarimiz orasida ham ishsizlik muammosi hamyurtlarimizni birmuncha mushkul holatga olib kelayotgani hech birimizga sir emas. O'zimiz qishloqda psixolog vazifasida ishlaganligimiz va vatanga, hamyurtlarga bo'lgan mehr tuyg'usi ushbu ishsizlik muammosini bartaraf etish yo'llarini o'ylab ko'rishga va tafakkur etishga majbur etadi. Maktabni tamomlayotgan va ta'lim olayotgan yosh avlodimiz kelajak hayotlarida oila boqishlari va kelajak avlodlarini mukammal shaxs etib tarbiyalashlari uchun iqtisodiy muammolarini hal etishlari uchun qanday yo'nalishlarda bo'lmasin o'zlarini tiklab ketishlari darkor. Buning uchun astoydil fanlarni o'zlashtirib martabali oliy ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarimiz ham ko'p albatta, ammo barcha yoshlarimiz ham fanlarni birdek o'zlashtira olmaydilarku. Barchamizga ma'lumki, jannatmakon yurtimizni sarhil mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari bilan taminlab berilishida qishloq aholisining xizmatlari katta. Bundan tashqari yosh oilalardagi iqtisodiy yetishmovchilikning

oqibatida oilalarda vujudga kelayotgan muammolar oqibatida maktabda tahsil olayotgan ko'zmunchoqlarimizning ruhiy holatiga tasir qilayotgani va ushbu holat ayanchli holatlarga olib kelayotgani qalbimizni larzaga keltiradi. Shuning uchun biz murajaatlarni o'rganish jarayoniga tashrif buyurib har bir talabgor oila vakillariga dehqonchilik qilishlari uchun unumdor yerlardan davlat shartnomasi asosida yer maydonlari ajratilishi xususida o'z fikrimizni bayon etgan edik. Dehqonchilik bilan shug'ullanish asnosida olingan foydadan chorva mollarini ko'paytirib oilaviy budjet miqdorini ham oshirib borardilar. Oilada unib o'sayotgan farzandlar esa yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan to'g'ri foydalanib, o'z biznes rejalarini amalga oshirar edilar va tizimli ravishda juda ko'p muammolar yechimini topar va rivojlanish yanada yuksalar edi.

Fikrimizni murajaatnomalarni o'rganayotgan yuqori tashkilot vakillariga bildirsak, yuqorida keltirib o'tganimizdek loqaydlikmi yoki boshqa sabablarmi odamga qo'yib bersang, nimalarni ko'ngli tusamaydi qabilidagi gaplarni ham eshitib olganmiz, vaholangki, bizning ushbu murajaatlarimiz zahirida anchagina jamiyat muammolarining yechimlari turgan edi. Afsuski, bunday shaxslar jilg'alarni quritib davlatimiz rivojlanishiga atroflicha to'sqinlik qilishayotgan bo'lsalar ne ajab.

Ta'kidlab o'tishimiz darkorki, yuqori tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlardagi loqaydlik afsuski aholi orasida ham uchrab turadi. Bejizga davlat bilan shartnoma asosida deya ta'kidlab o'tmadik. Yoshlarga ajratilgan ma'lum miqdordagi yerlardan kimdur unumli foydalandi, kimdur tashlab qo'ydi afsus.

Muhtaram Prizdidentimiz "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" deb nomlangan kitoblarida "Biz so'ngi yetmish yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatning, undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat, deb hisoblab keldik, ana shu masalada ham Konstitutsiyada tub burilish yasalgan.

Ya'ni, asosiy qonunimizda "davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslari jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", degan modda kiritilgan.

Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi".

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati va xususiy mulkni himoya qilish yuzasidan yaqinda qabul qilingan Farmon talablariga so'zsiz amal qilishni taminlash shart. Nega deganda, xalq boy bo'lsa, davlat ham albatta boy va qudratli bo'ladi, deya ta'kidlaganlar.

Yurtboshimiz o'z xalqi va davlati uchun barcha imkoniyatlar eshiklarini ochib berayotgan bir vaqtda yurtimiz aholisi ham munosib tarzda javob qaytarmog'imiz darkor. Agarda o'zimizda birdamlik, yakdillik ,bag'rikenglik tuyg'ularini yuksaltira olsak va faqat oldinga va yana oldinga intilsak, barcha ezgu amallarimizni amalga oshira olamiz.

Jamyatimizda psixologik muammolardan yana biri bu boqimandalikdir. Besh qo'l baravar bo'lmaganidek ayrim insonlar garchand o'zi sog'lom va ishga yaroqli bo'la turib, oson mablag' keluvchi yo'llarni turli manzillardan izlaydilar va o'zlariga insonlarni e'tiborini qaratishni kasb qilib olishgan. Bunday muammolarni yechimi borasida ularga gap uqtirish amri mahol.

Shuning uchun jamyatimiz qusurlarini bartaraf etish uchun maxsus ishchi guruhlar tashkil etilmog'i faoliyatini real yurita oladigan va o'z faoliyati yuzasidan kerak bo'lsa respublikaga kunlik axborot berib turadigan ishchi guruh tashkillanmog'i darkor.

Fikrimizcha ushbu guruh vakillari:

1. Psixiatr va terapeft
2. Bandlikka ko'maklashish markazi xodimi
3. Hokimyat vakili va mahalla faollari

Oiladagi boqimandalik muhitiga barham berilmasa, jamyatimizga yana boqimandalikka o'rganib qolgan insonlar yetishib chiqadi.

Avvalo harkim turli fikrlash dunyosiga ega. Biz oldingi maqolalarimizda qizlar tarbiyasi to'g'risida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirgan edik. Oiladagi psixologik muhit ko'proq ayollarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir qishloqda darslardan so'ng, qishloq ayollarining ruhiyatida kechadigan jarayonlar buning sabab va

yechimlari bilan shug'urlanish uchun maxsus xonalar ajratilsa ham maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Fikrimizcha, sog'lom ruhiyatli va iqtisodiy muammolari bo'lmagan oilalardan yana al-Beruniy, al-Farobiy, Ibn Sinolar kabi buyuk shaxslar yetishib chiqadilar va jonajon O'zbekistonimiz dovrug'ini butun dunyoga taratadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga MUROJATNOMASI. – Toshkent: “O'zbekiston”NMIU, 2018, B. 3.

2. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. –Toshkent: “O'zbekiston”NMIU, 2017, B. 4-17.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA OILA PSIXOLOGIYASI FANINING O'QITILISHI

Quramboyeva Rayxon Ulug'bekovna

Xorazm viloyat Xonqa tumani 27-maktab psixologi

Mamlakatimizda keying yillarda amalga oshirilayotgan barcha isloxo'tlar inson qadr qimmatini yuksaltirish, ayniqsa yoshlarimizning yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida ulg'ayishi, har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart sharoitlar yaratishga qaratilmoqda. Shuningdek, jamiyatimizning asosi - oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan

sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirish borasida mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Oilani mustahkamlash masalasiga katta e'tibor berilayotganligiga qaramasdan, bugungi jahondagi shiddatli o'zgarishlar bu masalada yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa tashvishga solayotgan holatlardan biri nikoh-oila munosabatlarining zaiflashib borayotganidir.

Har bir yigit-qiz qanday kasbni egallashi, xarakteridan qat'iy nazar kelgusida oila qurishga, baxtli bo'lib yashashga intiladi. Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining har tomonlama uyg'un rivojlanishi, kelgusida baxtli oila qurishi, er va xotinning tinch-totuv yashashi ko'p jihatdan bolalarni yoshlikdan oilaviy hayotga tayyorlashga, ularda ijobiy odat va ko'nikmalarni qaror toptirib borishga bog'liq. Shu sababdan umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarda psixologik munosabatlarni bilishi, insonni o'ylashga, mushohada yuritishga, o'zligini anglashga yordam beribgina qolmay, bir insonning boshqasi tomonidan xolisona idrok etilishini ham o'rgatib borish dolzarb muammolardan biridir.

Sababi hozirgi kunda umumtalim maktablarini tamomlagan o'quvchilar oiladagi munosabatlarga u darajada yetarli ko'nikmaga ega bo'lmay, o'z oilasidagi muhitga moslashib, kelajagiga ham to'laqonli anglab yeta olmaydilar.

Umumta'lim maktablarida "Oila psixologiyasi" fanini o'qitish tizimi joriy etilsa, o'quvchi yoshlarda oila tushunchasi, oiladagi shaxslararo munosabatlarni ta'minlashga va shu bilan birga oilada tinchlik, xotirjamlik, baxt va saodat barqaror bo'lishi mumkinligini, bir-biriga to'g'ri psixologik yondashuv shaxsni hurmat qilishni ta'minlab, er-xotinni, xotin-erni, qaynona kelinni, kelin o'z navbatida oilaning barcha a'zolarini, kattalar kichiklarni e'zozlashni o'rganib boradilar. Bir necha shaxsning bir vaqt va makonda birga yashashini ta'minlovchi sog'lom falsafani shakllantiradi.

O'quvchi yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashdan maqsad o'quvchilarga oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni muhim masala sifatida qo'yishni taqozo etadi.

Bu o'rinda haqli ravishda: «Bu fan bizga nima beradi? Nega endi aynan hozirga kelib, bizni oilaviy hayotga tayyorlash zarur bo'lib qoldi? Axir ota-bobolarimiz bunday kurslarni o'qimay ham tinch-totuv, ahil-inoq, baxtli hayot kechirishgan-ku? Aksincha so'nggi yillarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida qanchalik ko'p gapirib, yozib, maxsus tadbirlar tashkil qilinsa ham nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortsa ortayaptiki, kamaymayapti-ku?» - kabi savollar ro'yxatini cheksiz davom ettiraverish mumkin. Ularning har birining yuzaga kelishiga asos bor.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bo'lalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayon-lar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda uning haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat ol-dida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz), biroq ular biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, awalo maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki litseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi.

12 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yosh-larimizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan birga oilalarining kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib boradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo'lmagan jamiyatdagi oila a'zolari o'zlarining oilaviy yumushlarining aksariyatini qo'lda bajaradilar. Unga oilaning barcha a'zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko'p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma'lum malakalarni, shu jumladan oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan qanday muloqotda bo'lish malakalarini, oilada har bir shaxsning iyerarxik mavqeyiga ko'ra o'z huquq va vazifalarini aniqlab olishga imkon beradi.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12-13 yoshlarida jinsiy balog'atga yetadilar va aksariyat hollarda oradan 7-8 yil o'tgandan so'ng, ya'ni qizlar 19-20 yoshda, yigitlar esa 21-22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lishligini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15-20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, bizning respublikamizda mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Umuman insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli

bo'ladi. Bu keltirilgan omillar yoshlarga «Oila psixologiyasi» kursini o'qitishning dolzarbligini ifodalaydi.

YOSHLARDA KUZATILADIGAN JAHLI TEZLIK VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Quramboyeva Rayxon Ulug'bekovna
Xorazm viloyat Xonqa tumani 27-maktab psixologi

Jahl boshqa emotsiyalar singari insonning atrof muhitga moslashish vazifasini bajaradi. Jahl odamlarda ham, hayvonlarda ham ma'lum maqsadga yetishish yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlarni yengish uchun kerak bo'ladi. Shuning uchun jahlni hamisha ham kasallik deb qarash noto'g'ri. Jahl – ma'lum vaziyat taqozosi bilan paydo bo'ladigan harakat va shuning uchun o'sha vaziyatdan inson chiqmas ekan, unda jahl saqlanib qolaveradi. Agar jahl ma'lum vaziyatda emas, doimiy saqlanib qolsa, buni endi sog'lomlik deb bo'lmaydi. Bu ma'lum ma'noda o'z-o'zini boshqarish mexanizmining buzilganligidan dalolat beradi.

B.Spokning fikricha, quyidagilar normal holat hisoblanadi: bir yoshga kirgan bola onasi qilgan noxush harakatga qarshilik ko'rsatsa; - ikki yashar bolaning o'zga bolani urishi; agar uning biror narsasini tortib olishsalar va h.k. Mazkur jahldor harakatlar ma'lum vaziyatlardan kelib chiqayapti. Biroq ular kasallik chegarasiga ham o'tib qolishi mumkin. Har qanday buzilish o'z ibtidosini ma'lum vaziyatdan olishi mumkin.

Normal jahl holatining kasallik holatiga o'tib qolish shartlari quyidagilar:

Ota-onalarning doimiy jahlli hatti-harakatlari. Bunday xulqqa bolalar taqlid qiladilar, beixtiyor o'sha jahlni o'zlariga yuqtiradilar. Bu hodisaning psixologik mexanizmi quyidagicha: bolaning emotsional o'z-o'zini boshqarish tipiga moslashadi;

- bolaga ota-ona muhabbatining berilmasligi. Bu narsa bolada himoyasizlik tuyg'usini shakllantiradi, atrofdagilarga nisbatan shafqatsizlikni paydo qiladi;

- ota-ona tomonidan bolaning haqorat qilinishini va kamsitilishi. Bu tarbiyadagi xususiy hol bo'lishi mumkin, biroq bola shaxsi rivojida bu narsa o'ta muhim ahamiyat kasb etadi;

- ikki yo'ldan birini tanlash holatini bolada tez-tez paydo qilish. Bola qay tomonni tanlashga qiynaladi. Agar noto'g'ri quyilgan qadam uchun jazo oladigan bo'lsa, jahl kasallikka aylanib ketishi mumkin.

Bunday ota-onalar bilan ishlash juda murakkab, chunki jahldor bolasi bor ota-ona odatda unga nisbatan o'zlarida adovat tuyg'usini his qiladi va ular psixolog-konsultantga yordam uchun emas, balki uni tinchlantirib qo'yish uchun murojaat qilishadi. Ularga qolsa bolani tinchlantiruvchi bitta dori berishsalar, bola birdaniga jahldan tushib qolsa. Ular bilishmaydilar, boladagi jahlning ildizlari ularning turmush tarzlariga borib taqaladi. Aksariyat hollarda o'sha ota-onalarning o'zlari yoshligida serjahl bo'lgan bo'lishadilar. Ular o'zlaridagi psixologik holatlarini o'z farzandlariga uzatishadi. Shuning uchun psixolog odatda ilk ishini jahli tez bolaning ota-onalaridan boshlamog'i kerak.

Birinchidan, ular bilan ishlaganda ularning o'z-o'zini baholashiga salbiy ta'sir ko'rsatib qo'yishdan ehtiyot bo'lish kerak. (Siz o'z bolangizni yaxshi bilmaysiz, men sizga o'rgatib qo'yaman qabilidagi gaplar ularning shaxsiyatiga tegishi mumkin). Aksincha, ularni o'z farzandlarini yanada bilishlikka chorlash lozim.

Ikkinchidan, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatini o'zgartirish zarur. Ular serjahl bolasini noshukurlikda ayblashadilar. Ular bolani tergaganlarida, urishganlarida bolalari kechirim so'rashlarini, aybdor ekanligini aytishini kutishadi. Bola bu ishni qilmaganligini ko'rgach, ularning jahli chiqadi va bolani beodoblikda buzilib ketganlikda ayblashadi. Iloji boricha, ota-onalarda o'z bolalariga nisbatan rahm-shafqat tuyg'usini uyg'otish kerak. Serjahl bola-bu avvalom bor baxtsiz bola ekanligini ularga uqdirish kerak. Ota-onalarga jahlning paydo bo'lish mexanizmini, jahlitezlik bolaning emotsional jihatdan kasallanishi ekanligini tushuntirish lozim.

Uchinchidan, ota-onalarning o'z bolalıkları haqidagi xotiralarini tiklash kerak. O'zlarining ham qilgan jahlli xulq-atvorining sabablarini birgalikda muhokama qilish zarur. Ehtimol, bu narsa bola bilan ota-onalar o'rtasidagi muomalaning shaxsiy sabablarini ochishga yordam berar va shu yo'l bilan psixologik yordam olar.

To‘rtinchidan, ota-onaning bolaga tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyingi birinchi oylardagi munosabatini aniqlab olish zarur. Agar bola boshidanoq istalmagan bo‘lsa (balki bola tasodifan yoki majburlikdan tug‘ilgandir), ota-ona bilan hamkorlikda aniq bir qarorga kelish zarur. Masalan, bola istalmagan bo‘lsa-da, har qalay unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish zarurligi uqtirilishi darkor.

Serjahl xatti-harkatni yomon deb bo‘lmaydi. Kutilmagan vaziyatlarda u himoya vazifasini bajaradi, ba’zida ma’lum vaziyatdan chiqishga xizmat qiladi. Jahlitezlik bolalarda aksariyat hollarda kuzatiladi. O‘tish bosqichlari – bu ijtimoiy muammolar bilan paydo bo‘ladigan krizislar bo‘lib, inson hayotining turli bosqichlarida kuzatiladi. Amerikalik psixolog E.Erikson inson hayotida 8 ta krizisni farqlaydi. Bular quyidagilar:

1) Birinchi krizisni bola umrining birinchi yilida boshidan kechiradi. Bu bola fiziologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog‘liq. Agar yaxshi qondirilmasa, bolada atrofdagilarga ishonchsizlik paydo bo‘ladi.

2) Ikkinchi krizis bolaning tozalikka o‘rgatish paytiga to‘g‘ri keladi. Agar bolaga qat’iy tashqi nazorat o‘rnatilsa, unda uyat va shubha paydo bo‘ladi.

3) Uchinchi krizis ikkinchi bolalik davriga to‘g‘ri keladi. Bunda bola mustaqil faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Agar uning omadsizligini hadeb ro‘kach qilinsa, unda aybdorlik tuyg‘usi shakllanadi.

4) To‘rtinchi krizis maktab yoshida sodir bo‘ladi. Maktabdagi muhitga moslasha olmagan o‘quvchida o‘ziga ishonchsizlik tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

5) Beshinchi krizis o‘smirlarda kuzatiladi. Undagi biologik yetilish bilan sotsial jihatdan yetilmaganlik o‘rtasidagi ziddiyat bu krizisni keltirib chiqaradi.

6) Oltinchi krizis yosh yigit-qizlarda kuzatiladi. Bunda ayrim yoshlarda izolyatsiya ya’ni o‘z-o‘zi bilan bo‘lish kuzatiladi.

7) Yettinchi krizis 40 yoshda kuzatiladi. Unda ham oilaviy munosabatlarda turg‘unlik kuzatiladi.

8) Sakkizinchi krizis qarilikda sodir bo‘ladi. U o‘limdan qo‘rqish va yangidan hayot boshlay olmasligidan nadomat tuyg‘usi bilan xarakterlanadi.

Shu 8 ta krizisning har biridagi salbiy holatlar odamda jahlni chiqaradi va u xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Jahlitezlikni tahlil qilganda albatta bu psixosotsial krizislarni hisobga olmoq lozim.

Bola xulq-atvoridagi serjahllik ular bilan munosabatni qiyinlashtirsa ham jahlni mutlaqo salbiy sifat deb baholash noto'g'ri. Unutmaslik kerakki, boladagi faollikning oshishi uning bo'lishi mumkin. Agar maxsus tuzatish ishlarini olib borilsa, unda atrofdagilar bilan normal muomala paydo bo'ladi.

Boladagi jahlni tuzatish ishlari uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlashdan boshlanadi. Agar jahl bolaning emotsional – motivatsion olamidagi buzilish bo'lmasa, unda ishlar jahlni olib tashlash yo'lidan emas, balki bola xulq-atvoridagi jahlni yumshatish, bolaga yaxshi tomondan ta'sir qilish ishlarini olib borish talab qilinadi. Bundan tashqari, ota-onalarni boladagi o'zgarishlarga tayyorlash kerak.

Jahli tezlikni yo'qotish yo'lida qo'llaniladigan psixokorreksion usullar uni keltirib chiqargan sabablarning xarakteriga bog'liq. Korreksion metodlarni tanlashda konkret hodisadan va konkret boladan kelib chiqqan holda tanlash kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ye.I.Rogov. Nastolnaya kniga prakticheskogo v obrazovanii. M.“Vlados” 1996.
2. J.Godfrua. Chto takoe psixologiya. Tom 2. M. “Mir” 1992

ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ОИЛАНING САЛОҲИЯТИ

*Жуманиёзова Муҳайё Шухрат қизи
Хоразм вилоят Хонқа тумани 28-мактаб психологи*

Жамиятнинг бир бўғини оила ҳисобланади, оила муқаддас даргоҳ. Оила мустаҳкам бўлиши учун тотувлик ва фаравонликда ҳаёт кечиришидадир. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда оила, таълим муассасалари ва маҳалла

ўртасида мустаҳкам алоқани юзага келтириш, доимий равишда ахборот алмашинувини йўлга қўйиш муаммоларни ҳал этишда уларнинг бир-бирларини қўллаб қувватлашлари, ишонч ҳиссини қарор топтириш оилавий ажримлар сонининг ортиб боришини олдини олишга кўмаклашиш. Ҳозирги кунда ривожланаётган техника асрида яшайапмиз бундан кўриниб турибдики, фарзандаримиз ҳам интернет тармоқларини биздан яхшироқ ўзлаштиришга ҳаракат қилмоқда, биз ота-оналар албатта фарзандларимизга интернет тармоқларидан оқилона фойдаланиш йўллариини ўргатишимиз зарур. Бу интернет тармоқлари орқали узатилаётган маълумотлар ҳаётнинг фақат силлиқ томонини кўрсатиб, ёшларнинг ҳаёт ҳақидаги тасаввурларини енгил елпи қарашлар билан маълум маънода қамраб олмоқда, шунинг учун фарзандларимизни ижтимоий тармоқлардан унумли ва самарали фойдаланишларига кўмаклашишимиз шартдир. Халқимиз, оилада ёшлар тажрибасини ташкил этиш борасида асрий тажрибага эга. Ёшларни тарбиялашда уларни умуминсоний қадриятлардан, анъаналардан баҳраманд қилиш, билим даражасини ошириш учун қулай шароитлар яратади. Ёшларни болалик чоғларидан бошлаб меҳнатсеварликка, катталарга ҳурмат, билим эгаллашга интилишни ватанпарварликни ўрганадилар. Оила мустаҳкамлигини сақлашда ота-она томонидан берилаётган тарбия энг муҳим ўрин эгаллайди. Оилада ота томонидан ўғил болага оила ҳақида тасаввурларини уйғотиш яъни тушунчалар бериб бориш, оила муқаддаслиги, оилавий муаммоларни оқилона ва ақлан ҳал қилиш, оилада ўзаро ҳурмат, оилага хиёнат қилмаслик, фарзанд тарбиясига этибор қаратиш, оилани иқтисодий таминлаш эркак кишининг зиммасидаги маъсулият эканлигини тушунтириш, рафиқасининг суянчи таянчи бўлмоғи эканлигини тушунтириш даркор. Юқоридаги вазифалар амалга ошириб ҳар бир оилада фарзандга тушунчалар бериб борилса, оилавий муаммолар ва оилавий ажримларнинг камайига еришилади. Ҳеч бир ота ўз фарзандига хулқу одобдан буюкроқ мерос беролмайди. Оилада соғлом муҳитни яратиш кўпроқ аёл зиммасидаги маъсулиятдир. Онажонларимиз томонидан қиз болаларга тарбиянинг ҳар томонлама етук қилиб етказилиши оиланинг осойишталиги, орастали ва яхши яшашига ёрдам беради. Қиз бола самимий,

хаёли, камтар, камгап, меҳнатсевар бўлиш, катталарга ҳурмат, кичикларга иззатда бўлиш, уй жойларни озода тутиш, оила сирларини ошкор қилмаслик, ўзга уйда келин эмас қиздек бўлиб қайната-қайнананинг ҳурматини жойига қўйиб, рўзгор ишларида қўмаклашиб оғирларини енгил қилиб дуоларини олиб юриш енг олий бахт еканлигини ҳақида тушунчалар бериб бориш онажонларимизнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда оммавий ахборот воситалари томонидан ҳаётнинг енгил елпи кўрсатилиши оилавий муносабатларнинг мазмуни оилавий низо ва ажримларни келтириб чиқараётган сабаблар ва уларни бартараф етиш хусусида эшиттиришлар чиқишлар кинофилмлар савиясининг юқори емаслиги чуқур таҳлил этишга кўрсатув ва ешитиришларнинг йўқлиги.

Мустаҳкам оилаларни шакллантириш, уларда соғлом руҳий муҳитини қарор топтириш, оила тарбиясининг самарадорлигини ошириш, оила муҳотида тарбияланаётган фарзандларининг ҳар жиҳатдан етук, баркамол бўлиб вояга етишларига алоҳида аҳамият бериш, бу йўлда оила ҳамда жамоатчилик ҳамкорлигига эришиш, оилаларни ижтимоий жиҳатдан қўллаб қувватлаш масалаларига алоҳида аҳамият қаратмоғимиз зарур.

Ота-оналарнинг оилада ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнинг моҳияти етишмаслиги, қизларни оилада мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш борасидаги назарий ва амалий билимларнинг етишмаслиги, оммавий ахборот воситалари орқали оила моҳияти, оилавий ҳаётни ташкил этиш, фарзандлар тарбиясини муваффақияти олиб бориш, оилавий муносабатлар мазмуни, шунингдек оилавий низо ва ажримларни келтириб чиқараётган сабаблар ва уларни бартараф етиш йўллари хусусида намоёиш ва кўрсатув эшиттириш ва чиқишларнинг юқори даражада эмаслиги ва бундан ташқари бир қанча масалаларни мисол келтириш мумкин. Ота-оналарнинг маънавий бой еътиқодли ва юқори маламотга ва маънавий бой бўлсалар, шу даражада такомиллашган услуб орқали ўз фарзандларини тарбиялайдилар. Агар мактаб оилавий тарбияшунослигига ижобий муносабат билан ёнданса унинг тарбиявий имкониятларини яхши ўрганса, яъни ота-она обрўси, шахсий намунаси ўз-ўзини тарбиялашни назорат қилиш, ўзаро ёрдам ҳамкорлик, иттифоқлик ҳамжиҳатлик

ҳамда оила тарбиясининг ўзига хос хусусиятларидан мақсадли фойдала олса, оила тарбиясининг такомиллашувига эришади. Конституциянинг 64-моддасида “Ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунларига қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурдирлар” ва 66-моддасида “Вояга етган меҳнатга лаёқатли фарзандлар ўз ота-оналари ҳақида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар” деб таъкидланади. Катталарга ҳурмат ва бўйсунуш ўзбек оилаларидаги анъанавий тарбия усулларида ҳисобланади. Оиладagi намуна фарзанд тарбиси учун муҳим рол ўйнайди. Оила муҳити - бу қандайдир тарбия воситаси эмас балки ота-оналарнинг ва катта ёшдаги кишиларнинг ҳар тарафлама олиб борилган иш натижалари, оила аъзоларининг ўзaro юксак ахлоқий муносабатларнинг йиғиндиси ва ниҳоят катталарнинг болаларга ижобий таъсир кўрсатиш наъмунаси. Ёшларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашда оила яъни ота-она кўмакдош, йигит ва қизларни жисмонан бақувват, соғлом, юқори маъданиятли, ҳуқуқ атворли ва иродали шахс сифатида шаклланишига ва келгуси ҳаётларининг фаровон бўлишлигига оилавий ҳаёт сабоқларидан маълумот бериб боришлари гўзал ҳаёт қуришларига ёрдам беради. Оила соғлом бўлса, жамият соғлом, мамлакат қудратли юрт тинч ва осойишта бўлур.”Энг катта бахт, мен буни минг марта қайтаришдан чарчамайман, оиламиз тинч бўлсин. Оила кичик ватан, оила тинч бўлса, бахтли бўлса, ватан тинч бўлади. Ўша бахтли кунларни, ватанимизнинг ёшларимизнинг камолини ҳозир ният қилаётганимиз каби кўриш ҳаммамизга насиб етсин”! – деб таъкидлаган Ўзбекистон Президенти. Шарқ мутафаккирлари бола тарбиясида Ибн Сино боланинг ахлоқий тарбияси ҳақида билдирган фикрларида – уй рўзғор тутиш масалалари ххусусида ҳам сўз юритади. Болани тарбиялаш оила ота-онанинг асосий мақсади вазифасидир. Ўз камчиликларини тuzатишга қодир бўлган ота-она тарбиячи бўлиши мумкин. Ахлоқий тарбияда энг муҳим воситалар боланинг нафсониятига, ғурурига тегмаган ҳолда, яккама – якка суҳбатга бўлиш унга насиҳат қилишдир.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. T. 2000 у.

2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” T. “SHarq” 1999 yil.
3. Mirziyoev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T: “O`zbekiston”. NMIU, 2017. – 482 bet.
4. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T: “O`zbekiston”. NMIU, 2017. – 52 bet.

BOLALAR TARBIYASIDA OILA VA OILADA BOLALARNI TO'G'RI TARBIYALASHNING ASOSIY SHARTLARI

*Matnazarova Fotima Maqsudovna
Xorazm viloyat Xonqa tumani 52-maktab psixologi*

Inson bolasi uchun oila asosiy go'sha, hayotga tayyor bo'lib chiqadigan qutlug' va mo'tabar dargoh. Uning xosiyat – u fazilatlarini, odam jismonan va ruhan quvvat –u tarbiya olishini oila bilan bog'lasak, turmush kechirishdagi hissasi g'oyat ulug' ekanini his etamiz. Bizda oila – jamiyatning bir bo'lagi, binobarin, u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo'lar ekan, demak, jamiyat ham shuncha tez rivojlanadi.

“Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini,avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf –odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olmog'imiz darkor”-deb ta'kidlagan edilar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1997-yil “Oila faravonligi – millat faravonligi”nomli ma'ruzalarida⁹.

Inson bolasining ruhiyatida shunday bir xislat borki, u oilada olganlarini bir umr unutmaydi va har qachon o'shanga taqlid qilib yashaydi. Shuning uchun xalqda “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan maqol bor. Shunday ekan, bolaga juda katta e'tibor kerak.

Ma'lumki, millatimiz bolajon bo'lib, ko'p bolalik har bir o'zbek oilasining alohida belgisidir. Bizda ko'p bolali oilalar soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ziyod,

⁹ I.Karimov ”Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch”. Toshkent. 2008.

jami oilalarning o'n ikki foizdan ko'prog'i besh va undan ortiq bolilidir. Qishloq joylarida esa bu yigirma foizni tashkil etadi. Bizning mamlakatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir – biriga nisbatan ezgulik bilan mehr – oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab – ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonunida davlatning oilaga munosabatini aniq va lo'nda ifodasini topgan. Xususan, Asosiy Qonunning 63- moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidan bo'lish huquqiga ega”, degan qoida bor¹⁰. Binobarin, oila to'g'risida g'amxo'rlik insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim xususiyatlaridandir.

Sir emaski, oilaviy hayot inson uchun eng maqbul turmush tarzidir. Buni qadimgi va hozirgi ba'zi holatlar tasdiqlaydi. Qadim sharqda yolg'iz kishini darvesh, g'arib, bechorahol odam hisoblashgan. Buni qarangki, italiyalik mutaxassislarining hisob – kitobicha, har besh nafar yevropalikdan bittasi uyqusizlikdan azob chekar ekan. Sababi – yolg'izlik!

Mana shularni insoniy tuyg'u bilan mushohada qilsak, baxt degan tushunchaning zamini – oiladir. Donolardan biri aytganidek, o'z uyida baxtli bo'lgan odamgina baxtlidir.

Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutgan oilaning ikki sarkori – ota bilan onaning ma'naviy – ruhiy odobi, o'zlarining namunali xulq – atvorlari, yaxshi tarbiya ko'rganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tarbiya va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo'lib o'sishida aks ettiruvchi ko'zgudek o'rin tutadi. Bunda odamlarning: “Siz kimning farzandisiz?” deb so'rashlarida, u inson qanday tarbiya ko'rganligini bilish maqsadi yotadi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, “Bolani yoshdan, niholni boshdan asra”, “Erkalasa onasi, taltayadi bolasi”, “Bola aziz – odobi undan aziz” kabi naqlar borki, ularning mag’izini chaqadigan bo’lsak: farzandlarning qay tariqa tarbiya ko’rib, o’sib, voyaga yetishi, fe’l – atvorining qanday bo’lib shakllanishi, birinchi galda ota – onaning farzandlarini qanday usul bilan tarbiyalashiga, o’zlarini qanday tutishiga, ibrat ko’rsatishiga ijobiy yo salbiy ta’sir etishiga bevosita bog’liqdir, degan ma’no – maqsad kelib chiqadi.

Ota – ona qat’iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko’rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo’lishi, bolaning yoshi, o’sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo’lishi mumkindirki, bu yo’l – yo’riqlar, qonun – qoidalar oilada tabiiy ravishda, muntazam qo’llanma, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag’batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta’sir o’tkazishning boshqa vositalarini qo’llashda hammada yakdillik bo’lishi lozim. Odatda, ko’pincha bolaning onasi yoki buvini ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo’yadi yoki otasi bergan jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qilg’ini buvisi maqtasa, shu qilg’i uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba – teskarilik, avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va ko’ngli bo’sh buvisi o’rtasida yo’l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beparvolik va kelishmovchilikni sezgan bola mug’ambirlik, aldamchilik, tilyog’lamalik, xushomadgo’ylikka o’rganadi.

Bolani aql bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat – e’tibor berganla, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarni bilganda, bu harakat ota – onaga ruhan va jismonana barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. Bunday farzad o’z navbatida ota – onasini mehr bilan sevadi, ular to’g’risida g’amxo’rlik qiladi. Bu ajablanali hol emas. Chunki biz bolalarni qay tarzda yaxshi ko’rsak, ularning ruhiyati, ichki dunyosi, atrof – muhitga munosabati ham shu tarzda tarkib topa boradi.

Ota – ona hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo’lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bu omil oilada aka – ukalarning ahil, bir – biriga mehribon, oqibatli bo’lishiga

olib keladi, bola oldida ota – onaning obro'si, hurmatini oshiradi, o'z tengqurlari va boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo'lishiga, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatadi.

Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtni qo'ldan boy bermay, doimo, muntazam shug'ullanishni talab etadi.

Ota – onalar bolalar uchun eng mo'tabar, aziz-u mukarram kishilardirlar, shu bois bolalar ota – onalariga o'xshash uchun doimo havas bilan taqlid qilib yashaydilar. Shu tufayli ota – onalar hamma vaqt, har jihatdan bolalarga ibrat bo'lishlari shart. Oilada bolalar bilan ota – onalarning o'zaro munosabatlari, ularning bir – birlarini hurmatlashlari va bir – birlariga ishonishlariga asosiga quriladi. Odatda, bolalar o'zlarining hamma ishlariga ota – onalarini o'zlariga eng yaqin maslahatchilar deb biladilar. Qiyinchiliklarga duch kelganlarida ham, eng og'ir muammoni hal etishda ham eng birinchi yordamchi ulardir. Bola uchun ehaqiqiy do'st ham, shodliklari va tashvishlarini ham baham ko'ruvchi aziz inson ota – onadir.

Ota – onalar bolaning o'qishi bilan, odob – axloqi bilan qiziqishlari, maktab va o'qituvchining o'quvchiga talablarini, maslahat va topshiriqlarini jiddiy kuzatib borsalar, ayni muddao bo'ladi. Bu esa bolaning yaxshi o'qishi va intizomli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ya'ni bolaning dars tayyorlashi va yurish – turishi o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilsa, u vaqtda bola dars tayyorlamay, kunni bekor o'tkazib, kech qoladi. Shuning uchun bolaning o'z vaqtida dars tayyorlashini nazorat qilish ota – ona, qolaversa har bir oila a'zosining burchidir.

Bolalarning qanaqa tarbiya olishlari u tarbiyalanayotgan muhitga bog'liq. Shunday ekan, yoshlik – beboshlik bo'lishi ham, yoshlik – nodonlikning boshlanishi bo'lishi ham bolalarga berilayotgan tarbiyaga va bolalarning tarbiya topishiga bog'liq. Yangi inson – ona O'zbekistonning chinakam sohibi, chinakam ishbilarmoni, chinakam fuqarosi, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". Toshkent. 2008.
2. Mavlonova, K.Xoliqberdiyev, O.To'rayeva. Pedagogika.– T.: O'qituvchi, 2006.
3. A.Munavvarov . Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1996.

4. N.Saydahmedov , S. Abdurahimov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent, 2010.
5. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T.— 2006.

GIPERAKTIV O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN DIAGNOSTIK ISHLAR VA PSIXOLOGIK TAVSIYALAR

*Surayyo Xurramova Uralovna
Yakkabog' tumani 23-maktab psixologi*

KIRISH

Ijtimoiy sohadagi muammoning ahamiyati maktabda giperaktivlik belgilari bo'lgan bolaning yo'li muvaffaqiyatsizliklardan boshlanishi bilan belgilanadi. Muvaffaqiyat tuyg'usining yetishmasligi ikkinchi darajali hissiy tanglikni keltirib chiqaradi va o'z-o'zini hurmat qilishni kamaytiradi. O'smirlik davrida ko'plab bolalarda xatti-harakatlarning buzilishi ko'payishi mumkin. Giperaktivlik belgilari bo'lgan bilan og'rigan o'smirlar g'ayri-ijtimoiy harakatlar va huquqbuzarliklarni sodir etish, alkogolizm va giyohvandlikni rivojlantirish xavfi ostida.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yillar davomida giperaktivlikni tuzatishning pedagogik usullarining nochorligi tobora aniq bo'ldi. Axir, aniq yoki bilvosita, bu usullar ushbu muammoning manbai sifatida ta'limdagi kamchiliklar haqidagi eski g'oyaga tayangan, ayni paytda uning psixopatologik tabiati boshqacha yondashuvni talab qilgan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, giperaktiv bolalarning maktabdagi muvaffaqiyatsizligi nohaq ularning aqliy zaifligi bilan bog'liq va ularning intizomini sof intizomiy usullar bilan tuzatib bo'lmaydi. Asab tizimidagi buzilishlarda giperaktivlik manbalarini izlash va shunga mos ravishda tuzatish choralarini rejalashtirish kerak.

Ushbu sohadagi tadqiqotlar olimlarni bu holatda xatti-harakatlarning buzilishining sababi asab tizimidagi qo'zg'alish va inhibitsion jarayonlaridagi nomutanosiblik degan xulosaga keldi. Ushbu muammo uchun "mas'uliyat joyi" ham mahalliyashtirilgan - retikulyar shakllanish. Markaziy asab tizimining ushbu bo'limi inson energiyasi, vosita faoliyati va hissiyotlarni ifodalash, miya yarim korteksiga va boshqa ustki tuzilmalarga ta'sir qilish uchun "mas'uldir". Turli xil organik kasalliklar tufayli retikulyar shakllanish haddan tashqari qo'zg'aluvchan holatda bo'lishi mumkin.

Giperaktiv o'quvchilar haqida gapirganda, ko'pchilik tadqiqotchilar (Z. Trzhesoglava, V.M. Troshin, A.M. Radaev, Yu.S. Shevchenko, L.A. Yasyukova) diqqat etishmasligi giperaktivligi buzilgan bolalarni nazarda tutadi. Nemis nevropsixiatri Geynrix Xoffman birinchi marta stulda bir soniya jim o'tira olmaydigan o'ta harakatchan bolani tasvirlab berdi.

NATIJALAR

Hozirgi vaqtda xulq-atvori buzilgan va ular bilan bog'liq o'rganish qiyinchiliklari bo'lgan bolalarning muammolari ayniqsa dolzarbdir. Bunday bolalar o'zlarining bezovtaligi, e'tiborsizligi, baland ovozi, doimiy harakati bilan psixaloglarning e'tiborini tortadi. Doimiy hayajonlangan, bezovta bo'lib, sinfdoshlariga o'qituvchining topshirig'ini bajarishga, dars mavzusi ustida ishlashga diqqatni jamlashga to'sqinlik qiladi, doimiy ravishda o'z ishlari bilan band bo'ladi, ularni joyida ushlab turish, topshiriqni tinglashga majbur qilish qiyin va undan ham ko'proq uni oxirigacha to'ldiring. Ular haddan tashqari faollik va dürtüsellik tufayli o'qituvchilar uchun noqulaydir. Va zamonaviy ta'lim tizimi giperaktiv bolalar bilan ishlashga moslashtirilmagan.

Giperaktiv bolalar sonining ko'payishi bilan ularning ta'lim samaradorligi muammosi dolzarb bo'lib, muhokama qilinadi. Agar bir necha yil avval boshlang'ich sinflarda bir sinfda 1-2 nafar giperaktiv bola bo'lgan bo'lsa, hozirda o'quvchilarning taxminan 20-30 foizi shu guruhga to'g'ri keladi. Ko'pincha, barcha mavjud xulq-atvor muammolari bilan, bunday bolalarning aql-zakovati saqlanib qoladi, ular maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari mumkin, ammo buning uchun maktab muhitining talablari bolaning imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

MUHOKAMA

Bolaning aqliy va shaxsiy rivojlanishining asoratlari, qoida tariqasida, ikkita omilga bog'liq:

- ta'limdagi xatolar yoki ma'lum bir etuklik;
- asab tizimiga minimal zarar.

Ko'pincha, bu ikkala omil bir vaqtning o'zida harakat qiladi, chunki. kattalar ko'pincha bolaning asab tizimining xatti-harakatlaridagi qiyinchiliklarga asos bo'lgan xususiyatlarini kam baholaydilar yoki e'tiborsiz qoldiradilar va bolani turli xil noto'g'ri tarbiyaviy ta'sirlar bilan "to'g'rilash" ga harakat qiladilar. Shuning uchun ota-onalar o'qituvchilarni bezovta qiladigan bolaning xatti-harakatlarining haqiqiy sabablarini aniqlay olish va u bilan ishlash usullarini belgilash juda muhimdir. Buni amalga oshirish uchun bolalarning aqliy rivojlanishidagi ushbu buzuvchi belgilarini aniq tasavvur qilish kerak, ularning bilimlari bola bilan ishlashni to'g'ri qurishga va muayyan asoratlarning og'riqli shakllarga aylanishini aniqlashga imkon beradi. Ma'lum bo'lishicha, giperaktiv bolalar o'zlarining buday hatti-xarakatlarini namoyon bo'ishi uchun yetarli darajada sharoit bo'lishi kerak. Agar uyda doimiy tortishish yoki boshqa tarbiyaviy choralar orqali o'zini bunday tutishi qat'iyan man etilgan bo'lsa, maktabda ular ancha giperaktiv bo'ladi. Aksincha, agar maktab ularga qattiqqo'l bo'lsa ular uyda juda faol bo'lishadi. Shu sababli ota-onalar va o'qituvchilar hamkorlikda faoliyat olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Giperaktiv bolaning o'qituvchilari va psixaloglari uchun amaliy tavsiyalar.

Giperaktiv bolalarni tuzatish bo'yicha maktab dasturi bolalarga o'rganishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan kognitiv tuzatishga tayanishi kerak.

- 1) Diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilgan bolalarning neyropsikologik xususiyatlarini o'rganish.
- 2) Giperaktiv o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash. Giperaktiv bola doimo psixalogning ko'z o'ngida, sinfning markazida, doska oldida bo'lishi kerak. Giperaktiv bola uchun sinfdagi eng yaxshi joy o'qituvchi stoli qarshisidagi yoki o'rta qatordagi birinchi stoldir.
- 3) Jismoniy tarbiya va dam olishni kiritish bilan dars rejimini o'zgartirish.

- 4) Giperaktiv o'quvchilarning energiyasini foydali yo'nalishga yo'naltirish: doskani yuvish, daftarlarni tarqatish va hokazo.
- 5) O'quvchi bilan kechki payt emas, kunning boshida ishlash maqsadga muvofiqdir.
- 6) O'qituvchilar giperaktiv o'quvchilari bilan ko'proq muloqatda bo'lishi kerak.
- 7) Taktil aloqadan foydalaning (massaj, teginish, silash elementlari).
- 8) Sinfda chalg'ituvchi obyektlarning minimal soniga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.
- I) Ichki xotirjamlikni saqlang.

XULOSA

Giperaktiv o'quvchilarni tashxisi nevropatolog tomonidan qo'yiladi, ba'zi o'quvchilarda bu tibbiy yozuvda qayd etilgan. Tajribali psixologlar bunday o'quvchilar bilan ishlashda boshida ota-onasiga tavsiyalar beradi. Agar tashxis bo'lmasa va o'quvchida kundan-kunga giperaktivlik belgilari paydo bo'lsa, psixolog yoki o'qituvchi bolaning ota-onasiga bolalar nevrologiga murojaat qilishni xushmuomalalik bilan tavsiya qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ерофеева М.В. «Психологическое консультирование родителей по проблеме гиперактивности ребенка» Санкт-Петербург 2020 г.
2. Sirotiyuk A.L. Diqqat etishmasligi giperaktivlik buzilishi. - M.: TC Sphere, 2002 yil.
3. Романчук О.И. Синдром дефицита внимания и гиперактивности у детей / Пер. с украинского. — М.: Генезис, 2010.
4. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психодиагностике. - СПб.: Издательство "Питер", 2000. - 528 с.
5. Osipova A.A., Malashinskaya L.I. Diqqatni tashxislash va tuzatish: 5-9 yoshli bolalar uchun dastur. - M.: TC Sphere, 2001 yil.

O'QITUVCHINING DARS O'TISH MAHORATI VA VIZUAL INTELEKTI XUSUSIYATLARI

Suyunova Charos Xolboyevna

Yakkabog' tumani 23-maktab Fransuz tili o'qituvchi

Bilimli, salohiyatli har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov asariarida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillarida taibiyachilar, pedagoglar oldiga ulkan vazifalarni yuklamoqda. Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda bolalar psixologiyasi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biridir. O'qituvchi — yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odam. Bolalarga ta'lim berayotgan o'qituvchi bo'lajak murabbiylarga, tarbiyachilarga kasbiy jihatdan o'ta ahamiyatli bo'lgan bilimlar — bolalar psixik taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi bilimlarni beruvchi, ularda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalari shakllantiruvchi mutaxassis.

Fani o'qituvchisilariga barcha pedagoglarga qo'yiladigan umumiy talablardan tashqari yana quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Umumiy va bolalar psixologiyasidan tashqari psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat, maxsus psixologiya bo'yicha bilimga ega bo'lish;
2. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisining ish faoliyatiga xos xususiyatlarni yaxshi bilish;

3. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari yuzasidan mustaqil tadqiqotlar o'tkaza olishi va bu jarayonga talabalarni jalb eta bilishi;

4. Muntazam ravishda ilg'ortarbiyachi-murabbiylarning pedagogik tajribasini o'rganib borish va targ'ib qilish;

Bolalar psixologiyasidan ma'lumki fan o'qituvchisining metodik mahorati yuqori saviyada bo'lishi shart. Pedagogik faoliyatga tayyorlanishda talabalarning uzoq yillar davomida ushbu faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan o'qituvchilarning tajribasini o'zlashtirishi juda muhim. Shuning uchun talabalar har bir o'qituvchisi ish tajribasidan o'ziga, bo'lajak pedagogik faoliyatiga imkon qadar ko'proq narsa olishga harakat qilishi lozim. Bunda talabalar har bir o'qituvchining metodik mahoratiga e'tibor berishlari kerak bo'ladi. Pedagogik amaliyotning ko'rsatishicha, metodik mahorati past bo'lgan o'qituvchi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: ta'lim metodlarini auditoriya xususiyatlarini hisobga olmay tanlaydi; tanlangan ta'lim usuli natijasini oldindan ko'ra bilmaydi; faoliyatida ta'siming to'g'ridan-to'g'ri usullari ustun bo'ladi; o'z ko'rsatmalarini aniq bajarishnigina yuqori baholaydi; pedagogik ta'sirini tor doiradagi turlaridan foydalanadi; muloqotning avtoritar uslubidan foydalanadi; kutubxonasi talabalarda itoatkorlik, bajaruvchanlik xususiyatlarini rivojlantirishga urg'u beradi; bilimlarni talabalarga uzatishgagina e'tibor beradi. Metodik mahorati yuqori bo'lgan o'qituvchi quyidagi xususiyatlaiga ega bo'ladi: pedagogik metodlarni talabalar saviyasiga muvofiq tanlaydi; tanlangan metod va usullar orqali erishiladigan natijani oldindan ko'ra biladi; faoliyatida ta'sirining aylanma usullari ustunlik qiladi; talabalar o'quv dasturini o'zlashtirishida ularni mustaqillikni rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi; pedagogik ta'sir etishning xilma-xil turlaridan foydalanadi; muloqotning demokratik uslubidan foydalanadi; talabalar emotsional-intellektual sohalarining rivojlanishiga urg'u beradi; talabalarni faollikka undaydi, ular bilimlarni o'zlari o'zlashtirishlarini ta'minlashga e'tibor beradi. O'qituvchi pedagogik tajribasi ortgan sayin uning metodik mahorati ham takomillashib boradi. Nazariy bilim amaliy tajriba poydevori bo'lib xizmat qiladi. Yuksak metodik bilim va amaliy tajriba birgalikdagi yuqori mahorat o'qituvchini shakllantiradi. O'qituvchining intellektual salohiyati bu borada juda muhimdir.

Интеллект ([lotincha](#): *intellects* — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeahodi-salarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Интеллект tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Интеллектning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Интеллект saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi .

O'qituvchi vizual intellekti , bu o'quvchilarga bilim berishdagi ko'rsatish orqali ko'ruv orqali amalga oshiriladigan intellekti tushuniladi , bunda o'qituvchi o'quvchilarni o'z idroki orqali , intellekti bilan dars o'tish sa'nati sanaladi . Vizual intellekt orqali o'qituvchi o'quvchini dars jarayonida o'zini tutishini , bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuzatib unga nisbatan diqqatga chorlashi mumkin.

Vizual – fazoviy intellektli odam ko'rinadigan obrazlar bilan fikr yuritadi, xaritalarni, chizmalarni, diagrammalarni matnga nisbatan osonroq o'qiydi, fantaziyalarga berilishni va san'at bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi, yaxshi rasm chizadi, qiziqarli uch o'lchovli modellarning konstruksiyasini ishlaydi, o'qish paytida so'zlardan emas, balki illustratsiyadan ko'proq axborot oladi. Интеллектning bu turi ko'z bilan ko'rish tasavvuri, o'zlashtirishi his-tuyg'usi bilan bog'liq bo'lgan va predmetlarni ko'rish orqali eslab qolish qobiliyat ichk i aqliy obrazlarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

O'qitish usullari nafaqat tabiiy fan darslarida yangi bilimlarni sotib olishni, balki ularni to'g'ri idrok etishga, zaruriy belgilarni ko'rish, o'rganilgan hodisalar tuzishini ta'minlashi kerak. O'quv usullarini tanlash o'qitiladigan materiallarning mazmuniga, talabani o'rganish va ularning hayotiy tajribalariga bog'liq. Bu yoki usul talabalarni, birinchi navbatda o'qituvchini, ikkinchidan, ustozni nazorat qilishda mustaqil ravishda ishlash, uchinchidan, hech qanday yordamisiz amalga oshirish uchun tayyorlangan bilimlarni o'zlashtiradi. Ular moddalar yoki organlarning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini aniqlash, shunda yoki tabiatda joylashgan boshqa hodisalarning ochilishi

va tushuntirishlarini aniqlash kerak. Ular sizga talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Ular talabalarning aniq bilimlar bo'yicha muhim bo'lgan, muhim bo'lgan dastlabki tushunchalarni kuzatish qobiliyatidan yaratishga hissa qo'shadilar. Bu bizning ishimizning dolzarbligi. Vizual usullardan ham yangi materialni o'rganishda ham, garovga olinganida ham foydalanish mumkin. Yangi materialni o'rganayotganda, ular yangi bilimlarni shakllantirish uchun, va u ta'minlanganda - bilim amaliyoti. Tabiiy ob'ektlarning namoyishi orqali tabiatni o'rganish sizga o'rganilgan ob'ekt haqida etarlicha to'liq va ishonchli g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi. Tabiiy vizual imtiyozlarni o'rganish vizual ko'rinishi bilan birlashtirish uchun foydalidir. B. P. Esipovning fikricha, usullar o'qituvchilar va talabalar sifatida ishlash usullari bo'lib, u er xo'jaligi, ko'nikma va ko'nikmalarga erishadigan o'qituvchi va talabalar sifatida ishlash usullari, talabalar haqidagi dunyo miqyosida ularning imkoniyatlari rivojlanmoqda. K. Babanskiy, usul ta'lim, ta'lim, ta'lim, o'quv jarayonida ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan o'qituvchi va tinglovchilarning o'zaro bog'liq faoliyati. Rayakov ikki belgi tasniflashning asosini qo'ygan usullarning ikkilik nomenklaturasini yaratdi: o'quv materiallarini idrok etish va mantiqiy jarayon yo'nalishi. Shunga asoslanib, u uchta usulni ajratdi: og'zaki, vizual, motor.

O'qitishda vizual usullardan foydalanish ko'rinishi ko'rinishi tamoyilini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, bu tushunchalar bir xil emas. O'qish printsiplari har qanday usulda amalga oshiriladi. U usulning funktsiyasi bu bilimning asosiy manbai, amaliy harakatlarning texnik vositasi bo'lib, talabaga ta'sirini rivojlantiradi va o'qiganida ko'rinadi. Vizual qo'llanmalar og'zaki usullarda keng qo'llaniladi. Vizual usullarda vizual qo'llanmalar mustaqil mulohaza yuritish, umumlashtirish, xulosalar. Ushbu usullardan foydalanish talabalar faoliyatini ko'paytirish, ularning mustaqil kognitiv faoliyati uchun etarli ekanligini juda qadrli. Vizuallik atrof-muhitga ta'lim berishda og'zaki ma'lumotni chiqarib tashlash imkonini beradi.

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB JAMOASI VA OTA- ONALARNING O'RNI

Sharipova Shahnoza Ro'zmamatovna
Xorazm viloyati Xonqa tumani 29-maktab psixologi

Davlatimiz yoshlarning o'z iste'dodini, qobiliyatini to'liq namoyon etishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratmoqda. Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan hisoblangan yoshlarimizni ongli ravishda kasbga yo'naltirishdan iboratdir. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ularni hayotga tayyorlovchi ruhiy va pedagogik jarayonlardan biridir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishdan maqsad ularni ongli ravishda o'zi qiziqqan kasblarni tanlash imkoniyatini yaratishdan iborat. O'rta umumiy ta'lim maktablarga o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish psixologik pedagogik tashxis ishlari kasb hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis va amaliyotchi psixolog orqali amalga oshiriladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umum ta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbayiga aylanadi, bu esa inson uchun ham foydalidir.

Jamiyatning intellektual ma'naviy imkoniyatlari rivojlangan hozirgi sharoitda Mamlakatimizning barcha bo'lg'usi mutaxassisligini tayyorlab beruvchi maktab oldida muhim vazifalar turadi.

Jahon pedagogik hamjamiyati ishlab chiqarish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish o'rta umumta'limni yo'naltirishning muhim omili sifatida tan oliniladi.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda o'quvchilarning alohida qobiliyatli va mehnat resurslari va jamiyat manfaatlariga mos tarzda taqsimlanishini hisobga olish lozim.

Kasbga yo'naltirish - har bir shaxsning alohida fazilatlarini mamlakat xalq xo'jaligining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, mehnat bozorini to'laqonli ta'minlash zaruriyatini hisobga olib erkin va mustaqil kasb tanlashga tayyorlashga asoslangan tizimlaridir.

Kasbga yo'naltirish tizimi-individiolga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar mohiyati hamda qoidalar uslublar va vositalar, birligidir .

Kasbga yo'naltirish barcha o'quv tarbiya ishlari bilan uyg'un tarzda olib boriladi.

O'quvchi yetarli darajadadagi umumiy tayyorgarlikga ega bo'lgan taqdirdagi va ongli ravishda kasb tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchini biron kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim . Buning uchun uni kuzatish (bevosita,bilvosita) o'quvchining maktabdagi , jamoat joylaridagi oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish so'rovnoma o'takzish suhbat , test, intervyu olish mumkin .

Kasbga yo'naltirishda turli kasblar , ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega . Bu esa o'quvchilarni aniq kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilimlarni faqat maktabda emas , balki ommaviy ahborot vositalaridan tanishlari , qarindoshlaridan ham oladilar .

Yoshlar kelajakdagi hayot yo'llarini to'g'ri belgilab olishlari uchun o'z iqtidoriga munofiq holda ko'ngillariga yoqqan jamiyatga zarur foydali kasbni tanlashlari lozim.

Shu boisdan ham ,o'rta maktablarni bitirayotgan yigit vaqizlarni ko'pligiga qanday kasb egasi bo'lish to'g'risida ko'p o'ylaydi.

Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha shart sharoit yaratilgan .

Ayniqsa ,ishchi kasblarni o'rganishning juda keng imkoniyatlari mavjud,jumladan,Respublikamizda ishchi xodimlar tayyorlashga jiddiy e'tibor berilmoqda kasb-hunar kollejlarida yoshlar turli kasblarga o'rgatilmoqda.

Yoshlarda maktabdanoq,aniq ixtisoslik bo'yicha kasbiy tayyorgarlik berish lozim.

O'quvchilarning e'tiborini kasb tanlash masalasiga jalb qilish,bu masalaning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushuntirish,ularni o'z hayotiy yo'llarini,tanlash to'g'risida jiddiy va ongli ravishda o'ylashga ularni kasb tanlashda uchraydigan xatoliklardan yo'l qo'ymaslik uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatish lozim.

Maktab tizimida to'garaklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklari ,elektronika, radiotexnika,avtomobil, traktor, pillachilik,o'simlikshunoslik to'garaklarida bolalar bilimlarini kengaytirish bilan birga kasb tanlashga amaliy tayyorgarlik ko'radilar .

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularning maktabdagi ko'zda tutilgan unumli mehnati va ijtimoiy foydali ishlaridan ham foydalanish zarur .Masalan, o'quvchilarni qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish ko'rgazmali qurollar, shanbaliklar obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish shular jumlasidandir .

Kasbga yo'naltirish ishida maktab jamosining barcha azolari ishtirok etadilar.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadi maktabda kasbga yo'naltirish (ishni tubdan yaxshilash uchun)kengash tuziladi . Kengashning asosiy vazifasi pedagogik jamoga va oraliq korxonalarga o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini tubdan yaxshilash uchun jamiyatga zarur foydali kasbni tanlashlari lozim.

Maktab kasbga yo'naltirish kengashi har bir o'quv yili uchun maktab direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi .

Kengash tarkibga direktor mehnat ta'lim o'quvchilar , virach, kutubxonachi, idoraviy korxona vakili , jamoatchilik vakili kiritiladi.

Kengash ishiga quyidagi pedagogic talablar qo'yiladi:

- kasbga yo'naltirish ishlari ni rivojlantiradi , turli kasb egalari ilg'orlar bilan uchrashuvlar o'tkazadi.

- maktabda kasbga yo'naltirish o'quv meto'dlari kabinenti tashkil etiladi, uni jihozlaydi, rejasini tasdiqlaydi

- ota-onalar bilan aloqa o'rnatadi

- o'quvchilar uchun kasbga yo'naltirish bo'yicha konsultatsiyalar uyushtiradi

Kasbga yo'naltirga oid ma'ruza suhbatlarga kasb mazmuni ,istiqboli , ishning tashkiliy shakllari va metodlari mehnat qurollari imkoniyatlar, moddiy ahvoli , o'rganish yo'llari haqida fikr yuritishlari lozim

O'quvchilar diqqatini kasb tanlash masalalariga jalb etish va ularga kasblar haqida tushincha berish maktablarda kasbga yo'naltirish kabinenti, bo'yicha tashkil etadi unda quydagilar bo'lishi lozim : adabiyotlar ro'yxati , ma'lumotnoma , kasb abyektlari foto

suratlari ,rasmlar ,plakatlar sxemalar shu maktabni bitirgan va hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faol ishlayotgan o'quvchilar haqida ma'lumot . O'quvchilar kasblar bilan tanishtirish uchun kasb va uning vakillari haqida ma'lumot beradigan adabiyotlarni fan texnika san'at ishlab chiqarish kishilari haqida himoya va ocherklardan foydalanish kerak.

O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish maqsadida ular uchun turli kasb va iqtisos vakillari bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazish lozim .

Kasb hunarga yo'naltirish jarayonida asosiy e'tibor o'quvchilarning qiziqishini moyilligi va qobiliyatiga qaratilgan bo'ladi. Amaliyotch psixologning asosiy vazifasi o'quvchilarning kasb-hunariga moyilligi qiziqishlari va qobiliyatlarini o'rganish uchun psixologik pedagogik tashxis qo'yish ishlarini o'z vaqtida olib boorish kerak. Psixadiagnostik metodikalaro yordamida so'rovnoma va testlarni muntazam olib borish va tahlil etish katta ahamiyatga egadir. Aniqlangan ma'lumotlar o'quvchilarning tashxis varaqasiga yozib boriladi. 9-sinf bitiruvchi o'quvchilari bir necha marta aynan shunday psixologik tashxis o'tkaziladi.

O'quvchilarning topshirgan testlar orqali aniqlanagan qiziqishi moyilligi qobiliyatlari tahlil qilinadi va ota-onalariga farzandini kasbga bo'lgan qiziqishi haqida aytiladi .

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ota-onalar ham manfaatdorliklari shuning uchun ham o'quvchilarning ota-onalar bilan aloqa o'rnatish zarur . Ota-onalarga o'quvchilar kasbga yo'naltirishda maslahat berish konsultatsiya uyushtirish kerak.

Ota- onalarga farzandning kasbiy yo'nalishi bo'yicha maslahatlar beradi. Shundagina biz ko'zlagan maqsadga erishamiz kelajagimiz bo'lgan yoshlarni kasb hunarli bo'lishga vatanimizga kerakli inson bo'lib kamol topishlariga yordam bergan bo'lamiz.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИДА ДИҚҚАТНИ ЖАМЛОВЧИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Назарова Шоҳиста Аззамкуловна
21-мактаб психологи*

Аннотация: Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Билим олиш жараёнида мустақил ақлий меҳнат қилиш, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш иродавий зўр бериш жараёнида ихтиёрий, онгли диққат таркиб топади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шакллана бошлайди.

Калит сўзлар: Таълим жараёни, кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар, ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққат, билим, жараён, мустақил ақлий меҳнат, мисол-масалалар ечиш, машқлар бажариш, такрорлаш, ихтиёрий, диққат, ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, тақсимлаш, бошқариш.

Бошланғич синф ўқувчиларида диққатни иродавий зўр бериш билан бошқариш ва вазиятга мослаш имконияти яхши бўлмайди. Бунинг асосий сабаби, уларда ихтиёрий диққатнинг кучсизлиги ва беқарорлигидир. Болаларда ихтиёрсиз диққат кўпроқ ривожланган бўлади. Бошланғич синф ўқув материалларининг яққоллиги, эркинлиги, жозибadorлиги, ўқувчида беихтиёр хис-туйғулар уйғотади, иродавий зўриқишсиз, осонгина фан асосларини эгаллаш имконини беради. 1-2 синф ўқувчилари диққатининг ўзига хос хусусиятларидан бири, унинг етарлича барқарор эмаслигидир. Шунинг учун ҳам улар диққатларини муайян нарсаларга қарата олмайдилар ва диққат объектда узоқ тура олмайди. Таълим жараёни кичик мактаб ёшдаги ўқувчиларнинг ихтиёрий, барқарор, мустаҳкам, кучли, фаол онгли диққатни ривожлантиришга қулай шарт-шароит яратади. Бу ёшдаги болада ихтиёрий диққатни жамлаш, ташкил қилиш, зарур бўлса уни тақсимлаш, онгли равишда бошқариш ўқуви шакллана бошлайди.

Кичик мактаб ёшидаги бола маълум даражада ўз фаолиятини ўзи мустақил ривожлантира олади. У ўз режасини, у ёки бу ишни қандай кетма-кетликда бажаришини сўз билан ифодалаб бера олади. Режалаштириш сўзсиз боланинг диққатини ташкил эта олади ва ривожлантиради. Уларда ихтиёрсиз даққат устунлик қилади. Кичик мактаб ёшидаги болалар сўзсиз ўз диққатларини интеллектуал масалаларга қарата оладилар, лекин бу жуда катта иродавий кучни ва юқори мотивацияларни ташкил этилишини талаб қилади. Боланинг диққати теварак-атроф таасуротлари, тасвирий санъат асарларини етарли даражада акс эттиришда вужудга келади. Кичик мактаб ёшидаги бола ўқитувчиси билан мустаҳкам эмоционал боғлиқ бўлади. Мактаб таълими ўқувчининг турмуш тарзини ижтимоий мавқеини синф жамоаси ва оила муҳитидаги аҳволни ўзгартиради, унинг вазифаси ўқишдан, билим олиш, кўникма ва малакаларини эгаллаш, ўзлаштиришдан иборат бўлиб қолади. Кичик мактаб ёшидаги боланинг муҳим хусусиятларидан бири унда ўзига ҳос эҳтиёжларнинг мавжудлигидир. Бу эҳтиёжлар ўз моҳияти билан муайян билим, кўникма ва малакаларни эгаллашга қаратилмай, балки фақат ўқувчилик истагини акс эттиришдан ҳам иборатдир. Шу эҳтиёжлар асосида ўз портфелига, шахсий ўқув куролларига дарс тайёрлаш бурчагига, китоб қўйиш жавонига эга бўлиш, катталардек ҳар куни мактабга бориш истаги ётади.

Кичик мактаб ёшидаги бола ўзининг туб моҳияти ва вазифасини тушуниб етмайди, балки ҳамма мактабга бориши керак деб тушунади. Аммо у катталарнинг кўрсатмаларига амал қилиб тиришқоқлик билан машғулотларга киришиб кетади. Орадан маълум вақт ўтгач шодиёна лаҳзаларнинг таассуроти камайиши билан мактабнинг ташқи белгилари ўз аҳамиятини йўқота боради ва бола ўқишни кундалик ақлий меҳнат эканлигини англайди. Шунда бола ақлий меҳнат кўникмасига эга бўлмаса, унинг ўқишдан кўнгли совийди, унда умидсизлик ҳисси вужудга келади. Ўқитувчи эса бундай ҳолнинг олдини олиш учун болага таълимнинг ўйиндан фарқи, қизиқарлилиги ҳақида маълумотлар бериши ва уни шу фаолиятга тайёрлаши керак. Таълимнинг мазмуни ўқувчининг билимларни эгаллашга қизиқиши ўз ақлий меҳнати натижасидан қаноатланиш ҳисси билан

узвий боғлиқдир. Бу ҳис ўқитувчининг рағбатлантириш билан амалга оширилади ва ўқувчида самаралироқ ишлаш мойили, истаги ва иштиёқини шакллантиради. Болада пайдо бўлган фахрланиш ўз кучига ишониш ҳислари билимларни ўзлаштириш ва малакаларни ривожланишига хизмат қилади.

"Бола-катта" муносабати, "бола-ота-она" муносабатидан ташқарида юзага келади. Чунки, ўқитувчи болага ота-онага нисбатан кўпроқ равишда норматив талаблар қўяди. Биринчи бор мактабга келган бола ҳали ўзини тўлиқ англаши ва ўзи ҳатти-ҳаракатларини аниқ билиши қийин. Бошлагич синфда ўқувчилар ўқитувчи томонидан қуйиладиган янги шартларни қабул қиладилар ва уларнинг қоидаларига тўла амал қилишга ҳаракат қиладилар. Бола учун ўқитувчи унинг психологик ҳолатини белгилаб берувчи асосий фигура ҳисобланиб. Бу ҳолат унинг нафакат синфдаги балки умуман тенгдошлари билан бўладиган муносабатига бу муносабат эса ўзўзидан оиласидаги муносабатларига таъсир кўрсатади. Шунингдек, бу муносабатлар, унинг ўқув фаолияти муваффақиятини ҳам белгилаб беради. Бу даврда болаларнинг билимлари кенгаяди ва чуқурлашади, кўникма ва малакалари такомиллашади.

3-4 синфга бориб кўпчилик болаларда умумий ва махсус лаёқатлар кўзга ташланади. Кичик мактаб даврида ҳаёт учун ниҳоятда аҳамиятли бўлган муваффақиятга эришиш мотиви мустаҳкамланади, бу эса ўзўзидан бошқа лаёқатларни жадал ривожланишига олиб келади. Бу ёшдаги болаларда идрок, диққат, хотира, тафаккур ва нутқ тўлиқ шаклланиб бўлгани учун ҳам уларга таълим беришда катталарга қўлланиладиган услублардан фойдаланиш мумкин. Кичик мактаб ёшидаги болалар психик ривожланишда, уларнинг атрофидаги шахслар, ота-онаси ва айниқса ўқитувчи билан бўладиган муносабати орқали эришиши мумкин. Хулоса қилиб, шуни айтишимизки ўқувчилар ўртоқлари билан муносабатларини, катталар таълим-тарбия мақсадларида фойдаланишлари мумкин. Бу ёшдаги болалар соатлаб ёлғиз ҳолда севимли машғулотлари билан шуғулланишлари мумкин ва шу асосда уларда меҳнатсеварлик ва мустақиллик фазилатлари шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Адизова Т.М., Тўлаганова Г.К. Мактаб психологининг ўзлаштира олмовчи бошланғич синф ўқувчилари билан амалга оширадиган психологик коррекцион ишлари. Бу тўпلامда: Мактабда психологик хизматни ташкил қилиш муаммолари. –Т.: ТДПУ. 1994. Б. 18-32.
2. Нишанова З.Т., Психодиагностика ва экспериментал психология 2014.й
3. Нишонова З.Т., Ходжакулова Д.И., Алимова Қ.Г. Психогигиена. Баёз нашриёти. Тошкент 2013 йил.

KOMPYUTER VA INTERNET TARMOQLARINING BOLALAR VA O'SMIRLAR MA'NAVIYATIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI

*Muxammadiyeva Nodira Ismoilovna
Qashqadaryo viloyat Yakkabog' tumani 83-maktab psixologi*

Inson azizu mukarram, barcha mavjudotlar orasida eng taraqqiy etgan mavjudot ekanini isbotlovchi dalillarni uzoq sanash mumkun. Odamning ajoyib xususiyatlaridan biri madaniy xordiq, turli xil mashg'ulotlarga ham ehtiyoj sezishidan iborat. Ma'naviy madaniy ehtiyojlarini qondirish insoniy qiyofa shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugun hayotimizning barcha javhalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Kompyuter haqiqatdan ham keng tarmoqli vazifalarni bajaradi: Radio va musiqa eshitish, filmlar ko'rish, matn terish, rasmlar ob'ektlar va animatsiyalar yaratish, telefon va kalkulyator vazifasini bajarish, global tarmoqlarga ulanish, kompyuter o'yinlarini o'ynash va hakoza.

AQshining savdo-sotiq vazirligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 50 millionlik auditoriyani qamrab olish uchun radioga 30-yil kerak bo'lgan ekan, televideniya 13 yil, internetga 4 yil kifoya qilgan. Internet- eng ommaviy, tezkor ma'lumot olish manbai sifatida real vaqt rejimida norasmiy muloqat qilish, filmlar,

musiqa, video o'yinlar ko'rish, reklama va tijorat uchun foydalanish, masofaviy ta'lim olish kabi imkoniyatlar beradi. Hush hozirgi kunda shunchalik katta imkoniyatlardan foydalanish yoshlarga nima beradi? Yoshlar hozirda texnologik bilimlarini kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallamoqda va aytish mumkinki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qtuvchi nazoratida internetdan asosan ilm-fan, madaniyat va sportga oid malumotlarni oladi, o'rganadi. Bular xursand bo'ladigan ijobiy holatlar. Darslardan chiqib dars vaqtida ololmagan biron bir qiziq malumot, video rolik va shu kabi axborotni hohlagan internet kafedan hech kimning nazoratisiz ham topishi uni yuklab olishi mumkun.

Kompyuter o'yinlarining bazilari o'smirlar intellektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalrining shakllanishiga, mantiqiy fikirlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi

Lekin hozirgi kunda jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga bolalar va o'smirlarni kompyuter, internet va asosiysi kompyuter o'yinlariga bog'lanib qolish holatlari tez-tez kuzatilmoqda. Bolalar va o'smirlarda kompyuter o'yinlariga psixologik tobeylik ko'rinishiga o'tib ketmoqda

Kompyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan o'smir oddiy hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o'yinlariga murojaat qilishni boshlaydi.

“Psixologlarning ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter o'yinlarini o'ynaydigan 10-15% kishilar ularga tobe bo'lib qolishar ekan. Tobelik asosida esa rohatlanishga nisbatan ehtiyoj yotadi. Mazkur tobelik har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin, biroq u o'smirlarda o'ta ta'sirli bo'ladi. “Kompyuterga tobelik” tushunchasi 1990-yilda paydo bo'ldi. Mutaxassislar tobelikning bunday turini o'ziga xos “emotsional narkomaniya”ga taalluqli deb hisoblashadi. Kompyuterga tobelik og'ishgan xulq-atvor turlaridan biri hisoblanadi va u o'zining emotsional ruhiy kayfiyatini o'zgartirish usuli yordamida kundalik tashvishlardan qochishga intilish holati bilan fe'l-atvorlanadi. Bunday paytlarda insonning psixikasi tormozlanadi, individual shaxsiy rivojlanishi to'xtaydi. Bugungi kunda kompyuterga tobelik paydo bo'lishining ikkita asosiy

psixologik mexanizmi farqlanadi: voqyelikdan uzoqlashish va o'zganing rolini qabul qilish ehtiyoji. Ular odatdabir vaqtning o'zida ishlaydilar, biroq tobelikning shakllanishiga ta'sir kuchi bo'yicha biri ikkinchisidan oldinlab ketishi mumkin.

Barcha tobiylik vositalari hattoki kompyuter o'yinlari ham ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarini (havotir, hafalik, aybdorlik hissi, o'zini yolg'iz his etsih) bartaraf etadi.

Bolalar va o'smirlar kompyuter bir necha marta o'ynagandan so'ng kompyuter qahromoni va undagi virtual olam, unung real hayotidagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotkanini tushunadilar. Bu kompyuter qahromonini hurmat qilishadi, uning fikrlariga qo'shilishadi, u kuchli, kuplab dushmanlari bir zumda yo'q qilib g'alaba qozona oladi. Bolalar va o'smirlar uchunn bu rolga kirish va o'zini "u" deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko'pchiligi real hayotda bunday his-tuyg'usni his qilishlari qiyin. Ular kompyuter o'yinlarini o'ynagan sari "o'z real hayoti" va "o'z virtual hayoti" orasidagi farqni seza boshlaydi, buning natijasida real hayotdan uzoqlashib, kompyuter o'yinlariga intilish yanada kuchayadi. Natijada bolalar va o'smirlar kundalik hayotdagi muommolarini kompyuter o'yinlari orqali kompentsatsiya qilishni boshlaydi

Shubhasiz bu jiddiy muommolarni keltirib chiqardi. Kopyuterga tobiy o'smirlarning hulqida va organizmida quyidagi o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkun.

- 1) Ortiqcha tez charchjab qolish:
- 2) O'qishda o'zlashtirishning yomonlashuvi:
- 3) Yaqin kishilar bilan muloqat qilishdan qochish, "oz qobig'iga o'ralib qolish" holatlari yuz beradi, tanqidni ko'tara olmaslik:
- 4) Yolg'onchilik va aldovning va muyillikning ortishi:
- 5) Qo'l nerv to'qimalarining zararlanishi, bu muskullarning ko'p mudat ishlashidan kelib chiqadi:
- 6) Doim pul so'rash:
- 7) Ko'z yoshlarining qurishi va qizarib ketishi:
- 8) Boshdagi og'riqlar:
- 9) Orqa, yelkadagi og'roqlar:

10) To'g'ri ovqatlanmaslik, ovqatlanish jaroyonining buzilishi:

11) Shaxsiy giginaga amal qilmaslik:

12) Uyquning buzilishi, uxlash taribining o'zgarishi:

O'smirlardagi mazkur yuqorida sanab o'tilgan sifatlar aloxida-aloxida olinganda xavf unchalik kuchli emasdik bo'lishi mumkin lekin bu o'smirlarda jinsiy yetilish inqirozi yoki hayotning ogg'ir vaziyatlarga munosabati bilan hama bog'lik bo'lishi mumkin.

Pedagoglar va ota-onlar bunday holatlarda juda ehtiyot bo'lishlari kerak bolaga o'z shubhalrini sezdirmay, uning hulqidagi o'zgarishlarni tushunishga harakat qilsihlari kerak. Agarda bu ko'rinishlarning bir nechitasi jamlansa davom etsa bu ota-onalarni xavotirga solishi kerak.

Kuchli kompyuterga tobiylikni rivojlanishida bolar va o'smirlarning individual hususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Kuchli ruhiy kechinmalarini boshdan kechirishga kuchi yetmaydiga, nizolardan qo'rqadiga, o'zlarini hech xavf xatarsiz sezmaydigan, doimo biror noxushlikni kutadigan, haqiqiy hayotda do'st orttirishga qiynaladigan o'smirlarda, tobiy bo'lib qolish ehtimoili ko'proq bo'ladi. Bunday o'smirlar o'zlariga g'amxo'rlik qila olamaydilar, o'z ruhiy kechilmalarini yengish uchun birovning yordamiga muhtoj bo'ladilar.

Pedagoglar va ota-onalar yetuk shaxsni shakillantirishni istar ekan-daxshatli jang maydonida qattiq kurashga tayor bo'lishi kerak. Farzandni yaxshi ko'radigan har qaysi insonning qo'lidan keladigan ishlar jumladan;

Bolani o'zining qo'li bilan bajaradigan, unda o'z mavqe'ini his etish, imkonini beruvchi amaliy ishlarga jalb etish:

1) Bola bajarishi kerak bo'lgan majburiyatlar hajmini holisona baholab ko'rish, og'irlik qiloyotkan masalalarda tartibini qayta korib chiqish, o'zgartirish:

2) Bolaga vaqtni maqsadli o'tqazish bo'yicha ko'rsatmalar berish barovarida unga "keraksiz" ishlar bilan ham shug'ullanish, o'rgatilgan qoidalarni ba'zi-ba'zida buzub turish imkonyatini berish:

3) Bola uchun vaqti-vaqti bilan sukut muhiti-hayollar va fkirlar bilan yolg'iz qolish imkonyati bo'lgan sharoitni yaratib berish:

4) Bolaga o'zini o'zini chakg'itish usullarini, fikrlarining mantiqiy zanjirini tuzushini o'rgatish:

5) Bolani lozim bo'lgan yordam so'ram murojaat qilishga rag'batlantirish, zo'rma-zo'raki mas'uliyatni hosil qilishga urunmaslik, mustaqillik va mas'uliyat payti yetilib o'zi sekin shakillanishiga ishonish:

6) Bola bilan ko'proq ovqatlanish, umumiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, birga uzoq-yaqin safarlarga boorish

Umuman olganda bolaga hayotimizning eng muhim qismi ekanini namoyish etishdan charchamasligimiz talab qilinadi. Albatta kompyuter va internet orqali begona odamlar masofadan turib yuz-ko'z ko'rishmay turib o'quvchi va farzandimiz psixologiyasini bilib olayotganini bo'lsayu, nahotki men uni har kuni har soniya ko'rib,kuzatib yurgan, qo'lida yetaklab katta qilaayotkan odam yetarlicha anglay olmasam degan savolni har birimiz o'zimizga berishimiz kerak Har bir jamiyat azosining asosiy vazifasi-yosh avlodni turmush tarziga o'rgatish ularni barkamol insonlar sifatida tarbiyalash davr talabi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

11.N.ziyouz.com

12.Maktab va hayot ilmiy metodik jurnali.

13.Ziyonet.uz

ЎСМИР ЁШЛАРДА ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Бозорова Нилуфар Нажмиддинқизи
Чирчиқ шаҳар 24-мактаб амалётчи психологи*

Аннотация: Маскур мақола илмий –тадқиқий характерга эга бўлиб, жиддий ва долзарб масалага яъни ёшларда ҳуқуқий муносабат шаклланиши, ҳуқуқий саводхонликни ошириш бугунги кунда устувор вазифалардан бири эканлиги ва шунга доир тадқиқот натижаларининг психологик таҳлили ёритилган.

Калим сўзлар: Юридик фактлар, юридик ҳаракатлар, ҳуқуқий муносабат субъектлари, ҳуқуқий муносабат турлари, ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий саводхонлик .

Аннотация: В данной научно – исследовательской статье раскрываются психологические особенности серьёзных и актуальных проблем молодёжи, в частности, формирование их правовых отношений ,являющихся одним из основных задач современности в повышении их правовой грамотности, издес также освещается психологический анализ итогов исследования , касающихся этих проблем .

Ключевые слова: Юридические факты ,юридические действия, субъекты правовых отношений , виды правовых отношений ,правовая культура, правовая грамотность.

Annotation: In this article it is considered psychological properties serious and actual problem of youth, especially forming them legal acting. It is one of the most important task in present day, rising their legal competence and also cover its total scientifically psychological analysis connecting this theme.

Key words: Legal facts, legal acting, subjective legal treatment, types of legal treatment, legal culture, legal competence.

Мамлакатимиздаги давлат ва жамият тараққиётининг янги босқичи ҳуқуқий муносабатларда барча иштирокчиларнинг ҳуқуқий маданиятини, ҳуқуқий саводхонлигини ҳар томонлама оширишни талаб қилмоқда. Ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий билим, ҳуқуқий эътиқод ва изчил амалий фаолият мажмуи сифатида жамият ва давлат олдида турган вазифаларнинг мувафақияти ҳал этилишини таъминлайди. Ҳуқуқий саводхонликка эришишни таъминлаш борасидаги барча ҳаракатлар таълим тизимининг барча буғунларида ўз ифодасини топомқда дейиш мумкин. Аммо бу жараёни яна самарали кечишида таълим – тарбия муҳитидаги ҳуқуқий билимларни ўзлаштириш саводхонлик даражасини таъминлашга хизмат қилувчи педагогик – психологик қонуниятларга таянишга зарурат сезади.

Ўспиринлик даврида ҳуқуқий билим ва тушунчаларни шакллантириш бирон бир ижтимоий гуруҳда ўз ўрнини топиш унинг учун қанчалик муҳим аҳамият касб этмасин шунга қарамасдан бу онтогенез босқичидан энг ривожланган ҳис бу шахс бўлиб ҳисобланади . Илмий тадқиқотлар натижаларининг таҳлили шуни кўрсатдики барча ёшларда ўзлигини англаш бир хил эмас экан чунки бу турдаги кўриниш ижтимоий – маъданий ҳуқуқий билим ва тушунчаларни шаклланганлиги ақлий – ижодий шарт – шароитлар билан узвий боғлиқдир. Ўспирини ўқитиш жараёнида ёшига ҳам эътибор бериш ижтимоий турмушда фойдадан холи эмас

чунки ҳуқуқий билим ва тушунчаларни ўзида мужассамлаштиради у кишининг руҳий ҳолатига кучли таъсир этади ҳатто ларзага келтиради¹¹.

“Ҳуқуқий муносабатлар” тушунчаси юзасидан амалий машғулоти мавзусини амалга ошириш методикаси қуйида келтириб ўтилади. Мавзу бўйича ҳуқуқий муносабат тушунчалари шажараси ўқувчиларнинг амалий машғулоти вақтида ишлаб чиққан схемаларидан фаолият натижаларини биридир. Ушбу ҳолатга ўқувчиларнинг ҳуқуқий муносабатларга доир юридик тушунчаларини тавсифлашнинг ўзига хос кўриниши сифатида қараш мумкин. Бундан ташқари, биз ўқувчиларда ҳуқуқий тушунчаларини шакллантиришга доир тадқиқотларни яна бир ҳолатини алоҳида таҳлил қилиб ўтамиз.


Биринчи гуруҳ тажриба-синов ва иккинчиси эса назорат гуруҳи. Тажриба-синов гуруҳи ўқувчилари лойиҳалаштирилган амалий машғулоти режаси бўйича назорат гуруҳи эса анъанавий тарзда машғулоти олиб боришга таянади.

Лойиҳалаштирилган ўқув машғулотини амалга оширишнинг биринчи ва иккинчи босқичида фан ўқитувчиси етакчиликни ўз зиммасига олган ҳолда ўқувчиларга ҳуқуқий муносабатлар тушунчасини таърифлаш, ҳуқуқий муносабатларнинг вужудга келишини белгиловчи омиллар, юридик фактлар, юридик ҳаракатлар, ҳуқуқий муносабат субъектлари, ҳуқуқий муносабат турлари ҳақида назарий тушунчалар берилди.

Машғулотнинг учинчи ва тўртинчи босқичида эса ўқувчиларнинг гуруҳларда ишлашлари ва гуруҳий иш натижалари тақдим этилди.

Ўқув машғулоти якунида эса ўқувчиларда ҳуқуқий тушунчаларининг шаклланганлиги мезонига мувофиқ баҳоланди. Ўз навбатида назорат гуруҳида анъанавий машғулоти бўйича ташкил этилиб, унда ҳам ўқувчиларнинг машғулотидаги фаолияти баҳолаш мезонлари бўйича баҳоланди.

¹¹ Шоумаров Ғ.Б. Вояга етмаган жиноятчилар билан ишлашнинг психологик масалалари . Таълим тизими - психологик хизмат. Муаммолар ечимлар. ТерДУ. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Термиз.2002 . – Б.9-13.



1-расм. Ўқувчиларнинг тақдимотида келтирилган ҳуқуқий муносабатлар тушунчасининг шажара кўриниши

Ўқувчиларида ҳуқуқий тушунчаларини шакллантириш бўйича ташкил этилган машғулотларнинг натижаларини баҳолаш бўйича ташкил этилган тажриба-синовда ўқув билим юуртлари субъектларининг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилишнинг рейтинг тизими тўғрисида низомига асосланган ҳолда баҳолаш амалга оширилди. Бу эса ҳар бир ташкил этилган машғулот бўйича ўқувчиларда машғулот бўйича юридик тушунчаларини шаклланганлик даражасини баҳолаш имкониятини беради¹².

Тажриба-синов қатнашчиларда ҳуқуқий тушунчаларини шаклланганлик ҳолатини аниқлашда тажриба ва назорат гуруҳлари фаолиятини ўрганишга асосланиб амалга оширилди.

Якуний босқичда ўспиринларда “Ҳуқуқий муносабатлар” тўғрисидаги тушунчаларнинг шаклланганлиги юзасидан тақдимот материаллари кўздан кечирилганида бир-биридан фарқ қилувчи ҳолатлар кузатилади. Тақдимотлар орасида ўқувчиларда ҳуқуқий тушунчалари шаклланганлигини характерловчи энг яхши тақдимот материали сифати ҳуқуқий тушунчаларни кластерлашга эришган гуруҳ аъзолари фаолияти ижобий кўрсаткичга эга деган хулосага олиб келади. Ҳуқуқий муносабат тушунчаларини шакллантирилган ҳолатини назорат қилишда алоҳида математик моделга таяниш ёки тажриба-синов ва назорат гуруҳлари натижалари ўртасидаги муносабатни аниқлаш орқали ҳам эришилади.

Бу ҳолатни “Жамият, давлат ва ҳуқуқ” мавзулари мисолидаги тажриба-синов натижалари устида бўйича таҳлил қилинди.

¹² Жўраев Б. Ўқувчиларда юридик тушунчалар шаклланишининг психологик жиҳатлари. нашриёти. 2014. Тошкент. 154-Бет.

Ўқувчиларининг “Жамият, давлат ва ҳуқуқ” мавзуси бўйича ҳуқуқий тушунчаларини шаклландирилган даражаси кўрсаткичлари

№	Тушунчалар	Гуруҳлар	Ўзлаштириш кўрсаткичи (баҳо)		t
			Х	σ	
1	Жамият ва давлат	Тажриба-синов	4,12	0,78	3,61**
		Назорат	3,36	0,86	
2	Давлат функциялари	Тажриба-синов	4,04	0,78	2,78*
		Назорат	3,28	0,89	
3	Давлат бошқарув шакли	Тажриба-синов	4,04	0,78	3,26**
		Назорат	3,24	0,87	
4	Давлатнинг тузилиш шакли	Тажриба-синов	4,12	0,78	3,57**
		Назорат	3,32	0,80	
5	Сиёсий тартиби	Тажриба-синов	4,00	0,81	3,57**
		Назорат	3,04	0,73	
6	Давлат бошқарувида фойдаланиладиган ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар	Тажриба-синов	3,68	0,55	3,97***
		Назорат	2,96	0,84	
	Натижаларнинг умумий ўртача кўрсаткичи	Тажриба-синов	3,72	0,37	5,23***
		Назорат	3,20	0,39	

** $p \leq 0,01$, *** $p \leq 0,001$

Ўқувчиларни лойиҳалаштирилган машғулотлар давомида ҳуқуқий тушунчаларини ўзлаштириш кўрсаткичларида тажриба-синов ва назорат гуруҳи қатнашчиларида статистик миқдорлар бўйича тафовут кузатилди. Жамият ва давлат тушунчаларни таърифлаш, улар ўртасидаги боғлиқлик ва фарқларни ифодалашда-4,12 балл ва назорат гуруҳи-3,36 балл; “давлат функциялари” бўйича-4,04 ва 3,28 балл; “давлат бошқарув шакли” бўйича-4,04 ва 3,24 балл; “давлат тузилиш шакли” бўйича-4,14 ва 3,32 балл; “сиёсий тартиби”га доир тушунчалар бўйича-4 ва 3,04 бал; “давлат бошқарувида фойдаланиладиган ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар” бўйича-3,68 ва 2,96 балл; умумий ўртача баҳо кўрсаткичи эса 3,72 ва 3,20 баллдан иборат. Барча кўрсаткичлар бўйича натижалар ўртасида ишончлилик фарқлари кузатилди (жадвал). Агар уларнинг натижаларини мавзулар бўйича коэффицентини аниқлаганда қуйидагича кўриниш олди:

$$R_{MT} = \frac{\Phi_{M1} + \Phi_{M2} + \Phi_{M3} + \Phi_{M4} + \Phi_{M5} + \Phi_{M6}}{6} = \frac{4,12 + 4,04 + 4,04 + 4,12 + 4 + 3,68}{6} = 3,72 \approx 4;$$

Назорат гуруҳи ўқувчилари эса:

$$R_{MN} = \frac{\Phi_{M1} + \Phi_{M2} + \Phi_{M3} + \Phi_{M4} + \Phi_{M5} + \Phi_{M6}}{6} = \frac{3,36 + 3,28 + 3,24 + 3,32 + 3,04 + 2,96}{6} = 3,20$$

Бу эса ҳуқуқий тушунчаларини шакллантириш бўйича амалга оширилган тадбирларга кўра, тажриба-синов гуруҳи (74,4%) ва назорат гуруҳи (64%) ўқувчиларининг тушунчаларни ўзлаштириш кўрсаткичлари самарадорлиги 10,4 % ни ташкил этади.

Ҳуқуқий таълим ўқувчиларининг келажакда фуқаролик ёки касбий фаолиятининг узвий бир бўғини учун зарурий бўлган билимларни бошланғич даражасини ўзида акс эттирганлиги сабабли ҳам ҳуқуқий муаммоларни ҳал этишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Худди шу сабабли ҳам унинг долзарблиги бир жиҳатдан узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир босқичида эътиборга олинганлиги билан боғлиқдир. Узлуксиз таълим бошланғич бўғинларидаёқ, “Конституция алифбоси”, “Давлат ва ҳуқуқ асослари”, “Ҳуқуқшунослик”, “Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш”. “Ҳуқуқшунослик” сингари фанларни ўқитилиши узлуксиз ташкил этилган.

Ҳуқуқий билим ва тасаввурлар ижтимоий ҳаётнинг барча томонларига кириб бориб фуқароларнинг онгидан ўрин олиб одамлар хулқ – атворига психологик таъсир этади. Жамият қабул қилган қонун – қоидалар доирасига фаолият кўрсатишга ундайди. Шундай экан ҳуқуқий саводхонликка эришишни таъминлаш борасидаги барча ҳаракатлар таълим тизимининг барча бўғинларида ўз ифодасини топмоқда дейиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР.

1. Шоумаров Ғ.Б. Вояга етмаган жиноятчилар билан ишлашнинг психологик масалалари. Таълим тизими - психологик хизмат. Муаммолар ечимлар. Термиз.2002. – Б.9-13.

2. Жўраев Б. Ўқувчиларда юридик тушунчалар шаклланишининг психологик жиҳатлари. ЎзР Фан нашриёти. 2014. Тошкент. 154-Бет.

3. www.goog.uz

AGRESSIYA-BOLA PSIXIK TARAQQIYOTIDAGI INQIROZDIR!

Ortiqboyeva Tamara Musurmonqulovna
Bolalar psixologi

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad komil inson, yetuk kadrlarni tarbiyalashni talab etadi. Ma'nai yetuk, komil inson tarbiyasi esa bevosita maktabgacha yoshda bolalarimizning olayotgan ta'lim va tarbiyalariga bog'liq. Hulq atvorning, inson salohiyat darajasining negizi ham aynan mana shu yosh davrlarida vujudga keladi. Agressiya bolalarda salbiy xulq atvor bilan namoyon boladi. Unga insonlarga jismoniy va ruhiy zarar keltirish deb ham ta'rif beriladi.

Agressivlik holati ko'pgina kichik yoshdagi bolalarga xos bo'lib, ko'p hollarda bolalarda aggressiv xatti-harakat o'tish davrida kuzatiladi, ya'ni 1 yosh, 3 yosh va 7 yosh krizis davrlarida namoyon boladi. Vaqtida kattalar tomonidan e'tibor berilmaganligi sababli aggressiya kuchayib cho'zilib qoyoki bizning nazarimizda harakterga aylanib boradi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro bo'lib, natijada uning xatti-harakatlarida aggressiya elementlari kuzatilaboshlaydi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi.

Agressiv bolalarning xususiyatlari:

- 1) har bir vaziyatdan xavf-xatar sezish, qo'rqishi;
- 2) o'ziga nisbatan salbiy munosabatni his qilishi;
- 3) atrofdagilarni salbiy idrok qilish, ko'pchilikni yoqtirmasligi;
- 4) o'zini nazorat qila olmaslik;
- 5) salbiy xatti-harakatlarning oqibatlarini o'ylamaslik, sheriklarini urib tashlashi;
- 6) insonlar va hayvonlarga nisbatan bag'ri-toshlik, uy hayvonlarini qiynashi;
- 7) agressiyadan zavqlanish, u yordamida kuchli bo'laman deb o'ylash

Boladagi agressiyaning paydo bo'lishida faol ishtirok etuvchi omillar

1. Oila muhiti

Oiladagi tarbiyaning usuli;

- ✓ oilada o‘zini ortiqcha, keraksiz his qilish;
- ✓ oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi;
- ✓ oiladagi notinchlik, urish, janjallar;
- ✓ hissiyotlariga nisbatan befarqlikni his qilish.

2. Kattalarning munosabatlari.

bolalarbilansalbiymuloqot;
ko‘p buyruq berish, ayblov va tahdidlar;
kichkintoyni tanqid va haqorat qilish;
bolaning xohish istaklarini hisobga olmaslik.

3. Bolaning guruhdagi o‘rnidan, tengdoshlarining munosabatlaridan qoniqmasligi.

Bolalar orasidagi munosabatlarga quyidagilar ta’sir ko‘rsatadi:

tashqi ko‘rinishi, yoqimtoyligi, tartib-intizomi, toza-ozodaligi;
chiroylio‘yinchoqlarga egaligi;
dunyoqarashi;
kattalarning ijobiy munosabatlari;
liderlik.

Yuqoridagi holatlardan ma’lum bo‘ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi. Agar oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, muloqotga mehribonlik, g‘amxo‘rlikni kiritisa, shu asosida unda agressivlikni yengib o‘tishga imkoniyat yaratadi.

Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishlash qiyin jarayon. Sababi ularga avvalo agressiya keltirib chiqargan yoki oilada soglom muhit shakllantira olmagan, yoki bolaning agressiya olishi mumkin bo‘lgan holatlardan himoya qila olmaganligin tushuntira bilish kerak. Shuning uchun psixolog iloji boricha ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishi kerak.

Agressivlikdan qutulish uchun ham ishni ota onadan boshlash lozim. Xulq-atvorida o‘zgarishlar kuzatilgan bolalar bilan ishlash jarayoni o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Agressiv bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan usul – hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiiy usulidir.

Boladagi agressivlikni bartaraf etishni, ya'ni korreksiya qilishni, uning sabablarini, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim. Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Buni quyidagi korreksion ishlarni ko'rib chiqishda hisobga olish kerak:

1. Agressiyani bartaraf etishda o'yindan foydalanish, yangi ijtimoiy yondashishni tatbiq etish, ma'noni emotsional to'ldirish.

2. Bolaning agressiv harakatlarini ta'qiqlash (bolaga agressiyani ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik).

Korreksion ishlar faqat bola bilan emas, pa-rallel ravishda ota-onalar va tarbiyachilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Kichkintoy har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga ke-rakligini his qilishi darkor.

Agressiv bolalar bilan olib boriladigan psixo-korreksionishlarning vazifalari:

- boshqa shaxs holatini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- ijtimoiy maqbul tarzda o'z his-tuyg'ularini ifoda qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- autorelaksatsiyani o'rgatish;
- muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- shaxsiy yutuqlari asosida o'z iniijobiy tasavvur qilishni shakllantirish;
- atrofdagilarga nisbatan iliq munosabatni shakllantirish;
- zo'riqishlarni bartaraf qilishni o'rgatish, shart-sharoit yaratib berish.

Bolalarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quyidagilarni bajarish mumkin:

- yostiq bilan kurashish;
- jismoniy harakatli o'yinlardan foydalanish;
- qog'oz yirtish;
- urishgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash;
- "hayqiriq xaltachasidan" foydalanish;
- psixo-gimnastika bilan shug'ullanish;

ertakterapiya, izoterapiya (loy, suv bilan ishlash), artterapiya, musiqiy terapiya, animaloterapiya – uy hayvonlaridan foydalanish.

Agressiv bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin:

“Yumshoq qo'lchalar”

O'yinning maqsadi: qo'l mushaklaridagi taranglikni yo'qotish. Bolalarni agressiv holatdan chiqarishga yordam berish, idrokni rivojlantirish, kattalar va bolalar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: 6-7 ta mayda buyumlar: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha, paxta va h.k.

O'yinning borishi: tarbiyachi 6-7 ta mayda buyumlarni oladi: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha, paxta va h.k. Ularning hammasini stolga qo'yadi. Bolalarga yengini tirsagigacha shimarish taklif etiladi; tarbiyachi ularning qo'lidan “jonivorlar” yurib, yumshoq qo'lchalari bilan tegib o'tishlarini aytadi. Ularning ko'zlari yumuq holda qaysi “jonivorlar” qo'llariga tegib o'tganini topishlari lozim. O'yin variantlari: “jonivorlar” bolalarning kaftga, yuzlariga, tizzalariga tegib o'tishi mumkin.

“Ayiqchaga ezgu so'zlarni ayt”

O'yinning maqsadi: bolalarda o'z-o'zini baholashni oshirishga yordam berish, bir-birlariga maqtov so'zlarini izhor qilishga, e'tiborli bo'lishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: koptok, o'yinchoq ayiqcha.

O'yinning borishi: tarbiyachi va bolalar doira shaklida o'tiradilar, tarbiyachining qo'lida koptok bo'ladi.

Tarbiyachi va bolalar koptokni bir-birlariga uzatib, odamlarda qanday yaxshi xususiyatlar bo'lishini esga olishadi. So'ngra tarbiyachi o'yinga o'yinchoq ayiqchani taklif etadi. Bolalar unga quyidagi so'zlarni aytishadi: “Sen – ... (yaxshisan, quvnoqsan, tirishqoqsan)”. So'ngra navbati bilan har bir bola “ayiqchaga aylanishadi” (o'yinchoqni qo'lida ushlab turadi), qolgan bolalar ayiqcha rolidagi bolaga ezgu so'zlarni aytadilar.

“Mengayoqadi”

O'yinning maqsadi: bolalarga o'zining va atrofdagilarning yaxshi xislatlarini bilishga yordam berish.

Kerakli jihoz: koptok.

O‘yinning borishi: bolalar doira bo‘lib o‘tiradilar. Tarbiyachi kichkintoylardan biriga “menga sendagi xislat yoqadi”, deb koptokni otadi, koptokni ilib olgan bola, uni boshqa bolaga otadi, shu usulda bolalar bir-birlarining qaysi jihatlari yoqishini ma’lum qiladilar. Koptok hamma ishtirokchilarda aylanib chiqishi lozim.

So‘ng tarbiyachi “menga o‘zimdag i xislatlar yoqadi”, deb koptokni boshqa ishtirokchilarga otadi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

Bunday korreksion o‘yinlarni bir nechtasini misol qilib keltirish mumkin.

Boladagi agressivlikni bartaraf etishda pedagoglarning vazifalari:

o‘zining negativ hissiyotlarini nazorat qilishlari;

bolaning o‘z his-tuyg‘ulari, kechinmalari haqida suhbatlashish;

kichkintoyning “ichki dunyosiga” quloq solish;

bola shaxsini baholamaslik, shunchaki salbiy xatti-harakatlarining oqibatlarini tushuntirish.

Agressiv bolalarning ota-onalariga maslahatlar:

- farzandingiz bilan birga o‘ynang, farzan-dingiz negativ hissiyotlarini o‘yin orqali chiqarib yuborsin.
- bolaga agressiv harakatlarining oqibatlarini bosiqlik bilan tushuntiring, agressiv harakatlariga nisbatan javobgarlikni sezishga ko‘maklashing;
- farzandingizni kamsitmang, haqorat qilmang;
- uning yutuqlarini, ijobiy xislatlarini ayting;
- bolaga haddan tashqari ko‘p to‘siqlar qo‘ymang, ovozingizni balandlatmang;
- vaziyatni nazorat qilishga harakat qiling, vaziyatni tinch ohang bilan tushuntiring;
- jismoniy jazo qo‘llamang;
- farzandingizni yaxshi ko‘rishingizni aytib turing, mehrli nigohlaringizni, shirin so‘zlaringizni ayamang;
- atrofdagilarga g‘amxo‘rlik qilishga imkon yaratib bering;
- bolangizga e’tiborliroq bo‘ling, uning emotsional qo‘rquvini his qiling;
- farzandingizni eshitishni o‘rganing, qiziqtirgan savollarga javob bering;
- oiladagi agressiv munosabatlarga barham berishga harakat qiling.

“Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytishmagan, farzand oiladagi munosabatlardan aksidir. Qachonki ota-ona o‘z ustida ishlagandagina agressiyadan butunlay qutulish mumkin. Ota-onalar bilan ishlash, ularga ezgu maqsadimizni qay tarzda yoritib berish esa pedagogning mahorati. Boladagi agressivlikni bartaraf qilishga muvaffaq bo‘la olsak, uning kelajagi ham yorug‘ bo‘ladi.

MAKTAB O‘QUVCHILARINING SALOMATLIGI VA KASB TANLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Xoldarova Surayyo Azimovna
Andijon viloyati Andijon shahar 52-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining salomatligi va kasb tanlashga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Salomatlik, kasb tanlash

Mustaqillikka erishganimizdan boshlab, jamiyat har tomonlama o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar kishilardan hayotda o‘z oldilaridagi maqsadlarga erishishlari uchun yangicha bilim, ko‘nikma va mahorat talab qilmoqda.

Salomatlik-kishilar turmush darajasi, yashash tarzi va sifatining ko‘rsatkichidir va shu jihatdan inson salohiyatini rivojlantirish maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir fuqoroning salomatligi singari jamiyatning salomatligi ham davlatning strategik maqsadi, milliy xavfsizligining garovi sanaladi.

Bolaning o‘ynash va bilish faoliyati, o‘smirning ijtimoiy foydali va kasb faoliyatini yo‘qotishiga kabi qarash kerak. Bolalar va o‘smirlar salomatligini tavsiflash uchun shifokor o‘sayotgan organizmning ham biologik, ham ijtimoiy funksiyalarini aks ettiruvchi keng doiradagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim.

O‘smir va bolalar salomatligini baholash uchun kamida to‘rt mezonidan foydalanish zarur:

- 1) Tekshirish paytida surunkali kasalliklarning borligi yoki yo‘qligi;

- 2) Ayni paytdagi asab tizimining holati, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanish darajasi va ularning uyg'unligi;
- 3) Organizm asosiy tizimlarining faoliyat ko'rsatkich darajasi;
- 4) Organizmning nobop ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish darajasi.

Mazkur salomatlik mezonlari barcha tomonidan tan olingan va davolash, oldini olish (profilaktika) muassasalarining amaliy faoliyatida keng qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan sxemada muvofiq, bolalar va o'smirlar salomatlik ko'rsatkichlari shartli ravishda besh guruxga ajratiladi.

Birinchi guruxga surunkali kasalliklari bo'lmagan, kuzatish paytida kasal bo'lmagan yoki kam kasal bo'lgan, jismoniy va ruhan me'yorlarida, yoshiga mos rivojlangan shaxslar (benuqson salomatlik).

Ikkinchi guruxga surunkali kasalliklari bo'lmagan, biroq ba'zi organlar faoliyati va tana tuzilishi bilan bo'g'liq nuqsonlarga ega bo'lgan, shuningdek, tez-tez (yiliga 4 marta) va uzoq (1 kasal bilan 25 kundan ko'proq) xastaliklar bilan og'riydigan (faoliyati va tuzilishi bilan bog'liq nuqsonlari bor va organizmning qarshiligi past) shaxslar kiradi.

Uchunchi guruxga surunkali kasalliklar bo'lgan yoki kompensatsiya holatidagi (organizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi) tug'ma nuqsonli, umumiy ahvoli va o'zini his qilishda sezilarli buzilishlar ko'zga tashlamaydigan, ahyon-ahyonda, lekin og'ir xurujlar bilan kechuvchi surunkali kasalliklari qo'zib turadigan shaxslar (kompensatsiya holatida bemorlar).

To'rtinchi guruxga surunkali kasalliklari va rivojlanishida tug'ma qusurlari bo'lgan shaxslar kiradi. Bunday bemorlar kasallik hurujidan keyin umumiy ahvoli va o'zini his qilishda buzilishlar ro'y beruvchi subkompensatsiya holatidagi bemorlar).

Beshinchi guruxga og'ir surunkali kasalliklari bo'lgan dekompensatsiya holatidagi bemorlar kiradi. Bunday holatda organizmning faoliyat yuritish imkoniyatlari sezilarli darajada pasaygan bo'ladi (dekompensatsiya holatidagi bemorlar). Odatda, bunday kasallar bolalar va o'smirlar muassasalariga bormaydilar va ommaviy ko'rikdan o'tkazilmaydilar.

Shunday qilib, mamlakatimizda bolalar va o'smirlarga tibbiy yordam dispanserizatsiya usuli olib boriladi, bunda salomatlikning umumiy holatiga baho beriladi va kelgusida farqlangan davolash, oldini olish (profilaktika) ishlari olib borish uchun shaxslar guruxlarga taqsimlanadi.

O'rta va maxsus o'quv yurtlariga kirayotgan barcha o'smirlar, majburiy ravishda atroflicha tibbiy ko'rikdan o'tadilar va tanlagan kasbi bo'yicha ta'lim olishga yaroqliligi to'g'risida xulosa oladilar.

Kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyili kasb-hunar tanlash uchun erkinlik sharoitining yaratilishidan iboratdir.

Kasbga yo'naltirishda turli soha vakillari; shifokorlar, fiziologlar, pedagoglar, ruxshunoslar, gigiyenistlar, iqtisodchilar qatnashadi. Ushbu muammoning tibbiy-biologik tomonini shifokorlar hal qiladi, ular kasbiy yo'naltirish tizimida malakali maslahatlar beradilar.

Binobarin, xodimlarni kasb jihatdan to'g'ri tanlash faqat ishlab chiqarish unumdorligining oshirilishiga emas, kadrlarning to'g'ri taqsimlanishiga ham yordam beradi.

Biroq kasb va ixtisosliklar orasida mazkur shaxsga sog'ligi yoki salomatlik turlariga mansubligi jihatdan to'g'ri kelmaydiganlari uchrashi mumkin. Ayni paytda, o'smirlar kasb tanlashda ko'pincha faqat o'zlarining xohish-istaklariga bo'ysinadilar, ularni salomatligining holati va organizmining funksional imkoniyatlari bilan solishtirib ko'rmaydilar.

Salomatlikning holati kasb tanlashda ko'p jihatdan muhim belgilovchi omil sanaladi. Bu haqiqatni inkor qilib bo'lmaydi, zero organizm imkoniyatlarini hisobga olmasdan kasb manfaatlarini shakllantirish kelgusida mavjud kasalliklarni kuchayishiga olib keladi, nogironlik uchun zamin yaratadi.

Maktab o'quvchilari aholining boshqa qatlamlariga qaraganda kasb tanlashda tibbiy xodimlar ko'magiga eng ko'p muhtojlar, chunki ular o'z kuch va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishga moyillar; turli kasblar organizmga qo'yiladigan talablar bilan tanish emaslar. Bu yordamni ularga maktab pediatri, bolalar shifoxonalarining turli

soha shifokorlari va kattalar shifoxonalarining o'smirlar bo'yicha mutaxassislari ko'rsatishlari kerak.

Shifokorning vazifasi shundan iboratki, u boshqa mutaxassislar bilan birgalikda maktab o'quvchilarida organizmning salomatligi holati kasbga to'g'ri yo'llashdan iborat.

Kasbga sanitariya nuqtai nazardan berilgan tavsif shifokorga o'smir organizmiga mehnat jarayonining ishlab chiqarish hamda uning sharoiti va turi ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

I.P.Pavlov asab jarayonlarining ikki-kuchli va zaif turini aniqlagan. Bir vaqtlar asab jarayonlarining kuchli turiga kiruvchilar ikkinchi guruhga kiruvchilarga nisbatan kasb jihatdan ancha yetukroq sanalar edi. Hozirga qarashlarga ko'ra, bunday nuqtai nazar to'g'ri emas. Ma'lum bo'lishicha, asab tizimining chidamsizligi analizatorlarining (sezgi organlarining) yuqori darajadagi ta'sirchanligi xislati bilan muvozanatga solinar ekan. Bu mazkur turga kiruvchi kishilarga organizmning sezgi organlari tizimlariga kuchli talab qo'yiladigan ba'zi kasblarni egallashlarida katta afzalliklar yaratadi.

Masalan, mayda qismlarni yig'ish kasbida mushak-bo'g'in tuzilishi, ko'z bilan chamalashga qo'yiladigan talablar kuchli. Bunday ishlarni sezgi organlari yuqori darajada kuchli bo'lgan shaxslar bajara oladi.

Biroq o'zgacha tabiiy qobilyatlarini talab qiluvchi kasblar ham mavjud. Masalan, kuchli asab turiga mansub kishilar soatlab boshqaruv pulti oldida o'tirishi, uzoq davom etadigan va serbosim ishni bajarishi va bunda favqulodda choralar ko'rishga tayyor bo'lishi lozim.

Kuchsiz asab tizimi turiga kiruvchi aeroport dispetcheri yoki quvvat tizimi yoxud elektrostansiya uzatuvchisi yuqori malakali va boshqa fazilatlariga qaramasdan, falokat yuz bergan holatlarda muvaffaqli faoliyat yuritishga qodir emas. Shu tariqa, kasbiy maslahatning vazifasi yoshlarga salomatligiga to'g'ri keladigan biror kasbni tavsiya qilishdan iborat. Shifokorning kasbga yaroqliligi haqidagi xulosasi o'smir organizmining salomatligi holati va jismoniy imkoniyatlari, kasalligi va ijtimoiy turmushini tekshirish ma'lumotlari asosida chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Abdusamedov. Mustahkam oila ma'naviyati. Toshkent – 2011.
2. D.I.Ahmedova, G.U.Solihova. Sog'lom avlod asoslari. Toshkent-2007

YOSHLARNING XULQ-ATVORI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA PEDAGOGNING TUTGAN O'RNI

Qo'shaqova Shaxnoza Abdubannonovna
Beshariq tumani 30-umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda o'zining muhimligi, dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Mustaqillik farzandlarini hayotda o'z o'rinlarini topishlarida, vatan ravnaqi uchun munosib hissa qo'sha oladigan, vatanparvarlik ruhida kamol topayotgan yoshlarni tarbiyalashda pedagoglarga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: malaka ko'nikma, xulq-atvor, kasb mahorati, nutq madaniyati, ma'suliyat, burch.

Ta'lim tizimi avvalo, insonda o'z ustida doimiy ishlash, zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanishni talab etadi. Ta'lim jarayoni har-bir davrda o'zining ustuvorligi, dolzarbligi bilan muhimdir. Muhim ta'lim tizimi esa mukammal kasb mahoratiga ega bo'lgan pedagogni talab etadi. Bugungi texnik taraqqiyot davrida yashayotgan o'quvchilarning ham pedagoglarga bo'lgan talabi oshib bormoqda. Agar pedagog kasb mahorati bilan bir qatorda yangi zamonaviy bilimlarni egallamas ekan, shogirdlari yonida obro'siz, keraksiz buyumga aylanib qolishi kundek ravshan. Pedagog o'z prinsipiga ega bo'lib, yetarli darajada bilimga ega bo'lsagina, shogirdlari yonida hurmatga ega bo'ladi. Biz yoshlarga maqsad qo'yishni va shaxsiy rejamiz bo'lishligini tavsiya qilib beramiz. Vaholanki, buni zaminida o'zimizda shunda sifatlar shakllangan bo'lishi kerak. Prinsipga ega bo'lmagan pedagog sinfda o'quvchilarni tinglash, ularning diqqatini jalb qilish, yangi bilim berish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Sababi, qadamlarimiz ishonchli, so'zlarimiz qudratli bo'lishi uchun biz o'z ustimizda ishlagan

bo'lishimiz lozim. Bugungi yoshlarimiz o'ta sinchkov, xushyor. Ular hatto, o'qituvchini sinf xonaga kirib kelishidan tortib, so'zlarining ketma-ketligiga alohida ahamiyat berishadi. O'zini tutishi, ko'z qarashlaridan kelib chiqqan holatda xulosa chiqarishga erishadi. Ovoz ohangi ham xulosa chiqarishda muhim sanaladi. Bugungi pedagog kun o'tishi, vaqtning o'tishini kutib yashashi bu ularning eng katta xatosidir. Chunki, bugungi kun talabi bunday o'qituvchilarni chetga surin qo'yib, qo'lidan keladigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishini talab etadi. Ta'limda ikki xil tushuncha mavjud.

1-O'sish.

2-Rivojlanish.

O'sish bu- miqdor jihatdan ko'payishdir.

Rivojlanish sifat jihatda yangilanishdir. Bir soatlik ilm olish bir kunlik ibodatga teng deyishadi. Ilm olisda o'qituvchining ko'magi o'quvchi uchun muhim sanaladi. Ustoz ko'rgan shogird to'g'ri yo'l, oq va qoraning farqiga boradi. Sababi, undagi nazariy bilimlar amaliy tajriba orqali sinab ko'rilgan hisoblanadi. Tajriba har doim ham muhimdir. Xato qilgan inson xato qilmaslik uchun boshqalarga tavsiya bergani kabi, ustoz ham shogirdlariga tajribasidan kelib chiqqan holatda tavsiya beradi. Pedagog o'quvchi, jamoa bilan ishlashda "Men" konsepsiyasidan qochishi va undan namuna, etalon, sifat ko'rsatkichi sifatida boshqalardan foydalanishni boshqalardan talab qilmaslik, muomala qilganda so'zlashuv madaniyatiga amal qilishlik, boshqa inson shaxsiyatini humat qilishlik, ta'lim jarayonini oddiydan murakkabga tomon borishi, fikrlash qobiliyati va eslash qobiliyatini rivojlantirishi talab etiladi. Bunday pedagogdan o'quvchida quydagi sifatlar shakllanadi:

1. Intizomga qat'iy rioya qilish, muammo doirasidagina so'zlash. Pedagog ta'lim berish jarayonida nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda didaktik o'yinlardan ham dars davomida foydalanish muhimdir. Sababi o'quvchining diqqati o'zi istamagan holatda, avtomatik tarzda buziladi, bu o'rinda didaktik o'yinlardan foydalanish, o'quvchilardagi zerikish, charchoq hislarining yo'qolishiga olib keladi. Shu bilan birga pedagogning rolli o'yinlardan mohirona foydalanish pedagoglarda tarbiyasida og'ishishlar ko'zga tashlanuvchi o'quvchilar bilan ishlashda mazkur holatning sabablarini har tomonlama o'rganish, ana shunday o'quvchilarning ichki kechinmalari,

o'y xayollari, ularni qiynayotgan muammolarni tahliliy o'rganish, ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, pedagogik jamoa va jamoatchilik tomonidan ularning inkor etish emas, aksincha zarur yordam ko'rsatish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan harakat loyihasini fikran shakllantirish va unu amalga oshirish malakalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Rolli o'yinlardan samarali foydalanish muayyan shartlarga amal qilish talab etiladi, ya'ni:

- 1.O'quvchilarni o'yin mohiyati va shartlari bilan tanishtirish.
- 2.Ularning imkoniyatlari va kasbiy layoqatlarini inobatga olgan holda rollarni taqsimlash.
- 3.O'yinning tashkil etilishi vaqtini belgilash.
- 4.Guruh o'quvchilarining birdek o'yinga jalb etilishini ta'minlash.
- 5.Rolli o'yinlardan foydalanishning ishtrokchilari uchun ahamiyatini baholash va kutilayotgan natijani tahlil qilish.
- 6.Rolli o'yinning tashkil etilishi , mazmunning ochib berilishi va kutilgan natijalarni bera olganligi yuzasidan muhokama tashkil etish
- 7.O'quvchilarda o'quv faolligini yuzaga keltirish va ularda ta'lim tizimini to'g'ri, samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim turlaridan yana biri bu interfaol ta'lim sanaladi. Interfaol ta'lim mohiyatini anglash uchun jahon hamda respublika uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etilayotgan ta'limning samaradorlik nuqtai nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchilik kasbini tanlagan bo'lajak pedagog uchun quydagi qobilyatlarni bo'lishini quyidagi tarzda belgilash mumkin:

- 1.Bilimlarni qisqa va qiziqarli, maroqli berish qobilyati.
- 2.O'quvchilarni tushuna olish qobilyati.
- 3.Tezkorlik, topqirlik va yo'naltiruvchanlik qobilyati.
- 4.Mustaqillik va ijodiy fikrlash qobilyati.
5. O'quvchilar jamoasini jipislashtira olish qobilyati

Mazkur qobilyatlarning barchasi to'laqonli amalga oshirilganda, o'qituvchi faoliyatida samara ko'zga tashlanadi.

Pedagog asosan so'zlashuv madaniyatiga alohida ahamiyat berishi kerak. Har bir narsa muayyan maqsad doirasida chegaralanishi lozim. Gapdan maqsad nima ko'zlayotganini tushuntirish. Undan uyog'i soxtakorlik, yasamachilikdan boshqa narsa emas. Ammo, va'z-nasihatni chiroyli so'zlar bilan ta'sirchan qilish, haddan oshmsdan va maqsaddan uzoqlashmasdan eslatmalar berish takkalufga kirmaydi. Chunki, va'z-nasihat va eslatmalardan ko'zlangan maqsad-qalblarni uyg'otish, shavq qo'zg'ash, tiyish va kashfdir. Albatta, latif so'zlar bunga munosibdir. So'zlashuv madaniyatiga amal qilgan pedagogning shogirdlarida ham shu sifatlar shakllanadi. Bugungi yoshlarimiz ozod yurtning farzandlari. Bu ulug' qadriyat va ularga yaratilgan shart-sharoitlar esa, yuzaki qaraganda, o'z-o'zidan muhayyo bo'lgandek. Aslidachi?... Aslida mislsiz kurashlar va matonatli harakatlar evaziga yaratilgan bugungu hayotimiz, turmushimiz ortida chekilgan behisob mashaqqatlar, yurtboshimizning oqilona siyosati, ulkan jasorati turibdi. Buni yosh avlod nafaqat mustaqillika doir kitoblardan o'qib o'rganib bilib olishi, balki yurakdan his etishi lozim. Birinchi prezidentimiz I. Karimovning "Barkamol avlod orzusi"-kitobi barkamol avlod orzusi – millatimiz fidoiylari, ma'rifatparvar bobolarimizdan meros tuyg'u. Chunonchi, Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan Turkiston jadidchilarining yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu da'vati shundan dalolatdir: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va lozimdir, zamona ilmi va fanidan bexabar millat boshqalarga poymol bo'lur". Darhaqiqat boy ilmiy merosdan yoshlarimizni to'laqonli foydalanishlari uchun pedagoglarning sayi-harakatlari muhimdir. Ota-bobolarimizning bizga boy ilmiy merosni qoldirishlaridagi harakatni Jaloliddin Rumiyning quydagi misralariga qiyoslashimiz mumkin.

Go'zal kunlar kelishini kutma.

Unga tomon bormog'ingni unutma.

Ota-bobolarimiz har qanday haqorat, to'siqlarga uchrasada bugungi yoshlarga ilm meros qoldirishda harakatdan to'xtamagan. Pedagog o'quvchilarni o'tmish va bugunni bog'lab turuvchi, mustahkamligini ta'minlovchi ko'prikdir.

Pedagog o'quvchilarga maqsad qo'yishda, ko'zlayotgan maqsadi ko'pchilik uchun xizmat qilishini o'rgatishi lozim. Chunki, ko'p sonli insonlarni o'ylab qilingan ishlarning natijasi xayrli bo'ladi. Vatanparvarlik ruhida kamol topgan o'quvchi

yoshlardan biz hamma narsani kutishimiz mumkin. Shu o'rinda fransuz shoiri Rene Sharining quydagi fikrlarini aytib o'tmoqchiman. "Vatanga qo'riqchilar emas, posbonlar kerak". Qo'riqchilar emas posbonlar deyilyapti, demak farqi bor. Zotan polizga o'rnatilgan "qo'riqchi"- tulumning ham vazifasi bor-hosilni xavfdan qo'rimoq!.. Posbon so'zi esa, garchand biz bugun huda-behuda takrorlayverib qiymatini tushirib yuborgan bo'lsak-da, mohiyat-e'tibori bilan o'zda jonfidolikni ifoda etadi.

Albatta, vatanni sevish, unga fidoiy bo'lish uchun o'lish shart emas. Balki, shu yo'lda, kerak bo'lsa, o'limni bo'yinga olish, millat va ona tuproq sha'ni uchun bilvosita har qanday xatar yuziga tik boqishni anglatadi bu muhabbat. Vatanimiz osmoni doimo musaffo bo'lsin. Osmonimiz musaffo bo'lishi uchun bugunning yoshlari bunyodkor g'oyalarga ega bo'lishi lozim. Bunday g'oyalarga ega yoshlarni tarbiyalash, kamol toptirish pedagogdan kasbiy mahorat, ma'suliyat, burch va fidoiylilikni talab etadi. Bunday sifatlarga ega bo'lgan yoshlarimizga hech qanday tashqi kuch hayotlariga, tafakuriga, ruhiyatiga ta'sir ko'rsata olmasligi bugunning haiqatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I. Karimov "Barkamol avlod orzusi". T-"O'zbekiston" 2000.
2. Imom G'azzoliy "Til ofatlari".
3. Quدراتilla Rafiqov "Mening prezidentim". "Akademnashr" 2021.
4. Kamenskiy Y.A. "Buyuk didaktika". T-"O'qituvchi", 1970.

IMPEDIMENTS OF TEACHING WRITING AND APPROACHES OF RESOLVING IT EFFECTIVELY.

Valiyeva Khilolabonu Khusniddin qizi

Tashkent region, Chirchik state pedagogical institute. Faculty of Tourism, Foreign language and literature,

Scientific adviser: Asiljanova Shokhsanam Doniyorovna

ABSTRACT. This article is provided to overcome difficulties in teaching and learning writing. It is obvious that writing is a vital skill Nevertheless, a complicated

ability that researcher have to obtain this skill, on condition that they are going to take full advantage in education. During this way they come across any obstacles that demanded to deal with it. Such as lack of vocabulary, unacceptable quality of grammar, deplorable spelling, students' readiness, lack of vulnerability to books and observing materials. Hence, this paper figures out some challenges to teach writing effectively, in any level of upcoming generation or learners as a second language.

KEY WORDS: Teachers, Students, Teaching writing, writing skills, challenges, difficulties, lack of vocabulary, poor grammar, poor spelling, motivation, environment, solving obstacles, a kind of strategies, professional experience, solutions, reading books, approaches, misunderstandings, dictation, activities.

INTRODUCTION:

Writing is one of the crucial parts of gaining skills of English language that gives learners opportunity to search out ways of expressing ideas in a foreign language. After that it combines searchers' existing knowledge and assist s them to practice into Writing form. Writing is a motivation the second language its acquirement encompasses other skills, for instance listening, reading, and speaking together with, which includes development of cognitive skills. Initially, for writers, who are going to gain writing, need an apparent ambition since, they can make a project and think over its structure content. Consequently, at the top of enriching language, particularly, for writing students ought to demonstrate their own innovation and have ability to write freely it. As one fact is given that if learners relish doing it their own products will be fascinating and breathtaking, Via writing supervisors or checkers may observe the writer's behavior and attitude the item. Regardless of being hard language skill but writing is captivating task. It suggests that teachers should manage actually, teach students how to make a decision to write with coherence, an appropriate grammar structure and acceptable spelling, Respectively, writing skills facilitate students' a stock of vocabulary, idioms, grammar rules and give them power and dauntless to take risks.

Additionally, they will have effect to express their feelings, ideas, constant eye, hand and brain. Writing may be challenging skill to be taught nonetheless, it gives productive chances to work in up date workplace and a situation of documentation.

Another side of teaching writing teachers come across a various difficulties in their English classroom. This is conducted any challenges and obstacles to teach writing and keys of overcome it. For this teachers' responsibilities are important. Teachers should encourage their students to write effectively. It also seeks any approaches to gain this process. Briefly, this paper have goals to introduce:

- Challenges faced by teachers teaching writing skill;
- Challenges faced by students learning writing;
- Process based - writing approach to encourage and enrich learner' s writing skills to help them score well.
- Different writing strategies to teach writing perfectly.

A problem solving approach to writing that helps to gat6 ideas. It also comprehend to underline the significance of the study towards the teachers and learners again new methods to figure out it. AT the end of this paper, the fundamental purpose is cleared. That is to say some solutions to teachers in order to teach writing effectively and get over difficulties. Then an interactive way of learning writing for students and All of the searchers.

MATERIALS AND METHODS.

Teaching occupation has been complex part for teachers. They should choose alternative materials to teach any level of students otherwise their attempts may be ineffective. In the time of rapid changes teachers have no intentions to motivate their students in writing. As their students are not interested their lesson. Young generation consider that what ever they learn something from lesson then their parents give them freedom to do any activities, as a result They go schools , lyceum as a reluctant learners. It is clear that this is a key of lack of motivation. Another difficult situation for teachers to teach writing is having any different level of students in the classroom. A various grade of writing ability will require teachers to utilize interesting hand -outs. From that teachers have difficulties teaching and planning for their lessons. Another challenge is that Teachers faced in daily routine is lack of professional experience. It leads to stress and loose themselves among the students. Teachers manage only prepare suitable activities provided that they aware of their student's proficiency level and intentions.

Further difficult is student's interest to writing. When it comes to writing They feel themselves mind minders.

Because they need you know plenty of ways of writing so as to produce a good interactive product. Afterwards, Knowing punctuation, grammar, vocabulary, spelling and sentence structure gives them to make a good piece of writing. Every learners may face challenges in acquiring writing skill. Lack of vocabulary is an urgent matter that catch the students move to towards. It is visible that vocabulary is a fundamental aspects so that learners can construct their sentence. Another challenge is not knowing how to use grammar. Grammar supports information that helps the readers to understand its meaning. Inadequate spelling activities put border students to learn writing. Before enhancing the classroom students should be ready to write and begin anything. Teachers create a marvelous environment for their searchers. Extensive reading books and ample information will not lead The readers to write good paragraph. Therefore teachers should interact reading and writing together. In a nutshell, students' readiness requires all the time from teachers and parents to give them motivation for moving to their aims. There are various teaching writing strategies give learners encouragement the essence of writing, such as pre-writing, writing, warm-up, collaboratively write , using sentence, starters, while-writing, post-writing and guided writing. These approaches make the students think creatively and become active participants in learning writing. Additional part is process-based writing principle is used and study by referring to several past studies in relation to the accomplishment of the approach. It has other name is that cooperative learning which is process to serve to divide students into groups with the aim of investigating a new perception and help each other. It demands students to collaborate and learn together. At this time Teachers work as a facilitators in a group. Students can dispart their knowledge and decide ides. Adopting this approach enable writers to move back and forth to improve their writing. And they can create their creative composition. From this they grew up by receiving feedback from their peer and teachers. Moreover, a good number of difficulties which teachers face in teaching writing but in this article is shown some useful of them for both students and teachers.

RESULTS AND DISCUSSION.

This current paper is occupied with the issues of teacher's teaching writing practice. There are a good many solutions to overcome come difficulties. Students should learn grammar rules, hear and read authentic materials in English, pay attention to their vocabulary range and exercise necessary activities to develop writing skill. For this process, Firstly writer identify her or his problem then have to gather information, which is a bank of good works. Altogether, Teachers is to alter themselves as an instructor, who tries out a various approaches as a time of teaching writing. This paper is cleared that Teachers know how much approaches to use, then they will be capable of teaching. Besides that the more students understand a given information little by little an unknown bond is appeared between teachers and learners. For being ability in writing is required to aware of how to communicate clearly in writing. Just writing is an aspect of connecting, clarifying and conversation sector for learners. Teachers should use dictation activity because it is a foundation for listening, understanding skills. It may be frustrating while it is encouraging exercise solving lack of vocabulary challenge instructor let their learners to install, Dictionary App in their mobile phones in order to use during the lesson. Overcoming grammar misunderstandings Teachers can explain any given topic with examples as clear as possible. Teachers motivation and parents aids is a fundamental basis for learners to enhance their writing skill. Not only dictation but also, Running dictation" and „Spelling dictation" is useful way to solve challenge. Before starting lessons teachers should get this activity every time during a minute among any grade of students. It assists them to correct their pronunciation skill. Furthermore, Running dictation is extremely used tasks among the learners. Firstly, students is to be divided into subgroups, which should be four participants, Among them a leader should be chosen, others work as runners. Subsequently, Teacher will go back of classroom and catch any short sorry with picture. Every runners will go one by one to read from story for being winners and immediately they will arrive at the leaders and say the seeing things that requires to write good and perfectly on the given paper. That is way, this process will be kept on. After that the teacher should inspect their work and value them. Which group has better memory of eyes, firstly action and correct

written text . At the end it is cleared the winner group. This activity gives the writing learners both physical power and encouragement to learn something to write. In order to increase the pupils' English skills that is demanded teachers to have any interactive and further activities in every time of lessons.

CONCLUSION.

It is visible that this article conveys the problems of teaching writing experience and approaches of solving it productively. After observing any kind of sources and inputs the freedom is to be created by teachers for learners. Teachers should work as partners with parents so as to warm up student's cognitive feelings. Regarding that, there are a branch of activities, exercises and hand-outs, while in our paper is illustrated some of them: Dictation, spelling activities, and Running dictation activity are acceptable. These occupations provide to interest students' intentions to dedicate themselves for the lesson. It is a fact of real life that learner' attempts and ambition are belong to teachers' hand. They work wholeheartedly as an instructor who are responsible person to create ample atmosphere, give motivation, full and teach for developing grammar and vocabulary. At that time they merely manage to be superficial person for their talented learners. My personally and briefly summary is that Teachers can support to all of their knowledge for improving results for of their work. Furthermore, students should have progressed education to learn it. At the end of process or during the event Parents have to be assistant for both to their partner, who are teachers, and infants so as to reinforce their future life routine.

A LIST OF USED LITERATURE.

1. Anyendah, M. (2017). Challenges Faced by teachers when teaching English. (Paper reference 3)
2. Asep, S. (2014). The challenges in teaching writing skills at Junior High school: Problems and Solutions:(Paper reference 3)
3. Ahn, H. (2012) Teaching writing skill based on a genre approach to second language primary schools stude6: An action research. English Language teaching 5 (2):2-16

4. Dictation: New methods. New possibilities. Paul Davis and Mario Kinvoluc. Cambridge Handbooks for language Teachers, University Press, 1997. Print
5. Gündogmus H.D. (2018). The Difficulties Experienced by Teachers in the Process of Primary Reading and Writing instruction and their solutions, offers for Eliminating These Difficulties: 339
6. Johnson, D. And Johnson, R (2020). What is Cooperative learning? - Cooperative Learning Institute
7. Laidlaw, M. (1992). Action Research: A guide for use on initial Teacher Education Programs Action Research. Net.
8. Tony Silva, Calleen Brice . Annual Review of Applied Linguistics Cambridge university press. Jun15, 2004

O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O'RNI

*Valijanova Dilorom Olimjanovna
Namangan viloyati Uychi tumani 10-maktab amaliyotchi psixologi*

Bugungi kunda, inson ruhiyatni o'rganish, tadqiq qilish, qiziqishidan kelib chiqib kasb-hunarga yo'naltirish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Prezidentimiz tomonidan yosh avlodga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar yoshlarni ta'lim-tarbiya olishida, kelajakda kasb-hunar egallashiga va yetuk kadr bo'lib chiqishiga poydevor bo'lmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni kelajakda o'z o'rnini topishi va davlatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shishi uchun ularni kasb-hunarga yo'naltirish, qiziqishlari bo'yicha kelajakda mutahassis kadr bo'lib yetishishi uchun ta'lim tizimida bir qator tavsiyalar, qaror va buyruqlar mavjud. Hozirgi kunda ta'lim dargohining

amaliyotchi psixologlari tomonidan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari keng ko'lamda tashkil etib kelinmoqda. Misol uchun olib borilayotgan ishlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. O'quvchilarni kasb-hunar kolleji va oliy ta'limga olib borish, ta'lim tizimi bilan tanishtirish;
2. Maktabda "Kasblar guldastasi", "Kasbim fahrim", "Men tanlagan kasb", "Kasb tiplari", "Odam-tabiati", "Odam-odam" kabi ko'plab tadbirlarni tashkil etilishi;
3. Ertalabki saflanishda kasblar to'g'risida kichik maruzalarning tashkil etilishi;
4. Maktabning kirish qismida "Kasblar burchagi" ning tashkil etilishi
5. 6-11-sinflarda kasb tanlash motivini aniqlash, intellekt tiplari, kasb talash kabi ko'plab metodikalarning o'tkazilishi va natijalar tahlil etilib tavsiyalar ishlab chiqilishi;
6. Sinflarda trening va davra suhbatlarining tashkil etilishi;
7. O'quvchilarni to'garaklarga yo'naltirilishi va nazorat etilishi;
8. Tashxis markazi tomonidan tashkil etilgan kasbim kelajagim platformasida o'quvchilar ishtirokini ta'minlanishi, nazorat etilishi;
9. Yuqori sinf o'quvchilarini "Ustoz-shogird" a'nanasi bo'yicha ish tashkil etish va nazorat qilish;
10. Oliy ta'limga yo'naltirish bo'yicha maktabda hamkorlikda ish tashkil etish, bitiruvchilarni fan o'qituvchilariga biriktirish.

Yuqoridagi misollarni yana bir nechta sanash mumkin, maktab psixologi bu kabi ishlarni tashkillab olib borishi natijasida maktab o'quvchilari kelajakda kasb-hunar egallab, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishadi.

Mashg'ulotlarni bolalarni qiziqishlariga qarab tashkillash lozim. Boshlang'ich sinflardagi bolalarga ertaklarni tinglash va muhokama qilish, unga o'z fikrini bildirish, rebus, turli boshqotirmalarni yechiush bilan, ularning aqliy-intellektual qobiliyatini rivojlantirish orqali kasbga bo'lgan ilk qiziqishi rivojlantirib boriladi. 12-13 yoshga kelib esa o'quvchilarni ko'plab mashhur insonlar - olimlar, yozuvchilar, bastakorlar, rassomlarning ilm- fanga, adabiyot, musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirib borishi mumkin. 15-16 yoshlarda o'quvchilarni kasbiy ma'lumotlar, kasblarning insonlarga qo'yadigan talablari, mehnat jarayonlarining

xususiyatlari, mazkur kasblarni egallash borasida o'quvchilar o'rtasida har xil so'rovnomalar, suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Ularni o'ziga yoqqan kasbga qat'iy qiziqish hosil qilish uchun zarur ma'lumotlar bilan tanishtirish, to'g'ri maslahatlar berib boorish, o'zining individual-psixologik xususiyatlariga mos keladigan kasb-hunarga yo'naltirish foyda beradi. Mazkur ishlarning dastlabki bosqichi albatta, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar tomonidan tashkil etiladi va nazoratga olinadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida kasbiy o'zinini o'zi belgilashda o'quvchilar orasida ikkita toifadagi o'quvchilar ajralib turadi. Birinchilari, bu hayotda hali qiziq narsa topa olishmaydi. Shunday bo'ladiki, o'qituvchilar ularda biron bir fanga muhabbat uyg'ota olishmaydi va iste'dodlar hali ham tuproqqa ko'milgan holda bo'ladi, yashiringan holatda. Bunday bolalar yaxshi o'qishlari mumkin, lekin ular hech narsaga qaram emas, ularning hayoti zerikarli yoki sokin bo'lishi mumkin. Ikkinchi toifadagi bolalar ham o'qishda, ham boshqa turli xil faoliyat shakllari juda faol. Ular ham narsaga qiziqadi, bir vaqtning o'zida 3-4 ta to'garak, sport sessiyalarida qatnashadilar. Bundan tashqari, ular muvaffaqiyatga erishadilar. Ular aytganidek, agar inson iste'dodli bo'lsa, u hamma narsada qobiliyatlidir.

Psixologlarning fikricha, kasb tanlashda insonning psixologik xususiyatlari va kasbning tegishli xususiyatlari o'rtasidagi muvofiqlik juda muhimdir. Kasb qiziqarli bo'lishi kerak. Agar o'quvchi hayvonlarni, o'simliklarni yaxshi ko'rsa, kasbiy faoliyatida yovvoyi tabiat obyektlarini uchratishi u uchun qiziqarli bo'ladi. O'quvchi texnologiyani yaxshi ko'rsa, unga bo'lgan qiziqishi sizni muhandis-dizayner yoki nazariy fizik faoliyatida qo'llab-quvvatlaydi.

Har qanday kasb insonga "Kasbiy muhim sifatlar" deb ataluvchi fazilatlatlarga bo'lishini taqozo etadi – masalan, korrektorga e'tibor bering, rassom uchun xayoliy fikrlash va uni aks ettira olish. Shuning uchun, ma'lum bir kasbni tanlashda, sizda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlatlarga mos keladigan qobiliyatlar bor yoki yo'qligini tushunish muhimdir. Shubhali vaziyatda, qobiliyatingiz maksimal bo'ladigan kasbni tanlashi, bu faoliyatda u eng katta muvaffaqiyatga erishadi.

Maktab psixologi har bir o'quvchi bilan ishlash jarayonida undan olingan test natijalari va suhbatlar davomida natijalarga asoslanib kasb tanlashda ko'maklashadi. Kasb-hunarga yo'naltiruvchi kasbga oid o'quv qo'llanmalar va adabiyotlar bilan ta'minlash ishlarini olib borishi lozim. Farzandiga to'g'ri kasb-hunar tanlashda ota-onalar ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlarni olib borishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Kasb-hunarlar soni kun sayin ortib borayotgan bir davrda ota-onalar ular to'g'risida o'zlari to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Vazifa ani – yoshlarga ilm berish, kasb-hunar egallashi uchun shart-sharoitlar yaratish. Yoshlar kasbni layoqatiga ko'ra tanlashi, to'g'ri hayot tarzini shakllantirishi, jamiyatning ma'naviy hamda iqtisodiy rivojiga turtki bo'ladi. Kasbiy mahorat ijtimoiy psixologik hodisa bo'lib, uning omillarini bilish kasbga to'g'ri yo'naltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sodda qilib aytganda, kasb tanlash har bir insonning shaxsiy ishi bo'lib, unga bevosita ta'sir ko'rsatish, bu ishni loyixalashtirish uchun ko'plab ishlarni tashkil etish lozim. Bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar orasida oila muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilda farzandning qiziqishlari, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib munosabat bo'lsa, u borgan sari o'ziga nisbatan talabchan, intiluvchan bo'lib boraveradi. Shuning uchun psixologlar maktabda o'quvchilarning ota-onalarini kichik tadbirlar tashkil etib, ularga farzandlarini kasb-hunarga yo'naltirishda tavsiyalar berishi, davra suhbatlarini o'tkazishi, farzandlarining yosh xususiyatlarida qanday munosabatda bo'lishi kerakligini tushuntirishi lozim. Yoshlarni bolalikdan kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Kasbga yo'naltirishda yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashi uchun oiladagi cheklovlarni bartaf etish, maktabda qiziqishlari bo'yicha sharoitlar yaratish lozim. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, farzandlarimizni kasb-hunarga yo'naltirishda har birimiz e'tiborli bolishimiz, ma'suliyatni his etgan holda, ularning taqdiri va kelajagi uchun barcha sharoit va qulayliklarni yaratishimiz, hamkorlikda ish tashkil etishimiz lozim. O'quvchi

yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va jalb etish biz kabi amaliyotchi psixologlarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.K. Jo'raboyev, "O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik-pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar".
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent 2002 y.
3. E. G. G'oziyev Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019 y 1-kitob.

O'SMIRLIK DAVRIDA GENDER IDENTIFIKATSIYA NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimova Gulxumor Shodi qizi

*Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Ta'lim muassasalarining boshqaruvi"
ta'lim yo'nalishi II kurs magistranti*

O'smirlik davri inson hayotining shunday taraqqiyot pallasi-ki, unda organizm gormonal rivojlanishining davomi shuningdek, o'zi to'g'risidagi tasavvullarning shakllanishi, tashqi muhitga nisbatan munosabatlarda maksimalizmning ortishi, kattalar olamiga qadam qo'yish singari psixologik holatlarning kechishi kuzatiladi. Bungungi kunda, o'smir yoshlarning intellektual va ijtimoiy kamolotining psixologik, pedagogik masalalari bo'yicha, dunyoda ko'plab ilmiy, amaliy, strategik islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Bruklin o'smir yoshlarni qo'llab-quvvatlash instituti (AQSH), Toronto yoshimoiy faol yoshlar ilmiy markazi (Kanada), Shtutgart o'smir yoshlar markazi (Germaniya), Toyoxasi iqtidorli o'quvchilar oliy maktabi (Yaponiya), Moskva sog'lom bolalar markazi (Rossiya) kabi davlatlarning ilmiy markazlari hamda institutlarida e'tiborga molik tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur masalalar turkumiga, o'quvchi yoshlarga ta'lim tarbiya berishning zamonaviy usullari, o'smir yoshlar va ularning kiber makon bilan munosabatlari, tarbiyasi qiyn o'smirlar va ular xulq-atovrini

profilaktika qilishning ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlari shuningdek, o'smir yoshlar o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi akademik motivatsiya shakllanishining o'ziga xosliklari kabilarni yaqqol misol qilish mumkin. Bundan tashqari, o'smirlik yoshiga xos yana bir muhim sifatlardan biri bu- gender identifikatsiyaga jarayoni sanalib, u o'zini ma'lum bir jins vakili sifatida ichki jihatdan idrok etishni, gender rollarga muvofiqlik tajribasi anglash, jins vakillariga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik sifatlarni anglash va o'zlashtirish kabilar bilan xarakterlanadi. Shunday ekan, o'z jinsiga xos ijtimoiy rollar va vazifalarni anglash, ularni o'z shaxsida shakllantirish o'ta muhim psixologik jarayon sanalib, uni nazariy va amaliy jihatdan ilmiy tadqiq etish o'ta dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda yoshlar ta'limi va tarbiyasi masalasida hozirda ko'plab strategik islohotlar amalga oshirilmoqda ya'ni, ushbu islohotlarning bosh maqsadi sifatida, yoshlarni jismonan sog'lom, aqlan barkamol, ruhan tetik hamda har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun, ta'lim-tarbiyada zarur shart-sharoitlarni yaratish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Qolaversa, ushbu masalalarga qaratilayotgan e'tibor sifatida, muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning quyidagi so'zlarini misol qilishimiz mumkin: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹³. Prezidentimiz biz uchun o'ta dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala bu - farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir deb ta'kidlaydilar¹⁴. Bunday qaror va farmoyishlarning mazmuni shuni anglatadiki, nafaqat davlat, balki qator fan sohalari ham bu borada e'tiborga molik ilmiy izlanishlarni amalga oshirishi lozim sanaladi. Jumladan, psixologiya fani ham bundan mustasno emas. O'smir yoshlarning nafaqat aqliy kamoloti balki, ijtimoiy-psixologik kamoloti

¹³Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. "Ўзбекистон".Т., 2016. – Б.16.

¹⁴Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. "Ўзбекистон".

ham o'ta ahamiyatli hodisa sanalib, u o'z mazmunida o'smir yoshlarni kognitiv, hissiy -motivatsion, kasbiy, shaxslilik jihatdan psixologik qo'llab-quvvatlash, ular bilan amaliy jihatdan ishlar, kelajak hayoti uchun muhim bo'lgan xarakterologik sifatlarni shakllantirish, o'smirlik inqirozlarini engishga ko'maklashish, hayotiy maqsadlarini adekvat yo'naltirish kabi savollarga javob topishni ham qamrab oladi. "Gender identifikatsiya" fenomeni ijtimoiy xarakterga ega muammo sanalib, uning shaxsda namoyon bo'lishi va shakllanishiga oid masalalarni ko'plab psixologik, sotsiologik, falsafiy, pedagogik adabiyotlarni uchratish mumkin. V.V.Abramenkning so'zlariga ko'ra, gender o'ziga xoslik va o'zini anglash muammosi qiziqarli psixologik masala hisoblanib, uni o'smirlik yoshi bilan o'rganish juda ham qiziqarli ma'lumotlarni berishi mumkin¹⁵. Chunki, gender o'ziga xoslik shaxs ijtimoiylashuvi bilan bog'liq ahamiyatli jarayon sanalib, u insonning jinsiga tegishli bo'lgan sub'yektiv rivojlanishini belgilovchi omillardan biridir. Tadqiqotchi T.V.Bendasning aytishicha esa, gender identifikatsiya - erkak va ayolning o'z jinsiga tegishli bo'lgan xususiyatlarini anglashi, uning sub'yektiv hissi sanalib, u ontogenetik rivojlanishning 3-4 yoshidan namoyon bo'la boshlaydi. Va bu o'ziga xos tarbiya va e'tibor muhitini talab etadi¹⁶.

Qoidaga ko'ra, inson hayotining ilk yillaridayoq, o'zini "erkak" yoki "ayol" sifatida anglay boradi. Biroq, insonning jinsi uning biologik jinsiga mos kelishiga har doim ham kafolat yo'q. Ba'zi insonlar o'zlarini erkak yoki ayol deb bilishga harakat qilganda, ayrim noqulayliklarga duch kelishadi. Yani ba'zilar o'z vaqtida balog'atga yetsalar boshqalar esa, kechroq voyaga eta boshlaydilar. Ushbu holatda masalaning tibbiy jihatlari ham maydonga keladi.

Sh.Bern tomonidan tayyorlangan ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, "Gender identifikatsiya" – jinsiy o'zini anglash yoki tashqi ko'rinish bilan chegaralanmaydi balki, biologik shartlar va ijtimoiy jarayonining ayrim omillari bilan xarakterlanadi¹⁷. Bundan tashqari, eng muhim shartlardan biri bu, ota-onalarning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, ularning jinsi va uning namunalari, bolaning jinsi, bolaning qanday bo'lishi

T.,2017. – B.116.

¹⁵Абраменкова В. В. Половая дифференциация и сексуализация детства: горький вкус запретного плода / В. В. Абраменкова // Вопросы психологии. 2003. № 5. С.103 – 120.

¹⁶ Бендас Т. В. Гендерная психология: учебное пособие / Т. В. Бендас. Санкт-Петербург, 2009. – С.45.

¹⁷Берн Ш. Гендерная психология: законы мужского и женского поведения / Ш. Берн. Санкт-Петербург: Прайм-

kerakligi haqidagi ota-onalarning g'oyalari va boshqalar.O.V.Boykoning yozishicha, “Gender identifikatsiya” - keng ma'noda, gender rollar muammosi bilan ham uzviy bog'liq sanalib, u o'g'il yoki qizlarning o'z jinslariga tegishli, maqbul bo'lgan xatti-harakatlari va xulq-atvor shakllari majmuidan iboratdir¹⁸. “Gender rol” atamasi ma'lum bir madaniyatda, u yoki bu jins vakillari uchun odatiy va maqbul deb hisoblangan munosabat va xatti-harakatlar to'plamini bildiradi. Mohiyatan, “gender rollar” erkaklik va ayollik uchun maqbul hisoblangan, xatti-harakatlar va vazifalar majmui sanaladi. S.A.Butkovskayaga ko'ra, “Gender identifikatsiya” tushunchasining mohiyati ayollar va erkaklarga xos xatti-harakatlarni tavsiflash holatida ham yaqqol aniqlashadi, ya'ni¹⁹:

– Erkaklarga xos xususiyatlar - tajovuzkorlik, qat'iyatlilik, xavf-xatarni yoqtirmaslik, mustaqillik, jasurlik, kuchlilik, shaxdamlik, dadillik, dovyuraklik va boshqalar;

– Ayollarga xos xususiyatlar - mehribonlik, noziklik, nafislik, tortinchoqlik, uyatchanlik, sodiqlik va e'tiborlilik.

Avvalambor, gender identifikatsiya fenomenini tushunib olish uchun “identifikatsiya” tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur sanaladi. Psixologiya fanida “identifikatsiya” tushunchasining qo'llanilishi E.Eriksonning nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Muallif identifikatsiyani “o'ziga xoslik” ya'ni, shaxsning “ichki uzluksiz” ligi yoki o'ziga xosligi deb ta'riflaydi²⁰.

Boshqa bir tadqiqotchi I.S.Kletsinaga ko'ra, “gender identifikatsiya” fenomenini tahlil qilishda uning “identifikator”larini aniqlab olish o'ta muhimdir. Yani uni ta'minlovchi biologik va ijtimoiy omillar, determenantlar, ijtimoiy-madaniy sharoitlar, individual-psixologik xususiyatlar va ularning namoyon bo'lish vaqtlari va hokazo. “Identifikatsiya” shaxsning ichki holati mazmuni bo'lsa, gender identifikatsiya bu – uning jinsiga xos ko'plab o'ziga xosliklaridan tashkil topadi²¹. Ba'zi mutaxassislarning aytishicha, “gender identifikatsiya” tushunchasi o'z qiyofasini tartibga solish, uni idrok

Еврознак, 2008. – С.56.

¹⁸Бойко О. В. Гендерные аспекты психического здоровья / О. В. Бойко // Вопросы психологии. 2005. № 1. С. 110 – 115.

¹⁹Бутковская С. А. Становление гендерной идентичности в процессе профессионального самоопределения: диссертация ... кандидата психологических наук / С. А. Бутковская. Хабаровск, 2007. – С.89.

²⁰Словарь гендерных терминов / под редакцией А. А. Денисовой. Москва: Инфор. – XXI век, 2002. – 256 с.

²¹Клецина И.С. Гендерная психология и направления ее развития // Практикум по гендерной психологии / под.

etish va jinsga muvofiq harakat va faoliyat yuritish kabilarga javobgar sanaladi. “Gender identifikatsiya” tug‘ilgandan tayyor berilmaydi, balki u ijtimoiy muhit va boshqalarning ta’siri ostida namoyon bo‘la boradi. Shuningdek, gender identifikatsiya ayol va erkaklarga xos xususiyatlarni ichkilashtirishga ham xizmat qiladi.

MUVAFFAQIYATGA ERISHISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Bozorova Gulsora G‘ulomjonovna
Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani 47-maktab psixologi

Muvaffaqiyat bu maqsadlarga erishishga qaratilgan va umumbashariy qonunlarga mos keladigan doimiy va izchil faoliyatning aniq natijasidir. Muvaffaqiyat bu maqsadlarga erishishga qaratilgan va umumbashariy qonunlarga mos keladigan doimiy va izchil faoliyatning aniq natijasidir. Muvaffaqiyat uzi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Ommaviy e’tirof, biror natijaga erishishda omad, ishda o‘qishda va hayotdagi yaxshi natijalardir. Quyida men sizlar uchun muvaffaqiyat formulasini tuzishda tavsiyalar berib o‘taman.

1. Maqsadlilik.

Bizning hayotimiz doimo eng kuchli fikrimiz yo‘nalishi bo‘yicha harakat qiladi. Orzu bu maqsad, biz nimaga intilishimiz. Biz o‘zimiz xohlagan narsani aniq bilib olishimiz kerak. Biz o‘z oldimizga qo‘yadigan maqsad. Va aniq maqsadga erishish, orzularingizni ro‘yobga chiqarish uchun istak kerak! Har bir qadam orzuga yaqinlashtirganini anglab, shu erda va hozir “yashash” kerak.

2. O‘ziga bo‘lgan ishonch.

Hayotda muvaffaqiyatga erishgan odam o‘zini o‘zgacha namoyon qilishi mumkin. Muvaffaqiyatli odam niqob kiymaydi, chunki u sevuvchi va chinakam mehrli, bilimli bo‘lib ko‘rinishning farqini biladi. U o‘zini boshqalardan yaxshi yoki yomon deb bilmaydi, u mustaqil va o‘zini o‘zi ta’minlaydi.

Muvaffaqiyatli odam huddi siz va men kabi bir xil, uning hayotida muvaffaqiyatsizliklar va mag'lubiyatlar ham uchraydi. Uning farqi shundaki, har qanday to'siqlarga qaramay, muvaffaqiyatli odam asosiy narsani - o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmaydi.

Muvaffaqiyatli odam o'z bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo'llashdan qo'rqmaydi. O'ziga ishongan kishi: uning so'zlari va xatti-harakatlari kimdir ularni haqiqat deb bilgani uchun emas, balki ular o'zi uchun haqiqat ekanligi; bu vaziyatda u aytgan va qilgan narsalar aniq o'ylagan va xohlagan narsa, u tanlovi boshqalar tomonidan ma'qullangani uchun emas, balki uning tanlovi unga mos kelganligi sababli, uning tanlovi to'g'riligiga ishonch hosil qiladi.

3. Mustaqillik va javobgarlikni olishga tayyorlik.

Siz o'z hayotingiz uchun 100% javobgarlikni o'z zimmangizga olishingiz va boshqa odamlarning siz haqingizdagi fikrlariga murosasiz bo'lishingiz kerak.

Ba'zan hayotingizni o'zgartirish uchun biror narsa qilish qiyin. Lekin aytish osonroq: "men buni qila olmayman ...", "hozir bunday holatlar ...", "menda bunday yo'q va ...", "men qanday qilib bilmayman ...",

Aksariyat odamlar vaziyatlarning qurboniga aylanadilar. Va eng yomon tomoni bu ularga mos keladi. Bu shafqatsiz tuyuladi, lekin shunday. Atrofingizda ro'y berayotgan hamma narsa faqat o'zingizga bog'liq. Va ko'pchilik kabi o'ylaganingizda - ko'pchilik kabi yashaysiz. Buni amalga oshirish qiyin.

Ko'p vaziyatlarda insonlar aybni boshqalarga yuklaydilar chunki bu osonroq. Ayblang va xotirjam yashang, hech narsa qilmang. Lekin Siz muvaffaqiyatga erishmoqchimisiz? Muvaffaqiyatli odamlar bunday qilmaydi. Ular vaziyatlarning qurboni emaslar. Ular o'zlariga sharoit yaratadilar. Chunki ular muvaffaqiyatli!

Agar chindan ham hayotingizni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz - javobgarlikni o'z zimmangizga oling. O'zingizning hayotingiz uchun o'zingiz va faqat siz javobgar ekanligingizni tushuning !!! Na ota-onalar, na vaziyatlar, na sizning atrofingizdagilar, na qo'shningiz sizning hayotingizga ta'sir qila olmaydi, agar siz buni xohlamasangiz. Agar ular ta'sir qilsa, bunga o'zingiz yo'l bergansiz. Hayotingiz uchun javobgarlikni o'z

zimmangizga oling. Ko'rgan narsalaringizni ayblashni to'xtating. Nima qilishni va nima qilmaslikni hal qiling.

Sizning vazifangiz qaror qabul qilishdir. Mas'uliyatni o'z zimmangizga oling. Hayotingizni o'zgartirmoqchimisiz? - Birinchidan, o'zingizni o'zgartiring.

Hoziroq, kechiktirmasdan o'zingizga ayting: "Men hayotim va undagi barcha narsalar uchun javobgarman. Men bilan sodir bo'lgan hamma narsa uchun to'liq, 100% javobgarlikni o'z zimmamga olaman. Men o'z hayotimni o'zim boshqaraman». Agar siz yuqoridagi xulosalarga kelsangiz siz muvaffaqiyatga birinchi qadam qo'ydingiz.

Muvaffaqiyatli odamlar hayotlari uchun javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar, ular hech kimni muvaffaqiyatsizlikda ayblamaydilar, o'z hayotlarini quradilar. Muvaffaqiyatli odamlar mustaqil bo'la oladilar. Ularda bir marotaba oldindan va qat'iy harakat qilish imkoniyati yo'q, ular vaziyatni talab qilganda rejalarini o'zgartirishlari mumkin.

4. Strategik fikrlash qobiliyati.

Sizning harakatlaringiz nafaqat ertaga, balki o'n yildan keyin ham qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushunish juda muhimdir, umuman hayotning umumiy tendentsiyalarini his qilish asosiy hislatdir.

5. Sog'liqqa e'tiborli bo'lish.

Jismoniy salomatlik o'tkir ongni va sog'lom idrokni saqlashga yordam beradi.

6. O'z imkoniyatlarini kengaytirish istagi.

Muvaffaqiyatli odamlar hayotga qiziqishadi va ishlashdan, turli o'yinlardan, boshqalar bilan muloqot qilishdan huzurlanadilar va tabiatni yaxshi ko'radilar. Soxta kamtarlik ko'rsatmasdan, ular o'zlarining yutuqlaridan xursand bo'lishadi. Hasad qilmasdan, ular boshqalarning yutuqlaridan xursand bo'lishadi. Faqatgina barkamol shaxsgina ijodkor bo'lishi mumkin.

7. Ijodiy yondashuv.

O'zingiz va boshqa odamlarga ijodiy vazifalarni belgilash va ularni hal qilish qobiliyati.

Muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi ijrochi bo'lish yetarli emas - siz ijodkor bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishingiz kerak.

Ijodkorlik - bu yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish, odamning yangi g'oyalarni, original yechimlarni vujudga keltirishi, an'anaviy fikrlashdan chetga chiqish qobiliyati.

Ijodkorlikning namoyon bo'lishi: tezlik, aniqlik, fikrlashning o'ziga xosligi, boy tasavvur, yumor tuyg'usi, yuqori estetik qadriyatlarga sodiqlik.

Muvaffaqiyatning tarkibiy qismlarini qidirishda davom etamiz. Muvaffaqiyat kimga keladi? Va nima uchun u kimgadir kulib boqadi, lekin kimdir undan chetda qoladi?

Bizning hayotimizda, atrofimizdagi dunyoda har doim u yoki boshqa holatlarga oid maslahatlar mavjud. Ularni ko'rishni, eshitishni, tushunishni, o'qishni o'rganishingiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Muvaffaqiyatli inson bo'lish sirlari" Deyl Karnegii
2. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. Telegram ijtimoiy tarmog'i.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA TARBIYACHILARNING ROLI

Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi
O'zDJTSU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning psixologik xususiyatlari maktab yoshi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga bog'liq jarayonlar ular orasida: aloqa, his-tuyg'ular, taassurotlar, jismoniy faoliyatni ajratish. Aloqa o'rnatish orqali, jismoniy faoliyat, bola asta-sekin yangi ko'nikma va qobiliyatlarni o'rganishi Natijada, sotsializatsiya jarayoni passiv tarzda emas, balki faol bilish orqali sodir bo'lishi haqida.

Аннотация: В данной статье психологическими особенностями детей являются процессы, связанные с возникновением потребностей школьного возраста, в том числе: общение, эмоции, впечатления, выделение двигательной активности. Благодаря общению, физической активности ребенок постепенно

усваивает новые навыки и умения, в результате чего процесс социализации происходит посредством активного обучения, а не пассивного.

Annotation: In this article, the psychological characteristics of children are the processes associated with the emergence of school-age needs, including: communication, emotions, impressions, separation of physical activity. Through communication, physical activity, the child gradually learns new skills and abilities. As a result, the process of socialization takes place through active learning, not passive.

Kalit so'zlar: bola psixikasi, olam, maktabgacha ta'lim, tarbiyachilar, rivojlanish.

Ключевые слова: психика ребенка, вселенная, дошкольное образование, воспитатели, развитие.

Keywords: child psychics, olam, preschool education, educators, development.

Yangi his-tuyg'ularni, taassurotlarni qabul qilish aqliy faoliyatning rivojlanishini, rag'batlantiradi. Atrofimizdagi dunyo bilan tanishish nafaqat ijobiy his-tuyg'ularni olishga yordam beradi, balki qiziqish uyg'otadi. 5-6 yoshdagi bolalar rivojlanishga katta intilishadi, bu esa yangi ko'nikmalarni o'rganishga qiziqishning oshishiga olib keladi. 1-2 yil ichida maktabda bilim yetishmasligi to'ldiriladi.


Bolaning psixologik rivojlanishining xususiyatlari Qoida tariqasida, maktabgacha yoshdagi bolalar 4-7 yoshdagi bolalarni o'z ichiga oladi. Shu paytgacha bola inqirozga duch keladi. uch yoshda... Bu chaqaloq va uning ota-onasi uchun qiyin vaqt, chunki chaqaloq o'zini yomon tutadi, injiq va o'jarlikni ko'rsatadi. Davr bolaning mustaqil shaxs sifatida ajralib chiqishi bilan tavsiflanadi, unda xarakter, fikr, qarashlar shakllanadi. Inqirozning iloji boricha muvaffaqiyatli va xotirjam o'tishi uchun kattalar o'zlarining sevimli chaqalog'ini kamsitmasliklari, hurmat, vazminlik ko'rsatishlari kerak. U o'zini tinglayotganini va tushunayotganini his qilishi kerak. Inqiroz oxirida maktabgacha yoshdagi bola kattalar bilan munosabatlarda bir qadam yuqori bo'ladi. U o'zini jamiyatning alohida bo'linmasidek his qiladi. Uni o'z vazifalari, oilada o'rnatilgan tartib-qoidalar bilan tarbiyalash kerak. 3-4 yoshli bolalarning aksariyati borishadi Bolalar bog'chasi, ular tengdoshlari, o'qituvchilari bilan aloqa qiladigan joyda.

Bola o'zidan ko'ra yetukroq ko'rinishni xohlaydi. Shuning uchun, u kattalardan keyin (so'zlar, harakatlar, intonatsiya) takrorlashga harakat qiladi. Ba'zi ota-onalarga o'zlarini shu tarzda kuzatish va bolaning ulardan nimani o'rganishini tushunishga ruxsat beriladi. Voyaga yetganlarning xatti-harakati indikativ bo'lishi kerak. Bu nafaqat oila a'zolarining xatti-harakatlariga taalluqlidir. Bolalar ko'pincha televizorda ko'rgan narsalarini jonlantiradilar. Siz bolaning qaysi multfilmlar, filmlar tomosha qilishiga e'tibor berishingiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi erta bosqichda. U atrofidagi dunyoga qiziqish bildirib boshlaydi, ko'p savollar beradi.

Rivojlanish xotiraga, aqlga, neyropsik tomonga, yashirin iste'dodlarga ta'sir qiladi. Agar ota-onalar xususiyatlarni o'rganishga muvaffaq bo'lishsa aqliy rivojlanish kırıntılar, keyin ular oilada uyg'unlikni o'rnatishi, chaqaloqni to'g'ri tarbiyalashi

mumkin. Kichkintoy o'yin shakli ijtimoiy xulq-atvor normalarini o'rganadi, boshqalar bilan aloqa o'rnatadi. U kattalardan uzoqlashishni xohlaydi, boshida sodir bo'layotgan voqealarning xo'jayini sifatida harakat qiladigan vaziyatni yaratadi.

Biroq, ichida haqiqiy hayot u to'liq ishtirok eta olmaydi voyaga yetganlik, bu etarli darajada aqliy, aqliy, jismoniy rivojlanish... O'zini muhim his qilish uchun bola murojaat qiladi rol o'yin, unda u ma'lum bir uchastka quradi, shartlar: kattalardan keyin takrorlanadi; o'yinchoqlar haqiqiy narsalar sifatida harakat qiladigan vaziyatni tasavvur qiladi; haqiqat ramziydir; o'yin belgilangan qoidalarga, taqiqlarga rioya qilishni nazarda tutadi. Bunday holat psixologik salomatlik, hissiy va intellektual rivojlanishga yordam beradi. Bir nechta bor psixologik xususiyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo'lgan tasviriylar muammolarini hal qilish qobiliyati; aqliy jarayonlardan ataylab foydalanish, boshqarish, atrofdagi vaziyatga reaksiyani nazorat qilish, uni baholash, bashorat qilish qobiliyati; o'z-o'zini hurmat qilishni shakllantirish; nutq apparatining faol shakllanishi; o'rnatilgan xulq-atvor va ijtimoiy normalarni ongli ravishda idrok etish; uchun tayyorgarlik ta'lim jarayoni maktabda psixologik darajada. 7 yoshga kelib, ko'p yoki kamroq darajada siz ma'lum neoplazmalarning mavjudligini sezishingiz mumkin.



Mumkin bo'lgan muammolar darhol ko'rib chiqishni va ularni hal qilish yo'llarini izlashni talab qiladi. Bu jiddiy tuyulishi va bolaga salbiy ta'sir ko'rsatishiga qaramay, bolalar psixikasi mustaqil ravishda moslashishga va o'quv jarayonidagi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga, kamchiliklarga dosh berishga qodir.

Yosh maktabgacha yoshdagi bolalar 3-4 yoshda maydalanganlar o'zlarini tasdiqlay boshlaydilar. Siz ulardan ko'pincha "men buni o'zim qilaman", "men bilaman",

"men mumkin" deb eshitishingiz mumkin. Ko'pincha bu bolalarning maqtanishni, o'zlarini va qilayotgan ishlarini maqtashga kirishishiga olib keladi. Bu yoshda bola rivojlangan o'ng yarim shar eshitish va vizual idrokni og'irlashtiradigan miya, bu esa, o'z navbatida, nima sodir bo'layotgani haqidagi tasavvurni bir butunlikda shakllantirishga yordam beradi. Nozik va qo'pol motorli ko'nikmalar faol rivojlanmoqda. Yugurish, qo'l va barmoqlarni cho'zish, sakrash, muvofiqlashtirish mashqlari foydali bo'ladi. Xotira hamon beixtiyor: yorqin, shiddatli lahzalar uning diqqatini tortadi. 3 yoshida nutq apparatining faol shakllanishi kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda to'xtaydi va bolaning xotirasida allaqachon 1000 ga yaqin so'zlar saqlanib qolgan, ularning ma'nosi va ma'nosi u tushunadi. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar 5-6 yoshda bolalarning xatti-harakati va tafakkuri kichik maktabgacha yoshdagi bolalardan sezilarli darajada farq qiladi. Ota-onalar va bola o'rtasida tushunish, uyg'unlik o'rnatiladi, muloqot qilish, bir-birini tushunish osonroq bo'ladi. Aynan shu yoshda bolalar ayniqsa mehrga, g'amxo'rlikka muhtoj, boshqalarga mehrmuhabbat, mehr-muhabbat his qila boshlaydilar. Tengdoshlar bilan muloqotni o'rnatish, boshqa bolalarning etakchilik fazilatlarini his qilish, o'yinlarda belgilangan tartib va qoidalarni qabul qilish osonroq. Bolaning nazarida kattalar yordamchi, qiyin damlarda yordam berishga, yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga tayyor bo'lgan o'qituvchiga o'xshaydi. Ijodiy qobiliyatlar paydo bo'la boshlaydi. U qanday musiqani yaxshi ko'rishini va yoqtirmasligini tushunadi, raqsga tushadi, qo'shiq aytadi, har qanday asbobda o'ynaydi, sport bilan shug'ullanadi. Xotira endi ixtiyoriy emas, o'z xohish-istaklari harakatlarda namoyon bo'ladi. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlashiga quyidagi xususiyatlar xosdir: Egosentrizm. Bola vaziyatni tashqi tomondan ko'rib chiqmasdan, nima sodir bo'layotganini sub'ektiv ravishda tahlil qilishi mumkin. Animizm. Bola o'zining "men" ni atrofdagi narsalarga o'tkazadi, buning natijasida mobil jonli sifatida qabul qilinadi. Sinkretizm. Kırıntı bir butunni alohida elementlarda ko'rishga qodir, lekin alohida tafsilotlarni bir butun sifatida idrok eta olmaydi. 5-6 yoshda maktabgacha yoshdagi bola boshqalarning muloqotida qatnashishi, muhokama qilinayotgan narsaning ma'nosini o'rganishi, asosli fikr bildirishi mumkin. Bu yoshda so'z boyligi 3-4 ming so'zga kengayadi. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar boshqalarga nisbatan aybdorlik va o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishni boshlaydilar, qiziqish va tashabbus ko'rsatadilar. Ba'zida olti yoshli bolalar ongli ravishda o'rganish uchun maktabga borishga tayyor. Hissiy jihatdan chaqaloq ko'proq qat'iylik va barqarorlikni ko'rsatadi. Agar aqliy faoliyat haqida gapiradigan bo'lsak, unda ma'lum narsalarga diqqatni jamlash, quloq bilan aytilgan narsalarni idrok etish va er yuzida harakat qilish qobiliyati mavjud. Impulsivlik fonga o'tadi, maktabgacha tarbiyachi biror narsa qilishdan oldin o'ylashga harakat qiladi, aytaylik, oqibatlari qanday bo'lishi mumkinligini tushunadi. Qanaqasiga katta bola, u sodir bo'layotgan voqealarda komiksni qanchalik ko'p ko'radi. O'yin-kulgi va kulgini g'ayrioddiy ranglar yoki shakllar

qo'zg'atishi mumkin. Katta yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar kulgili shakldagi o'yinlarga ko'proq jalb qilinadi. 6 yoshga kelib, individual xarakter faol shakllanadi, xulq-atvor namoyon bo'ladi. Bola yomon kayfiyatini yoki holatini yashirishi mumkin, agar u xuddi shunday maqtovga sazovor bo'lsa, xafa bo'ladi yoki undan ham yomoni, yomon qilgani yoki etarlicha yaxshi bo'lmagani uchun. Shunday qilib, u nima bo'layotganini ehtiyotkorlik bilan baholay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/uz> - Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий вебсайти.
2. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
3. Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222.
4. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: «Укитувчи», 1990.
5. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустакил фикрлаш. - Т.: «Шарк», 2000.
6. Нишонова З.Т. Мустакил ижодий фикрлаш. - Т.: «Фан», 2004.
7. Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: МГУ, 1984.
8. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). - М.: «Знание», 1984.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: «Просвещение», 1991.
10. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: «Педагогика», 1982.

TRENINGDA ERTAK TERAPIYANING QO'LLANISHIGA DOIR MA'LUMOTLAR TAHLILI

Inog'omova Elnora
O'zmu 1-bosqich magistrant

Ertak terapiyasi - bu ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ongni kengaytirish, shaxsni birlashtirish va tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash uchun ertak shaklidan foydalanadigan usul. Biz ertak terapiyasi art terapiyaning eng intensiv usuli ekanligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaymiz, tabiiyki deyarli barcha sohalarni o'z ichiga oladi - rasm chizish, niqob va bo'yanish bilan ishlash, musiqa terapiyasi, qo'g'irchoq terapiyasi va boshqalar. Ertaga-terapevtik usullar bolalarda ruhiy xususiyatlar va tashxis qo'yish va tekshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. E. Fromm,

A. Vachkov, T. Grabenko, T. Zinkevich-Evstigneeva va boshqalar singari tanikli olimlar va ma'rifatparvarlar ertaklarning asosiy funktsional xususiyatlari bilan tanishdilar. Birinchidan, ertaklar qizg'in hissiy reaksiyaga sabab bo'ladi, bu esa aloqa uchun maxsus imkoniyatlarni yaratadi. Ikkinchidan, ertaklarda hayot qadriyatlari, muhim voqealar va hodisalar, qahramonlarning ichki dunyosi haqida metafora qo'llaniladi. Uchinchidan, ertakda dunyoning tuzilishi, qahramonlarning hayot yo'lida qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani va ular bilan qanday kurashish, yovuzlik bilan qanday kurashish, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish haqida ma'lumotlar mavjud. To'rtinchidan, ertak jamiyatning salbiy ta'siriga qarshi turishga yordam beradigan axloqiy immunitetni rivojlantiradi. Beshinchidan, ertaklar dunyoni yaxlit idrok etish, orzuni rivojlantirish, ijodkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadi

Trenerlar, ertak terapevtik texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarga muammolarni engishda, hissiy holatni tiklashda, mavjud xatti-harakatlardagi buzilishlarni bartaraf etishda, muassasaga muvaffaqiyatli moslashishda yordam berishadi, shuningdek intellektual rivojlanishga ta'sir ko'rsatadilar.

Shunday qilib, ertak bolani qahramonlarga nisbatan hamdard bo'lishga undaydi, buning natijasida u dunyodagi odamlar, narsalar va hodisalar, yangi hissiy tajriba haqida yangi fikrlarga ega.

Ertaga kirish juda muhim nuqta. Bu sehrli lahzadir, muqaddas. G'ayrioddiy makonga sayohat qilish uchun sizga ma'lum bir to'siq va to'siqni engib o'tish uchun "sehrli kuch" kerak. Ertadan chiqish uchun kirish uchun xuddi shu usullardan foydalanish shart emas. Chiqish yo'li o'z-o'zidan oson va sodda: buning uchun hech qanday kuch talab etilmaydi. Ertaklar davomida sayohat paytida harakatlarga, xabardorlik va tajribalarga sarflangan energiya, xuddi qurib qoladi va bola avtomatik ravishda tanish real dunyoda odatiy xabardorlik va energiya darajasiga qaytadi. Bundan tashqari, ertakda "yashash" paytida bola yangi fazilatlarni, bilimlarni oladi va qandaydir tarzda o'zgaradi.

Ertaklar muntazam ravishda takrorlanishi mumkin. Bolalar takrorlashni yaxshi ko'radilar, bundan tashqari, tanish mashqlar osonroq va ba'zan katta qiziqish bilan qabul qilinadi. Darhaqiqat, tanish mashqda siz tan olish, yodlash, assimilyatsiya qilish uchun

kuch va quvvat sarflashingiz shart emas, lekin siz jarayonning o'zida zavq olishingiz mumkin .

Ertaklarning barcha atributlari, har qanday vizualizatsiya, musiqiy asarlar o'zgarishi va boshqalar bilan almashtirilishi mumkin, soddalashtirilgan yoki murakkab: Bu unga qanday muhitni yaratishi, qanday kayfiyatni yaratishi, bolalarning e'tiborini qanday yo'naltirishi, ularni faollashtirishi va tinchlantirishi. Trener mashg'ulotning qaysi ritmi va sur'atini, mashqlar sonini va intensivligini qachon kamaytirish yoki oshirish kerakligini sezishi kerak. O'z vaqtida va qaysi bolani bu yoki boshqa rolga tayinlashini aniqlash uchun trenerdan ba'zi psixologik qobiliyatlar talab qilinadi. Shuni esda tutish kerakki, bolalar tomonidan bajarilgan barcha narsalar, ularning so'zlari, harakatlari, hatto improvizatsiyalari ham muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatli, eng yaxshi va chiroyli. Va tashqi tomondan qanday bo'lishidan qat'iy nazar. Bolalar o'zlarini erkin, ozod his qilishlari, o'zlariga va qobiliyatlariga ishoni shlari juda muhimdir. Har kim qo'lidan kelganini qiladi. Bolalarni doimiy ravishda rag'batlantirish kerak.

Ertak terapevtik mashg'ulotining tuzilishi bosqichli xarakterga ega. Birinchi bosqichda ertakka "kirish" marosimi, ertakga kirib, hamkorlik qilish uchun kayfiyatni yaratish uchun tavsiya etiladi. Siz kollektiv mashqlardan foydalanishingiz mumkin, masalan qo'llarni aylana shaklida ushlab turish, hamma shamga qarashadi yoki bir-birlariga to'p uzatishadi; yoki boshqa "miting" aksiyasi o'tkazilsa. Ikkinchi bosqich - takrorlash, ya'ni. ular oxirgi marta nima qilishganini va o'zlari uchun qanday xulosalar chiqarganliklarini, qanday tajriba orttirganliklarini va nimalarni bilib olishlarini eslang. Trener bolalardan yangi tajribadan foydalanganlarini eslab qolishlarini so'raydi. Uchinchi bosqich - bu bolaning nimadir to'g'risida tushunchasini kengaytirish, trener esa bolalarga yangi ertak aytib beradi yoki ko'rsatib beradi, bolalarni sinashga taklif qiladi, ertakdan biron bir mavjudotga yordam beradi. To'rtinchi bosqich - bu yangi tajribani birlashtirish, bolaning yangi shaxsiy xususiyatlarining namoyon bo'lishi. Uy egasi bolalarga yangi tajriba orttirishga imkon beradigan o'yinlarni o'tkazadi; ramziy sayohatlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi. Beshinchi bosqichda integratsiya amalga oshiriladi, uning vazifasi yangi tajribani haqiqiy hayot bilan bog'lashdir. Trener hayotdagi vaziyatlarda ular olgan tajribasidan foydalanishi mumkin bo'lgan bolalar

bilan muhokama qiladi va tahlil qiladi. Oltinchi bosqich - xulosa, to'plangan tajribani umumlashtirish va uni mavjud tajriba bilan bog'lashga bag'ishlangan. Trener mashg'ulotni yakunlaydi. Mashg'ulotda sodir bo'lgan voqealarning ketma-ketligini aniq talaffuz qiladi, har bir bolani o'z xizmatlari uchun belgilaydi, to'plangan tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ettinchi bosqichda yangi tajribani jamlash, bolani tanish muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlash vazifasi yuklatilgan ertakdan chiqish yo'li mavjud. bolalarga yangi tajriba orttirishga imkon berish; ramziy sayohatlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi. Beshinchi bosqichda integratsiya amalga oshiriladi, uning vazifasi yangi tajribani haqiqiy hayot bilan bog'lashdir. Trener bolalar bilan hayotdagi qanday vaziyatlarda ular orttirgan tajribadan foydalanishi mumkinligini muhokama qiladi va tahlil qiladi. Oltinchi bosqich - xulosa, to'plangan tajribani umumlashtirish va uni mavjud tajriba bilan bog'lashga bag'ishlangan. Trener mashg'ulotni yakunlaydi. Mashg'ulotda sodir bo'lgan voqealarning ketma-ketligini aniq talaffuz qiladi, har bir bolani o'z xizmatlari uchun belgilaydi, to'plangan tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ettinchi bosqichda yangi tajribani jamlash, bolani tanish muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlash vazifasi yuklatilgan ertakdan chiqish yo'li mavjud. bolalarga yangi tajriba orttirishga imkon berish; ramziy sayohatlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi. Beshinchi bosqichda integratsiya amalga oshiriladi, uning vazifasi yangi tajribani haqiqiy hayot bilan bog'lashdir. Trener bolalar bilan hayotdagi qanday vaziyatlarda ular orttirgan tajribadan foydalanishi mumkinligini muhokama qiladi va tahlil qiladi. Oltinchi bosqich - xulosa, to'plangan tajribani umumlashtirish va uni mavjud tajriba bilan bog'lashga bag'ishlangan. Trener mashg'ulotni

yakunlaydi. Mashg'ulotda sodir bo'lgan voqealarning ketma-ketligini aniq talaffuz qiladi, har bir bolani o'z xizmatlari uchun belgilaydi, to'plangan tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ettinchi bosqichda yangi tajribani jamlash, bolani tanish muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlash vazifasi bilan ertakdan chiqish yo'li mavjud. uning vazifasi yangi tajribani haqiqiy hayot bilan bog'lashdir. Trener bolalar bilan hayotdagi qanday vaziyatlarda ular orttirgan tajribadan foydalanishi mumkinligini muhokama qiladi va tahlil qiladi. Oltinchi bosqich - xulosa, to'plangan tajribani umumlashtirish va uni mavjud tajriba bilan bog'lashga bag'ishlangan. Trener mashg'ulotni yakunlaydi. Mashg'ulotda sodir bo'lgan voqealarning ketma-ketligini aniq talaffuz qiladi, har bir bolani o'z xizmatlari uchun belgilaydi, to'plangan tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ettinchi bosqichda yangi tajribani jamlash, bolani tanish muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlash vazifasi yuklatilgan ertakdan chiqish yo'li mavjud. U to'plangan tajribani umumlashtirish va uni mavjud tajriba bilan bog'lashga bag'ishlangan. Trener mashg'ulotni yakunlaydi. Mashg'ulotda sodir bo'lgan voqealarning ketma-ketligini aniq talaffuz qiladi, har bir bolani o'z xizmatlari uchun belgilaydi, to'plangan tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ettinchi bosqichda yangi tajribani jamlash, bolani tanish muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlash vazifasi yuklatilgan ertakdan chiqish yo'li mavjud. U to'plangan tajribani umumlashtirish va uni mavjud tajriba bilan bog'lashga bag'ishlangan. Trener mashg'ulotni yakunlaydi. Mashg'ulotda sodir bo'lgan voqealarning ketma-ketligini aniq talaffuz qiladi, har bir bolani o'z xizmatlari uchun belgilaydi, to'plangan tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ettinchi bosqichda yangi tajribani jamlash, bolani tanish muhitda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlash vazifasi yuklatilgan ertakdan chiqish yo'li mavjud. Sinfda ertak bilan ishlashning asosiy usullarini taklif qilamiz, masalan, ertaklarni tahlil qilish, ertaklar yozish, ertaklarni qayta yozish, qo'g'irchoq teatri yordamida ertaklarni sahnalashtirish, ertaklarni bastalash, ertaklarni chizish, ertaklarni chizish va boshqalar. Ish paytida bolalarga trenerdan yordam taklif qilindi. Qahramonlarning tasvirlarini quyidagi o'yin sinflari yordamida ifodalash uchun: intonatsiya - bolalarga alohida so'zlar yoki jummalarni turli xil intonatsiyalar bilan talaffuz qilishni taklif qilishdi; imo-ishoralar bilan - ular oddiy ishlardan boshladilar

(men sovuqman, men issiqman), harakatlarning murakkablashishi bilan boshladim (qalam bilan chizaman, bo'yoqlar bilan chizaman, supuraman va hokazo); yuz ifodalari - hissiy holatingizni xayoliy voqeada (kayfiyat, ta'm) ifodalash; pantomima - chayqaladigan daraxt, quvnoq echki, tovuqni tasvirlaydi. O'z-o'zini hurmat qilish maqsadida turli xil tarkibdagi bolalarning tadbirlarini tashkil etishda biz har bir bolaga uning tengdoshlari uchun tadbirlarda ajralmas sherik sifatida imkoniyat yaratib berdik, unga e'tiborni, hissiy va biznes aloqalarini qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga qaratdik. Biz ertak terapiyasi ko'p qirrali, murakkab pedagogik hodisa ekanligidan kelib chiqdik: bu bolalarni tarbiyalashning o'yin usuli, ta'lim va tarbiya, mustaqil o'yin faoliyati va bolani rivojlantirish vositasi. Shuning uchun, maxsus ishlab chiqilgan ertak terapevtik mashg'ulotlari jarayonida izchil, yo'naltirilgan, yaxlit idrok rivojlandi, ko'rgan narsalarga dalillarga asoslangan mulohazalar va baholarni ifodalash qobiliyati shakllandi. Ish jarayonini faollashtirish uchun xalq musiqasi doimo yangradi. Muammo masalasi ertak terapiyasi yordamida hal etiladi, chunki u turli xil ibratli hikoyalar, ertaklar qahramonlari bilan o'zini tanishtirganda, bola tanish vaziyatga boshqa tomondan qarash imkoniyatiga ega bo'ladi va bu uning boshqa xarakterli xususiyatlarini ko'rishga, vaziyatga bo'lgan munosabatingizni o'zgartirishga va pozitsiya, natijada muammoni yechishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agaragimova V.K. Dog'iston yoshlarini tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik muammolari. Dog'iston davlat pedagogika universiteti yangiliklari. Psixologik va pedagogik fanlar. 2015 yil; 2.
2. Agaragimova V.K., Gasanova S.S.-G., Kabardieva F.A. Inklyuziv ta'limning art-terapevtik hamrohligi. Fan, madaniyat, ta'lim olami. 2015 yil; 3 (52).
3. Belinskaya E.V. Maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun ajoyib mashg'ulotlar. Sankt-Peterburg: nutq; Moskva: Sfera, 2008 yil.
4. Koloshina T.Yu., Trus A.A. Treningda art-terapevtik usullar. Sankt-Peterburg: 2010.

TA'LIM MUASSASASI RAHBARINING SIFAT VA QIRRALARI

Hamroyeva Xurshida
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 61-maktab psixologi

Annotatsiya. Maqolada ta'lim muassasasi rahbarining sifat va qirralari, boshqaruvchi rahbar shaxsi tasvirlangan.

Kalit so'zlar. Rahbar, ta'lim muassasasi, boshqaruvchi shaxs, rahbar nazoratchi.

Bugungi kunda muassasalar oldiga qo'yilayotgan dolzarb vazifalaridan biri o'quvchi yoshlarga sifatli, sermazmun va malakali ta'lim berishni tashkil etishdan iboratdir. Ta'lim sifatini yaxshilash, uni boshqarishni davr talablari asosida tashkil etish mexanizmlarini yaratish hamda ilmiy jihatdan asoslash pedagogika faninig muhim masalalaridan biridir. Ushbu masalani har tomonlama o'rganish va ta'lim muassasasini ilmiy metodik boshqarish modelini tashkil etish hamda amaliyotga tatbiq etish nihoyatda zarur. Uning asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarish masalasiga tamomila yangicha yondashgan holda faoliyat ko'rsatish yotadi.

Rahbar turli toifadagi, fe'l-atvordagi kishilar bilan doimiy muloqotda bo'lar ekan, psixologiya fanidan yaxshi xabardor bo'lishi va psixolog sifatida qo'li ostidagi xodimlari oldida o'zini tuta bilishi, o'qituvchilarga tutgan yo'lini faqat tushuntirish emas, balki ularning fikrlarini tinglay olishi, hamfikir, hammaslaklikni to'g'ri qo'llay olishi maqsadga muvofiqdir. Rahbar qabuliga kelgan har bir fuqaroning fikrini to'liq eshitish, tegishli javoblarni fuqaroning shaxsiyatiga tegmasdan, bosiqlik bilan tushuntirib, savolga javoblarni berish talab etiladi.

Mamlakatda olib borilayotgan ta'lim siyosatining mazmun – mohiyatini yaxshi bilgan holda rahbarlar dasturlovchi sifatida tegishli yuqori idoralarning ko'rsatma va meyoriy xujjatlaridan kelib chiqib, muassasaning ta'lim-tarbiya va moliyaviy ishlarini rivojlantirish va takomillashtirish borasida olib boriladigan ishlar yuzasidan istiqbol, yillik, choraklik va oylik ish rejalar tuzib boradi. Uni rivojlantirish va takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqadi va rejalashtirish mexanizmi loyihasini pedagogik jamoa muhokamasiga qo'yadi, tasdiqlagan dasturlarni yuqori tashkilotlarda himoya qiladi.

U muassasaning asosiy tashkilotchisi ham muassasa rahbaridir. Shu nuqtai nazardan u muassasada tashkil etiladigan har bir tadbirning mazmunli o'tish choralarini ko'radi. Barcha soha yo'nalishlari bo'yicha tegishli tashkilotlar rahbarlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, amaliy seminarlar o'tkazish rejasini tuzadi va uni tashkil etishga amaliy yordam ko'rsatib boradi.

Davrning o'zi muassasa direktoridan faqat rahbar, pedagog bo'lishnigina emas, balki ishning ko'zini biladigan tadbirkor bo'lishni ham taqozo etmoqda. Muassasada budjetdan tashqari mablag' topish chora-tadbirlarini ko'radi. Hukumatning tegishli qarorlari asosida muassasada shartnoma asosida qo'shimcha ta'lim berish, muassasa binosida joylashgan sport zallari, bo'sh xonalarni va boshqa joylarni ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir etmaydigan holda ijaraga berish hamda pullik xizmat ko'rsatish-ning boshqa turlaridan foydalaniladi.

Rahbar nazoratchi – tahlilchidir. U ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'rganadi, kuzatadi, tekshiradi, tahlil qiladi, xato va kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi, ijobiy ishlarni rag'batlantiradi. Muassasada o'quv yili davomida ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash bo'yicha xorijda hamda respublikada ta'lim va ijtimoiy sohada olib borilayotgan ishlarni tahlil etadi, xulosalar chiqaradi.

Ta'lim muassasasida yangilik yaratish, pedagoglarni yangilikka jalb etish, ta'lim-tarbiyani, uzluksiz metodik xizmatni ilmiy-metodik jihatdan tashkil etish, uni boshqarish, pedagog kadrlarning faoliyat ko'rsatishlariga va o'quvchilarning variativ o'quv rejalar va dasturlar asosida ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratishda direktor alohida faollik ko'rsatadi. Ta'lim-tarbiya faoliyati monitoringini olib borish jarayonida, uni rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ham yangiliklar kiritishni taqozo etadigan fikr-mulohazalar vujudga kelganda uni amaliyotga qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib boradi.

Zamonaviy muassasa rahbar bozor qonuniyatlarini, xususan marketingni yaxshi bilishi kerak. Direktor muassasada budjetdan tashqarii topilgan mablag'larning yo'nalishlarini belgilaydi, tashkil etadi. Tegishli tashkilot va muassasalar, yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzadi. Barcha ishlarni amaldagi qonunchilik asosida yuritadi va uning monitoringini olib boradi. Shuningdek, u da'vogor (istets)

sifatida shartnoma tuzgan tashkilot, yuridik yoki jismoniy shaxsning shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan bo'lsa, ularning ustidan tngishli huquqiy organlarga ma'lum qiladi.

Butun boshqaruv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda muassasa direktori adolatni asosiy mezon qilib olishi kerak. Pedagog va xodimlarga belgilangan vazifalarni taqsimlashda ularning yoshi, tajribasi, jismoniy imkoniyatini hisobga olishi, rag'batlantirishi, shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamda o'quvchilar orasida ziddiyatli vaziyat yuzaga kelganda uni adolatli hal etadi.

Boshqaruvda rahbar mustaqil fikrga egaligi, sabr-toqatli, diqqat-e'tiborli, halol, intizomli, so'zining ustidan chiquvchi, to'g'ri so'z, vijdonli, insonparvar bo'lishi bilan birga qiyinchiliklarni yenga oladigan, orqaga chekinmaydigan, to'siqlardan qo'rqmaydigan, o'zi xato yoki kamchilikka yo'l qo'yganda aybini tan olishdan uyalmaydigan, tajribali pedagoglarga suyanib ish ko'radi.

Muassasa rahbarlarining vazifalari, huquq va burchlari, mas'uliyatlari ilmiy asosda belgilab berilishi va to'la bajarilishi natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ilmiy - metodik asosda boshqariladi. Lekin kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, muassasa rahbarlarining aksariyat qismi o'z vazifalarini to'la anglab yetmagan. Ko'pincha ularning e'tiboridan o'quv jarayonini boshqarish, nazorat qilish va takomillashtirish bilan bog'liq vazifalar chetda qolib ketmoqda. Muassasa direktorlari ko'pincha qurilish-ta'mirlash ishlarini tashkil etish va nazorat qilish bilan ovora bo'lib qolmoqdalar. Natijada o'quv-tarbiya jarayonining sifatiga putur yetmoqda. Shuning uchun ham xalq ta'limi rahbar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida rahbarlarning burch va vazifalari, ta'lim muassasasini ilmiy - metodik boshqarish masalalarini muassasa direktor-lariga yetkazishga alohida e'tibor qaratish, buning uchun tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, malaka oshirish kurslari o'quv dasturi va qo'llanmalarining mazmunini boyitishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

EMOTSIYALAR VA ULARNING SOG‘LIGIMIZGA TA’SIRI

Babaxonova Maftuna Kadamboyevna
Xorazm viloyati Shovot tumani 36-maktab psixologi

Tayanch so‘zlar: Emosiyalar, stress, ruhiyat, hissiyotlar, qo‘rquv, g‘azab

Avvalombor Emosional psixik salomatlik nima ekanligini bilishga harakat qilamiz. Emosional psixologik salomatlik deganda nimani tushunamiz? Nima uchun nafaqat jismoniy, balki psixologik sog‘liq ham juda muhim?

Sog‘lom tafakkurga ega bo‘lish xuddi sog‘lom tana kabi muhimdir. O‘z hissiyotlari va emosiyalarini, shuningdek stressni ijobiy yenga olish o‘zingizni doimiy ravishda yaxshi his qilishingizga yordam beradi. Yaxshi emosional holat jismoniy kasalliklar xavfiini kamaytirishini bilarmidingiz?

Ko‘pgina kasalliklar psixogen xarakter degan nomga egaligichi? Ya’ni kasallik odam stressni boshidan kechirganligi oqibatida, asabiylashishi, o‘z negativ emosiyalari bilan kurasha olmasligi sababli paydo bo‘lishini bilarmidingiz? Biz hammamiz turli emosiyalar va hissiyotlarni boshdan kechiramiz. Bular baxt, xafalik, qo‘rquv va g‘azab kabilardir. Ba’zan bu emosiyalar bizda to‘lib-toshib ketadi! Bu normal va sog‘liq uchun zararli emas. Lekin biz bu emosiyalarni namoyon qilishda yoki ularni yengishda negativ usullardan foydalanadigan bo‘lsak, bu bizning sog‘ligimizda va yaqinlarimiz bilan munosabatlarda muammolar tug‘dirishi mumkin.

O‘rta asrlarda yashagan sharqning mashhur, qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino inson salomatligi uchun birinchi navbatda, «O‘z hissiyotlarini boshqara olish, osoyishtalik» muhim ekanligini o‘z asarlarida takror-takror ko‘rsatib o‘tgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridan ilmfan va texnikada inqilobiy o‘zgarishlar natijasida ishlab chiqarishda, sanoatda, shu bilan birga, inson hayotida buyuk o‘zgarishlar davri boshlangan. Bu o‘zgarishlar yangi shaharlarning paydo bo‘lishi, zavod-fabrikalarning qurilishi, inson hayoti va faoliyatining tezlashuvi, odamlarning zich yashashi bilan bog‘liqdir. Yuqorida keltirilgan muammolarga ekologik inqiroz; kam harakatlilik (gipodinamiya), jamoa bo‘lib yashashning sustlashuvi; raqobatning kuchayishi; axborotning ko‘payishi, terrorizm va boshqa

muammolarning qo‘shilishi bilan insoniyatning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘i yomonlasha boshlagan. Afsuski, ko‘pchilik kishilar o‘z sog‘liqlari uchun javobgarlikni davlat, taqdir, shifokor va boshqalarga yuklashadi. Ayrim kishilar salomatlik uchun javobgarlikni his etmaydilar. Shaxsning o‘z hayoti uchun o‘zi javobgarlikni tushunib yetishi uchun u diqqatini o‘z kamchiliklari, nuqsonlarini anglab yetishga qaratishi bilan erishadi.

O‘zlikni anglash va o‘zi uchun javobgarlikni zimmasiga olish – murakkab va qiyin jarayon. Vaholonki, qadimiy Gresiyada eng katta ibodatxonaning peshtoqiga «Inson o‘zingni-o‘zing angla», – deb yozib qo‘yilganiga ikki ming yildan oshdi. O‘zi uchun mas’uliyatni zimmasiga olmaslik, o‘zini anglashdan qochish shaxsning turmushida, sog‘lik-salomatligida, ruhiy va asab tizimida muammo (stress, xavotirlanish, turli kasallik) larni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va yoshlar uchun maxsus o‘quv-tarbiyaviy dasturlar / Tuzuvchi-mualliflar: N.A.Israilova, A.A.Mavrulov, O.Musurmanova, F.A.Azimova, N.K.Svetlichnaya, D.Xusanova, R.X.Valiyev, L.Gaynutdinova, Z.Ishanxodjayeva, G.Umaraliyeva – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2016.

2. G.Davlatova, M.Maxmudova- Voyaga yetmaganlarni mustaqil hayotga tayyorlash, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish. Fasilitatorlar uchun qo‘llanma.- O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi. 2020 yil

KASBIY QIZIQISH VA MOYILLIKLARNI SHAKLLANTIRISH

Babaxonova Maftuna Kadamboyevna
Xorazm viloyati Shovot tumani 36-maktab psixologi

Tayanch soʻzlar: kasb, qiziqish, qobiliyat, intizomlilik, mayllar, irodaviy sifatlar .

Kasbiy qiziqish va moyilliklarni shakllantirishda hamma uchun zarur boʻlgan umumiy qobiliyatlar (masalan, ijodkorlikka boʻlgan qobiliyat) yoki juda koʻp kasblar va faoliyat turlari uchun zarur boʻlgan qobiliyatlar (tashkilotchilik qobiliyatlari) ayrim kasblar yoki nisbatan tor doiradagi kasblar uchun muhim hisoblangan maxsus qobiliyatlar hisobga olinadi, masalan, elektromexanik releni sozlovchi qiluvchi kishining qoʻllarida sezuvchanlik juda yaxshi rivojlangan boʻlishi kerak, bir xil ohangdagi qoʻzgʻatuvchilarga nisbatan bardoshlilik — transport vositalarini haydovchi kishi uchun zarur, chizmalarga karab murakkab buyumlar tayyorlaydigan kishilar uchun esa jismlarning fazodagi holatini tasavvur qila olish qobiliyati yaxshi rivojlangan boʻlmogʻi kerak. Har qanday kasbda ham umumiy va maxsus qobiliyatlar birga qoʻshilib kelgan takdirdagina ishning muvaffaqiyati taʼminlanishi mumkin.

Xoʻsh, agar kishida tanlangan kasb uchun zarur qobiliyatlarning hammasi boʻlmaschi? Bunday holda ikki yoʻl boʻlishi mumkin: yo tanlangan kasbni oʻzgartirish yoxud yetishmayotgan yoki kam namoyon boʻlgan qobiliyatlar oʻrnini qoplash yoʻllarini qidirib koʻrish kerak boʻladi. Masalan, xotirada kamchilik boʻlsa, muntazam ravishda har xil yozuvlar olib borish, kartoteka tuzish va boshqa shunga oʻxshash tadbirlar bilan oʻsha yetishmovchilik oʻrnini qoplash mumkin. Jismning fazodagi tasvirini tasavvur etishdagi kamchiliklarni toʻldirish uchun hajmli modellardan foydalaniladi va hokazo. Qobiliyatning boʻsh rivojlanishi oʻrnini qoplash — bu odatdagi va zarur hodisa boʻlib, agar kishi oʻz ishi sohasida chindan ham yuksak mahoratni egallashi kerak boʻlsa, qoʻshimcha mashgʻulotlar uning hayotida katta oʻrinni egallashi kerak.

Maktabda olib boriladigan faol oʻquv faoliyati sizning har biringizga oʻz aqliy qobiliyatingizni va eng avvalo tafakkur tiniqligini, mantiqan toʻgʻri fikrlashni,

tafakkurning mustaqil va original bo'lishini, topqirlikni, chuqur mulohaza qilishni, aqliy teranlik va o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishni rivojlantirish imkonini beradi.

Irodaviy sifatlarni, ya'ni: dadillik, qat'iyat, intizomlilik, o'ziga va o'z kuchiga ishonish, o'zini idora qila bilish, og'irvazmin bo'lish singari fazilatlarni rivojlantirishga ham harakat qilish kerak. Mana shu sifatlarning hammasi birga qo'shib mehnatga bo'lgan qobiliyatni ta'minlaydi.

Qiziqishlar, mayllar va qobiliyatlarning kasb tanlashga ko'rsatadigan ta'sirini sxema tarzida tasavvur qilish mumkin. Shunday kilib, har bir kishi aniq faoliyat sohasida o'z qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlarini shakllantirib hamda rivojlantirib, tanlanadigan kasbga yaxshi tayyorgarlik ko'rib bormog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston yoshlari – sog'lom turmush tarzi tarafdorlari" mavzusida trenerlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. ("Yosh tengdoshlar" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi hamda BMTning Aholishunoslik jamg'armasining hamkorlik loyihasi, Toshkent – 2020)

2. G.Davlatova, M.Maxmudova- Voyaga yetmaganlarni mustaqil hayotga tayyorlash, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

MILLIY DIDNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

*Xo'janiyozova Dilafro'z Hayitmamatovna,
Jumaniyozova Nafisa Saparboyevna
Xorazm viloyati Shovot tumani 5-maktab psixologlari*

Tayanch so'zlar: milliy, estetika, ruhiyat, milliy did, etiqot, psixoprofilaktika.

Idrok etilayotgan voqealar va tashqi olamdagi narsalarni bilishdan vujudga keladigan hissiy-ruhiy reaksiya turli xalqlarda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

Etnos yashayotgan turfa xil tabiiy sharoitlar-o'rmon, cho'l, dashtlik, tog', suv havzalari, vodiylar va vohalar, shuningdek, tarixiy taraqqiyotdagi o'ziga xoslik xalqlarning idrok etishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Milliy did - bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan go'zallik va xunuklik to'g'risida berilgan bahodir. Milliy did o'zida milliy o'ziga xoslikni mujasamlashtirgan bo'lib, hissiy va ruhiy jihatidan milliy psixologik qiyofaning xarakterli xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham uni xalq hayoti va turmush tarzidan ajratib tushunib bo'lmaydi. Ma'lum milliy muhitda yashab voyaga etar ekan, har bir shaxsning ruhiy xususiyatlari millatning psixologik xususiyatlaridan «ko'chirma» oladi. Shaxs ajdodlar tomonidan to'plangan madaniy meroslarni o'zlashtirib boradi va uni o'rab turgan milliy zamin ta'siri ostida unda atrof-muhitni, iqlim sharoitlar, nabotot va hayvonot olamini idrok etishga nisbatan maxsus did hamda his-tuyg'ular shakllanadi. Odam eng avvalo uni ilk bolalik davridanoq o'rab turgan, unga har kun, har soat sayin ta'sir etib turgan, uning amaliy maqsadlari va moddiy ehtiyojlarini qondiradigan narsalarning xususiyatlarini boshqa xalq vakillariga nisbatan chuqurroq idrok etishga o'rganadi. Shuning uchun ham tabiat va jamiyatdagi biror narsa va hodisa bir millat va elat vakillarida kuchli hissiy-ruhiy reaksiyani keltirgan holda, boshqa millat va elat vakillari uchun befarq bo'lib qolishi mumkin. Masalan, cho'l qozoq xalqi uchun bir necha yuz yillar mobaynida hayot kechirish manbai, ularni tabiiy boyligi bo'lib kelgan. Shu boisdan qozoq xalqida uni idrok etishga nisbatan o'ziga xos did vujudga kelib, cho'l chuqur hurmat bilan kuylanib kelinadi. Qozoq xalqining atoqli yozuvchisi M.Auezov o'zining «Abay» romanida Abayning cho'lga bergan mehr-muhabbatini bunday ta'svirlaydi: «Abay o'zi tug'ilib bolaligi o'tgan atrof-olamga-cheksiz cho'llar, kengliklar, tepaliklarga mehr va hayajon bilan qarab turar, bularning hammasini u quchgisi va bag'riga bosgisi kellar edi.»(M.Auezov). Dengiz va okean yoki o'rmon va vodiylarda yashab o'sgan odamlar uchun cho'l manzarasi hech qanday ijobiy hissiyotlar tug'dirmasligi, aksincha, zeriktiruvchi ta'sir etishi mumkin. Estetik did murakkab va ko'p qirralidir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ijodkorligi orqali namoyon bo'ladi. Estetik did voqea-hodisalarning estetik

sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg'usi orqali ifoda topadi. Estetik did zaminida go'zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg'araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did bio tuyg'ular bilan ish ko'radi, ya'ni hayot go'zalliklari va voqealari his eta bilish, voqeali to'qnashuvlarda farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Estetik did odamlarning dunyoqarashi, ayniqsa, estetik qarashlari orqali yorqinroq ko'rinadi. Lekin estetik qarashlar va bilimlar hamma vaqt ham estetik didni ifodalamaydi. Ba'zan inson muayyan estetik qarashlar va estetik bilimlarga ega bo'la turib ham past yoki rivojlanmagan estetik did egasi bo'lib qolishi mumkin. Musiqa eshita olish qobiliyati va bu jihatdan estetik didni tarbiyalash masalasi sharq allomalaridan Forobiyning mulohazalaridan chetda qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Davletshin M.G. YOsh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma.- Toshkent.: O'qituvchi, 1974 (hammualliflik).- 235 bet

2.Botirov.B.M. Milliy xarakter xususiyatlari madaniy determinatsiyasini o'rganishning ilmiy-metodologik muammolari. Pedagogik ta'lim, №1/2009, 31-36 betlar.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛГИК АСОСЛАРИНИ ЯРАТИШ

*Мусурмонкулова Дилбар Бектемировна
Норин туман 19 мактаб психологи*

Давлат тараққиёти ва жамият равнақи кўп жиҳатдан унинг интеллектуал потенциали билан белгиланади. Чунки, илмий потенциали юқори даражада ривожланган мамлакат барча соҳаларда доимо илғор бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Фарзандларимизни мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-хунарларни эгаллаган, соғлом ҳаётий

позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун ҳеч қачон долзарблигини йўқотмайдиган масала ҳисобланади”

Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тизими орқали ҳар томонлама баркамол шахс- фуқарони шакллантиришни назарда тутди. Шу тарзда фуқаронинг энг асосий конституциявий ҳуқуқларидан бири билим олиш, ижодий қобилиятни намоён этиш, интеллектуал жиҳатдан ривожланиш, касби бўйича меҳнат қилиш ҳуқуқи руёбга чиқарилади.

Интеллектуал – сўзининг луғавий маъноси ақлий жиҳатдан етуклик, фаҳм-фаросат, ақл-идрок, заковат, зукко яъни заковатли инсон, зукко бўлиш демакдир.


Механизм - сўзи муайян бир мақсадни амалга оширувчи омиллар, факторлар , тизимга, бир тартибли қолипга солиш, кетма-кетликни тўғри танлай билиш демакдир.

Маълумки, таълимни ислоҳ қилишда, миллий мустақиллик принциплари ва халқнинг бой интеллектуал мероси, умумбашарий қадриятларнинг устиворлиги асосида таълимнинг барча даражалари ва бўғинларида таълим олувчиларнинг маънавий ва ахлоқий фазилатларини ривожлантириш; таълим олишда, шунингдек болалар ва ёшларни маънавий ахлоқий интеллектуал ва жисмоний жиҳатдан тарбиялашда жамоат ташкилотлари маҳаллалар, хайрия ва халқаро фондларнинг ролини кучайтириш юзасидан чора тадбирлар ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш ишлари жадал суратлар билан олиб борилди.

Ҳар бир фан ўқитувчиси таълим бериш жараёнида ўқувчиларнинг фанни ўзлаштириш жараёни билан қизиқишлари табиий ҳол албатта. Ёшларнинг фанни мукаммал ўзлаштириши, қўшимча саволлар билан мурожаат қилиши, янада чуқурроқ билим олишга ҳаракат қилиши ҳар қандай устозни қувонтириши ҳам табиий ҳолдир. Лекин бу ҳол ҳар бир гуруҳдан икки ёки уч ўқувчи бўлиши мумкинлиги ҳеч кимга сир эмас. Чунки тўлақонли ўз онги, ақл-заковати, зукколиги билан билим олишга ва ижод қилишга қизиқувчи ўқувчи-ёшларнинг интеллектуал ижодий салоҳиятини ривожлантирувчи мақсад ва вазифаларни

ишлаб чиқиш ва дарс жараёнида унга амал қилиш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Бугунги кунда иқтидорли, истеъдодли ёшларимиз ҳам кам эмас. Фақатгина биз уларни дарс жараёнида аниқлаб олишимиз ва уларни қизиқишларини инобатга олишимиз, ижодий салоҳиятга эришиши учун тўғри йўл-йўриқларни кўрсата олишимиз керак.


Бунинг учун ҳар бир ўқувчининг кундалик иш фаолиятини кузатишимиз ва ундан психологик-педагогик хулосаларни чиқариб ҳар бир ўқувчи билан индивидуал иш олиб бориш учун уларнинг иш фаолиятининг турларини ўрганиб чиқиш ва ҳар бир ўқувчининг психологик дунёкараши бўйича маълум хулосаларга эга бўлишни мақсад қилиб қўймоғимиз лозим:



Ўқувчиларнинг умумий фаолият турларини бирма-бир ўрганмасдан туриб уларнинг ижодий салоҳиятига баҳо бера олмаймиз. Чунки, ўқувчилар ўрганилаётган фанни “аъло” ва “яхши” ўзлаштиришига қараб унинг истеъдодини баҳолашимиз ҳам нотўғри услубдир. Маълумки, бир йўналишни чуқур ўзлаштириб тор мутахассислик доирасида “аъло” бўлиб ихтисослиги бўйича ўқитилаётган фанларни яхши ўзлаштира олмаслиги мумкин.

Бунинг учун барча таълим масканларида таҳсил бераётган устозларимиз ўз шогирдларининг ижодий салоҳияти ва маҳоратини ривожлантириш учун ўқувчининг интеллектуал сифатларини ўрганиши зарур бўлади:

Ёшларнинг интеллектуал сифатларини ўрганиш



Ёшларнинг интеллектуал сифатларини ўрганган ҳолда улар билан мунтазам иш олиб бориш учун таълим жараёнида қуйидаги усуллардан фойдаланишни назарда тутиш муҳим аҳамият касб этади. Бундан ташқари ҳар бир таълим масканида ўтказиладиган таълимий тадбирлар, танлов ва мусобақалар ҳам ёшларнинг илмий ва ижодий интеллектуал салоҳиятини оширишга жуда катта ёрдам беради. Бунинг учун ҳар бир устоз ўзи танлаган шогирдининг маҳоратини ошириб бориш учун барча усулларни қўллай олиши, ўқув маскани маъмурияти томонидан ташкил этилаётган тадбирларни ўз вақтида мунтазам ўтказилишини ўрганиб бориши лозим. Кўрик-танлов, мусобақа, олимпиадалар ўтказишдаги демократик эркинлик, одилона ва оқилона боҳолаш, ёшларнинг ижодий интеллектуал салоҳиятини ривожлантирувчи омилларни илгари суриш барчамизнинг муҳим вазифаларимиздан бири эканлигини унутмаслигимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қураимиз” Т. Ўзбекистон, 2017. 296-бет.
2. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Қобилият ва унинг диагностикаси. -

Т.:Ўқитувчи, 1997. -134 б.

3. З.Т.Нишонова. Мустақил ижодий фикрлаш. – Т.: Фан.- 2003.-114 б.

ЎЗБЕКИСТОН ТАЛАБА-ЁШЛАРИНИНГ КАМОЛОТИДА ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

Маматов Шаҳриддин Шавкат ўғли

Термиз давлат университетининг Педагогика институти талабаси

Бугунги кунда юртимизда барча соҳа тармоқлари юзасидан шиддат ва кескинлик билан рўй бераётган ўзгаришлар, ривожланишлар кўзга ташланмоқда. Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотлар ва оқилона сиёсат, Мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан белгилаб берилган 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришни бешта усувор йўналишлари бўйича “ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ” ҳамда ҳукуматимиз томонидан амалга оширилаётган барча саъй-ҳаракатлар, аввало, халқимизнинг тинч, осойишта ва фаровон ҳаётини янада яхшилаш ва уни такомиллаштиришга қаратилгандир.

Ҳозирги кунда дунё ҳамжамиятида содир бўлаётган мураккаб ва таҳликали вазиятлар, турли экстримистик ва террористик гуруҳларнинг ғоявий таҳдидлари бизнинг юртимизни ҳам четлаб ўтмаяпти.

Ҳеч кимга сир эмаски, жамиятимиздаги барқарор вазиятни издан чиқариш, халқимиз орасига низо солиб, турли можараларни, ҳатто қон тўкилишларини хоҳловчи кучлар йўқ эмас. Уларнинг нишони остида эса айнан ўсиб келаётган, ҳаётда оқ-у қорани яхши ажрата олмайдиган ўсмир ёшлар туради. Шунинг учун ҳам униб-ўсиб келаётган ёш авлод тарбияси ҳеч вақт ўзининг долзарблигини йўқотмайдиган масала ҳисобланади.

Шунинг учун ҳам ҳукуматимиз томонидан таълим-тарбия олдида қўйилган асосий мақсадлардан бири ёш авлодни ҳам жисмоний, ҳам маънавий жиҳатдан

баркамол шахс ва комил инсонлар даражасида вояга етказишдир. Уларнинг турли оқим ва ғоявий таҳдидлар гирдобига тушиб қолмаслиқари учун, асрлар мобайнида шаклланган миллий анъаналаримизга, аجدодларимизнинг бой маънавий меросига таянган ҳолда изчил ғоявий тарбиявий иш олиб борамиз. Бунда миллий истиқлол ғояси таянч вазифасини ўтамоқда.

Ҳеч кимга сир эмаски, таълим ва тарбиянинг узвийлиги қушнинг икки қанотига қиёсланади. Қуш парвоз қилиши учун унга иккала қанот ҳам бирдек зарур. Демак, инсон баркамол шахс бўлиб етишишдек улкан мақсадни ўз олдига қўядики, маррага етишмоқ учун унга иккала қанот: таълим ва тарбия ниҳоятда зарурдир. Агар моҳир педагог шахсни шакллантиришда юқорида келтирилган таълим ва тарбияни бир-бири билан мутаносиб, чамбарчас боғлиқ ҳолда қўллай олса, шахс камолоти ва жамият тараққиёти учун етук мутахассис кадр ва баркамол шахсни шакллантира олади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида бугунги глобаллашув жараёнида ёшлар тарбияси нақадар муҳим масала эканлигини яна бир бор таъкидлаб, жумладан, шундай деган эдилар:

“Бугунги дунё ёшлари – сон жиҳатидан энг йирик авлоддир, чунки улар 2 миллиард кишини ташкил этмоқда. Сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзадларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ.

Шу муносабат билан одамлар, биринчи навбатда, ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифадир”. [1]

Умуман олганда эса, фарзанд тарбияси халқимиз онгида кеча ёки бугун пайдо бўлиб қолган масала эмас. Тарихга назар ташлайдиган бўлсак, Ўрта асрлар Шарқ Уйғониш даврининг буюк даҳолари, дунё илм-фани сивилизатсиясига улкан ҳисса қўшган қомусий алломаларимиз ҳам инсон камолотида тарбия ўта муҳим аҳамият касб этиши ҳақида алоҳида тўхталиб ўтган. Ана шундай олимларимиздан бири Абу Насир Форобий (870-950)еди.

Форобийнинг фикрича, муҳит ва тарбиянинг таъсирида шахснинг ахлоқий сифатлари шаклланади. Аллома таъкидлаб айтадики, шахснинг баркамол шаклланиши учун 4 та тўсиқ бор: 1)хурматсизлик; 2)ахлоқсизлик; 3) ўзгарувчанлик; 4)иккиланиш.

Донишманд ўтмишдошимизнинг ушбу қайдларида келтирган тўртта тўсиқ орасида энг хавфлиси иккиланишдир. Айнан иккиланиш инсонни мақсад сари йўлидан тойдиради, қалбидаги жасорат ва ишончни яқсон қилади. Ишонч йўқ экан, мақсадга эришмоқ ҳам мумкин бўлмай қолади .

Форобий тарбиянинг қаттиқ ва юмшоқлиги ҳақида ҳам фикр билдирган. Унинг фикрича, ҳаддан ташқари қаттиққўллик болада атрофидагиларга нисбатан манманлик, менсимаслик ҳолатини келтириб чиқаради. Ушбу келтирилган далиллардан кўринадикки, Форобий шахснинг шаклланиши имкониятлари ва усуллари тўғри баҳолаган донишманд бўлган ҳамда тарбия ҳамиша халқимиз назарида муҳим аҳмият касб этиб келган.

Яна бир ўтмишдаги буюк алломамиз Абу Али ибн Сино(980-1037) фақатгина тиббиёт соҳасидагина даҳо даражасига кўтарилиб қолмай, таълим-тарбия соҳасида ҳам ўзининг ўта қимматли фикр-мулоҳазаларини баён этиб кетганлар. Унинг “Тадбири манозил” асарида таълим-тарбия соҳасида алоҳида боб ажратилган бўлиб, уни “Болаларни тарбиялаш , мактабда ўқитиш” деб номлаган.

Ибн Сино биринчи бор тарбияда суҳбат методини қўллашни жорий қилган эди. Унинг таъкидлашича , агар бола жамоада тарбияланса, бир-бирига бўлган ҳурмат-эътибор юксалади, жамоа таъсирида ёмон одатларини йўқотади. Бундан ташқари, аллома, бола тарбиясида оиланинг ролига катта баҳо бериб, тарбия қанча эрта бошланса, самараси шунча кўнгилли бўлишини қайд этади.

Ибн Синонинг доно талқинлар ва қарашлари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ. Чунки улардан шиддат билан ривожланоётган ҳозирги замоннинг фарзанд тарбиясида юзага келаётган муаммоларига жавоб топишимиз мумкин. Негаки, бугунги кунда баркамол шахсни тарбиялашда оила, маҳалла,

кенг жамоатчиликнинг ҳамжиҳатлиги ҳақидаги талаб Ибн Синонинг қарашларида куртак ёзган эди.

Шу ўринда қайд этишимиз ўринлики, мухтарам Юртбошимиз Ш.М.Мирзиёевнинг донолик билан айтган қуйидаги мулоҳазалари тарбия ва жамиятдаги шарт-шароитли муҳитнинг уйғунлиги бугунги кун ёшлари камолотида муҳимлигни ифода этади:

“Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз.

Ёш авлод тарбияси ҳақида гапирганда, Абдурауф Фитрат бобомизнинг мана бу фикрларига ҳар биримиз, айниқса, энди ҳаётга кириб келаётган ўғил-қизларимиз амал қилишларини жуда-жуда истардим:

“Халқнинг аниқ мақсад сари ҳаракат қилиши, давлатманд бўлиши, бахтли бўлиб, иззат-ҳурмат топиши, жаҳонгир бўлиши ёки заиф бўлиб хорликка тушиши, бахтсизлик юкини тортиши, эътибордан қолиб, ўзгаларга тобе ва кул, асир бўлиши уларнинг ота-оналаридан болаликда олган тарбияларига боғлиқ”.

Қаранг, қандай бебаҳо, олтинга тенг сўзлар!

Бугунги кунда ён-атрофимизда диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, “оммавий маданият” деган турли бало-қазоларнинг хавфи тобора кучайиб бораётганини ҳисобга оладиган бўлсак, бу сўзларнинг чуқур маъноси ва аҳамияти янада яққол аён бўлади.

Ҳақиқатан ҳам, ҳозирги вақтда ёшлар тарбияси биз учун ўз долзарблиги ва аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайдиган масала бўлиб қолмоқда”[2]

Ёшларни зарарли ғояларнинг таъсиридан ҳимоялашни тақозо этувчи шарт-шароит ва омиллар нималардан иборат бўлиши мумкин? Бизнингча, бунда қуйидаги омилларни ҳисобга олиш лозим:

- биринчидан, ёшларни ижтимоий ҳаётга нисбатан, мустақил фикр ва дунёқарашга эга бўлиш фазилатлари мустаҳкамланиши зарур;

- иккинчидан, уларда ғоя билан ғоянинг фарқи борлигини, ҳар қандай ғоя ҳам бунёдкор ва эзгу бўлавермаслигини фарқлаш маданиятини шакллантириш лозим;

- учинчидан, ёшларда миллий ғояга ишонч-эътиқодни ва ватанпарварлик туйғуларини ривожлантириш зарур.

Зарарли ғояларни фарқлайдиганлар унга тақлид қилмайдиган бўлиб воята етадилар. Бу билан мустақилликни мустаҳкамлашга, уни асраб-авайлашга ва ҳимоя қилишга асос бўладиган инсон маънавиятига, аниқ фуқаровий позитсияга эга бўлиб борадилар.

Ёшларни зарарли ғоялардан: ахборот хуружларидан, “оммавий маданият” кўринишидаги турли ахлоқсизлик иллатларидан, янгича кўринишдаги фашистик ғоялардан, тажовузкор миллатчилик, экстремизм ва айирмачилик ҳаракатларидан огоҳ этиб туриши зарур. Ёшларнинг маънавий-мафкуравий иммунитетининг юксалиб бориши ҳар хил зарарли ғояларнинг олдини олишда муҳим аҳамиятга эга. Бугунги глобал ўзгаришлар даврида бунга эътибор бериш таълим-тарбия соҳасидаги устувор вазифалардан бўлиб қолмоқда.

Маълумки, педагогика ва психология фанлари ёш авлодни тарбиялаш ва унга таълим беришнинг моҳияти ва муаммоларини ўрганувчи фанлардир. Демак, “Келажагимиз – ёшлар қўлида” деган ҳаётий ҳақиқатга асосланадиган бўлсак, Ватанимиз тараққиёти, халқимизнинг фаровон келажаги ҳам бил восита, ҳам бевосита педагогика фанларининг тараққиёти билан узвий боғлиқ эканлигига шубҳа йўқ.

Хуллас, олийжаноб халқимизнинг бош мақсади ва ҳаётий позитсиясига айланган ёрқин истиқбол, буюк келжак барпо этиш орзусининг рўёбга чиқиши бугун ўсиб келаётган ёшларимизнинг таълим ва тарбиясига, уларга таълим – тарбия бераётган ва ҳаётий тажрибаси орқали ибрат бўлаётган моҳир педагогларга, умуман олағанда, педагогика соҳаси ва фанининг келгусидаги ривожига алоқадор масаладир деган хулосага келдик.

Қисқаси, Ватанимизнинг келгуси тараққиёти, халқимизнинг фаровон келажаги бугун ўсиб келаётган навқирон ёшлар қўлида. Бугун уларга берилаётган

таълим-тарбия бу соҳада қилинаётган салбий-ҳаракатлар, бажарилаётган амалий тадбирлар юртимизнинг буюк келажагига пойдевор қўйдики, бундан барчамиз, бутун халқимиз манфаатдордир.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқидан. “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасидан. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”. “Халқ сўзи”, 2016 йил 8 декабрь.

ИНТЕРНЕТ АХБОРОТ ОҚИМИНИНГ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАР ОНГИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ

Маматмуротова Ойбек Камол ўғли

Термиз давлат университети Педагогика институти Педагогика назарияси ва тарихи (фаолият турлари бўйича) мутахассислиги магистранти

Бугунги кун ахборот оқимининг тезлиги, интегратцион жараёнлар, ўзаро ҳамкорлик алоқалари йўлга қўйилган инсоният тамаддунидаги ривожланган, илм-фан соҳасидаги юксак имкониятлар яратилаётган давр бўлмоқда. Мазкур давр технологиялари ўз ижобий томонлари билан биргаликда инсон онгига таъсир ўтказишнинг ўткир қуролига айланиб, инсон ҳаёти ва жамиятига салбий таъсирини ўтказмоқда. Хусусан, бутун дунё интернет тармоғи орқали ахборот алмашинуви ва бу жараёнда фойдаланилаётган техник қурилмаларнинг ўқувчи-ёшлар соғлиғига таъсири нафақат тиббий, шунинг билан биргаликда психологик-педагогик жихатларида ҳам ўз сифатларини намоён қилмоқда. Экспертларнинг

хулосаларига кўра ҳозир 35 ёшгача бўлган аҳолининг 60 фоизи ахборот-коммуникация технологиялари, интернет тизимидан кенг фойдаланмоқда, уларнинг энг фаол қисмини 18-24 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади[2]. Бугун дунё аҳолисининг 90% дан ортиғида ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш имконияти мавжуд. Фойдаланаётганлар сони ҳам йилдан-йилга ортиб бормоқда. Мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига кўра инсонларнинг ижтимоий тармоқда сарфлайдиган минимал вақти 3 соатни ташкил этади. Бир қарашда кишини хавотирга соладиган ҳеч нарса йўқдек[3]. Экспертларнинг хулосаларига кўра ҳозир 35 ёшгача бўлган аҳолининг 60 фоизи ахборот-коммуникация технологиялари, интернет тизимидан кенг фойдаланмоқда, уларнинг энг фаол қисмини 18-24 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади[3]. Бироқ ахборот алмашилиш жараёнида юз бераётган ҳолатлар “ҳақида Смоленски Калининград митрополити Кириллнинг ахлоқсизлик диктатураси остида инсоннинг диний миллий туйғулари ҳақоратланаётганлиги, ўйлаб топилаётган, ғарбда қонунлашаётган айрим “ҳуқуқлар” томонидан анъанавий ахлоқий қадриятларнинг бузуқлик, гомосексуалистлар намоишлари, наркотиклар савдоси ва фоҳишабозликнинг легаллаштирилиши, бир жинсли никоҳларнинг қонунийлашаётгани, жамиятнинг маънавий асосларига зарба бераётгани ҳақида ташвишли чиқишларини ҳам келтириш мумкин”[4]. Мазкур ҳолатлардан кўриниб турибдики, интернетнинг ўрни тобора кучаяётганлиги, фойдаланувчилар онгида реал воқелик ўрнини виртуал воқелик эгаллаётганлиги ва бу билан кишиларнинг фел-атворини осонлик билан дастурлаш имконияти юзага чиқаётганлиги, яъни ёшлар онги, ички дунёси ва қалбини ёт ғоялар билан тўлдириш осон ҳаракатга айланиб бормоқда.

Инсон – биосоциал мавжудоддир. Инсоннинг бирлиги бир томондан психик, туғма равишда ташкил топган хусусиятлари, иккинчи томондан эса фаолиятнинг онгли субъекти ва ижтимоий тараққиётнинг фаол иштирокчиси сифатида унинг хулқ-атвор хусусиятларида намоён бўлиши шубҳасиздир. Инсон шахсининг таркиб топиши ва психик ривожланишига таъсир этувчи омилларнинг муаммоси ўз моҳияти жиҳатидан ғоявий характерга эга ҳисобланади. Ваҳоланки, интернет тармоғида ўқувчи-ёшлар онгига тасъир қилувчи, қизиқтирувчи кўплаб

манбаларни топиш мумкин. Ушбу манба зарарли жихатларидан қуйидагиларни келтириш мумкин:

- реал мулоқотнинг йўқлиги, аксинча, виртуал ўйинлар, виртуал мулоқот;
- ахборотларнинг филтирланмаганлиги, яни ёлғон ахборотлар оқими, порнографик ва “сифатсиз” сайтлар;

шунингдек, фойдали сайтлардаги очик реклама эълонларида “сифатсиз” рекламаларнинг қўйилиши, қизиқувчан ўқувчи-ёшларнинг ушбу манба маълумотларига алданиб, ёхуд аралашиб қолиши оқибатида салбий ҳолатларни келтириб чиқармоқда. Шу ўринда Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг қуйидаги фикрларини келтириб ўтиш ўринли бўлади: – “Тўғри ҳамма нарса жойида, олам гулистон. Агар ҳаммаси жойида бўлса, тўғри йўлдан адашган ёшлар, жиноятчилик, ишсизлик қаердан пайдо бўлаяпти?”[1].

Интернет бутун дунёда фойдаланувчиларини ўз домига тортиб бормоқдаки, ушбу жараёнга ҳамоҳанг равишда ахборот хуружларининг ривож босқичи ўсиб бормоқда. Бунда эса, энди ривожланиб, усиб келаётган ўқувчи-ёшлар онги таъсирланиши, зарарланиши, эртанги жараёнлар учун тўсиқларнинг қурилишига замин яратиши шубҳасиз бўлган муҳитлар сирасига киради.

Бугунги кун ўқувчи-ёшларини маънан камол топтириш, мустақил фикр эгалари, ўзини қатъий ҳаётий эътиқод ва қарашларига эга бўлган қилиб тарбиялаш, уларни ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини янада юксалтириш асосий фазифаларимиздан бири ҳисобланади. Президентимиз Ш.Мирзиёев такидлаганларидек: – Нега деганда, биз фарзандларимизнинг онги, дунёқараши асрлар давомида синовдан ўтган, юксак маънавият хазинаси бўлган жаҳон ва адабиётимиз асосида эмас, балки қандайдир шубҳали, зарарли ахборотлар асосида шаклланишига бепарво қараб туролмаймиз.[1]

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, ёшлар маънавиятига салбий таъсир кўрсатадиган ахборот хуружларини бартараф этишга қаратилган қуйидаги таклиф ва тавсиялар берилади:

Биринчидан, аввало, глобал муаммолар ва ахборот хуружларининг ёшлар маънавиятига таъсирини ўрганишда, миллий қадриятлар ҳамда хулқ-атвор

меъёрларини, умумий қоидаларини замон талабларига мос ҳолда ишлаб чиқишга жиддий эътибор қаратишимиз зарур.

Иккинчидан, глобаллашув билан боғлиқ хавфлар ва таҳдидларнинг нафақат иқтисодий, балки ижтимоий, маънавий-мафкуравий томонларига бўлган эътиборни янада кучайтириш мақсадга мувофиқдир.

Учинчидан, мамлакатимиз ҳудудига кириб келаётган, ахборот хуружларидан ҳар доим огоҳ бўлиб, ёшлар онги ва ички дунёсида кучли мафкуравий иммунитетни шакллантириш лозим.

Тўртинчидан, ёшларни ахборот хуружлари, ҳозирги куннинг глобал муаммоларидан бири бўлиб келаётган, “Оммавий маданият” таъсиридан ҳимоя қилишда ижтимоий-гуманитар фанларнинг аҳамиятини ошириш, замонавий педагогик технологиялар асосида ёшларда миллий қадриятларга бўлган янгича муносабатни қарор топтириш керак.

Бешинчидан, ёшлар онгига салбий таъсир этадиган, миллий урф-одатларимизни, маънавий қадриятларимизни бузувчи ҳаракатларга қарши кураш механизмини ишлаб чиқиш ҳамда уни ижтимоий ҳаётга тадбиқ этиш орқали ёшлар маънавиятини янада юксалтириш зарур.

Олтинчидан, ёшларнинг ахборот-коммуникация технологиялари, интернет тармоқларидан унумли фойдаланиш тизимини, замон талабларига мос ҳолда ишлаб чиқиш ҳамда керакли маълумотларни олишларига кўмаклашиш, дунёвий илмларни эгаллашлари учун зарур шарт-шароитлар яратиб бериш керак[5].

Айни дамда интернетнинг ижобий жиҳатларини ҳам инкор этиб бўлмайди. Интернет тармоқлари таълим олиш, дам олиш ёки дўстлар билан мулоқот қилишнинг ажойиб воситасидир. Ушбу ҳолатда, қайси соҳага оид бўлишидан қатъий назар ахборот тизимининг миллий сегментида ўз ахборотларимизни сифатли ва миллий қадрият ва анъаналаримизга ҳамоҳанг тарзда кўпайтириб боришни тақозо этади. Ёшларни ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишда интернет тармоғидан фойдаланиш ўзининг самарасини бериши табиий ҳолат,

аммо масаланинг иккинчи томонини ҳам асло назардан четда қолдирмаслигимиз лозим.

Хулоса ўрнида келтириш мумкинки, бугунги даврда берилаётган ва қабул қилинаётган ахборотларнинг сифати энг муҳим, назоратни талаб қилувчи жихатлардан бири бўлиб қолмоқда. Ҳар қандай ахборот оқимининг онга таъсирини инкор этиб бўлмайди ва бунда салбий таъсирларни аввало аниқлаш, профилактикасини ўтказиш, керак бўлганда чеклаш орқали самарали натижага эришиш мумкин. Бу борада фойдаланувчилар орасида, айниқса, ўқувчи-ёшларда ахборот маданиятини шакллантириш, ахборотларни синтезлаш кўникма ва малакаларини ривожлантириш катта аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ш.М.Мирзиёев, Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 592 б. (526, 230 бетлар)

2. Е.В. Мокрушина, Воздействие политического PR на молодёжь в социальных сетях // URL:psujourn.narod.Ru/vestnik/vyp 6/moc soc.htm

3. Ҳ.И. Ражабов, “Глобаллашув шароитида ахборот таҳдидларига қарши курашишнинг замонавий технологияларини яратиш муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари Т.: “Фан ва технология” 2020 йил, Б-207.

4. Казин Ф. Идеологические уроки оранжевых технологий для России. (БРС - инфо) . 2006 йил.

5. И.Ҳ. Қўнғиров, Ш.И. Кунгирова “Глобаллашув шароитида ахборот таҳдидларига қарши курашишнинг замонавий технологияларини яратиш муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари Т: 2020 йил, Б-191.

MAKTABDA PSIXOLOGNING O`RNI

Karimova Nigora Xalilovna
Samarqand viloyati 53-maktab psixologi

Maktab o'qituvchi-psixologi - bu maktab o'quvchilari bilan shaxsiy darajada ham, jamoaviy darajada ham psixologik ish olib boradigan mutaxassis. Boshqacha qilib aytganda, bu o'qituvchi o'quvchilarning individual muammolarini aniqlay oladi va tengdoshlari yoki o'qituvchilari bilan ziddiyatni engishga yordam beradi. Bundan tashqari, pedagogik psixolog ota-onalar bilan muloqotda bo'ladi va o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlaydi, ularga murakkab pedagogik muammolarni hal qilishda yoki kasbiy charchash bilan kurashishda yordam beradi. Biroq, bu mutaxassisning asosiy e'tibori doimo bolalarga qaratilgan. Maktab psixologining vazifalariga psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya, psixopediya va psixoprofilaktika kiradi.

Psixodiagnostika tuzatishni talab qiladigan buzilishlar yoki xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. U rejalashtirilgan tarzda, shuningdek, maktabga yangi bolalar qabul qilinganda amalga oshiriladi. Bolalarni birinchi sinfga qabul qilishda psixodiagnostika ayniqsa muhimdir: bu bosqichda o'qituvchi-psixolog nafaqat psixologik muammolarni (tajovuzkorlik, tashvish, motivatsiyaning etishmasligi), balki tuzatishni talab qiladigan o'quv muammolarini, disleksiya, disgrafiya, diskalkuliya, va hokazo katta mas'uliyat yuklanadi, chunki shunga o'xshash muammolari bo'lgan bola qanchalik tez defektolog bilan ishlay boshlasa, bu qiyinchiliklarni osongina engib o'tish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Psixodiagnostika o'yinlar, treninglar, testlar, ijodiy topshiriqlar yordamida ham individual, ham guruhda amalga oshirilishi mumkin.

Psixokorreksiya - bu ketma-ket faoliyat bo'lib, uning davomida psixolog talabalarga psixodiagnostika jarayonida aniqlangan muammolar ustida ishlashga yordam beradi va o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Maslahat - bu bolalar va kattalarning hissiy holatini yaxshilash va barqarorlashtirishga yordam beradigan individual yoki guruh ishidir. Uning o'ziga xosligi shundaki, u barcha maktab o'quvchilari uchun, shu jumladan hech qanday ajoyib

psixologik muammolar yoki rivojlanish xususiyatlarini aniqlamaganlar uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Guruh maslahati muntazam ravishda dars soatlarida va boshqa tashkil etilgan tadbirlarda o'tkazilishi mumkin. Shaxsiy hayotda maktab psixologi maktabning barcha o'quvchilari va o'qituvchilariga maslahat berishi mumkin.

Psixopediya va psixoprofilaktika bolalar bilan o'sish bilan bog'liq turli tendentsiyalarning zararli ta'sirini oldini olishga qaratilgan muntazam rejalashtirilgan ishlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'qituvchi-psixolog bolalar bilan chekish, spirtli ichimliklar va gilyohvand moddalarning zarari haqida gaplashishi mumkin. Qoidaga ko'ra, o'smirlarda o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining belgilarini aniqlash, bolalar bilan jinsiy etuklikning xususiyatlari va jinsiylikning paydo bo'lishi haqida suhbatlashish va har qanday o'tkir va nozik mavzularni ko'tarish uchun eng katta vakolatga ega bo'lgan ushbu profil mutaxassisi hisoblanadi. jim turish juda qimmatga tushishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ish jihatlari har hafta maktab psixologining jadvaliga kiritilgan. Ko'pchilik yanglishishicha, pedagogik psixolog - bu qandaydir favqulodda vaziyat yuzaga kelguncha ish bilan band bo'lmagan odam. Ammo agar siz mutaxassisning siklogrammasiga qarasangiz, ish kuni ko'plab vazifalardan iborat ekanligini ko'rasiz, jumladan:

psixologik diagnostika,
turli sinf o'quvchilari bilan guruhda ishlash;
ofisda individual maslahat,
ota-onalar bilan o'quv ishlari,
uslubiy adabiyotlar va maslahatchi o'qituvchilar bilan ishlash;
hujjatlar bilan ishlash.

Uslubiy ish va hujjatlar bilan ishlash ish dasturini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Har bir o'quv yili uchun o'qituvchi-psixolog bolalarning yosh xususiyatlarini va o'zgaruvchan dunyoning ta'sirini hisobga olgan holda darslar dasturini tuzadi: bolalar gadjetlariga qaramlik, e'tiborning etishmasligi, tashvish va tajovuzkorlikning kuchayishi va boshqalar. yillik reja, o'qituvchi barcha kiritilgan ma'lumotlarni hisobga oladi va

dasturni, mavzularni, majburiy tadbirlar soni va davomiyligini va kutilgan natijani bo'yashadi.

Qoidaga ko'ra, bitta maktabda bitta maktab psixologi ishlaydi. Bunday mutaxassis yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda turli sinflar uchun dasturlarni ishlab chiqadi. Shu bilan birga, maktabda turli yosh guruhlar bilan ishlashga ixtisoslashgan bir nechta psixologlar ishlaydi: boshlang'ich maktab psixologi, o'rta maktab psixologi. Bunday holda, ish vaqti va o'qituvchi-psixologning stavkasi, albatta, qisqartiriladi.

Maktab psixologining kutilgan vazifalarni bajarish uchun qancha ish vaqti kerakligini hisoblash qiyin bo'lmasa-da, u yoki bu mutaxassisning professional hayotida darhol ishtirok etishni talab qiladigan fors-major holatlari yuzaga keladi. O'qituvchilar rejadan tashqari ota-onalar yig'ilishlariga taklif qilinadi, ota-onalar maslahat so'rashadi. Bundan tashqari, bolalar kamida bir hafta davomida psixolog yordamini talab qiladigan qiyinchiliklarni boshdan kechirishni to'xtatgandan ko'ra, dunyo tezroq qulab tushadi. Shuning uchun siklogrammani tuzishda oldindan aytib bo'lmaydigan muammolarni hal qilish uchun sarflanadigan vaqtni hisobga olish kerak.

Va, albatta, o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab rahbarlarining hissiy va psixologik salomatligi maktab psixologining samarali faoliyatiga bog'liq bo'lganligi sababli, bunday mutaxassisning o'z holatiga e'tiborli bo'lishi va muntazam ravishda nazoratdan o'tishi juda muhimdir. O'qituvchi-psixologning portfeli muntazam ravishda kasbiy sertifikatlash uchun yangilanishi kerak.

AVESTO - XALQ EPOSINING ILK NAMUNASI SIFATIDA

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O'zbek tili va
adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,
Shomurotov Hamdambek Qo'shnazar o'g'li
O'zDJTSU Futbol fakulteti 53-20 guruhi talabasi*

Annotatsiya. Maqolada xalq poetik ijodining ilk mamunasi "Avesto" kitobi haqida fikr yuritiladi. Qadimgi Xorazmda yashagan ajdodlarimiz ijodi mahsuli sifatida

ibtidoiy inson faoliyatining turli qirralarini o'z ichiga qamrab olgan, ma'naviy merosning eng qadimiy shakli sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Avesto, O'rta Osiyo, xalq eposi, mifologik qarashlar, ijod mahsuli, ma'naviy, diniy, inson kamoloti.

Аннотация. В статье рассматривается книга «Авесто», первая книга народной поэзии. Как продукт творчества наших предков, живших в древнем Хорезме, она трактуется как древнейшая форма духовного наследия, охватывающая различные стороны первобытной человеческой деятельности.

Ключевые слова: Авесто, Средняя Азия, народный эпос, мифологические представления, продукт творчества, духовное, религиозное, человеческое совершенство.

Xalq poetik ijodining dastlabki bosqichi ibtidoiy inson faoliyatining turli shakllari bilan uzviy bog'langan bo'lib, qadimiy kishilarning diniy, mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. Yaratilgan ma'naviy merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar alohida o'rin tutadi. Ular umumxalq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, xalq va millatning shakllanishi, taraqqiyoti, ma'naviy ehtiyojini qondirishda asrlar bo'yi muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Eng qadimgi folklor asarlarining yaratilishida animistik va totemistik qarashlar, turli mifologik inonchlar muhim rol o'ynagan va ular bizgacha qadimgi tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalar orqaligina yetib kelgan.

O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning o'tmish hayoti bilan bog'liq miflarning dastlabki namunalari "Avesto" kitobida berilgan. "Avesto" qadimgi Xorazmda yashagan ajdodlarimiz ijodi mahsulidir. Avval og'zaki tarzda vujudga kelgan asar yozuv madaniyati shakllangandan so'ng Zardusht tashabbusi bilan 12000 mol teriga oltin harflar bilan bitildi.

Hayot taraqqiy etib, asta-sekin miflar, xudolar, afsonaviy qahramonlar, voqea-hodisalar o'rnida ilmiy kashfiyotlar paydo bo'ldi. Jumladan, yerning dumaloq ekani, oy va quyoshning tutilishi, yer qimirlashlar zamon o'tishi bilan olimlar tomonidan ilmiy

asoslandi. Shu tariqa inson tabiat hodisalariga aralashdi. Dehqonchilik, chorvachilik sohasida hayotiy yangiliklar ro'y bera boshladi. Miflarda tasvirlangan qahramonliklar esa urf-odatlarda saqlanib qoldi. Natijada, badiiy tafakkur rivojlangani sari og'zaki ijodda mukammallik ustuvor o'ringa chiqdi.

Vaqlar o'tib "Avesto", "Kitobi Dada Qo'rqut", "O'g'uznoma" kabi asarlarning yozma nusxalari vujudga keldi. "Avesto"ning yaratilganiga yaqin uch ming yil bo'ldi. Unda Zardusht – otashparastlik dinining asosiy qonun-qoidalari aks etgan. Zardusht Mazda Ahuraga murojaat qilib, dunyo, inson, koinot, haqiqatning vujudga kelishi haqida son-sanoqsiz savollar beradi. Kitobning bugungi kundagi ahamiyati yurtimizda istiqomat qilgan ajdodlarimiz qadim zamonlarda ham mehnat, haqiqat, ozodlik, poklikka alohida hurmat bilan qaraganliklari haqida hozirgi farzandlariga xabar berishidadir. Xususan, yerga don ekish, hosil yig'ish haqida shunday deyiladi: *"Kimdakim bug'doy eksa, u Ashah (Haqiqat) ni ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi... Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan qochadilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi"*.

Agar yuqoridagi matnni zehn bilan o'qisak, inson mehnati butun yomonlik va fojialarni daf etuvchi kuch ekani aniq seziladi. Bug'doy so'zini xohlang aynan qabul qiling, xohlang mehnat orqali oilani qo'llash ma'nosida tushuning, baribir har bir shaxs o'z oilasi hayoti, kelajagi uchun o'zi harakat qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu nasihatga amal qilish insonni, qon-qarindoshlarni turli yovuzliklardan asrashi devlarning xonadondan qochishi misolida aniq ko'rsatilgan.

"Avesto"da inson qasamining ahamiyati, uning inson ekanligi bilan bog'liqlik ham ko'rsatilgan: *"Ey dunyoni yaratgan Zot! Ey Haqiqat! Qasamlarning sanog'i nechadir? Ahura Mazda javob berdi: - Mening qasamlarim oltita: Birinchi – so'z qasami; Ikkinchi*

– *qo‘l qasami; Uchinchi – qo‘y qasami; To‘rtinchi – sigir qasami; Beshinchi – odam qasami; Oltinchi – ekin qasami; eng yaxshi, eng obod, eng serhosil zamindagi ekin*”.

Bu qasamlarning tartibiga e‘tibor bering. Birinchisi – so‘z qasami. Insonning so‘zi uning ori, uyati, g‘ururi ekani qayd etilmoqda. Oxirgi qasam esa inson oilasining bahosi bilan o‘lchanmoqda. Zardusht bu qasamlarni buzish qanday jazolanishi haqida so‘raganda, Ahura Mazda javoblarini bayon etadi. Bu jazolarni o‘qiganingizda, etlar jimirlashib ketadi. Qasamning buzilishi uni bergan odam uchun o‘lim ekani aniq seziladi. Umuman, “Avesto” bilan tanishish asarning qomusiy mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ayrim parchalar xuddi bugungi kunda yozilgandek tuyiladi: “Yomon tarbiyachi o‘z ta‘limi bilan ilohiy so‘zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob qiladi”. “O‘zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi”. “Fikr, so‘z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni tanlayman”. “Yerga yaxshi va kuchli urug‘ sepmoq dunyodagi eng zarur qonun hisoblanadi”.

Hatto, kitobda aytilishicha, qarz olib, qarzini bermagan odam o‘g‘rilik qilgan kishiga tenglashtiriladi. Olovga nopok narsani tashlab yoqish qoralanadi. “Avesto” kitobida ezgulik olamini yaratuvchi Ahura Mazda bilan yomonlik olami xudosi Angra Manyu (Ahriman) qarama-qarshi qo‘yilgan. Ular o‘rtasidagi munosabatni tasvirlash davomida Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Gershasp kabi qahramonlar ishtirok etgan voqealar bayon etiladi. Xullas, “Avesto” uch ming yil muqaddam yashagan otabobolarimizning hayot tarzi qanday bo‘lganidan aniq va daliliy xabar beruvchi go‘zal tarixiy-adabiy yodgorlikdir. Uning hozirgi bizga ma‘lum bo‘lgan eng qadimgi 1324 yilda ko‘chirilgan nusxasi Kopengagen shahrida saqlanadi.

Xullas, o‘zbek mifik olamini alohida bir sirli olamga qiyoslash mumkin. Unda xalqimiz, yurtimiz, tariximiz o‘zining mukammal ramziy qiyofasini namoyon etadi. Ayni choqda o‘zbek xalqining qadim zamonlardan boy og‘zaki ijodga va mifik asarlarga ega boy xalq ekanini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida // Xalq so‘zi. – 2018. 3 noyabr. (№228)

2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. -T.: Fan, 1978;
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. – B. 43-56.
4. Mahmudov T. “Avesto” haqida (so'nggi so'z) / Avesto. - T.: Sharq NMAK, 2001. – B. 358-383.
5. “Avesto” tarixiy-adabiy yodgorlik. - T.: “Sharq NMAK”, 2001.
6. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti (qadimgi davr folklori) / O'zbek folklori ocherklari. 1-tom. - T.: Fan, 1988. – B. 25-35.
7. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. – 4-son. – B.37-45.
8. M. Jo'rayev, J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 180 bet.
9. Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – 2-son. – B.54-59
10. Boltayeva I. Xalq dostonlarida epitet tabiati. // Monografiya. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 2002-yil.

O'SMIRLIK YOSHIDA O'QISH FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI VA AQLIY TARAQQIYOT

*G'oziyeva Barno Karimjonovna
Norin tumani 41-maktab psixologi*

Psixologiyada o'smirlik yoshining xarakteristikasi haqida gap yutilganda asosan gap shaxsning axloqiy taraqqiyoti va axloqiy xarakteristikasi haqida boradi. Bu sohadagi tadqiqotlar ancha salmoqlidir. O'smirlik yoshida bilish jayayonlarining taraqqiyoti va aqliy taraqqiyotga bag'ishlangan psixologik tadqiqotlar hali bizda yetarli emas. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smirlarning psixik taraqqiyotida axloqiy sohadagi o'zgarishlar haqiqatdan asosiy va hal qiluvchi siljish hisoblanadi. Shuning uchun psixoliklarning diqqat-e'tiborlari xuddi ana shu masalaga qaratilgandir.

O'smirlik yoshiga o'tish o'quvchilarning o'qish faoliyatidagi muhim qayta o'zgarishlar bilan bog'liqdir. O'qish faoliyatining yangi va yuqoriroq bosqichi uning

mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. O'smirlik yoshining dastlabki davrida o'qish faoliyati taraqqiyotning bosqichlarida juda kata har xillikni ko'rish mumkin. Mustaqil ishni elementar darajada tashkil qila olmaydigan, nihoyatda past, quyi bosqichdan boshlab, mustaqil ishlar faqat uy vazifalarini bajarishda kuzatiladigan qator bilimlarning yangi sohalarini kuzatish mumkin.

O'smirlar o'zini tuta bilishning oqizligini darslarda topshiriqlarni tez-tez aytib berish hodisasi bilan tushuntirish mumkin. Darslarni aytib berish motivlari juda har xildir. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ular o'z taqdirlari uchun havsirashadi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'smirlarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatlarining tarkib topishida o'quv materialining g'oyaviy- ilmiy mazmuni, uning hayoti va amaliyot bilan bog'liqligini, ifoda etishning muammoli va hissiy harakterga ega bo'lishi hamda o'quvchilarga mustaqil kashfiyot quvonchini kechirish imkonini bag'ishlaydigan, ularni qidirib bilib olish faoliyatlarini tashkil qilish juda muhim rol o'ynaydi.

O'smirlarning qiziqishlari faqat anchagina keng va turli –tuman bo'lib qolmay, balki ancha chuqur va mazmundor ham bo'ladi. Katta yoshdagi o'smir o'zi qiziqqan narsalarni etarli darajada yaxshi biladi. U biro damning organlarini boshqa odamga ko'chirib o'tkazibsh hollariga shunchaki qiziqibgina qolmay, balki uning tarixiga ham qiziqadi. O'smirning qiziqishlarini o'sishi ularning kuchi bilan xarakterlanadi.

O'smirning qiziqishlari kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlariga qaraganda yetarlicha barqaror bo'ladi. Ko'pincha biz o'smirlik yoshida yuzaga kelgan qiziqishning yigitlik yoshida ham saqlanib qolganini ko'ramiz. Bu qiziqishning mazmuni chuqurlashib va boyib boradi, keyinchalik esa asosiy kasb yo'nalishiga aylanib qoladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, o'zmirlik yoshida zararli berilish va qiziqishlar ham bo'lishi mumkin. Ulardan nisbatan zararli berilishlar va qiziqishlar ham bo'lishi mumkin. Ulardan nisbatan zararsizlari televizorlarni pala-partish ko'rishi, uncha badiiy bo'lmagan adabiyotlarni o'qishi shular jumlasidandir.

O'smirlik yoshini oxiriga kelganda muayyan kasbga bo'lgan qiziqishlar tarkib topa boshlaganini ko'ramiz. Bu o'smirlardan ba'zilariga bilim yurtlarida o'qish bilan

bo'liq fikrlari ham bo'liq. O'qish faoliyati xarakteri va faoliyatining o'zgarishi, aqlning ortib borayotgan sinchkovligi o'smirdan aqliy faoliyatning ancha yuqori va uyushgan bo'lishini talab etadi. O'smir narsa va hodisalarni murakkabroq sintetik tarzda idrok qilishga qodir bo'la boradi. Unda idrokning ko'lami ortib borib, muntazam, izchil, har tamonlamali idrokka aylanadi. Garchi ko'p narsa o'smirning idrok qilayotgan ob'ektga bo'lgan munosabatiga bog'liq bolsada, u hodisalarning sirtida bo'lgan narsalarning o'zinigina idrok qila olmaydi.

O'smirlik yoshida xotira va diqqatda ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Unda belgilangan vazifalarni bajarishni ixtiyoriy tomonlarini kuchayishi bilan xarakterlanadi.

BOLALARDA PSIXOLOGIK RIVOJLANISH SHAROITLARI VA UNI HARAKATGA KELITIRUVCHI KUCHLAR

*G'oziyeva Barno Karimjonovna
Norin tumani 41-maktab psixologi*

Psixologik taraqqiyot sharoitlari va psixik taraqqiyotni harakatlarga keltiruvchi kuchlar haqidagi masalani to'g'ri hal qilishda shaxs taraqqiyotiga g'arb siyosatshunoslarining qarashlari to'g'ri keladi. Shaxsning psixik xususiyatlari ijtimoiy munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, malum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruxning namoyondasi sifatida tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoaning a'zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy harakterga egadir. Shaxsning barcha psixik xususiyatlarning, ijodiy faollikning rivojlanish manbalari uning atrofidagi ijtimoiy jamiyatdadir.

Odamning psixik xususiyatlari uning hayoti davomida, ya'ni ontogenetik tarzda yuzaga keladi. Bu xususiyatlarning tarkib topishi va rivojlanishida odamning ijtimoiy tajribasi, uning hayoti va faoliyat sharoitlari, ta'lim va tarbiya yetakchi, hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib topdiradi. Psixik ya'na rivojlanish tashqi sharoitlarga bog'liq. Lekin bu rivojlanishni bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi.

Odam faol mavjudod sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirish, yani o'zi –o'zini tarbiyalash bilan shug'illanish mumkin. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash usuli tevarak –atrofdagi muhiddan ajralgan holda bormaydi. O'z-o'zini tarbiyalash muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan faol o'zaro munosabatda sodir bo'ladi. Shuning uchun o'zini o'zi tarbiyalashda ham muhitning ta'siri ko'rinib turibdi.

Mana yuqoridagi bayon qilingan hamma fikrlardan shunday hulosaga kelish mumkinki bir xil tashqi sharoit, bir xil muhit, turli bolalarga o'smirlarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktab o'quvchisining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun ham murakkabki, psixik taraqqiyotining o'zi murakkab va qarama –qarshi o'zgarishlardan iborat usulidir. Ta'lim –tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko'p qirralidir.

Bizga ma'lumki odam tabiiy mavjudoddur. Shuning uchun odam psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik mohiyatini inobatga olishimiz kerak. Tabiiy va biologik imkoniyatlar nixoyatda zarurdir. Insonning psixik xususiyatlari to'liq bajarilishi uchun muayyan darajada biologik tuzulish, inson miyasi va inson nerv sistemasi bo'lishi shart. Insonning tabiiy xususiyatlari psixik rivojlanishining xarakterga keltiruvchi kuchlari, balki faqat dastlabki shartlaridir. Qobiliyat kurtaklarining, ya'ni nerv sistemasi va miyada ba'zi bir tug'ma fiziologik xususiyatlarning rivojlanishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitdir. Ammo bus hart-sharoitlarning mavjudligi qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlamaydi. Qobiliyatlar hayot va faoliyat sharoitlari, odamga beriladigan ta'lim va tarbiya ta'siri ostida tarkib topadi va rivojlanadi.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, psixik taraqqiyotga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi.

Tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Qobiliyat kurtaklarida tug'ma individual farqlar bo'ladi. Shu

sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishlari va shuning bilan bir paytda bir faoliyat turini egallash imkoniyat jihatidan esa ulardan o'zlik qilishlari mumkin.

MAKTABDA O'QISHNING MOHIYATI VA UNING PSIXOLOGIK QONUNIYATLARI

Bo'ranova Gulchexra O'ktamovna
Norin tumani 9-makta psixologi

Maktabning ta'lim berishdan iborat asosiy vazifasi –o'quvchilarning fan asoslarini faol, ongli, mustaxkam va sistemali ravishda egallashni ta'minlashdir. Haqiqiy o'zlashtirish – hamisha faol jarayon bo'lib, bilishga oid xilma-xil vazifalarni hal qilish bilan bog'langandir. O'zlashtirish, keng ma'noda olganda,o'quvchining uyushgan bilish faoliyatidir, bu faoliyat, idrok, xotira, tafakkur, hayol kabi qator bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ijodiy o'zlashtirish sifatida o'qish, bilim egallashga uch sabab –nimani o'qitishga,kim va qanday o'qitishga bog'liqdir. Birinchidan, o'qishning xarakteri o'zlashtirilayotgan materialga,uning mazmuniga va qanday usulda yetkazib berilayotganligiga bog'liqdir.Ikkinchidan, u o'qituvchining metodik mahoratiga va tajribasiga, uning shaxsiy xususiyatlariga, har bir ayrim holda qo'llaniladigan aniq o'qitish metodikasiga bog'liqdir. Nihoyat,o'qish jarayonini o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga ham –uning psixik rivojlanishining individual xarakteristikaga, unda o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlarga, uning qiziqish-havaslariga bog'liqdir.Boshqacha qilib aytganda, ta'lim uslubi o'quvchiga nimani va qanday qilib o'rgatishning oddiy va bir xil natijasi emas,yani sirtidan ta'sir qildiriladigan shart-sharoitlarning oqibati emas,balki o'quvchining individual –psixologik xususiyatlariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

O'qishga ijobiy munosabatda bo'lish o'quv materialini to'la-to'kis o'zlashtirishning mutlaqo zarur shartidir. Psixoliklarning o'tkazgan tadqiqotlari bunday munosabatni tarkib toptirishga quyidagi omillar yordam berishni ko'rsatdi.

O'quvchining o'qishga munosabati uning o'qishga diqqat qilishda, qiziqishida, qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida ifodalaydi.

O'quvchilarning diqqati –o'quv ishlari muvaffaqiyatli borishining zarur shartidir. Ta'lim sistemasida diqqat takomillashdi, ancha ixtiyoriy, ya'ni uyshgan, tartibga tushgan, boshqariladigan bo'lib qoladi. Diqqatsizlikning oddiy sabablari-fanga nisbatan qiziqishning yoqligi, materialni bayon qilishning quruq va noaniqligi, o'quvchilarining charchaganligidir. O'quvchilar diqqatini qo'zg'otishning asosiy vositalari xilma-xil usullarini qo'llangan holda mashg'ulotlarni dinamik tarzda olib borish, o'quvchilar faolligini oshirish, bayon qilishning jonliligi, o'quvchilarning bir faoliyatidan ikkinchisiga o'tishi, diqqatni chalg'ituvchi qo'zg'ovchilarga barham berishdan iboratdir. Albatta, diqqatni faqat uni chalg'ituvchi kuchlarga barham berish yo'li bilangina emas, balki ularga qarshi tura bilish qobiliyatini tarkib toptirish, ularni chalg'ituvchi ta'siriga qarshi kurashish yo'li bilan ham tarbiyalamoq kerak, aks holda noziklashgan, injiq diqqat -mutlaqo qulay sharoitlardahina ishlash odati vujudga keladi.

O'qishga ijobiy munosabatda bo'lishni ifodalashning ikkinchi formasi o'qishga oid qiziqishlarning mavjudligidir. Qiziqish odatda hissiy bo'yoqqa ega bo'lib, chuqur va ta'sirli tuyg'ularni kechirish bilan bog'liqdir. O'qishga oid qiziqishlar, odatda, tanlovchanlik xususiyatga ega bo'lib, ular eng kichik yoshdagi o'quvchilardagina umuman o'qishga bo'lgan qiziqish shakllanishi mumkin. O'qishga qiziqish o'quvchiga o'zi o'rganayotgan materialning ahamiyati qanchalik tushunarli ekanligiga, bu material o'quvchi qiziqishlarining o'qishdan tashqari sohasi bilan qanchalik aloqadorligiga, o'qiruvchi mavzuni qanchalik ania va tushunarli qilib bayon etishiga bog'liqdir. O'qishga qiziqishni tarbiyalaganda, maroqlilikni suiste'mol qilmaslik kerak, o'quvchilar o'zlariga bevosita qiziq bo'lgan narsanigina qilishga o'rganib qolmasliklari lozim. Ular hayotda ko'p narsalarni bevosita qiziqmasdan qilishga to'g'ri kelishini tushunib olishlari kerak. SHuning uchun o'quvchilarda fanning ahamiyatini, biror ma'lumotning hayotiy muhimligini chuqur anglash bilan belgklanadigan qiziqishlarni ham tarbiyalamoq zarur. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni tarbiyalash faol, uyushgan, aniq maqsadga muvofiq tabiyalashda juda muhimdir. O'qituvchi kuzatuvchanlikni tashkil qilar ekan,

o'quvchilar oldiga aniq va muayyan bir maqsadni qo'yadi, kuzatishni yo'lga qo'yadi. O'quvchilarga kuzatish natijalarini so'z bilan yoki ko'rgazmali shaklda qayd qilinishini o'rgatish muhim ishdir.

O'quvchining tafakkuri tahlil qilinganda, uni ikkita asosiy turi bo'lgan tafakkur haqida gapiradilar. Bular ko'rgazmali va mavhum tafakkurlardir. Genetik jihatdan ko'rgazmali tafakkur birlamchi hisoblanadi. Obrazli tafakkur asosan maktab yoshida tarkib topadi. Tafakkurning bu har ikki turi yagona bog'liq bo'lib chambarchas qo'shilib ketganligi sababli, odatda tafakkurning ko'rsatmali -obrazli va tushunchaliligi gapiriladi. O'quvchining tafakkuri bilan qabul qilingan va qayta ishlangan axborot xotirada saqlanishi mumkin. Bu esa istalgan bir paytda xotiradagi bilimlardan zarur ma'lumotlar olish va ularni qo'llash imkonini beradi. Esda olib qolish to'gridan -to'g'ri o'quvchi faoliyatining xarakteriga bog'liqdir. O'tkazilgan ko'pdan -ko'p kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, esda oli qolish biron-bir faol faoliyatda ro'y bergan vaqtdagina eng samarali bo'ladi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI DAVRDA SHAXSNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Bo'ronova Gulchexra O'ktamovna
Mingbuloq tumani 9-maktab psixolog i

Bolaning kichik maktab Yoshi 7 yoshdan 11 yoshgacha yani boshlang'ich sinflarni o'z ichiga oladi. Maktabga kirish oldidan bola, qoidaga ko'ra o'z hayotining muhim davrini boshlaydi. Bu maktabga kirishi uchun ham jismonan , ham psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi davr shaxsning taraqqiyotida hal qiluvchi siljishlar davr o'smirlik davridir, shunga qaramay, bu davrda shaxsning tarkib topishi yetarli darajada sezilarli yuz beradi. Maktabga kirish bolaning hayotida burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Kattalar va tengdoshlari bilan va pedagoglar bilan munosabat jarayoni boshlanadi. Yangi faoliyat yani o'qish faoliyati bolaga bir qator

jiddiy talablarni qo'yadi. Bularning barchasi tevarak-atrofdagi voqeilikka, boshqa kishilarga, jamoaga, ta'limga va uning bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarga, ta'limga va uning bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarga nisbatan yangicha munosabatlar sistemasini tarkib toptirishga va mustaxkamlashga qat'iy ravishda ta'sir qiladi, harakterni, irodaning tarkib toptiradi, qiziqishlar doirasini kengaytiradi, qobiliyatlar taraqqiyotini belgilaydi.

Kichik maktab yoshidagi davrda axloqiy xatti-harakat poydevori qo'yiladi, axloqiy normalar va xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari 1 sinfdan 4sinfgacha bo'lgan davr mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy bilimlar, tasavvurlar va mulohazalari o'z hatti-harakatkari tajribasiga va o'qituvchilar hamda ota-onalarning aniq ko'rsatmalari va tushuntirishlariga asoslanadi va kattalarning ko'rsatmalariga asoslanish bilan birga, boshqa kishilarning tajribalarini ham analiz qilishga intiladilar. Axloqiy hatti-harakatlar ham xuddi shunday tarkib topadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda namoyon bo'ladigan xarakterologik xatti – harakatlarni hamma vaqt ham munosabatlar amalga oshiriladigan barqaror va mustahkam xatti-harakat formalari deb bo'lavermaydi.

Kichik maktab yoshidagi davr katta imkoniyatlarga egadir. Kichik maktab yoshidagi bola bir necha yil davomida to'g'ri tashkil qilingan tarbiya tufayli o'zining jamoaviydagi bundan keying taraqqiyotida muhim bo'lgan va jamoaviy uchun zarur bo'lgan faoliyat tajribasini to'playdi. Umumiy sifatlarning tarkib topishi –sekin asta amlga oshiladigan uslubdir. Sinfda birgalikda qilinadigan ishlar o'z-o'zicha bolalar gurusini jamoaviy qilib qo'ymaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni takidlash joizki, har qanday mehnat ham shaxshda ijtimoiy jihatdan qimmatli xislatlarni tarbiyalavermaydi. Mehnat o'z shaxsiy manfaati uchun bajonu dil va ko'p mehnat qilish haqidagi fikr butunlay yoddir. Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'illanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r etibor berish kerak. Kichik maktab

yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan va o'z kuchlariga loyiq keladigan ijtimoiy –foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. Bu narsayana shuning uchun muhimdirki, birinchi sinf o'quvchilarining mehnat faoliyatlarida shaxsiy motivlar aniq namoyon bo'ladi.

Bolalar oz' mehnatlari bilan tevarak-atrofdagi boshqa odamlarga foyda keltirishlarini sekin-asta anglay boshlaydilar . Bu esa bolalarda g'ururlik, shodlik va o'z ishidan mamnun bo'lish tuyg'ularni mustahkamlash kerak ham. Shunday qilib, kichik maktab yoshida ta'limning ta'siri bilan bolalarning psixik rivojlanishlarida jiddiy siljishlar yuzaga keladi. Bu ularni hayotlarining mas'uliyatli davri bo'lmish bu'rilishiga, ya'ni o'smirlik davriga o'tish tayyorlaydi.

Maktab ta'limining dastlabki yillarda qiziqishlar, xususan bilishga bo'lgan qiziqish,tevarak –atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish, ko'proq bilishga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquvchanlik juda sezilarli ravishda rivojlanadi. Psixoliklarninhg ta'kidlashlariga ko'ra, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar rivojlanadi. O'qish masalasining rivojlanishi bilan kitob o'qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval umuman kitob o'qishga, undan so'ng esa mazmuni o'tkir va qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, bundan ham so'ngroq –qiyin bo'lmagan ilmiy va sarguzashlar haqidagi kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi davrda bolalar badiiy- estetik rivojlanishning katta imkoniyatlariga egadirlar. Bolalar odatda rasm chizishga, loy yoki plastilindan narsa yasash ishlariga, ashula aytish va muzikaga juda qiziqadilar. Bunday faoliyatni to'g'ri tashkil qilish, bir tomondan, bolalarad estetik hislarning rivojlanishiga yordam beradi. Shaxs iifatida rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxsning rivojlanishida qiziqishlarning ham o'rni kattadir. Maktabning dastlabki yillarida bilishga bo'lgan qiziqish, ko'proq bilishga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquvchalik juda sezilarli darajada rivojlanadi.

MULTIMEDIANI TA'LIMDA QO'LLASHNING ASOSIY AFZALLIKLARI

*Muydinova Madina Alisherovna
Andijan davlat universiteti katta o'qituvchisi,*

*Qosimjonova Xamidaxon Botirjon qizi
Andijon davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti 3-bosqich talabasi,*

*Isaqova Xabiraxon Islombek qizi
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti Fizika va astronomiya
o'qitish metodikasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi,*

*Hudoyberdiyeva Huvaydo Hayrullo qizi
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti Fizika va astronomiya
o'qitish metodikasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llashning afzalliklari haqida yoritilgan. Bundan tashqari multimedia vositalarini xususiyatlari, maqsadlari va Meyer bo'yicha multimedianing samaraliligi tamoyillari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, multimedia resurslari, kompyuter vositalari, multimedia injiniringi, ma'lumotlar ombori.

Zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Hozirda rivojlanib borayotgan multimedia texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatida yetakchi o'rin egallamoqda. Bugungi kunda ilg'or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish taqozo etilmoqda. Hozirgi davrda ko'plab kompaniya va firmalarda seminarlar, uchrashuvlar, treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun turli kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Ma'lumot mazmunga boy, esda qoladigan va ko'rgazmali bo'lishi uchun ko'proq multimedia texnologiyalari ishlatiladi.

Multimedia – bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir

va fazoviy modellashirish kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi.

Multimedia texnologiyalariga qiziqish amerikalik kompyuter mutaxassisi biznesmen Bill Geytsning nomi bilan bog'liq. 80 yillarga kelib u ("National Art Gallery. London") nomli dasturiy mahsulotni yaratgan. Bu multimedia dasturida muzeyning ma'lumot omborlaridan foydalanilgan. Bunda turli muhitlardan – tasvir, tovush, animatsiya, gipermatn tizimi namoyon qilingan [1]. Aynan mana shu multimedia dasturi o'z ichiga multimedialarning uchta asosiy tamoyilini qamrab olgan. - Axborotni odam qabul qila oladigan bir nechta muhit yordamida tasvirlash. (multi ko'p va media - muhit);

- Foydalanuvchi tomonidan - mustaqil qidiruv asosida dastur chegaralaridan chiqib ketmagan holda, o'zining mustaqil usullarini qo'llash;

- Navigatsiya vositalari va interfeys dizaynidan foydalanish.

Multimedia injiniringi – bu multimedial dasturiy mahsulotning interfeysi va imkoniyatlarini foydalanuvchi talabidan kelib chiqqan holda aniqlash jarayoniga aytiladi. Multimedia injiniringi bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, video va audio. Multimedialarning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. Multimedia texnologiyalarining asosiy maqsadi – tovush, video, animatsiya va boshqa vizual effektlar bilan ta'minlangan dasturiy vositalarni yaratishdan iboratdir [2]. Bunda multimedia dasturiy mahsulotlari o'z ichiga interfaol interfeys va boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi. Undan tashqari multimedia texnologiyasidan foydalanuvchi o'zi dizayn bilan shug'ullana olishiga imkon beradi, shuningdek statik (xarakatsiz) va dinamik (xarakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o'z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muxitga tarqatishi mumkin. Multimedia texnologiyalarining asosiy afzalliklari va xususiyatlariga quyidagilar tegishli:

- bitta axborot tashuvchisida katta xajmli turli ma'lumotlarni saqlash imkoniyati (20 ta tomga yaqin matnlar, 2000 va undan xam ko'p yuqori sifatli tasvirlar, 30 – 45 minutli videoyozuvlar, 7 soatga teng tovush ma'lumotlari);

- ekranda tasvirni yoki uning ayrim fragmentlarini kattalashtirish imkoniyati. (rejim - lupa). Tasvirni sifatini saqlab qolgan holda 20 marotabagacha kattalashtirish mumkin. Bu imkoniyatdan tarixiy xujjatlar va sanʼat asarlarini taqdimotidan foydalanish mumkin;

- tasvirlarni taqqoslash va turli dasturiy vositalar yordamida ularni qayta ishlash;
- film va videotasmalardagi videofragmentlardan va effektlaridan foydalanish;
- maʼlumotlar omborini disk mundarijasiga kiritish, obrazlarning qayta ishlash usullari va animatsiya imkoniyatlari;

- Internet tarmogʻiga ulanish imkoniyati;
- turli matn, grafika va tovush muharrirlari va kartografik maʼlumotlar bilan ishlash imkoniyatlari;

- avtomatik ravishda dasturiy mahsulotning umumiy mundarijasini koʻrib chiqish (slyd-shou) yoki animatsiya va tovush bilan taʼminlangan yoʻlboshlovchi, yaʼni gidni yaratish;

Hozirgi vaqtda multimedia texnologiyalari inson faoliyatining biznes, taʼlim, tibbiyot va boshqa shu singari turli sohalarida qoʻllanilishini koʻrish mumkin. Ushbu faoliyat yoʻnalishlarida multimedia mahsulotlarini yaratish uchun keng koʻlamdagi dasturiy mahsulotlar mavjud. Ulardan baʼzilar multimedaning alohida komponentlari bilan ishlashga moʻljallangan. Multimedia texnologiyalaridan oddiy foydalanuvchilar koʻplab maqsadlarda foydalanishi mumkin. Ular quyidagicha:

- Oʻqitish dasturlarida – bunda oʻqitish jarayonida turli rasmlar animatsiyalar, elektron darslik, elektron kitob va elektron oʻquv qoʻllanmalar boʻlishi mumkin.

- Ensiklopediyalar – bu biror–bir atamani yoki ilovani tushuntirishda turli multimedia ilovalarini qoʻllash.

- Maʼlumotnomalar – berilayotgan maʼlumotni turli shaklda keltirish va tushinishni osonlashtirish.

- Grafik paketlar – turli grafik ilovalar ustida ishlash imkoniyatini beruvchi dasturlar.

- Musiqa tahrirlovchilar – musiqa fayllari ustida turli amallar bajarish [3].

Talab darajasida to'g'ri ishlab chiqilgan multimedia mahsulotlari matnli axborotga qaraganda birmuncha ilg'or usul bo'lib, o'quvchilarda aniq va samarali mental model (tasavvur) shakllanishiga yordam beradi. O'tkazilgan kompleks tadqiqot natijalariga ko'ra (Shephard – Shepard) to'g'ri ishlab chiqilgan multimedia mahsulotlari bir qancha afzalliklarga ega: 1. Muqobil istiqbollar; 2. Faol ishtirok; 3. Tezkor ta'lim olish; 4. Bilimlarni xotirada saqlash va qo'llay olish; 5. Muammolarni yechish va qaror qabul qilish ko'nikmalari; 6. Tizimli ravishda tushuna boorish; 7. Yuqori darajadagi tafakkur; 8. Mustaqillik va e'tiborlilik; 9. Axborotlar ketma-ketligi va tezligini (temp) boshqarish; 10. Qo'llab-quvvatlash axborotlaridan foydalanish imkoniyatlari [4].

Multimedia materiallarining potensial afzalliklari haqida Meyer (Mayer) ham aytib o'tgan. Tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko'ra multimedyaning ma'lum ustunligi mavjud. Ushbu ikkita axborotni qabul qilish kanallarining bir-biridan keskin farq qilishiga qaramasdan, ularning multimediadagi kombinatsiyasi juda ham muvaffaqiyatli chiqqan, chunki bunda ikkala tizimning ham afzalliklaridan samarali foydalaniladi. Matn va grafika o'rtasidagi aloqalar mavzuni chuqurroq tushunishga va mental model (tasavvur)ning yaxshiroq shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta'kidlash mumkinki, multimedia resurslari ta'lim jarayoniga juda ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin ushbu resurslarni yaratishga e'tibor bilan yondashish zarur. Ta'lim jarayonida multimedia qanday ishlaydi? Samarali ishlab chiqilgan ta'lim muhiti (shu jumladan, multimediali ta'lim muhiti) quyidagi 4 ta elementni o'z ichiga qamrab oladi: 1. Axborotlarni aks ettirish; 2. Ishni nimadan boshlash va qanday davom ettirish bo'yicha qo'llanma; 3. Tushunish va xotirada saqlab qolish uchun mashqlar; 4. O'tilganlarni takrorlash yoki keyingi bosqich (qadam)ga o'tish zarurligini aniqlash uchun o'zini baholash [5].

Meyer bo'yicha multimedyaning samaraliligi tamoyillari. Mutimediali taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Multimediali taqdimot matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktir jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika

tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaoligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot Sizning saytingiz kaliti ham bo'lishi mumkin. Ya'ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo'lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko'rib, kompaniya saytidan eng yangi ma'lumotni olish mumkin. Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi [6]. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Миллий иқтисодиётда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг стратегик аҳамияти. Тошкент, www.UzA.uz, УзМАО – Ўзбекистон Миллий Ахборот Агентлиги «Электрон журнали», УзМАО Ахборотномаси, 2019 йил октябрь;

[2]. - www.infocom.uz

[3]. Mamarajabov M.E., Tursunov S Q. Kompvuter grafikasi va web-di/.ayn. T. Cho'lpon. 374-b. 2013 yil;

[4]. S.Q.Tursunov, I.U.Nazarov T aiimd a axborot texnologiyalari. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. T.: "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2019-yil;

[5]. - www.tuit.uz (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rasmiy sayti);

[6]. T.Rixsiboyev. X.Rixsiboyeva, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi. Darslik. Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2018-yil;

ШАХС КРЕАТИВЛИГИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚИ

Бўриева Зебинисо Кахрамоновна

Термиз Давлат Университети Психология йуналиши 2-боскич магистранти

Жамиятдаги барча корхона, ташкилотларда инновацион ҳамда креатив фикрлашга зарурат туғдирадиган глобал муаммоларни ҳал қилиш учун инновацион билим ва яратувчанлик қобилиятига тобора эҳтиёж сезилмоқда.

Креатив фикрлаш – бу инновацион (янги, новатор, оригинал, ностандарт, ноодатий ва ҳоказо...) ва самарали (амалий, натижавий, тежамли, оптимал ва ҳоказо) ечимларни топиш, янги билимларни эгаллаш, тасаввурни таъсирчан ифодалашга қаратилган ғояларни ишлаб чиқиш, баҳолаш ва такомиллаштириш жараёнида самарали иштирок этиш қобилиятидир.

Креатив фикрлаш бизга муаммоларни ҳал қилишда ноодатий ечим топишга ёрдам беради. Бироқ биз уни танқидий фикрлаш билан адаштириб юбормаслигимиз, аксинча бизга имконсиз муаммоларни ҳал қилишда бир-бирини тўлдириб турувчи ечимларни топишда ёрдам берадиган “ака-укалар”дек қарашимиз керак.

Креативлик (лот., инг. «create» - яратиш, «creative» яратувчи, ижодкор) - индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрлигини тавсифловчи ҳамда мустақил омил сифатида иктидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти маъносини ифодалайди. Шахс креативлигини ўрганиш ва ривожлантириш педагогикада ҳар қандай дарснинг мақсади яъни, ривожлантирувчи мақсади жиҳатидан ёндашиб талқин этилади.

Бир қарашда таълим жараёнини креатив ғоялар асосида ташкил этиш ўқув дастурида белгиланган талаблардан четга чиқишдек тасаввур қолдиради. Бироқ креативлик ижодий ёндашиш ўқув машғулотларини мавжуд Давлат таълим стандартлари (ДТС) га мослаштириш, қолаверса, ўқитувчилардан ўқитиш жараёнига нисбатан креатив, ижодий ёндашувни таъминлашга хизмат қиладиган метод, усул ва воситалар машғулотларни методик жиҳатдан самарали, тўғри олиб борилишини таъминлайди.

Шахсда креатив фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш учун, энг аввало, уларда танқидий фикрлаш малакаларини шакллантириш талаб этилади. Киши олдида саволнинг «Агарда ...?» деб қўйилиши топшириқларни бажариш жараёнида уларнинг ҳам объектив, ҳам субъектив фикрлаш кўникмаларини самарали ўзлаштиришларини таъминлайди. Креативлик шахсда «нафақат янги ғояларни илгари суришини тақозо этиши, балки исталган масалалари бўйича қарорлар қабул қилиш, таҳлил этиш кўникмаларини ҳам шакллантира олиши лозим.

Креативлик жараёни бошланғич ғояларни ишлаб чиқиш, уларни тадқиқ қилиш ва таҳлил этиш, зарур бўлса улардан воз кечишни ҳам ўз ичига олади. Айни ўринда шуни ҳам айтиб ўтиш жоизки, креатив ёндашув фақат таълим олиш, фикрлашни ривожлантириш, ўқув фанлари асосларини ўзлаштиришга нисбатан қизиқиши сусайган ўқувчилар билан ишлаш мақсадида эмас, балки барча шахс билан жонли, қизиқарли, жўшқин мулоқотга киришиш, уларни фаолликка ундаш, шахсий, жамоавий, ижтимоий психологик муаммоларни ҳал этиш учун ҳам қўлланилади.

Психологияда муаммоларни мустақил равишда ҳал эта оладиган, интеллектуал ва шахсий хусусиятлар тизими, ўзига хос ғоялар авлоди креативлик тушунчаси билан белгиланади. Исталган онгли, фикрлаш қобилиятига эга бўлган кишида махсус тайёргарлик орқали креативликни ривожлантириш мумкин. Ижодий қобилиятлар ўқув жараёнида алоҳида ривожланиш объекти бўлишига қарамадан, психология фанида ўқув жараёнида креативликнинг ривожланиши жуда кам ўрганилган, ижодкорлик ривожланишига таъсир этувчи омиллар етарлича ўрганилмаган. Экспериментал тадқиқотлар шуни кўрсатадики, шахсга боғлиқ ҳолда интеллектуал функцияларни ривожлантиришга қаратилган машқлар креативликни шакллантиришга ўз ҳиссасини қўшади.

Креативлик деганда, шахснинг ўзига хос ғояларни яратиш ва инновацион қарорлар қабул қилиш қобилиятини чуқур англаш жараёни тушунилади. Бугунги кунда инсон ҳаёти ва фаолиятига қўйиладиган асосий талаб маълум чегаралардан чиқиб кетадиган, ностандарт қарорлар қабул қила оладиган, янгилик билан

ажралиб турадиган махсулотларни яратадиган ижодий шахсни ривожлантириш эканлиги билан боғлиқ. Креативликни тавсифлашда психологлар қобилият муаммосига ишора қиладилар ва кўпинча креативликни умумий ижодий қобилият, билимларни ўзгартириш жараёни деб билишади. Бундан ташқари, улар креативлик ҳаёлот ривожланиши ва гипотезаларни шакллантириш билан боғлиқ деб таъкидлашади.

Креатив фикрлаш тимсоллар ва ғояларда, инсон ўз тушунчаларини илгари суриш ва ўтмишдошлар тажрибасини умумлаштириш қобилиятида намоён бўлади. Фактларни таҳлил қилиш, воқеалар ривожини кузатиш, тадқиқот мавзуси билан боғлиқ бўлган билимларни ўзаро боғлаш ва ижодий фаразни ўз ичига олади."

Инсонда бирон бир янгилик пайдо бўлишига олиб келадиган ҳар қандай ҳаракат ижод деб аталади. Яратилган нарса моддий, аклий ёки хиссий конструкция бўладими бундан қатъий назар, фақат шу инсонгагина тегишли ижодий махсулот ҳисобланади.

Иккинчи йўналиш Жонсоннинг сўзларига кўра, кутилмаган, ўз-ўзидан амалга оширадиган самарали ҳаракат сифатида, ўзига ишонган ҳолда, ижрочи томонидан ижтимоий муносабатларнинг маълум бир муҳитида кузатилиши мумкин бўлган хатти-ҳаракатлар орқали креативлик намоён бўлади.

Креативлик ижодий жараёнлар инсонларда жуда эрта болалик давларидан бошлаб намоён булади. Ривожланиш психологияси ва педагогик психологиянинг муҳим соҳаларидан бири бу болаларда креативлик хусусиятларини ривожлантириш ва уни боланинг умумий ривожланиши учун аҳамиятини тадқиқ этиш ҳисобланади.

Болалардаги ижодий жараёнларни уларнинг ўйинида кузатишимиз мумкин. Ўйин фаолияти жараёнида бола таёқ миниб, ўзини от миниб юргандек хис қилади. Кичкина қиз қўғирчоқ билан ўйнаб, унинг онаси эканлигини тасаввур қилади. Ўйин ичида бола қароқчи, аскар ёки денгизчи бўлади, бу жараёнларнинг ҳаммаси энг ҳақиқий, чинакам креативликнинг намунасидир. Болалар ўйин орқали катталарга тақлид қилади. Лекин болалар ўйинлари - бу шунчаки такрорлаш эмас,

улар катталарнинг нима қилаётганини кўради ва эшитади, аммо бу ҳаракатларни ўз таассуротларидан келиб чиқиб ижодий элементлар билан бойитадилар.

Д.Лонг ва Р.Хендерсон ижтимоий рад этиш ва ноконформизм юқори креативликни намоён этувчи болаларнинг ўз-ўзини баҳолашига салбий таъсир кўрсатишини таъкидлаганлар. Бу каби болалар ўзларини бахтсиз деб билишади ва проектив тестларда улар ўзларини оила аъзолари, дўстларидан четда тасвирлашади. Демак креативликка хос четлашишлар шахсда ўзига хос нуқсонларни, психологик оғишларни келтириб чиқиши мумкин.

Э.Торренс шундай деб ёзган эди: "Юқори даражадаги креатив фикрловчи болалар гуруҳда ёлғиз ишлашади, гуруҳ лидерини тан олишмайди ва раҳбарлик қилишни хохламайдилар. Ҳукумат мукофотлари билан буюк олимларни эмас, балки раҳбарлар тақдирланади."

Мактаб амалиётида креатив фикрловчи болаларни аниқлаш алоҳида аҳамиятга эга, чунки бу болалар ўзларининг имкониятларини руёбга чиқариш учун алоҳида ажралиб турадиган ўқув услубига муҳтож. Бундан ташқари, тест экспериментал ўқув дастурларини нафақат ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланишига кўмак берадиган, балки ижодий фикрлашни ривожлантирадиган ва шахснинг ижодий имкониятини амалга оширишга имкон берадиган дастурларни ҳам ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Юқори даражада креатив болалар қуйидаги хусусиятларни намоён этишлари кузатилади:

- воқеаларни эрта болаликдан эслаш қобилияти,
- ўзларининг "мен"ини чуқур англаш,
- ҳазил туйғуси,
- ҳавотирланиш ва нотекис ривожланиш.

Нотекис ривожланиш турли кўринишларда билан намоён бўлиши мумкин.

Ижодий қобилиятли болалар ғайритабиий, ҳаёлий жавобларни намоён этдилар, кўпинча ўзларининг расмларини жонлантирдилар. Рангли расмларнинг кўплиги ташқи муҳит таъсирига чуқур ҳиссий муносабат тенденциясини намоён этади.

Креатив фикрловчи болалар ноаниқлик номутаносибликларга осонликча дош берадилар ва ноаниқ вазифаларни яхши уддалайдилар. Креатив фикрловчи болаларнинг расмлари ва бошқа асарлари юқори даражадаги ўзига хослик қувноқилик ва мустақиллик билан ажралиб туради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Акимова М.К. Способности и одаренность: учеб. пособие. - М.: Международная педагогическая академия, 1995.
2. Шульга Е.Н. Философия креативности: важнейшие вехи изучения творчества // Философия творчества. Ежегодник. М., 2016. Вўп. 2..
3. Nishonova Z., Asomuddinova Sh-Psixologik maslahat. - Toshkent-2010 yil, o'quv qo'llanma.
4. Maxsudova M.A-Muloqot psixologiyasi-Toshkent.2006 yil.o'quv qo'llanma.
5. Адизова Т.М-Психокоррекция.Тошкент-2006 йил. ўқув қўлланма.
6. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления // <https://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-diagnostics-tvorcheskogomyshleniya>.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR PSIXOLOGIIYASI

Shomurodova Feruza
Xorazm viloyati Yangiariq tumani 10-maktab psixologi

Bolalarning kichik maktab yoshidagi davri 7 yoshidan 11 yoshgacha boshlang'ich sinflarda o'qishi yillariga to'g'ri keladi. Bog'cha yoshidagi bolalik davri tugadi. Maktabga kelish oldidin bola quyidagiga ko'ra o'z hayotini eng muhim davriga ya'ni maktab davriga tomonida qo'yiladigan turli tuman talablarni bajarishga boshqacha qilib aytganda ta'lim olishga xali jismoniy ham psixologik jihatidan tayyor bo'ladi. Bola rasm chizish mashg'ulotlarida melg' yoki plastinkadan narsa yasash ishlarida va eng oddiy ko'rish yasash mashg'ulotlarida yaqqol namayon bo'ladi. Bola o'z diqqatini boshqarishda o'z diqqatini mustaqil tashkil qilishida bir muncha tajriba xosil qilgan

bo'ladi. 7 yosh bolaning so'z xonasi ham yetarli darajada boy va mavhum tushunchalar miqdori ancha yuksak bo'ladi. Bola eshitganlarini yetarli darajda keng tushunadi. Mutaxxassislarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha yaxshi tashkil qilingan ta'lim 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantiradi. Ular sodda mashqlar va masalalarni tuza oladigan hamda yecha oladigan bo'ladilar. Ularda burch hissi va javobgarlik hissi endigina namayon bo'la boshlaydi. 7 yoshli bola o'z hissiyotlarini boshqarish tajribasini ega bo'larningt hammasi maktab ta'limiga tayyorgarligi muhim shartlaridan biri yuqorida aytganlarining hammasi bolaning maktab psixologiyasi jihatidan tayyor ekanligi obhektiv tamoyillarga maquldir. Boshlang'ich sinflarda pedagog ishlarni tashqil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik fiziologik xususiyatlarini ijtimoiy taraqqiyot darajasini ham hisobga olish lozim.

D.N. Levitov to'g'ri qayd qilib o'tganidek xech bir maktab yoshida salomatlik xolatiga va ijtimoiy taraqqiyotiga kichik maktab yoshidagi maxkam bog'liq bo'lmaydi. Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizmning tiniqligi o'pkasining hayotiy xajmi ancha tekis va propalg'tsional rivojlanadi

Psixolog L.S.Slavinaning ko'rsatishicha boshlangich sinfda bilish faolligi yetarli darajada bo'lmagan bolalar uchrashi mumkin.

Bunday bolalar intiluvchan jihatidan normal rivojlangan bo'ladilar. Bu rivojlanish ularning o'yin va amaliy faoliyatlarida namayon bo'ladi. Faol fikr qilish ular uchun xarakterlidir. Bunday o'quvchilariga o'qituvchida aloxida diqqat bilan qarashi kerak. Ularning fikr qilishi faoliyatiga odatlantirib ularni yutuqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi dastlabki paytlarda o'quv vazifalarini bajarishni o'yin va amaliy faoliyatni bilan bog'lab olib borish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlarini, arifmetika, ona-tili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta xajmda bilimni ortirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaningsh bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi. Uchinchidan bilim jarayonlarininng taraqqiyoti, aqliy rivojlanish yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun

qobiliyat tarkib topadi va nixoyat o'qishga bo'lgan yo'nalish o'qishga nisbatan maxsuliyatli munosabat o'qishni yuksak omillarini topishi kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlarini va ularning faoliyatida taraqqiy etishini harakterlab beramiz.

Idrok. Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik bilan farq qiladi.

Diqqat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Kichik maktab yoshida diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ta'limining ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va mahnosiga tushunib esda olib qolishning rolg'g'i va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasining faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qaraganda konkret ma'lumotlarni, voqeliklarni, qiyofalarni narsalarni va faktlarni yaxshi tez esda olib qoladigan va xotiralarida mustahkam saqlaydilar.

Hayol. Hayol muhim psixik bilish jarayonlaridan biridir. Hayolning faoliyatsiz o'qituvchi gapirayotgan va darslarda yozilgan narsalarning tassavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishlashni bilmay turib, xech qanday o'quv predmetni chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining hayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. SHuning bilan bir qatorda bevosita taxsurotlar (mo'zey, vistavkalarining borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borishh, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham hayolni rivojlantiradi.

O'SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Shomurodova Feruza

Xorazm viloyati Yangiariq tumani 10- son maktab amaliyotchi psixologi

Ushbu maqolada o'smirlik davrida psixik hayot sohasida bo'ladigan o'zgarishlar, bola psixikasining rivojlanish xususiyatlari, o'smirlik davrining asosiy muammolari va ushbu davrda bola bilan munosabatlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» — ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.

O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga ta'luqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. Shu sababli o'smirlik davri **«o'tish davri», »krizis davr», «qiyin davr»** kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni *“psixik rivojlanishdagi krizis»* deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar

o'smirlik yoshini ikki xil davrga — kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini "bola"lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamoqchidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi.

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya — qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar.

O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin.

Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi.

O'smirlar haddan tashqari g'ayratli va besaramjon bo'ladilar, ular uchun bekorchilik juda og'ir, bir xil tarzda ishlaridan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo'yadilar, bu esa ularning ta'lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Xulq-atvordagi og'ish muammosi markaziy psixologik va pedagogik muammolardan biridir. Axir, agar yosh avlodni tarbiyalashda hech qanday qiyinchiliklar bo'lmaganida, jamiyatning rivojlanish va ta'lim psixologiyasiga, pedagogikaga va xususiy metodlarga bo'lgan ehtiyoj shunchaki yo'q bo'lib ketar edi.

O'smirlik — bu insoniyat rivojlanishining eng qiyin davrlaridan biri. Nisbatan qisqa muddat bo'lishiga qaramay, deyarli ko'p jihatdan insonning kelajakdagi hayotini belgilaydi. O'smirlik davrida xarakterning shakllanishi va shaxsiyatning boshqa poydevorlari asosan shakllanadi.

O'smirlik davrida aqliy rivojlanishning umumiy xususiyatlari:

1. Hayotning murakkablashishi.
2. Mustaqillikni tasdiqlaydi.
3. Ichki pozitsiyalarni o'zgartirish, kelajakka munosabatni o'zgartirish.
4. Professional o'zini o'zi aniqlash vazifasi.
5. Mustaqil hayotning «ostonasi».

— hayot rejalarining paydo bo'lishi;

— hayotning barcha sohalariga kirib boorish;

Yetakchi faoliyat:

— o'quv va professional kasb;

— professional o'zini o'zi belgilash;

Shu vaqtgacha odobli, dilkash bo'lgan o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar o'qituvchi yoki ota-onalarni qattiq tashvishga soladi, munosabatlarini o'zgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch— uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik

kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish bilan asta– sekin yo'qotish mumkin.

O'smirlar uchun chegaralarni belgilang. O'smirlik davrida mustaqillik va mustaqillikka erishish istagi ko'pincha jamiyatda va oilada mavjud bo'lgan qonunlarni buzish orqali amalga oshiriladi. Buning oldini olish uchun aniq aniq, adolatli va ikkala tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lgan chegaralarni belgilash kerak.

Hissiy suhbatni talab qilmang!!!

Vahti-vahti bilan har birimiz o'zimiz bilan yolg'iz bo'lishimiz kerak. Yoshlar bundan mustasno emas. Shuning uchun, agar siz bolaning xatti-harakatlarida o'zgarishlarni sezsangiz, giyohvandlik bilan so'roq qilishni tashkil qilishdan tashqari, siz ularga o'zingizning muloqotingizni yuklamasligingiz kerak.

O'smirni kattalar muammolarini hal qilishga jalb qiling

Kattalarning keng tarqalgan xatolaridan biri shundaki, biz bolalar kattalar muammolarini hal qila olmaymiz deb hisoblaymiz.

Kuni kecha beozorgina, yuvoshgina bo'lib yurgan, qalb kechinmalari bilan o'rtoqlashgan bolaning birzumda tutoqib, asabiylashib ketishi, gapga quloq solmasligi, qo'pollik bilan javob berishining sababi nimada deb o'ylanib qoladi, gohida ota-onalar. To'g'ri, o'smirlar ba'zida muammo tug'dirishi mumkin, ammo mazkur davrdagi o'zgarishlar sizni xayratga solmasin. Axir farzandingiz, ba'zilar uchun unchalik oson bo'lmagan o'smirlik davrini boshdan kechiryapti. Bunday paytda gormonal o'zgarishlar sodir bo'lib, bolaning xatti-harakatlarida aks etadi. U o'ta ta'sirchan, asabiy bo'lib, ba'zan halovati yo'qdek ko'rinadi. O'smirlar ko'pincha javobsiz muhabbat, ota-ona yoki tengqurlari bilan kelishmovchiliklar, kelajak oldida qo'rquv hamda yolg'izlikdan aziyat chekishadi. To'g'ri, o'smirlik davrida hamma bolalarda ham bu kabi muammolar kuzatilmaydi, biroq organizmdagi o'zgarishlar vaqti-vaqti bilan o'zini namoyon etadi. Bizning vazifamiz bunday muhim damda, o'smir bolalar bilan til topishish uchun sabr-toqat kilishimizga to'g'ri keladi. Avvalambor, do'stona munosabatlarni o'rnatib, ko'proq muloqotda bo'lish nihoyatda muhim. . Shuning uchun o'z bolajoningiz uchun vaqt ajratib, ko'proq oilaviy yig'ilishlar uyushtiring. Ertalab maktabga kuzatayotganda, birgalikda nonushta qila turib, uning hayotiga qiziqishingizni bildirishingiz mumkin.

Uning mashg'ulotlari, qiziqishlari, tanish-bilishlari, nizolari haqida so'rab-surishtirishingiz ayni muddaodir. Siz doimo hammasidan xabardor bo'lib turishingiz kerak.

Farzand o'stirayotgan har bir ota-ona bolaning o'smirlik davri haqida ko'plab ma'lumotlarni eshitgan bo'lsa ajab emas. Ehtimol, quloqqa chalingan har qanday voqea-hodisalar sizni xavotirga solgandir, ammo ana shu davr borasidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lsangiz, xavotirga aslo o'rin yo'q.

ТАРБИЯСИ ҚИЙИН ЎҚУВЧИЛАРНИ ДИАГНОСТИКА ҚИЛИШ ВА УНИНГ ПСИХОКОРРЕКЦИЯСИ

Дадақўзиева Марғубахон Рахнамоевна
Фарғона вилояти Олтиариқ туман 7-мактаб психологи

Аннотация: Ушбу мақолада ёшларга таълим тарбия бериш жараёнида тарбияси қийин ўқувчиларни диагностика қилиш ва унинг психокоррекцияси ҳақида сўз борган.

Калит сўзлар: диагностика қилиш, психокоррекция, психик хусусиятлар, тарбияси қийин ўсмирлар.

Мамлакатимизда ҳозирги даврда барча таълим тизимларида таълим ишларининг мазмуни тубдан ўзгарди. Бугунги кунда таълим муассасалари – ўзгариб бораётган узлуксиз таълим тизимининг энг динамик жабҳаси ҳисобланади. Таълим жараёнида педагог билан ўқувчиларнинг ўзаро ҳамкорлик фаолиятига хос ижтимоий психологик уйғунликни ташкил этиш, таълим субъектларини мустақил, ижодий фикрлашга ўргатиш уларни касбий тайёрлаш муҳитини такомиллаштириш ва юксалишига олиб келади. Зеро, онтогенетик ривожланишнинг ўсмирлик даври энг мураккаб ҳамда психологик инқирозлар билан уйғунлашиб кетган, қуввати юқори, шижоатли, янгиликка чанқоқ, оламни ўзлаштиришга интилувчан, мустақилликка мойил, эгилувчан, ҳулқ-атворида

ижтимоий меъёрларнинг шаклланиши жадал суръат билан кечадиган давр бўлиб ҳисобланади. Бугунги кунда мактаб дастурини етарли даражада ўзлаштира олмаслик, мактабдан бешиш ҳолатлари, бир синфда икки йил ўқиш (синфда қолиш) билан боғлиқ жиҳатлар тарбияси қийин ўсмирлар билан ишлашда ўз ечимини кутаётган муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Бу эса умумтаълим мактабларида ўқувчилар психологик имкониятларига янада жиддийроқ ташхис қўйиш, мактаб таълимида коррекцион-ривожлантирувчи таълимнинг индивидуал дастурини тузиш, тарбияси қийин ўсмирлар ва уларнинг ота-оналари билан ишлаш каби вазифаларга алоҳида эътибор қаратишни тақозо этади. Мамлакатимизда ишлаб чиқилган ва изчил амалга оширилаётган Давлат дастурлари жумладан, республикаимиз Президенти Ш. М.Мирзиёевнинг баркамол авлодни вояга етказиш тўғрисидаги ғоялари, шунингдек, Ананев Б.Г., Беличева С.А , Буланова О.Е. ва бошқаларнинг тарбияси қийин болалар ва ўсмирлар билан ишлашдаги психологик педагогик компетентлик дастурлари ўсмирлик ёшининг психологик хусусиятлари ҳақидаги таълимотларида ўз қарашларини акс эттирганлар. Айни пайтда мазкур ҳолатлар биринчидан, ўзлаштира олмовчи ўқувчиларнинг билим даражасини мактаб педагогик жамоаси билан ҳамкорликда чуқур диагностика қилинишини; иккинчидан, мактаб психологи ўзлаштира олмовчи ўқувчиларнинг нафақат соғлиги балки, умуман боланинг мактабга тайёргарик даражаси ва ижтимоий психологик ривожланиши ҳақида ҳам билиши кераклигини; учинчидан, мазкур “қийин” лик ота-оналар ўз фарзандларининг муаммолари ечимида бевосита ва билвосита иштирок этишларини англашларида масъулият сезишлари лозимлигини; тўртинчидан, мазкур ўқувчилар категорияси учун коррекцион-ривожлантирувчи тизимни жорий қилиш ва уни амалиётга татбиқ этиш имкониятларини қидириш лозимлигини ҳам талаб қилади. Ўқитувчи ва ўқувчи муносабатидаги мажбурий итоаткорлик ўрнини онгли интизом эгаллаши жуда қийин кечаяпти. Ўқитувчининг бош вазифаси ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларини ҳосил қилишдан иборатдир. Демократик жамиятда болалар, умуман, ҳар бир инсон эркин фикрлайдиган этиб тарбияланади. Агар болалар эркин фикрлашни ўрганмаса, берилган таълим

самараси паст бўлиши муқаррар. Бунинг учун эса педагоглар ўзларининг диагностик фаолиятларига эга бўлишлари ўта муҳим ва зарурлигини англаб етишлари даркор. Педагоглар ўқувчиларнинг ўзлаштиришларидаги индивидуал хусусиятлари, у билан боғлиқ қийинчиликлар кўлами, ўзаро мулоқатмандлик кўрсаткичлари, ўтилаётган фан ва фан ўқитувчисига муносабат мотивацияларининг шаклланиши каби жиҳатларига диққат-эътиборларини қаратишлари лозим бўлади. Бинобарин, бугунги таълим жараёнига жалб қилинган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигини муваффақиятли ташкил этиш педагог ва ҳар бир ўсмирнинг психологик қиёфасини таснифлаш, уларнинг муносабатларидаги психологик муаммолар, ўзаро ҳамкорликни ўрнатиш шарт-шароитлари, турли вазиятлар (ҳам ҳаётий, ҳам шахсий позиция)га уларнинг тайёрлиги, бир-бирларини шахс сифатида қабул қилиши, ўқитувчининг ўзаро муносабатлардаги касбий компетентлиги, ўз мавқеи, ахборотлар тизимини қабул этишдаги ҳам индивидуал, ҳам гуруҳий ёндашувлари, унинг ўзи ва ўқувчилари баҳосидаги психологик профили, ўқитиш жараёнидаги ҳамкорлик кўринишларини ёритиш каби масалаларга алоҳида эътиборни қаратишлари лозим. Тарбияси қийин ўсмирлар хулқини коррекция қилиш бўйича педагоглар олдида қўйилган вазифаларнинг бажарилиши ўқитувчидан муайян даражадаги психологик билимларнинг бўлишини талаб этади. Бироқ тарбияси қийин ўсмир – психокоррекцион жараённинг ягона иштирокчиси эмас. Тарбияси қийин ўсмирга психологик ҳамроҳлик қилиш тизимли характерга эга бўлиб, ўсмир шахси ичидаги ҳар қандай тузилмалар, мактаб моделининг ҳар қандай бўлимлари, оила ичидаги ўзгаришлар бир-бирига таъсир кўрсатади, бирининг ўзгариши бошқаларининг ўзгаришига олиб келади. Педагогнинг тарбияси қийин ўсмирлар “мен тимсоли”ни коррекция қилиш борасидаги касбий фаолияти самарадорлиги кўп ҳолларда ўқитувчининг касбий позицияси, шунингдек, педагоглар томонидан ўсмир шахсини умр йўли давомида ривожланиш хусусиятларини олдиндан башорат қилиш билан белгиланади. Педагогнинг тарбияси қийин ўсмирлардаги “мен тимсолини” коррекция қилиш борасидаги касбий фаолияти самарадорлиги

педагогининг касбий ва шахслилик нуқтаи назардан ўзини ўзи баҳолаши, унинг касбий мотивацияси хусусиятларига тўғридан-тўғри боғлиқ.

Хулоса қилиб айтганда тарбияси қийин ўсмирлардаги “Мен” тимсолини коррекция қилиш учун энг самарали ёндашув индивидуал ёндашув эканлиги яна бир бор исботланди. Ўқитувчининг тарбияси қийин ўсмирлар коррекцияси борасидаги ишига психологик ҳамроҳлик қилиш концепцияси ва унинг асосида яратилган педагогда психологик компетентликни ривожлантириш бўйича психолог иши моделини яратиш, ўқитувчилар томонидан тарбияси қийин ўсмирлар ва уларнинг ота-оналарини қўллаб-қувватлаш психологик воситалари ва усуллари қўллаш технологиясини ишлаб чиқиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Ш.А.Дўстмухаммедова. Ўқувчиларда ўқув фаолиятини бошқариш психологияси. – Т., 2000 й..
- 2.Ж.Г.Йўлдошев. таълим янгиланиш йўлида. Т., 2000й.
- 3.Беруний. Руҳият ва таълим – тарбия ҳақида. Т., 1992 й.

YOSHLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI SABAB VA YECHIMLARI

*Mavlanova Maxfuza Shuhratovna
Xorazm Viloyati Xonqa tumani 42-maktab psixologi*

Annotatsiya: Maqolada yoshlar va ularning muammolari, muammolarning kelib chiqish sabablari va yechimlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, inson shaxsi, televideniya, internet tarmoqlari.

Yoshlar orasida ijtimoiy muammolardan biri bu, yoshlar orasida uyushmagan yoshlar qatlamining mavjudligidir. XX asr oxirida kelib xalqimiz taqdirida butunlay yangi davr boshlandi. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davrda, qaysi

davlatda, qanday tuzumda bo'lishidan qat'iy nazar barkamol avlodni yetuk insonlar qilib tarbiyalash, birinchi navbatdagi ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

Inson shaxsini, uni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy ma'daniy merosimiz hamda ta'rixiy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash barchamizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamni o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzard ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 millionnini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtda biror bir kasb-hunar yoki ta'limning ma'lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ham ega bo'lmagan, tayinli ish bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlar tushuniladi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhlari o'rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiryapti xolos. Qolgan yoshlar o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o'qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatd ham tayyor ish yo'qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo'q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo'lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini ko'rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning

yoshligidan bolalarga berib kelayotgan “o’qib nima qilasan undan ko’ra ishni qil, qorning shundan to’yadi o’qib dunyoni olib berasanmi” qabilidagi fikrlari yoki bo’lmasa, bolalarni yoshligidan o’qib, ilm olishga yo’naltirmay psixologik dalda bermay, “qora mehnat”ga jalb qilib, shu bhonada o’qishdan bolani chalg’itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o’rgatolmay, lo’nda qilib aytganda “sixni ham kabobni ham kuydirishlari” masalaning og’riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir ikir-chikir sabablarga nazar tashlash o’rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o’tkir zehnli, barcha narsani qabul qilishga qodir bo’lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o’qishga yo’naltirish o’rniga bolalarni ko’chada vaqtini bekor o’tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o’qishga ketayotganida kissasini pul bilan to’ldirib jo’natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o’z xoxishiga tashlab qo’ygan ota-onalar oramizda yo’q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o’qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o’yin kulguga o’ch bo’lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o’qishga hamda kasb-hunarga yo’naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo’lib ulg’ayadi. Lekin buning o’rniga bolaning yoshlikdan o’yin kulgu va o’tkinchi narsalar bilan band bo’lib, mobil telefon va kompyuterlar og’ishida o’sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo’lib ulg’ayishida katta o’rin tutadi.

Bu o’rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o’tishni lozim topdim: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o’chog’idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg’ayganda buning foydasi hamda berilagan tarbiyaning to’g’riligini ongli ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o’qishni o’zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko’tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o’yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo’lmaydi. Uni o’qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo’lmaydi.

Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta'lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi maktabda o'quv formasisiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'z bo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o'zlari uchun o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo'ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Barcha narsa hatto, jamiyatdagi ko'plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to'g'ri tarbiyaga borib taqalar ekan, shu o'rinda ota-onalar hamda jamiyatning uzviy bog'liqligini ta'minlash kerakligini aytmoqchiman, buning uchun biz ota-onalar bilan uchrashuvlar o'tkazishimiz lozim, ularning ma'naviyatini, psixologik madaniyatini oshirishimiz kerak, bunda albatta ta'lim muassasalarining o'rnida katta.

Shu o'rinda yana bir fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman, xalqimizda "Qars ikki qo'ldan chiqar" degan pur ma'no naql borki, ko'p o'rinlarda biz bu fikrni naqadar to'ri ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Masalaning bir jihati borki, shu o'rinda shuni aytishni lozim topdim. Biz yuqorida aytilgan muammolarning vujudga kelishida nafaqat ota-onalar, balki ta'lim tizimimizdagi ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabab bo'lyapti.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. "O'zbekiston". 2001-yil.
2. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
3. Maktab va hayot jurnali. 2-son 2009-yil.
4. E. G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi". 2010-yil.
5. Nishonova Z, Alimova G, "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013-yil.

OILAVIY MUNOSABATLARNING BOLA SHAXSIDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

*Mavlanova Maxfuza Shuhratovna
Xorazm Viloyati Xonqa tumani 42-maktab psixologi*

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot

munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqlashlarning yuzaga kelishga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi. Oilaviy munosabatlar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning hosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"²² - deb ta'kidlaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlar har doim ham bir tekisda silliq, risoladagidey kechavermaydi. Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar

²² Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool vataraqkiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. -72

oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Bu xolatlar albatta farzandlar tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ijtimoiy normalarni amal qilishi yoki buzilishida nomoyon bo'ladi. Ayni shu masalalar mavzuimizning dolzarbligini belgilaydi.

Agressiya va agressiya muammosi uzoq vaqt davomida ijtimoiy psixologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'smirlardagi tajovuzkor xatti-harakatlarning faol tadqiqotlari o'tkazildi. Ayniqsa, bu muammo hozir juda muhim. O'smirlar o'rtasida tajovuzkor tendensiyalarni o'sishi so'nggi yillarda keskin tarzda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik oshdi. Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi jinoyat ishlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa jamiyatimizning bugungi kundagi eng o'tkir ijtimoiy muammolaridan birini ifodalaydi. Jiddiy jarohatlash, bir kishiga qarshi jinoyatlarning ortib soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda shafqatsiz yosh guruhlardagi janglarning hollari tez-tez uchraydi.

Demak oila muhitini uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratish imkoniyati tug'ildi. Bu esa, oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganishda "baxtli bolalik - bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir", degan xulosaga kelindi. Shu asosda oilada farzand tarbiyasiga yondashishning oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib berish mumkin.

1. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilaga xos bo'lgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan, qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas

uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallarni har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

2. Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi, u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari ko'pincha ularning fe'1- atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissiga, muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolari o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalarda ko'pincha ishchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishiga qaratilgan boladi. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarining korxona, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlangan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish haqi miqdori bilan o'lchanadi.

Sog'lom bola oilada shakllanadi va kamol topadi. Bu o'rinda ota-onaning psixologik-pedagogik bilimi, dunyoqarashi hamda madaniyati yetakchi omil hisoblanadi.

Har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug'ullanishi, buning uchun esa ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. - Toshkent, TDPU, 1997.
2. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - Toshkent, O'qituvchi, 1995.
3. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2004 y.

BIZ ZO'RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Maxmudova Zulayxo Shavkatovna
Farg'ona iloyati Quva tumani 16-maktab psixologi

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar , qadrdon psixologlar bugungi o'quv amaliy seminarimizga hush kelibsizlar.

Demak raqamli stiker egalari o'z o'rinlariga joylashib oldilar, 4ta guruh 6tadan ishtirokchilar bugungi seminarimizda qatnashadilar 1 raqam egalari barchasi birinchi guruh ga ikki raqam sohiblari ikkinchi guruhga uch raam egalari uchinchi guruhga to'rt raqam egalari to'rtinchi guruhga joylashib olishlaringizni so'raymiz . Mana guruhlarimiz ham shakllanib oldilar. Endi ishtirokchilarimiz bilan tanishib olamiz .

Birinchi komandaga koptok uloqtiraman ismini aytadi va yoqtirgan narsasini aytadilar. Har bir guruh ishtirokchilari o'zini tanishtirib yoqtirgan narsasini aytib ta'rif beradi keyingi ishtirokchi eslab qolib avval sheriginikini va o'zinikin aytadi Ikkinchi komanda ham shunday qo'g'irchoq beraman ismini aytadi va erkalatadi 2ta so'z bilan sherigiga beradi sherigi esalb qolib davom ettiradi.

Uchinchi komanda birinchi komnda singari tanishadi To'rtinchi komnda esa ikkinchi komanda singari tanishadi

Mana har bir guruh ishtirokchilari bilan tanishib oldik. Endi esa sizlarga bugungi seminar mavzuyimizni e'lon qilaman “ Maktablarda zo'ravonlikni oldini olish va

ularga qarshi kurashish “ deb nomlanadi. O‘z- o‘zidan savol tug‘iladi zo‘ravonlik bu nima? Bu savol barchamizga tanish, yangilik emas. Demak, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ta‘rifiga ko‘ra, **Zo‘ravonlik** - bu o‘z mavqei va imkoniyatlarini suiiste‘mol qilgan holda qasddan o‘ziga va boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga qaratilgan, jismoniy kuch ishlatish, shuningdek, ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan tahdid shakli. Jismoniy kuch ishlatish orqali o‘lim va nogironlikka olib keladigan tanaga shikast etkazish hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, ta‘lim muassasasidagi zo‘ravonlik, o‘z hududida yoki o‘z xonasida, yoki mashg‘ulotlar paytida, tanaffuslarda, ta‘lim muassasasiga borishda va qaytishda, shunga o‘xshash boshqa joylarda jumladan, ta‘lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda maxsus rejalashtirilgan, yoki o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkor harakatlar deb ta‘riflanishi mumkin.

Ta‘sir xususiyatiga ko‘ra **zo‘ravonlik harakatlarini:**

√ *jismoniy;*

√ *psixologik;*

√ *iqtisodiy;*

√ *virtual zo‘ravonlik* yoki *kiberhujum* ko‘rinishlarida paydo bo‘lishini ajratishimiz mumkin.

Demak to‘rtala guruh ishtirokchilari sizlarga birinchi topshiriqni beraman . Bunda berilgan savolga guruh ishtirokchilari birgalikda javob topasizlar va stollaringdagi A3 formatdagi qog‘ozdan va markerlardan foydalanib ifodalab berasizlar.

Birinchi guruhga savol? Jismoniy zo‘ravonlik nima?

Ikkinchi guruhga savol? Psixologik zo‘ravonlik nima ?

Uchinchi savol? Iqtisodiy zo‘ravonlik nima?

To‘rtinchi savol ? Virtual zo‘ravonlik nima?

Har bir guruhga 3daqiqadan vaqt beriladi. Tayyor bo‘lgan guruhimizdan vakil davraga chiqib tushuntirib beradilar

Guruhlar taqdimot qiladilar.

Mana har bir guruhning javoblarini tingladik. Guruhlar qay darajada to‘g‘ri javob berganligi tekshiriladi . Slaydda to‘g‘ri javob ko‘rsatiladi.

Jismoniy zo'ravonlik – Insonga o'griq berish, noqulaylik tug'dirish va kamsitish maqsadida jismoniy kuch ishlatadigan harakatlar majmui.

Psixologik zo'ravonlik- insonga psixologik (emotsional) bosim o'tkazishga , uni kamsitishga ijtimoiy yakkalanishga qaratilgan harakatlar majmui.

Iqtisodiy zo'ravonlik- mol -mulk va pulni tovlamachilik, ziyon yetkazish yoik zo'ravonlik bilan tortib olishga qaratilgan harakatlar majmui .

Virtual zo'ravonlik (kiberhujum)- odamni qo'rqitish , unga nisbatan tuhmat va haqoratli habarlarni tarqatish maqsadida zamonaviy aloqa tizimlari(elektron pochta, mobil telefon, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) yordamida amalga oshiriladigan harakatlar majmui .

Hurmatli seminar ishtirokchilari guruhlariga 2- topshiriqni beraman. Har bir guruh ishtirokchilariga savollar FSMU jadvali shaklida berilgan savollarga javob yozib, guruhingizning bir ishtirokchisi taqdimot qilib beradi. Topshiriq tushunarli bo'lsa vaqt ketdi.

Guruhlar taqdimot qiladilar. Javoblari tahlil qilinadi.

Suiiste'molchi (Lider)-

Jabrlanuvchi –

Guvohlar ochiqchasiga qo'llab quvvatlaydiganlar-

Befarq kuzatuvchilar, potentsiali yuqori (ehtimol) himoyachilar, haqiqiy himoyachilar, passiv tarafdorlar-

Hurmatli seminar ishtirokchilari sizlar bilan mavzu yuzasidan savollarga javob topishga harakat qildik . Endi yana ham to'liq ma'lumot olishlaring uchun videorolik hukmingizga havola qilinadi marhamat

Videorolik qo'yiladi

Keyingi topshiriqqa o'tamiz Har bir guruh a'zolariga muammoli vaziyatlar beriladi. Sizlar esa muammoli vaziyatni o'qib bunga o'z munosabatingizni bildirishingiz kerak bo'ladi. Marhamat muammoli vaziyatlarni tanlab olinglar .

1-vaziyat. “Tengqurlaring sinfga boshqa maktabdan kelgan yangi qizni sochi malla rangligi uchun mazax qilib ustidan kulyaptilar. Ularning bu harakatlari senga yoqmasdi. Qizni yonini olmoqchi bo'lganingda ulardan biri senga: “Hali yosh bolasan va bunday

jiddiy ishlar bilan shug'ullanish senga ertalik qiladi", - dedi uning gapi senga juda og'ir botdi va unga javob qaytarishga qaror qilding.

2-vaziyat. Xulqi yaxshi emas tengqurlaringdan biri kechqurun qaerdadir o'tadigan kechaga seni taklif qilyapti. Boy oilalardan kelib chiqqan yoki yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan o'quvchilar, kam ta'minlangan o'quvchilarni kechaga taklif qilishni rad etishdi. Ulardan biri senga kam ta'minlangan oiladan bo'lgan do'stingni aslo ola kelma - deyapti. Bu vaziyat seni bezovta qilyapti va unga rad javobini bermoqchisan.

3-Vaziyat. Tanaffus paytida Akmal sinfda yugurib, Mubinani itarib yubordi. Yiqilgan qiz tasodifan o'qituvchining stoli ustidagi vazani sindirib tashladi. O'qituvchi sinfga kirib, singan vazani ko'rdi. Mubina tanaffusda nima bo'lganini tushuntirishga urindi, lekin o'qituvchi bahonalarni tinglamadi va unga baqirdi.

4-Vaziyat. Litseyni tamomlagan Shuxrat o'zining tug'ilgan qishlog'iga qaytib keldi. Ma'lum bo'lishicha, uning uyida o'gay onasi yashagan. O'gay ona uni uyidan haydab yubordi. Bu yerda zo'ravonlikning qaysi turi sodir etilgan

Guruhlar o'zlarining javoblarini beradi, taqdim etilgan material bo'yicha muhokama bo'ladi. Trener ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini to'ldiradi, vaziyatdagi holatlarni izohlab o'tadi va xulosa qilib, yakun yasaydi.

Keyingi mavzuyimiz "Zo'ravonlik omillari"

Ta'lim muassasalarida zo'ravonlik rivojlanishiga yordam beradigan quyidagi muhim omillar mavjud:

- shaxsiy;
- oilaviy;
- atrof-muhit;
- vaziyat va ijtimoiy omillar.

Hurmatli seminar ishtirokchilari navbatdagi topshiriq quyidagicha . Guruh a'zolari savollarni o'qib bo'sh katakchalarni to'ldirasizlar

Guruhlar taqdimot qiladilar . Javoblari tahlil qilinadi

Hurmatli seminar ishtirokchilari sizlar bilan mavzu yuzasidan savollarga javob topishga harakat qildik . Endi yana ham to'liq ma'lumot olishlaring uchun videorolik hukmingizga havola qilinadi marhamat

Videorolik qo'yiladi.

Trener kuzatuvchilar va ishtirokchilar zerikkan bo'lsa enerjayzir o'yinlarini o'tkazadi.

"Qalamlar" ertagi

Maqsad: oilada bag'rikenglik, tenglik tuyg'usini rivojlantirish

Kichkina qutida oltita qalam bor edi. Hamma do'st bo'lib yonma-yon ishlashar edi. Ular ichida qora qalam eng ko'p ishlardi. Boshqa rangdagi qizil, ko'k, yashil, sariq qalamlar unga qaraganda biroz kamroq ishlar edi. Ularning orasida oq qalam ham bor edi va u bilan bir voqea sodir bo'ldi.

U boshqalarga qaraganda kamroq ishlatilar va ko'pincha qutidan umuman olinmas, shu sababli Oq qalam har safar xafa bo'lardi.

Men hech kimga kerak emasman ... Hech kim meni sevmaydi, yomon fe'l-atvorim bor, hech kim menga e'tibor bermaydi. Do'stlarim har kuni ishlaydi, men esa o'z galimni kutaman. Men keraksiz qalamman - deb yig'laganidan qalam qutisi namlanib ketardi.

Ammo bir kun qalamlar yashaydigan ofisga qora qog'oz olib kelindi. Shu paytgacha ular oq rangdagi qog'ozga yozishgan va chizishgan, shuning uchun ular asosan rangli qalamlardan foydalanishgan edi. Ammo bu voqeadan so'ng Oq qalam juda zarur bo'lib qoldi, chunki faqatgina oq qalamda qora qog'ozga yozish qulay edi. Dastlab, Oq qalamni topa olmaganliklari idorada katta shov-shuv bo'ldi va nihoyat uni topishgach, ular faqat shu qalamdan foydalanishdi.

Oq qalam xursand edi. U chiziqni to'g'ri chizishga harakat qilardi, tez va yumshoq chizardi. Kechayu-kunduz ishlashga doim tayyor edi. Do'stlari esa uning uchun xursand bo'lishardi. Ular doimo uni qo'llab-quvvatlar va ayniqsa hozir uning baxtli ekanligini ko'rib mamnun bo'lishardi. Oq qalamning iste'dodi va qobiliyatlari ochilib rivojlanib borar edi.

Kunlar o'tdi va faqat Oq qalam ishlardi. Qolgan qalamlar dam olib, zerikib ketishdi. Oq qalam juda tez charchay boshladi, shu sababli u hatto kechqurun qutidagi do'stlari bilan suhbatlashish uchun yetarli kuch ham topa olmasdi. Shu daqiqadan boshlab barcha qalamlar bir-birlarini tushuna boshlashdi. Oq qalam umidni

yo'qotishning hojati yo'qligini aniq tushundi, ertami-kechmi uning qobiliyati va iste'dodini isbotlash uchun imkoniyat bo'lishini angladi. Do'stlari esa u hech narsa qilmasdan o'tirganda Oq qalam uchun qanchalik qiyin bo'lganligini angladilar.

O'shandan beri Qora, Oq, Sariq, Qizil, Ko'k va Yashil rangli qalamchalar yanada do'stlashib, qiyin paytlarda bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan bo'ldilar. Ular bir-birlariga yoqimli so'zlar aytishni, yaxshi fazilatlarini eslatishni ham unutishmadi. Qanday birgalikda ishlash va dam olish haqida o'ylay boshlashdi. Ularning har birining o'z o'zni borligini va almashtirib bo'lmasligini, do'stlariga va o'ziga haqiqatdan ham kerakligini bilardilar.

Xulosa shuki har bir insonning hayotda o'z o'zni bor, sizni qadrlashmayabdimi mehnatingiz yuzaga chiqmayabdimi demak siz o'z qadringizni bilmayapsiz qadrdonim. siz o'zingizni seving avvalo o'zingizni qarang ana o'shanda siz ham o'zgalarni seva olasiz o'zgalarga mehr bera olasiz. Shunda hech qanday zo'ravonlikka o'rin qolmaydi. Zero dunyoni mehr muhabbat qutqaradi. Men Maxmudova Zulayxo Shavkatovna zo'ravonlikka qarshiman mehr- muhabbat tarafdoriman.

Videorolik namoyish etiladi.

Shundan so'ng birinchi guruhdan 1ta ishtirokchi tanlanadi va sherigiga maqto'v so'z aytib treningdan olgan taassurotini ifoda qiladi o'ng tomondagi sherigiga yuzlanib yuzida tabassum bilan kompliment aytishi kerak bo'ladi.

Masalan Shoiraxon juda aqlli qizsizda siz bilan bitta komandada bo'lganimdan hursandman, treningdan kerakli ma'lumotlarni o'rgandim.

Shu zaylda davom etadi

Barcha ishtirokchilarga va kuzatuvchilarga kelgan mehmonlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Menga yordam bergan insonlarimga o'z minnatdorchiligim ramzi sifatida tashakkurimni izhor qilaman

1.Quva tuman XTB metodst psixologi Xomidov Omadbek

2.Quva tuman XTB metodisti Xoldorov Doniyorbek

3.12- umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi Jabborova Shoiraxon

4.Ustozim qadrdonim sevimli opajonim Rishton tumanining faol psixologi Ergasheva Nasiba opamga tashakkur bildiraman.

XOTIRANING BOLALARDA RIVOJLANISHI

Gulzoda Erkayeva
Qarshi shahridagi 18-maktab psixologi

Maktabgacha yoshdagi bolalar o`zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo`lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o`z oldilariga maqsad qilib qo`ymaydilar va hali maqsad qo`yishni uddasidan ham chiqa olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo`lishi tasodifiy hol emas. Buning o`z sabablari bor. Har bir tarbiyachi pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining kata odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo, ular oliy nerv faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari bilan bog`liqligidadir. Bir qator rus psixologlari tomonidan o`tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko`rsatishicha, bog`cha yoshdagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatga ega.

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk yoshdagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya`ni ularning nerv sistemasi haddan tashqari egiluvchan, ta`surotga beriluvchandir. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar qo`shiq, ritmli she`r, qiziqarli va chuqur ta`sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasi yengil qo`zg`aluvchan bo`lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog`lanishlar juda beqaror bo`ladi, ya`ni mustahkam bo`lmaydi.

Uchinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasida qo`zg`alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo`lganligi tufayli ular o`xshash va birdaniga, ya`ni bir vaqtning o`zida juda ko`p idrok qilingan narsalarning qarqini yaxshi ajrata olmaydilar.

Bolalar juda ko`p narsalarni asosan turli o`yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasiga xos bo`lgan tartibsizlikni yo`qotish va xotirasini o`tirish juda ko`p jihatdan tarbiyachilarga bo`g`liqdir. Bolalar xotirasini

mashq qildirishda turli mazmunli o`yinlardan, mashq va treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "magazin-magazin" o`yini, har turli loto o`yinlari, topishmoqli o`yinlar, didaktik va maxsus xotira o`yinlari shular jumlasidandir. Umuman, bolaning ma`lumoti esda olib qolishini va qayta esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur.

Bolalar xotirasini o`stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o`ynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo`lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning bog`cha yoshidagi davrida tugallanmay, bolaning ta`lim-tarbiya va turmush tarziga qarab o`zgarib, o`sib boradi

HUNAR-ZAR, KASBKOR-ZARGAR

Gulzoda Erkayeva
Qarshi shahrining 18-maktab psixologi

O`zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo`g`in hisoblangan umumiy o`rta ta`lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri-o`quvchilarni hayotga tayorlash va kasb tanlashga yo`naltirishdan iboratdir. Kasbga yo`naltirish(kasbga tayorlash)-shaxsning bo`lg`usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida o`ziga nisbatan shakllanish jarayonini o`taydi, ya`ni kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib boradi.

Kasbga yo`naltirishni ilmiy-amaliy tizim sifatida bilish lozim. Har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, ham xalq xo`jaligi manfaatlarini nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to`laqonli ta`minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini zaruratini hisobga olish kerak.

Umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarining mehnat ta`limi darslarida olgan bilimlari, shakllangan ko`nikma va malakalari, xalq xo`jaligining aniq bir sohasida qo`llanishini vazifa qilib qo`yish lozim. Bundan tashqari, boshqa fan o`qituvchilari ham o`rganilayotgan mavzu dasturlarini o`zgartirmasdan, ushbu fan xususiyatlarini hisobga

olgan holda o'quvchilarni mehnat jarayonlari, mehnat turlari ko'rinishlari va texnologiyasi bilan tanishtirib borishlari, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini, respublikamizning iqtisodiy potensialini ochib berishlari lozim.

Qadimda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunikasozlik bo'lgan. Hozir keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri – yog'och buyumlari yasash hunarmandchiligidir. XX asr boshlarida tikuv mashinalari paydo bo'lishi bilan yangi hunarmandchilik kasbi – mashinasozlik yuzaga keldi. O'zbekistonning eng keng tarqalgan uy kasblaridan biri do'ppido'zlikdir.

Bulardan tashqari, hunarmandlar teridan har xil buyumlar yasaganlar, poyafzalchilar o'z maxsulotlarini shahar va qishloqlarda yurib, aholiga sotganlar. Novvoylik, qandolatchilik va qassoblik ham hurmatli kasblardan biri bo'lib, ularning do'konlari har qadamda uchragan. Katta to'y-ma'rakalar o'tkazish odati maxsus oshpazlik kasbini yuzaga keltirgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o'z asarlarida, she'r va g'azallarida, abadiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashning muqaddasligini takidlab, ulug'laganlar.

9-fevral kuni tavalludining 580 yilligi keng nishonlangan so'z mulkining sultoni, buyuk davlat arbobi Alisher Navoiy ijodida ham kasb-hunar egallash sharofati katta o'rin tutadi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,

Hunar o'rgandi onga ki imkoni bor.

Yoki shoirning Farhod tilidan:

Hunarni asrabon netgumdir oxir

Olib tuproqqami ketgumdir oxir.

Deb aytgan misralari ham kasb-hunar har qachon, barcha zamonlarda inson turmushining tamoyili bo'lganligi in'ikosidir.

O'qituvchilarning elga sharaflari, birinchi darajali vazifalari ham yoshlarni bilimli qilish orqali turmushga tayorlash, kasb-hunar egallashga yo'naltirish hisoblanadi.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA O‘SMIR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING BULLING HOLATIGA TA’SIRI

Umarov Abdug`affor

O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi 4-kur talabasi

**“Xalqning baxt-saodati bolalarni to`g`ri tarbiyalashga bog`liq”
(Jon Lokk)**

Istiqlolning dastlabki yillaridan ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilindi. Prezidentimiz tashabbusi va bevosita rahnamoligida jahonning bu boradagi ilg'or tajribalari hamda xalqimizning ko'p asrlik milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan yangi ta'lim tizimi hayotga tatbiq etilmoqda. Yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hozirda ta'lim-tarbiya jarayonida eng oliy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim tizimida “Bulling” “ya`ni zo'ravonlikni oldini olish ham.

O'tgan asrlarda “Bulling”lar to'g'risida yozib qoldirilgan badiiy asarlar mavjudligiga qaramasdan, ushbu mavzuga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Bu haqida dastlab, 70-80 yillarda Norvegiya davlatida tadqiqot o'tkazilgan va ilk marotaba BMTda 2006-yil global mavzu sifatida muhokama qilingan. Hozirgi kunga kelib ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali muammoning mavjudligi hamda ahamiyatga egaligi yaqqol sezilib qolgan. Ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagog hodimlarning yetarlicha malakaga ega bo'lmaganliklari yoki yuzaga kelgan muammoni bartaraf etishga uquvsizligi sababli maktabda o'quvchi bilan o'qituvchi, o'quvchi bilan yuqori sinf o'quvchisi, o'quvchi bilan sinfdosh o'rtog'i (tengdoshi), o'quvchi bilan ota-onasi va ayrim hollarda o'qituvchi bilan ota-onalar orasidagi “Bulling” holatlarini uchratish mumkin. Ushbu holatlarning oldini olish uchun ta'lim muassasalarida malakali psixologlar faoliyatini yo'lga qo'yish, psixologlar bilan o'qituvchilar, sinf rahbarlar

orasida yaqin munosabatlarni o'rnatish, yuzaga kelgan muammoga xolisona yondashish, ota-onalar bilan ishonchli aloqalarni o'rnatish o'ta muhim hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bolalarga, o'spirinlarga, o'smirlarga nisbatan ishlatilgan “Bulling”ni oqlash yoki sababini izlash, kechirish umuman mumkin emas. “Bulling”ning har-xil turini uchratish mumkin. Masalan, bir martalik zo'ravonlik, doimiy, muntazam ravishda o'tkazilgan tazyiq, kuch ishlatilgan zo'ravonlik yoki haqoratomuz so'zlar orqali yetkazilayotgan zo'ravonliklar mavjud. Taziiqqa uchragan o'smir har doim ham yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Chunki, tengdoshlari, o'qituvchilari hamda ota-onasi oldida “sharmanda” yoki “ojiz”, “zaif” bo'lib ko'rinishdan cho'chiydi.

BMTning ma'lumotiga ko'ra har yili dunyoda 246 million o'smir “Bulling”dan aziyat chekib kelmoqda. Eng achinarlisi “Bola huquqlarini himoya qilish” to'g'risidagi Kontseptsiyalarning qabul qilinishiga qaramasdan ushbu ko'rsatkich kundan kunga o'sib bormoqda. Insonni shaxs sifatida kamol topishi uchun to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan omillardan biri “Bulling”ning kelib chiqishi oqibatida o'quvchi hayotga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. “Bulling”ga uchragan bolaga psixologik yordam ko'rsatishda ota-onalar bilan ham ishlash juda muhim hisoblanadi. Masalan, bolaga har doimgi hatti-harakatini takrorlamasligi, yig'lash yoki qo'l ko'tarish o'rniga hafa qilgan tengdoshini ko'ziga tik boqish muhimligi, yuzaga kelgan tushunmovchilikni kulgu orqali yengish mumkinligi haqida tushunchalar (maslahatlar) berilishi mumkin. Shuningdek, bolaning psixik salomatligiga juda ham kuchli ta'sir qilgan zo'ravonlik ishlatilgan bo'lsa, tazyiq o'tkazgan tengdoshlari, o'qituvchilari bilan vaqtincha muloqotni to'xtatish shartligi haqida ham ma'lumot berish kerak. Bolaga nisbatan ortiqcha so'zlarni ishlatmaslik, uni aybdor qilib, qanchalar omadsiz ekanligi, har doim ularga muammo tug'dirayotganligi haqida emas, aksincha, farzandlarini ma'naviy qo'llab-quvvatlashlari ta'kidlanishi joiz. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin boladagi o'zgarishni aniqlash maqsadida unga ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan savollarni (O'zingni qanday his qilyapsan?, Endi nima qilmoqchisan? kabi) berish foydadan holi bo'lmaydi. Ota-onalar orasida farzand tarbiyasida yetarli tajribaga ega bo'lganlari yuzaga kelayotgan muammolarni osonlik bilan hal qilib, farzandlariga keraklicha yordam ko'rsatib, ularga suyanchiq bulayotganliklari ko'pchilikni tashkil qiladi. Lekin, uquvsiz ota-onalar, farzandini

taqdiriga befarq bo'layotganlari, ularning kelajagi bilan qiziqmayotgan ota-onalarni ham tajribada ko'rish mumkin.

Kattalarning o'rnak bo'lishlari.....

- Psixologik tomondan kuchli hamda mehribon bo'lish;
- His-tuyg'ularni boshqara olish;
- Har doim maslahat, qo'llab-quvvatlash, yordam berish;
- To'g'ri maqsadlar sari intilish

kabi sifatlar orqali bolalarga shaxsiy na'muna ko'rsatish lozim. Bola uchun doim ochiq muloqotga tayyor bo'lish, do'stona suhbatlashish, har doim muammoning hajmidan qat'iy nazar uni hal etishda yordamga tayyor bo'lish, yuzaga kelgan salbiy holatga professional yondashib, hazil-mutoyiba yo'li orqali, haqorat so'zlarni ishlatmagan holda suhbatlashish tavsiya etiladi. Ota-onalar, fan o'qituvchilari, sinf rahbarlar hamda maktab psixologlari psixik salomatligida nuqsoni bor o'quvchilar, “Bulling”ga uchragan bolalar, tazyiq ostida qolgan o'smirlarni “Kechirimli” bo'lishga undashlari, ular bilan sodir bo'lgan holat boshqa tengdoshlari bilan ham sodir bo'lishi mumkinligi, ayb kimda bo'lishidan qat'iy nazar “Uzr” so'ragan odam eng kuchli odam hisoblanishi, hayotiy misollar bilan bolani shu holatdan chiqarishlari kerak. Agar, yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar natija bermasa unda o'z vaqtida psixiatr yordamidan foydalanish zarur. Fikrimiz so'ngida ota-ona farzandi uchun eng yaqin inson ekanligi, ular farzandlariga faqat o'rnak bo'lish kerakligi bilan birga, ularga hayotda qoqilmasdan mustahkam shahdam qadam tashlashlari uchun tayanch bo'lishlari o'ta muhim sanalishini ta'kidlab o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аверьянов А. И. Буллинг как вызов современной школе // Педагогика, психология и социология. – 2013.
2. Ануфриев А.Ф. Как преодолеть трудности в обучении детей / А.Ф. Ануфриев, С.Н. Костромина. - М.: Издательство «Ось-89», 2003.
3. Баева И.А. Школьная травля (буллинг) в образовательной среде [Электронный ресурс]

4. Бердышев И. Лекарство против ненависти / И. Бердышев; семинар записала Е. Куценко // Первое сент. –2005.

ИНТЕРНЕТНИНГ БОЛА ВА ЎСМИР ПСИХИК РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

Содикова Насиба Наимовна
Чирчиқ шаҳар 25 мактаб психологи

Калит сўзлар: Ижтимоий тармоқлар, фаровонлик, болалар, бахт.

Кечки болалик ва ўспиринлик ижтимоий ва ҳиссий ривожланиш учун ҳал қилувчи даврдир. Сўнги йигирма йил ичида ушбу ҳаёт босқичига интернетнинг деярли ҳамма томонидан ахборот, ўйин-кулгу манбаи сифатида қабул қилиниши катта таъсир ўтказмоқда. Статистик маълумотларга кўра бугунги кунда интернетдан фойдаланувчилар сони дунё бўйлаб 2,4 млрд га етганлиги маълум қилинган.

2012 йил-2017 йилларда Англияда 6300 дан зиёд болалардан иборат вакиллардан фойдаланиб, кенг қамровли улариш тезлиги, фаровонлик натижаларига таъсири, болларнинг турли нарсаларга таъсирини баҳолаш учун уларнинг ҳаёти жиҳатлари, фаровонлик билан салбий боғлиқлигини аниқлаш мақсадида тадқиқотлар олиб борилган. Деярли барча 12-15 ёшли болалар интернетдан фойдаланишади. Бу улар яшаётган дунёнинг ажралмас ва ички қисми.

Интернетдан фойдаланиш болаларнинг ривожланишига таъсир қиладими? Интернетдан фойдаланганда болалар ижтимоий жиҳатдан ажралиб қоладими ёки улар билан боғланишадими? Улар тушкунликка тушадими ёки кўнгли кўтариладими? Мактаб фаолияти яхшиланадими ёки

ёмонлашадими? Кўплаб фикрлар, оммавий ахборот воситаларининг шов-шувлари ушбу саволларга жавоб беришга ҳаракат қилди. Интернетни севувчилар интернетдан фойдаланишни жамиятдаги барча муаммолар, шу жумладан таълим тизимидаги камчиликлар учун даволовчи восита деб ҳисоблашади. Хозирги замон ёшларининг 70 фоизи ўз қизқиш ва севимли машғулотлари ҳақида сўз юритганда – спорт, дўстлар билан суҳбатлашиш, маънавий ва маданий ҳордиқ чиқариши билан бир қаторда компьютер технологиялари, интернетга бўлган қизиқишини биринчи ўринда тилга олади. Аксарият одамлар бу ҳаддан ташқари нарсалар орасида бир жойга тушиб қолишади. Интернетдан фойдаланиш болаларнинг ижтимоий натижаларига таъсир қиладими ёки йўқми, кам сонли тадқиқотлар ва бир хил бўлмаган хулосалар аниқ эмас. Бир томондан, интернетда ўтказиладиган вақт бошқа жойларда, шу жумладан, ижтимоий тадбирларда иштирок этиш, оила ва дўстлар билан мулоқотда бўлмаслик учун сарфланади. Бошқа томондан, интернет географик жиҳатдан узоқ бўлган оила ва дўстлар билан алоқани осонлаштиради. Тадқиқотлар ижобий ёки салбий ҳужжатлаштирилган ижтимоий таъсири кам деган хулосага келди. Интернетдан фойдаланиш болаларнинг психологик натижаларига таъсир қиладими? Ижтимоий натижалар бўлгани каби, кам сонли тадқиқотлар болаларнинг интернетдан фойдаланиш ва психологик натижалар ўртасидаги боғлиқликни ўрганиб чиқди. Аслида ушбу муносабатларнинг тўғридан-тўғри ҳал қилинган иккита тадқиқот топилди. Улардан бири ўспиринлик учун интернетдан фойдаланишнинг салбий психологик таъсирини топди яъни унга кўра ёлғизлик, депрессияни кўп учратишган. Аммо кейинги тадқиқотлар шуни кўрсатадики, бу таъсирлар интернет тажрибаси билан юқолган. Яъни ёлғизлик, депрессия каби психологик муаммолар интернет орқали юқолган. Компютердан фойдаланишнинг афзалликлари кузатилагн бўлсада, улар одатда турли хил омилларга масалан, мавзуга боғлиқ. Фойда

доимий равишда кузатиб бориладиган ягона билим натижаси -бу визуал фазовий кўникмаларга ҳисса қўшади. Ўзини намаён қилиш, мулоқот қилиш ва маълумот олиш учун янги имкониятлар сифатида. Бироқ у, бунини “дистопия” нуқтаи назари билан таққослайди, бу ерда онлай вақт бошқа фойдали тадбирларни “сиқиб чиқаради” ўқиш, спорт билан шуғулланиш ва дўстларингиз ва оилангиз билан юзма-юз мулоқот қилиш. Шунингдек болаларни потенциал нотўғри ва зарарли таркибга, жинсий ва тижоратга таъсир қилиш эксплуатация. Дастлабки эмперик тадқиқотлар, асосан ўспиринларнинг кўндаланг сўрономалари асосида қўллаб қувватланади.

Home Net Too лойиҳасининг текширув натижаларига кўра интернетдан кўпроқ фойдаланган болалар ўқиш тестларидан фойдаланган болалар қараганда кўпроқ ютуқларга эришганлар. Аммо математикадан кам балл олишган. Ушбу лойиҳа асосчилари таҳлили интернетдан фойдаланиш кўрсаткичларини яхшилашга олиб келади деган хулосани тасдиқлашган. Нима учун интернетдан фойдаланиш ўқиш тест натижаларини яхшилашга олиб келиши мумкин? Бунинг бир сабаби болаларнинг интернетдан қандай фойдаланганликларида, эслатиб ўтамиз интернетдан фойдаланиш эди, электрон почта орқали ёки бошқа алоқа воситаларидан фойдаланиш эмас. Интернет асосан матндан иборат. Интернетда кўпроқ вақт ўқиш учун кўпроқ вақт сарфланишини англатади, бу ўқиш қобилиятига ва ўқишдаги стандарт тестлар балларига боғлиқ бўлан ортишни тушунтиради.

Хулоса

Шундай қилиб, интернетдан фойдаланиш болалар фаровонлигига ҳам фойдали, ҳам зарарли таъсир кўрсатиши мумкин. Чунки интернетда амалга ошириладиган кенг қўламли фаолият турлари мавжуд.

Биринчидан, интернетдан фойдаланиш болаларнинг ижтимоий ёки психологик натижаларига салбий таъсир кўрсатмайди. Ушбу топилмаларни умумлаштиришни ўрганиш, интернетдан фойдаланиш академик

натижаларга таъсир этувчи воситачилик механизмларини аниқлаш ва интернетдан болалар учун афзалликларни максимал даражада амалга оширишга қаратилган тадбирлар ишлаб чиқиш ва баҳолаш учун кўпроқ изланишлар зарур.

Иккинчидан ёшларда интернетдаги зарарли хуружлардан асраш, уларни ахборот технологияларидан унумли фойдаланишга ўргатиш масалалари бўйича илғор халқаро тажрибалар асосида барча ҳудудларда Рақамли технологиялар ўқув марказлари фаолиятини янада ривожлантириш ҳамда янги ташкил этиладиган компютер ўйинлари марказлари ёш авлоднинг билим ва дунёқарашини кенгайтиришга қаратилган тест, викторина, ривожланиш стратегиялари ва бошқа фойдали дастурлар билан таъминланишни кучайтириш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Болалар ва компютер технологиялари: таҳлил ва тавсиялар.
2. К.Краут, Гринфилт, Р.М.ва Кросс, Е.Ф. Уйда компютердан фойдаланишнинг болалар фаолияти ва ривожланишига таъсири.
3. <https://uza.uz/pots-yoshlar-tarbiyasi>

O‘SMIRLARDA DINIY ONG RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Murodov Sanjar
QarDU PI pp-202 guruh talabasi

Hozirgi kunda butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv har bir soha va yo‘nalishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Yurtimizning ma‘naviy hayoti va uning o‘ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda. Jumladan, siyosiy, ma‘naviy, iqtisodiy, ijtimoiy va diniy-ma‘rifiy sohalarda rivojlanishni kuzatishimiz mumkin. Globallashuv jarayoni

jamiyatimizning ko‘p qismini tashkil qiluvchi yoshlar hayotiga ham kirib bormoqda. Bu jarayon ba’zi yoshlar xulq-atvorida ijobiy, ba’zilarida salbiy namoyon bo‘layotganini ko‘rmoqdamiz.

Globallashuv sharoitida diniy masalalarda ham transformatsiyalash jarayoni kuchaymoqda. Hozirgi kundagi turli buzg‘unchi g‘oyalarga asoslangan diniy ekstremistik tashkilotlar diniy tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qilishi natijasida mutaassib guruhlar ko‘payib ketmoqda. Shu sababli yoshlarda diniy ong darajasini rivojlantirishni davr taqazo etadi. Prezidentimiz Mirziyoyev Sh. “Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamalakatlar boshiga og‘ir kulfatlar olib kelmoqda; g‘arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to‘la shakllanib ulgurmagan bolalarni o‘z ota-onasi, Vataniga qarshi qo‘yib, ularning hayotiga zomin bo‘lmoqda. Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, shu borada jaholatga qarshi ma’rifat asosida ish olib borishimiz zarur,” – deb ta’kidlaganlar.

Jamiyatimizning ma’naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mushtahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo‘lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turishda oila va ta’lim maskanlari o‘rni va ahamiyatini oshirishni taqazo etadi. Yoshlarimiz ongida diniylikni biz ta’lim-tarbiya orqali shakllantirishimiz mumkin. Diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan diniy tasavvurlar, tizimlar obyektiv va subyektiv omillar asosida shakllanadi. Diniy ong in’ikos etgan ijtimoiy hodisalar majmuyi ko‘p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayon ifodasidir. Uning mazmunini real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarni tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan ularni o‘ziga xos tarzda aks ettiradigan ma’naviy e’tiqod va amallar tashkil etadi. Ishlab chiqarishning intensivlashishi, urbanizatsiyaning kuchayishi, ya’ni yirik shaharlarning vujudga kelishi va u bilan bog‘liq asablarning toliqishi, taranglashishi, ekologik buzilishlar, turli xavf-xatarlarning kuchayishi kabi ijtimoiy faktorlar o‘smirlarda umidsizlik, ojizlik, qo‘rquv, ertangi kunga ishonmaslik, yolg‘izlanish kabi kayfiyatlarni

tugʻdiradi. Yoki boshqa turli yoʻllar tanlanishini kuzatish mumkin. Masalan, alkogolizm, narkomaniya, suitsid (oʻz joniga qasd qilish) kabi hodisalar rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan.

Shuningdek, yolgʻizlanish, jamiyatdan begonalashish, depersonalizatsiya (oʻz fikr–mulohazalariga ega boʻlmaslik), boshqalar taqdiriga befarqlik, hamdardlikning yoʻqolishi, xudbinlik kabi ruhiy buzilishiga yaqin holatlarni vujudga keltira boshlaydi. Gʻarbdagi bir qator dinshunoslik va din psixologiyasi bilan shugʻullanuvchi olimlar bunday salbiy holatlardan din yordamida chiqish mumkin deb koʻrsatishyapti. Bunday salbiy illatlardan yoshlarni diniy eʼtiqod orqali saqlash va diniy ongini rivojlantirish vositasida uzoqlashtirish mumkin.

Ilmiy ishimizda tadqiqot obyekti qilib oʻsmirlik davri olindi. Oʻsmirlik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha boʻlgan davrni tashkil etadi. Hozirgi oʻsmirlar oʻtmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik oʻsish oldinroq namoyon boʻlmoqda. Aksariyat oʻquvchilarda oʻsmirlik yoshiga oʻtish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi oʻsmir bola emas, biroq katta ham emas»

Oʻsmirlik – bolalikdan kattalikka oʻtish davri boʻlib, fiziologik va psixologik jihatdan oʻziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, maʼnaviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. Oʻsmirlik balogʻatga yetish davri boʻlib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo boʻlishi bilan ham xarakterlanadi. Oʻsmirlar oʻzlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar.

Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin boʻlgan oʻsmirda juda koʻp noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar boʻladi va ular oʻsmirda inqirozni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu inqiroz oʻsmirning maʼnaviy oʻsishi, shuningdek psixikasidagi oʻzgarishlar bilan ham bogʻliqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeyi oʻzgaradi, oʻzining yaqinlari, doʻstlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta oʻzgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Koʻpgina oʻsmirlarda oʻzidan qoniqmaslik holati kuzatiladi.

O'smirlarning diniy ongini rivojlantirishda o'qitish ya'ni ta'lim jarayonining ahamiyati katta. Globallashuv sharoitida biz yoshlarni S.L.Rubinshtyen ta'kidlagandek: "Biz ta'lim orqali tarbiyalaymiz, tarbiyalash orqali ta'lim beramiz." Oilada shakllantirilgan diniy ong asosan odob-axloq me'yorlari doirasida rivojlantiriladi. Bolani halollikka, poklikka, xushxulqlikka o'rgatib borish jarayonida tarbiya diniy e'tiqod bilan uyg'un tarzda singdiriladi. Behuda isrof qilmaslik, uy-joyini toza tutish, shaxsiy gigiyenasiga e'tiborini qaratish, yomon odatlarni tark etishga undash jarayonida bularning bari diniy e'tiqodga bog'lab tushuntiriladi, izohlanadi. Ta'lim muassasalarida oilada shakllantirilgan diniy tushunchalar va e'tiqod ilmiy asoslarda takomillashtiriladi. Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligida tarbiya jarayoni tashkil qilinadi.

Ta'lim va tarbiya tamoyillaridan onglilik va ixtiyoriylik o'quvchilarning bilimlarini ongli ehtiyoj sifatida o'zlashtirishlarini, nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Tarbiyaning ixtiyoriylik tamoyili esa tarbiyaviy ta'sirlarni pedagogik jarayonda ixtiyoriy qabul qilishni anglatadi. Pedagogik jarayonda o'quvchi talabalar bilimlarni ongli ravishda o'zlari uchun zarur ehtiyoj sifatida o'zlashtirsalar, bu jarayon samara keltiradi. Yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilar o'qituvchi pedagog bilan hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Ta'lim va tarbiya maqsadlariga birgalikdagi, hamkorlikdagi faoliyatlari orqali yetib boradilar. O'quvchi talabaning ongi yosh xususiyatlariga mutanosib rivojlangan bo'lsa, ta'lim va tarbiya natijasida u bilim oladi, tarbiyalanadi hamda rivojlanadi. Binobarin, ta'lim jarayoni ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zda tutadi. O'z faoliyatiga ongli yondashuv natijasida o'quvchi bilimlarni o'zlashtiradi, ma'naviy-axloqiy sifatlarini takomillashtiradi, shaxs sifatida shakllanib boradi. Ayni damda o'z burchi va vazifalariga mas'uliyat bilan yondoshishda uning onglilik darajasi namoyon bo'ladi. O'smirlarda diniy bilimlarni ta'lim tizimidagi darsliklar orqali mavzularga bog'lagan tarzda Qur'oni karim oyatlari sharhi, Hadisi shariflardan, sahobalarning ibratli hayoti diniy ulamolarning hikmatlari so'zlarini keltirib o'tish ham ongda diniy bilimlarni rivojlantirishga ta'sir qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir insonning ongliligi uning mafkuraviy himoya vositasi sanaladi. Bundan tashqari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy hayot,

milliy va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi millat, mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, diniy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirishdagi ko'nikma va malakalariga chambarchas bog'liq. Shuningdek, hozirda din va ongni insoniyat tafakkuri rivojining ikki ajralmas qismi sifatida o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonlarida kishilik jamiyati qadriyatlari tizimida alohida o'rin va maqomga egaligini inobatga olish lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Din falsafasi: o'quv qo'llanma/ A.Ochildiyev (va boshqa.). – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2015. -172 b.
2. Din psixologiyasi: o'quv qo'llanma/ B.Valiyev [va boshq]. – Toshkent: Movarounnahr, 2014. -312 b.
3. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.-304 b

ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ОИЛАНИНГ САЛОҲИЯТИ

Ешмуратов Калмурат Оразбаевич

Қорақалпоғистон Республикаси Қўнғирот тумани 45-мактаб психологи

Жамиятнинг бир бўғини оила ҳисобланади, оила муқаддас даргоҳ. Оила мустаҳкам бўлиши учун тотувлик ва фаравонликда ҳаёт кечиришидадир. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда оила, таълим муассасалари ва маҳалла ўртасида мустаҳкам алоқани юзага келтириш, доимий равишда ахборот алмашинувини йўлга қўйиш муаммоларни ҳал этишда уларнинг бир-бирларини қўллаб қувватлашлари, ишонч ҳиссини қарор топтириш оилавий ажримлар сонининг ортиб боришини олдини олишга кўмаклашиш. Ҳозирги кунда ривожланаётган техника асрида яшайапмиз бундан кўриниб турибдики, фарзандаримиз ҳам интернет тармоқларини бизданда яхшироқ ўзлаштиришга

ҳаракат қилмоқда, биз ота-оналар албатта фарзандларимизга интернет тармоқларидан оқилона фойдаланиш йўллариини ўргатишимиз зарур. Бу интернет тармоқлари орқали узатилаётган маълумотлар ҳаётнинг фақат силлиқ томонини кўрсатиб, ёшларнинг ҳаёт ҳақидаги тасаввурларини енгил елпи қарашлар билан маълум маънода камраб олмоқда, шунинг учун фарзандларимизни ижтимоий тармоқлардан унумли ва самарали фойдаланишларига кўмаклашишимиз шартдир. Халқимиз, оилада ёшлар тажрибасини ташкил этиш борасида асрий тажрибага эга. Ёшларни тарбиялашда уларни умуминсоний қадриятлардан, анъаналардан баҳраманд қилиш, билим даражасини ошириш учун қулай шароитлар яратади. Ёшларни болалик чоғларидан бошлаб меҳнатсеварликка, катталарга ҳурмат, билим эгаллашга интилишни ватанпарварликни ўрганадилар. Оила мустаҳкамлигини сақлашда ота-она томонидан берилаётган тарбия энг муҳим ўрин эгаллайди. Оилада ота томонидан ўғил болага оила ҳақида тасаввурларини уйғотиш яъни тушунчалар бериб бориш, оила муқаддаслиги, оилавий муаммоларни оқилона ва ақлан ҳал қилиш, оилада ўзаро ҳурмат, оилага хиёнат қилмаслик, фарзанд тарбиясига этибор қаратиш, оилани иқтисодий таминлаш эркак кишининг зиммасидаги маъсулият эканлигини тушунтириш, рафиқасининг суянчи таянчи бўлмоғи эканлигини тушунтириш даркор. Юқоридаги вазифалар амалга ошириб ҳар бир оилада фарзандга тушунчалар бериб борилса, оилавий муаммолар ва оилавий ажримларнинг камайига еришилади. Ҳеч бир ота ўз фарзандига хулқу одобдан буюкроқ мерос беролмайди. Оилада соғлом муҳитни яратиш кўпроқ аёл зиммасидаги маъсулиятдир. Онажонларимиз томонидан қиз болаларга тарбиянинг ҳар томонлама етук қилиб етказилиши оиланинг осойишталиги, орастали ва яхши яшашига ёрдам беради. Қиз бола самимий, ҳаёли, камтар, камгап, меҳнатсевар бўлиш, катталарга ҳурмат, кичикларга иззатда бўлиш, уй жойларни озода тутиш, оила сирларини ошкор қилмаслик, ўзга уйда келин эмас қиздек бўлиб қайната-қайнананинг ҳурматини жойига қўйиб, рўзгор ишларида кўмаклашиб оғирларини енгил қилиб дуоларини олиб юриш энг олий бахт эканлигини ҳақида тушунчалар бериб бориш онажонларимизнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда оммавий ахборот воситалари

томонидан ҳаётнинг енгил елпи кўрсатилиши оилавий муносабатларнинг мазмуни оилавий низо ва ажримларни келтириб чиқараётган сабаблар ва уларни бартараф етиш хусусида эшиттиришлар чиқишлар кинофилмлар савиясининг юқори емаслиги чуқур таҳлил этишга кўрсатув ва ешитиришларнинг йўқлиги.

Мустаҳкам оилаларни шакллантириш, уларда соғлом руҳий муҳитини қарор топтириш, оила тарбиясининг самарадорлигини ошириш, оила муҳотида тарбияланаётган фарзандларининг ҳар жиҳатдан етук, баркамол бўлиб вояга етишларига алоҳида аҳамият бериш, бу йўлда оила ҳамда жамоатчилик ҳамкорлигига эришиш, оилаларни ижтимоий жиҳатдан қуллаб қувватлаш масалаларига алоҳида аҳамият қаратмоғимиз зарур.

Ота-оналарнинг оилада ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнинг моҳияти етишмаслиги, қизларни оилада мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш борасидаги назарий ва амалий билимларнинг етишмаслиги, оммавий ахбот воситалари орқали оила моҳияти, оилавий ҳаётни ташкил этиш, фарзандлар тарбиясини муваффақияти олиб бориш, оилавий муносабатлар мавмуни, шунингдек оилавий низо ва ажримларни келтириб чиқараётган сабаблар ва уларни бартараф етиш йўллари хусусида намойиш ва кўрсатув эшиттириш ва чиқишларнинг юқори даражада эмаслиги ва бундан ташқари бир қанча масалаларни мисол келтириш мумкин. Ота-оналарнинг маънавий бой еътиқодли ва юқори маламотга ва маънавий бой бўлсалар, шу даражада такомиллашган услуб орқали ўз фарзандларини тарбиялайдилар. Агар мактаб оилавий тарбияшунослигига ижобий муносабат билан ёнданса унинг тарбиявий имкониятларини яхши ўрганса, яъни ота-она обрўси, шахсий намунаси ўз-ўзини тарбиялашни назорат қилиш, ўзаро ёрдам ҳамкорлик, иттифоқлик ҳамжиҳатлик ҳамда оила тарбиясининг ўзига хос хусусиятларидан мақсадли фойдала олса, оила тарбиясининг такомиллашувига эришади. Конституциянинг 64-моддасида “Ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунларига қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурдирлар” ва 66-моддасида “Вояга етган меҳнатга лаёқатли фарзандлар ўз ота-оналари ҳақида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар” деб таъкидланади. Катталарга ҳурмат ва бўйсунуш ўзбек оилаларидаги анъанавий тарбия

усулларидан ҳисобланади. Оиладаги намуна фарзанд тарбиси учун муҳим рол ўйнайди. Оила муҳити - бу қандайдир тарбия воситаси эмас балки ота-оналарнинг ва катта ёшдаги кишиларнинг ҳар тарафлама олиб борилган иш натижалари, оила аъзоларининг ўзaro юксак ахлоқий муносабатларнинг йиғиндиси ва ниҳоят катталарнинг болаларга ижобий таъсир кўрсатиш наъмунасидир. Ёшларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашда оила яъни ота-она кўмакдош, йигит ва қизларни жисмонан бақувват, соғлом, юқори маъданиятли, хулқ атворли ва иродали шахс сифатида шаклланишига ва келгуси ҳаётларининг фаровон бўлишлигига оилавий ҳаёт сабоқларидан маълумот бериб боришлари гўзал ҳаёт қуришларига ёрдам беради. Оила соғлом бўлса, жамият соғлом, мамлакат қудратли юрт тинч ва осойишта бўлур.”Энг катта бахт, мен буни минг марта қайтаришдан чарчамайман, оиламиз тинч бўлсин. Оила кичик ватан, оила тинч бўлса, бахтли бўлса, ватан тинч бўлади. Ўша бахтли кунларни, ватанимизнинг ёшларимизнинг камолини ҳозир ният қилаётганимиз каби кўриш ҳаммамизга насиб етсин”! – деб таъкидлаган Ўзбекистон Президенти. Шарқ мутафаккирлари бола тарбиясида Ибн Сино боланинг ахлоқий тарбияси ҳақида билдирган фикрларида – уй рўзгор тутиш масалалари ххусусида ҳам сўз юритади. Болани тарбиялаш оила ота-онанинг асосий мақсади вазифасидир. Ўз камчиликларини тузатишга қодир бўлган ота-она тарбиячи бўлиши мумкин. Ахлоқий тарбияда энг муҳим воситалар боланинг нафсониятига, ғурурига тегмаган ҳолда, яккама – якка суҳбатга бўлиш унга насиҳат қилишдир.

Фойдаланилган адабийотлар

1. Каримов И.А. Донисҳманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига исҳонаман. Т. 2000 й.
2. Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси” Т. “СҲарқ” 1999 йил.
3. Мирзийоев СҲ.М. “Буйук келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз”. Т: “Ўзбекистон”. НМИУ, 2017. – 482 бет.
4. Мирзийоев СҲ.М. “Еркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз”. Т: “Ўзбекистон”. НМИУ, 2017. – 52 бет.

BOLA PSIXOLOGIYASIDA O`YIN FAOLIYATINING ROLI

Davirova Xulkarxon Berdibekovna

*GulDu Ta'lim va Tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)
mutaxassisligi bòyicha 1- kurs magistratura talabasi*

Annotatsiya: O`yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'yekti sifatida shakllana boshlaydi. O`yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o`ziga qaratib kelgan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. Jahon psixologiyasi fanida to`plangan ma'lumotlarga ko`ra, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab jarayonlar hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o`yinlar katta rol o`ynaydi. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv davrida xoriждан kirib kelayotgan har xil qo`g`irchoqlar tashqi ko`rinishining bizning mentalitetimizga to`g`ri kelmasligi va yoshlarimizni ularga nisbatan munosabati to`g`risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh davri, o`yin faoliyati, ikki rolli o`yinlar, predmetli o`yinlar, kichik maktabgacha yosh davri, o`rta maktabgacha yosh davri, katta maktabgacha yosh davri, qo`rquv, hissiyot, xotira, tasavvur, idrok, tasviriy faoliyat.

Maktabgacha yosh davri yetakchi faoliyati bo`lgan o`yin faoliyati bu yosh davrida qudratli tarbiya quroli hamdir. Chunki bolalar o`yinlari orqali ularning insoniy hislatlarini tarbiyalash mumkin. O`yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelik taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo`sinda atrof-muhit to`g`risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o`zlashtirib boradi.

Maktabgacha yosh davrini tahlil qilish uchun shartli ravishda 3ta davrga bo`lamiz;

- Kichik maktabgacha yosh davri 3-4 yosh,
- O`rta maktabgacha yosh davri 4-5 yosh,
- Katta maktabgacha yosh davri 5-6 yosh,

Kichik maktab yoshidagilar asosan yolg`iz o`ynashadi. O`zlarining o`yin faoliyatlari orqali idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat faoliyatlari takomillashib boradi. Bu davrda bolalarni kuzatsak, ularning rolli o`yinlarida kattalarning

harakatlariga nisbatan boʻlgan taqlid yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Oʻyinlar orqali bolalarda ilk marotaba liderlik va tashkilotchilik koʻnikma va malakalari rivojlanadi.

Oʻrta va katta maktabgacha yosh davrida ham sujetli-rolli oʻyinlar rivojlanadi lekin, kichik maktab yosh davridagiga nisbatan turli-tumanligi bilan farqlanadi.

Katta maktabgacha yosh davrida bolalar tasviriy faoliyat yaʼni rasm chizishni yaxshi koʻradilar. Ular oʻzlari koʻrib bilgan predmet va obrazlar bilan bir qatorda xayolot olamidagi oʻzi oʻylab topgan tasvirlarini ham chiza boshlashadi. Bolaning rasmlarida tushirilgan tasvirlar orqali biz atrofdagi voqelikni qay yoʻsinda idrok qilayotganini bilishimiz mumkin. Xususan, tadqiqotlarga koʻra ular oʻz rasmlarida foydalanayotgan ranglaridanoq ularning jismoniy va psixologik holatlarini bilishimiz mumkin.

Rus pedagogi A.S.Makarenko “Bola oʻyinda qanday boʻlsa oʻsib ulgʻaygach ishda ham koʻpincha koʻp jihatdan shunday boʻladi”, - deb toʻgʻri aytgan. Ayniqsa, bola xulq-atvoriga oʻyinchoqlarning taʼsiri katta. Xususan, oʻtgan asrning 90-yillarida bizning mentalitetimizga mutlaqo zid boʻlgan gʻarbcha tashqi koʻrinishga ega boʻlgan qoʻgʻirchoqlar bola tarbiyasiga mutlaqo ziddir. Bular taʼsirida bola xulqida salbiy ogʻishlar paydo boʻladi. Oʻgil bolalarda jangavorlik, toʻpolonchilik, qahr-gʻazab kabi hissiyotlarni uygʻotsa, qizlarimizda gʻarb kiyinishigaboʻlgan taqlidni shakllantiradi.

G.L.Lendret ham oʻz asarida “Oʻyinchoq bola intellektini har tomonlama rivojlantiradi ayniqsa, otaloanalar oʻz qoʻllari bilan yasab, tikib bergan oʻyinchoqlari bolaga yanada yaqin va qimmatlidir”, - deb taʼkidlaydi. Shuning uchun ham bolada u tomonidan hissiy idrok qila oladigan, tafakkuri, dunyoqarashini kengaytiradigan, kattalar va ertak qahramonlariga taqlid qila oladigan oʻyinchoqlar toʻplami boʻlishi zarur. Rus pedagogi M.Manaseinovaning fikricha onaning bolasi bilan oʻynaydigan ilk oʻyinchogʻi matolar qirqimi, yorqin rangdagi predmetlar boʻlishi kerakligini aytadi. Har bir bolada shunday oʻyinchoq boʻlishi kerakki, u bolaning doʻstiga aylanib unga rahmdillik qilishi va asrab-avaylashi lozim. Aynan shu oʻyinchoqlar boladagi qoʻrquv hissini yengib oʻtishi mumkin.

Qorongʻu xonada shu oʻyinchoqlar bilan ovunishi bu boladagi qoʻrquv hissini yengishiga sababchi boʻladi. Bu albatta qator tadqiqotlarda oʻz isbotini topgandir. Shuni

unitmaslik kerakki, yangi àsayotgan bola bu navniholdir uni har tomonlama yetuk shaxs qilib kamol toptirish uchun esa har tamonlama e'tiborli bòlishimiz darkor.

Ma'lumki, uzoq vaqt davomida o'ynash - bu bolaning asosiy faoliyati. Ota-onalarning asosiy vazifasi yoshiga mos o'yinchoqlar tanlash va uning rivojlanishiga ko'maklashishdir. Ushbu savolga yosh psixologiyasiga murojaat qilish kerak:

- 10 kundan boshlab bolaning oldida turgan ob'ektni tuzatishga kirishadi va oyga borib u tovushlarni eshitib, oldida silliq harakatlanadigan hamma narsaga qaraydi. Ushbu asrning birinchi o'yinchoqlari turli xil nayzalar va musiqiy ob'ektlar bo'lib, ular ko'zdan 50 sm balandlikda o'rnatilishi kerak;

- 4 oydan keyin bola unga qiziqqan har bir narsaga qo'l urishni boshlaydi. Bu davrda bolaning qo'lida ushlab turadigan uzun tutqichli ajoyib chayqalaklar va o'yinchoqni bir qo'ldan boshqa joyga siljitadi;

- bolaning 6 oyligidan faqatgina o'yinchoqlarning yorqin ranglariga emas, balki ular "lazzatlanishiga" ham qiziqish bildirmoqda. Bolaga qiziqqan har qanday ob'ekt darhol og'ziga keladi. Shuning uchun oziq-ovqat plastmassasidan, silliq yuzasi bilan shov-shuvlardan foydalanish juda muhim;

- 8 oydan boshlab bola ob'ektlardan tovushlarni faol ravishda chiqarib oladi va fizika qonunlariga rioya qila boshlaydi - tiqish, ochish, tortib olish, o'rash, tushirish. Bu maqsadlar uchun chaqaloq turli xil qutilarga, cho'chqalar, bolg'alar va boshqalarga juda mos keladi.

- 1 yilda bola ob'ektlar bilan mazmunli ishlarni boshlaydi. Misol uchun, qoshiqni og'zingga tortib olish uchun, mashinkani chop eting, to'pni siljiting, yuzning alohida qismlarida ko'rsatish va ularning qanday chaqirilishini bilish. Ushbu asrning yorqin suratlari, to'plari va zarlari yaxshi bo'lgan kitoblar yaxshi;

- Bola bilan 2 yil ichida ob'ektlarning tushunchalari va ranglarini, shakllarini va xususiyatlarini mustahkamlash muhimdir. Buning uchun kuplar, ko'p rangli iplardagi to'plar va bolalar uchun yog'ochli konstruktorning turli detallari bajariladi;

- 2.5 yoshda bola o'z-o'zidan mustaqil ravishda 4 ta asosiy rangdan mavzularni tanlashi mumkin. Ushbu asrga mos keladigan qo'g'irchoqlar uchun idishlarga juda mos

keladi. Bundan tashqari, bu yoshda bolakayni kiyish va tugmachalarni bosib olishni o'rganish uchun o'yinchoqni sotib olish mumkin;

- 3 yoshida bolalar o'yin o'ynashni afzal ko'rishadi. Bu askar, shifokor, sartarosh va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday o'yinlar uchun maxsus bolalar to'plamlari sotiladi;

- olti yoshga yaqin bolalar o'yin-kulgilardan o'yinlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan qo'g'irchoqlar, transportlar, ko'plab itlar, quyonlar, kichkintoylar va boshqa jonzoqlar bilan qiziqadi. Shuningdek, sog'lig'ingizni unutmang, to'plarga e'tibor bering, halqalar, arqonlarni silkitmang va hokazo. Tanlashingizdagi asosiy omil - rasm va juda ko'p yorqin ranglar bo'lishi kerak, o'yinchoq o'yinining chaqaloq yoshiga va bolaning ruhiga daxlsizligi bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.X Jalilova, N.A G'ayibova. "Umumiy diagnostika". Toshkent 2018
2. Jalilova S.X. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". Toshkent 2017
3. Z.T.Nishanova, N.G Kamilova, D.U Abdullayeva, M.X.Xolnazarov. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Toshkent-2018.

БОШҚАРУВДА ЛИДЕРЛИК СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Қурбанова Сурайё Туйназар қизи
ЎзМУ Ижтимоий фанлар факултети Психология (фаолият турлари бўйича)
йўналиши I- босқич магистранти*

Таянч сўзлар: лидер, суперлидер, лидер ва суперлидер феноменига оид фикр- мулоҳазалар, суперлидерликка ўтиш босқичлари.

Дунёда амалга ошаётган ижтимоий-иқтисодий, маданий, айниқса, сиёсий соҳаларда кузатилаётган кескин ўзгаришлар, инсонларнинг дунёқараши, хулқ-атвори, турмуш тарзи ҳамда уларнинг касбий фаолиятига таъсир этиб, бу

соҳаларда жиддий ўзгаришларга олиб келмоқда. Шундай экан, ушбу жараён ўз-ўзидан жамиятдаги барча соҳаларда ўзига хос ижтимоий тажрибани ҳамда жаҳон андозаларига мос бошқарув амалиётини амалга ошириш заруратини талаб қилмоқда. Яъни бугунги кунда, ҳар бир соҳа фидойий, етакчи, ташаббускор, инновацион ғояга бой, ижтимоий фаол, янгича бошқарув амалиётига эга бўлган, оптимист, мустқил фикрга эга, ўзига ишонган каби сифатларга эга кадрларга эҳтиёж сезмоқда.

Маълумки бошқарув психологияси – бошқарув мақсади ва вазифаларни амалга ошириш давомида бошқарув субъекти ва объекти ўртасида юзага келувчи муносабатни талқин этади. Бу борада «лидер» ва «бошлик» тушунчалари ўртасидаги фарқлар ҳақида гапириш лозим ҳисобланади. Б.Паригин бу икки тушунчани фарқлаб шундай ёзади: (1) лидер асосан гуруҳдаги шахслараро муносабатларни бошқарса, раҳбар – шу гуруҳдаги расмий муносабатларни бошқаради; (2) лидерлик кичик гуруҳларгагина хос бўлган ҳодиса бўлса, раҳбарликнинг ҳақхуқуқлари катта гуруҳлар доирасида ҳам содир бўлиши, амалга оширилиши мумкин; (3) агар лидерлик стихияли, бетартиб жараён бўлса, раҳбарлик мақсадга қаратилган жамиятда ишлаб чиқилган нормалар, тартиблар асосида сайловлар оқибатида содир бўладиган ҳодисадир; (4) лидерлик раҳбарликка нисбатан вақтинчалик ҳодиса бўлиб, гуруҳ аъзоларинг кутишлари, уларнинг кайфиятлари, фаолият йўналишига қараб, узоқроқ муддатда ёки қисқа муддатда рўй беради; (5) раҳбарнинг лидердан фарқи яна шундаки, у лидерда йўқ бўлган жазолаш ва рағбатлантириш тизимига эга бўлиб, шу асосда ходимларига ўз таъсирини ўтказиш мумкин; (6) лидер гуруҳда у ёки бу қарорлар, кўрсатмалар ташаббусларни ўз ихтиёрича бевосита чиқариши мумкин, раҳбарда эса, бу йўналишда кўплаб кўрсатмалар, режалар, нормалар, буйруқлар мавжудки, раҳбар улар доирасидан чиқиб кетиши, ўзбошимчалик қилиши қийин; (7) лидернинг фаолияти фақат кичик гуруҳлар доирасида амалга оширилса, раҳбар шу гуруҳнинг кенгроқ ижтимоий доирадаги, жамиятдаги вакили бўлганлиги учун, унинг ваколатлари ҳам кенг, фаолият имкониятлари ҳам ортиқдир.

Лидер шахслар фаолиятини ўрганиш ҳозирги кунда катор ижтимоий фанларнинг тадқиқот предметиға айланган. Лидерлик феномени жамиятнинг турли соҳаларида содир бўлиб, унда жамоавий фаоллик ва етакчи шахсига хос кўплаб психологик хусусиятлар мавжуд.

Лидерлик – бу гуруҳ аъзолари фаолияти ва уларнинг ўзаро алоқаси натижасида вужудга келадиган шахсга хос ташкилий хусусиятлар йиғиндисидир. Лидерликни фақат бир шахс ҳаракати билан тавсифлаш мумкин эмас. Шунинг учун, лидерлик сифатлари гуруҳларнинг динамик жараёнларига тегишли ҳодиса саналади. К.Т.Базарованинг айтишича, ишбилармонлик, етакчилик каби сифатлар жамият соҳаларидаги рақобатининг кучайиши ва бошқарув ходимларининг иш фаолиятига қўйиладиган талабларнинг ортиши шароитида юзага келади[1].

Лидерлик ҳамма учун ҳам хос бўлган сифат эмас, унинг замирида ўзига хос психологик қобилиятлар, индивидуал-психологик сифатлар, касбий компетенциялар, ижтимоий-психологик сифатлар, асаб тизимининг ўзига хос хусусиятлари кабилар мужассамдир. Лидерлик сифати кўп қиррали фаолиятдир. Унда тушунтиришда иккита асосий йўналиш ажратилади деб таъкидлайди тадқиқотчи Д.К.Дайл[2]:

Лидерлик бу – аниқ вазифаларга эътибор қаратиш яъни мотивасия, ташкилотчилик, кўрсатма бериш, тўғри қарорлар қабул қилиш ва уни ижросини таъминлаш, иш ҳажмини тўғри тақсимлаш ва ҳоказо;

Лидерлик бу – жамоани сақлаб қолишга ва уни ривожлантиришга инстилиш, ўз қўл остидагиларга эътибор бериш, ўзига ишонч, жамоасини рағбатлантира олиш, кишиларни ўз шахсий мақсадларига эришишига кўмаклашиш, ўз ишидан қониқиш, ўзини ўзи англаш, ўзига ишонч, муаммоларни ўйлаш ва ҳал қилишда фаол иштирок этиш, шахсий муносабатларда ўзаро ҳурмат ва самимийликка амал қилиш каби сифатлар мажмуидир.

Айтиш жоизки, психология фани соҳаларига тегишли кўплаб тадқиқотларда, лидерлик феномени масаласида кўплаб илмий ёндашувлар, концепсиялар, илмий моделлар илмий ишлаб чиқилган бўлиб, уларда лидерлик ва лидер шахслар

характеристикасини тавсифловчи, кўплаб аҳамиятга молик маълумотлар келтирилган.

Бизнингча, лидерлик – бу гуруҳ фаолиятида максимал таъсирга эришиш учун, психологик таъсирнинг барча механизмлари ва усуллари ўзида бирлаштирган индивидуал ҳаракатлар мажмуидир. П.Ю.Семенуҳиннинг сўзларига кўра, лидерлик шахс – бу ўзига хос функцияларни ташувчи шунингдек, меҳнат жамоаларида расмий муносабатларни тартибга солувчи субъектдир[3]. Шу боис, бундай инсонларнинг ўзига хос сифатларини ўрганишда ижтимоий, иқтисодий, маъмурий, психологик, социологик омилларнинг таъсири билан ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Америкалик тадқиқотчилар Манс ва Симсларнинг фикрича, энг яхши лидер - бу “суперлидер”дир. Бу шундай шахс, у ўз ходимларининг аксариятини лидерларга, биринчи навбатда, ўзлари учун лидерларга айлантира олади. Бундаги асосий ғоя шундан иборатки, агар одам энг аввало, ўзи учун лидер бўла олса, ўзидаги бу малака ёки маҳоратни бошқаларга етказа олсагина, бу одам учун шундай вақт-соат етиб келадики, жамоа ўзи мустақил ишлайдиган, бевосита тепасида туриб бошқариб турадиган инсонга муҳтож бўлмаган механизмга айланади.

Оддий раҳбар ёки лидернинг суперлидерга айланиш босқичлари:

➤ Дастлаб инсон, яъни, бу ўринда лидер-раҳбар ўзи учун лидер бўлиши, яъни шахсий мақсад ва маслақлар, ўзини ўзи кузатиш, рағбатлантириш,

хаёлий машқлар ва когнитив таҳлиллар орқали ўзининг мустақил инсон, шахс эканлигини, ўзида бошқаларга ўрнатилган боғланиш сифатлар борлигини англаши ва камчиликларини бартараф этишга қодир бўла боради;_

➤ Лидер юқорида қайд этилган ўзидаги фазилатларнинг афзалликларини ўзгаларга намоёниш этиб, айнан шундай сифатлар соҳиби бўлишнинг афзаллик томонларига ходимлари ишонтиради;

➤ Ходимларига ўзларида ташаббуас ва ўзига ишончни намоён этиш учун шароит яратади, ташаббуслар кўрсатилишини тинимсиз рағбатлантиради;

➤ Мустақил қобилият эгаси бўлган ходимларни рағбатлантириш, керак бўлганда, фақат конструктив танбехлар бериш йўлига ўтиб олади;

➤ Ўз-ўзини бошқаришга асосланган ижтимоий фаолиятни ташкил этиш ва ишларга ҳадеб аралашаверишдан ўзини тийиш йўлининг афзалликларига ишонтиради.

Шунинг учун ҳам янги авлод раҳбарларига, бошқарувчиларига қуйиладиган талаблар, улар хулқидан кутиладиган сифатлар жамиятда соғлом инсоний муносабатларнинг барқарорлашуви, соғлом рақобат ва ўзаро бағрикенглик, лекин ишда ўзига ва ҳамкасбларига нисбатан талабчанликни тақозо этади. Бу эса бошқарув тамойиллари, бошқарув усуллари, гуруҳлардаги раҳбарлик ва лидерлик масалалари, лидерлик услублари, суперлидерлик феномени, раҳбарлик сифатлари, раҳбарликка лойиқликни баҳоловчи мезонлар, лидерликнинг вазифалари, бошқарувчига хос компетенциялар таснифи каби масалаларни ҳам иқтисодий, ижтимоий-психологик жиҳатдан тадқиқ этиш заруратини келтириб чиқаради.

Фойдалиниланган адабиётлар:

1. Базарова К.Т. Лидерские качества руководителя как социальнопсихологический феномен / К.Т.Базарова // Современный кадровый менеджмент. Вып.6. М.: ИПК госслужбы, 2007. – С.5-41.

2. Дайл Д.К. Трансформирующее действителност лидерство / Д.Дайл, Дж.Канджеми, К.Ковалски // Психология. Журнал высшей школы экономики. 2004. Т. 1. - № 1. – С.96 -109.

3. Семенухин П.Ю. Психологические особенности самоактуализирующей личности лидера / П.Ю.Семенухин // Сибирский педагогический журнал. №11. – Новосибирск, 2007. – С.354 -360.

4. Каримова Б.М., Хайитов О.Э., Умарова Н.Ш. Бошқарув соҳасидаги профессионал компетенсия асослари: Монография. / Проф. В.М. Каримова таҳрири остида. — Т.: “Фан ва технология”, 2008. - Б. 37—40.

5. Ҳайитов, О.Е. Бошқарув психологияси: дарслик / О.Э. Ҳайитов // Тошкент: «Истиқлол» нашриёти, 2021. - 236 б.

PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK STRESS

Po'latova Nodira

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21-maktab psixologi

Annatatsiya: Stress holatini to'g'ri tushunish va undan himoyalalanishni o'rganish haqida fikr yuritildi.

It is thought to learn how to understand stress and how to protect yourself from it.

Обсуждалась идея понимания и защиты от стресса

Kalit so'zi: Stress. Konstruktiv stress. Destruktiv stress. Fiziologik stress. Psixologik stress.

Bugungi davrda inson borki stress tushunchasi mavjuddir. Har daqiqada stressni yuzaga keltiruvchi voqealar sodir bo'lishi va inson psixologiyasida zo'riqish hosil bo'lishi mumkin. Stressga qarshi immunitet hosil qilish, ongni tozalash va shunchaki hayotga, atrofdagilarga ortiqcha talab qo'ymaslik bu holatlardan talofatsiz chiqib ketishga ko'mak berishi mumkin. Har qanday inson tanglik holatiga tushganida o'zini yuqotib qo'yishi, muvozanatni boshqara olmaslik holatlari kuzatiladi va atrofdagi insonlarga ham bu juda yomon taassurot qoldiradi. Aynan stress holatida o'z-o'zini nazorat qila olish juda katta energiyani talab qiladi. Stress - (inglizcha - stress) so'zidan olingan bo'lib, «bosim», «zo'riqish», tanglik degan ma'noni bildiradi.

Stress inson organizmini (bosim, kuchlanish, tanglik) holatlarida haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.

Stressning ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

1. Konstruktiv - bir turidagi (ko'pchilik orasida)
2. Destruktiv - men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonlar o'z muhlat ish faoliyati bilan shug'ullanib tezda charchab qolishi kuzatiladi. Nima uchun ularda organizm kuchsizlanib boradi? Chunki stress oz fursat ichida kechadigan jarayon bo'lib insonni faollashtirib yuboradi.

Insonni aqliy psixologik va fiziologik tizimida stress holatini bo'lmashligi mumkin emas. Bular ko'p holatlarda muloqotlarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni fiziologik va psixologik turlari mavjud. Stressning (stressga olib keluvchi omil) xarakteri va xususiyatlariga qarab fiziologik stress - bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi.

Fiziologik stress organizm o'ta jismoniy zo'riqqanda, temperaturaning ta'siri baland yoki past bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq bo'ladi. (Masalan; g'ovvoslarning suvga tushganda bosim ta'sirida nafas olishi kutilmaganda qiyinlasha boradi, ba'zida qattiq qo'rquv paydo bo'ladi va stress holatiga tushib qoladi..

Psixologik stress - odamni ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress. Psixologik stress bu ruhiy iztirobga tushishdir.

Psixologik stress: a) informatsion stress;

b) emotsional stress

turlariga ajratiladi.

Informatsion stress - insonda haddan tashqari axborotlarni ko'p qabul **qilish**, inson oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo'lsada, aniq ulardan qaysi birini tanlash, yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishda ikkilanadi. Bu holat inson psixologiyasini qattiq zo'riqishga olib keladi. Axborotlarni haddan tashqari ko'p qabul qilishi oqibatida odam psixikasi zo'riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko'p ishlab chiqila boshlaydi. Haddan tashqari zo'riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va faqatgina tanglik holatiga olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni, tashqi ta'sirni, qabul qila olmay qoladi. Bu ba'zi hollarda salbiy, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolganida tanglik holatini yuqori nuqtasiga chiqqanida, tanglik holatidan chiqib keta olmay o'z joniga qasd qilishgacha olib keliish mumkin.

Emotsional stress - ta'qiq (ugroza) qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojoralar, to'satdan ishdan bo'shatish, yaqin kishisini yo'qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinganda va hokazolarda ko'rinadi.

Emotsiya - lotincha soʻzdan olingan boʻlib «qoʻzgʻatish», «hayajonga solish» degan maʼnoni anglatadi.

Olimlar oʻtkazgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, falokat, hayotiy oʻzgarishlar, kundalik tashvishlar koʻproq stresslar hisoblanadi.

Falokat - bu notinchlik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazolar. Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy taʼsir koʻrsatadi. Olimlar shuni taʼkidlashadiki, qattiq; yer qimirlashi, katta suv toshqinlari, yongʻin boʻlishi kabi falokatlarning inson ruhiyatiga katta salbiy taʼsir koʻrsatishi natijasida, havotirlanish darajasi yuqori boʻlishi kuzatiladi.

Hayotiy oʻzgarishlar - bu insonni shaxsiy hayotida yuz beradigan voqea va hodisalardir. Masalan: yaqin kishisining halok boʻlishi, kutilmaganda ish oʻrnini yoʻqotish, ajralishlar va hokazo.

Kundalik tashvishlar - bu ish joylarda sodir boʻladigan kelishmovchiliklar, oʻqish joylaridagi oʻqituvchilarni oʻquvchilarga notoʻgʻri munosabatda boʻlishlari, imtihonlarini muvafaqqiyatsizlik bilan yakunlanishi va hokazolarda namoyon boʻladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab boʻlishi mumkin. Mayda stresslar toʻplanib borib, inson sogʻligʻiga taʼsir koʻrsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatini buzilishi, oshqozon yalligʻlanishiga olib kelishi mumkin.

Falokat, hayotiy oʻzgarishlar, kundalik tashvishlar taʼsirida yuz beradigan stress baʼzi bir odamlarda yengil kechadi, stressdan chiqib ketishi osonroq boʻladi, baʼzi bir odamlarda jiddiyroq, qiyinroq oʻtadi. **Buni sababi nimada?** Stressli vaziyatga qay darajada munosabatda boʻlishimizga bogʻliqdir. Bu holatni baholashimizga va u bilan kurashnshishga bogʻliq. Masalan: optimist odamlar stress holatini **taqdirni** bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning **hayotga** xavf - xatar tugʻildi deb qabul qilar ekanlar. **Pessimistlarda** xavotirlanish darajasi yuqori boʻladi, ular vaqtida ovqatlanmasalar xam stress xolatiga tushib qolaveradilar .

G.Seleni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stress natijasini keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bogʻliqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi:

- xavotirlik bosqichi;
- moslashish bosqichi;

- o'ta charchash bosqichi;

Xavotirlik bosqichida taloqni kichrayishi, yog` qavatini yo`qolishi, oshqozonda o'tkir yallig`lanishni sodir bo'lishi, buyrak tepasida lipoidlarni kamayishi kuzatiladi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va to'qimalarni ishlashi yo'qoladi. Agar kuchli ta'sir etsa uchinchi bosqich boshlanadi.

O'ta charchash bosqichi organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga ko'ra bu bosqich xavotirlik bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

Inflyatsiya, ishsizlik, stresslarning ijtimoiy omillari hisoblanadi. Shuning natijasida, psixolog mutaxassislarga murojaat qiluvchilar soni ko'paymoqda.

Insonda stress holatining kechish fazalari va undan himoyalaniş usullari.

Stress holatida o'zingizdagi yomon hislatlarni his qiling. Stressda o'z me'yoringizni biling, qaysi nuqta siz uchun xavfli bo'lishini doimo yodda tuting. Stress holatida siz uchun eng muhimi va sizni himoya qiladigan birinchi yo'l qobiliyatingizdir. Stress vaqtinchalik holat, shuning uchun vazmin va bosiq bo'ling.

KOMMUNIKATIV QOBILIYATNING RAHBAR FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Munira Sanayeva

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 18-maktab psixologi

Annatatsiya: Rahbar qobiliyatlari orasida o'z mohiyati bilan uning bajargan vazifalarini a'lo baholanishini taminlovchi kommunikativ qobiliyati haqida fikr yuritildi.

Among the abilities of the leader is considered the communicative ability, which, by its nature, provides an excellent assessment of the tasks performed by him.

Среди способностей лидера обсуждалось коммуникативная способность, которая, по сути, обеспечивает оценку выполняемых им задач.

Kalit so'zi: pedagogik qobiliyatlar, rahbarlarning bilimi, pedagogik va kasbiy mahorat, boshqaruv qobiliyati.

Bugungi kun jamiyatimizda izchil rivojlanish ,yuksalish ro'y berayotgan davr hisoblanadi.Mamlakatimizda ko'zga tashlanayotgan barcha islohatlar ,rivojlanishlar va o'zgarishlar jamiyatda faoliyat yuritayotgan rahbarlar o'z majburiyatlarini kundalik qoidasi qilib belgilab olganidan darak beradi.

Bu xususida Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o'z asarida “Tanqidiy tahlil,qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi ,uning faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak” -deb keltirgan fikrlari jamiyatda faoliyat yuritayotgan har bir rahbarni yanada izlanishga va vazifalarini masuliyat bilan yondashishiga undaydi. Aynan bu rahbarga xos sifatlar ham ta'lim sohasini boshqarish jarayonida ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni samarali boshqarish barcha maktab rahbarlarida pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik zaruriyatini talab etadi.Chunki,pedagogik qobiliyatlar ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan suhbatlarda,tushuntirish ishlari olib borishda, ,ko'rsatmalar berish, xodimlarning faolligini oshirishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabat bildirish,rag'batlantirishda va boshqarish jarayonilarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, ta'lim muassasalarini boshqarish jamoa a'zolarini hamda ularning faoliyatini boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida ta'lim jarayonini va vositalarini boshqaradilar.Boshqaruv yuqori saviyada olib boriladigan muassasalarda qat'iy tartib intizom mavjudligi, pedagoglarning mehnat unumdorligi, ta'lim jarayoni samaradorligi va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'ladi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatida majburiy itoatkorlik o'rnini ijodiy yondashuvlar egallaydi.

Rahbarlarning bilimi,pedagogik va kasbiy mahoratlari ,shuningdek ,ularning boshqaruv qobiliyatlari mavjudligi ta'lim muassasalarining zamonaviy talablarga javob berishi ,muvaffaaqiyatli rivojlanishi uchun pedagog xodimlar o'rtasidagi ish

taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'z vaqtida ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirib borish, faoliyatlarini to'g'ri baholash va rag'batlantirib borish, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga imkoniyatlar yaratish hamda boshqaruv jarayoniga innovatsion yondashuvlar texnologiyalarini loyihalashtirish va joriy etishini taminlab beradi.

Qobiliyat deyilganda rahbarda intellektual, kasbiy malaka va ko'nikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, intiluchanlik, tashabbuskorlik, o'z fikrini yaxshi bayon qila olishi –notiqlik, ishonтира olish, nazorat kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qola bilish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqaruvchilik va liderlik xususiyatlarini shakllanganligini tushunish mumkin. Shu bilan birga rahbarda shaxsiy sifatlarning shakllanganligi ham katta ahamiyatga ega.

Rahbar o'z faoliyati davomida uzliksiz izlanishi va o'z ustida ishlashi talab etadi. Rahbar qobiliyatlari orasida o'z mohiyati bilan uning bajargan vazifalarini a'lo baholanishini ta'minlovchi kommunikativ qobiliyatini alohida yoritib o'tish joizdir. Shu o'rinda kommunikativ qobiliyatga ta'rif berilishi

Kommunikativ qobiliyati –bu xodimlar bilan muloqatda bo'lish, boshqaruv muloqotini to'g'ri tashkil etish, bo'ysinuvchilarga yondashishi uchun to'g'ri yo'l topa bilish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatidir. O'ziga ishonch va vazifalarini sidqidildan bajarishi rahbarning qobiliyatlariga ham bog'liqdir. Qobiliyatli rahbar xodimlarga etibor berib ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. Bunda muhimi- bo'ysinuvchilarga tasir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirini qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, xodim shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarni hisobga olish zarurdir.

Rahbar o'z shaxsiy sifatlari bilan ham xodimlarga o'rnak bo'la olishi, noqo'lay sharoitlarda ham to'g'ri yechim topa olish ko'nikmalarini o'zida shakllantirgan bo'lishi lozim. Jamoada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatdan mohirona chiqib ketishi bu ish saviyasining yanada yuksalishini taminlaydi.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib shuni takidlab o'tish joizki, rahbar qobiliyatlari bilan bir qatorda diyonatli, shaxsning umumiy xislatlarini o'zida mujassam etgan, axloqiy xislatlari bilan o'rnak bo'la oladigan, insofli va fidoiylilik kabi umuminsoniy xislatlarni ham o'zida shakllantirishi shart. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning shunday hikmatli so'zlari bor: "Rahbarlik qobiliyati bo'lgan, kerak bo'lsa, qattiqqo'llik xususiyatlariga ega, insofli, diyonatli odamlarninggina rahbarlik to'nini kiyishga ma'naviy haqqi bor. Elim, yurtim deb yonib yashash kerak, degan shior eng avvalo ana shu rahbarlarning hayotiy maslagi bo'lmog'i lozim"²³. Bunday qimmatli fikrlar negizida rahbar o'z vazifalarini bajarish bilan birga shaxsiy sifatлари, vatanparvarligi va odob axloqi bilan ham o'rnak bo'la oladigan shaxs bo'lishi talab etilishi keng ma'noda yoritib berilgan.

O'QITISH JARAYONIDA ERTAK TERAPIYANING AHAMIYATI

Sanayeva Shohista

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 87-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqola zamonaviy psixologiyada bola bilan ishlashda keng foydalaniladigan psixokorreksion metod – ertak terapiyasi haqida.

Это статья о психокоррекционном методе который широко используется в современной психологии работа с детьми—о сказке terapie.

The article is about psycho-correctional method fairy-tale therapy which is used widely to train with the children in contemporary psychology.

Ertakterapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir.

Ertakterapiya atrof-muhit bilan o'zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to'g'rilashda foylaniladigan usuldir.

²³ Inson baxt uchun tug'iladi. T. "Sharq", 1998 yil, 38-bet.

Ertaklar orqali biz bolani tarbiyalaymiz, uning ichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilib beramiz, xayolini o'stiramiz.

Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg'usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo'lmasin, yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko'radi. Barcha sinovlardan mufaqqiyatli o'tgan, o'zining barcha ijobiy xislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo'ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko'rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo'lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi.

Aynan xotira bilan uyg'ulashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to'g'ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xatti-harakatlarini misli ko'rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba'zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o'zidir. Hayotda boshi berk ko'chalar bo'lmaydi. Ko'pincha inson shunchaki, ulardan chiqib ketishga tayyor bo'lmaydi.

Ertakterapiya yordamida bolaga xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko'ngil xotirjamligiga erishiladi. Bola o'zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o'z xatti-harakatlarida qo'llashni o'rganadi. Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatiladi. Ertakterapiya kattalarga ham o'z fobiya, qo'rquvlarini yengishga yordam beradi, ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi.

Ko'pincha ertakalar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo'lib, bu aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani

ulg'aytiradi. Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo'lsa, samarasi yaxshi bo'ladi.

Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1. Bu ertak nima haqida?

2. Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o'xshaydilar?

3. Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?

4. Bosh personaj qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi? Buni uning o'zi uddalaydimi yoki unga bu ishda kimdir yordam beradimi?

5. Qahramonlarning xatti-harakatlari atrofdagilarga nima beradi – quvonchmi, qayg'umi? Qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday?

6. Ertak, uning ayrim qismlari qanday tuyg'ularni uyg'otadi?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o'stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo'qotib, o'ziga ishonchni orttiradi. N.L. Kryajeva qizg'anchiq, egoist bolalarga - „Baliqchi va baliq" haqidagi ertakni, qo'rqqoq bolalarga - „Qo'rqqoq quyonlar" haqidagi ertakni, ishonuvchanlariga „Buratinonaning sarguzashtlari"ni, qaysar bolalarga „No'xat ustidagi malika" ertagini, tinib-tinchimas bolalarga esa „Etik kiygan mushuk" ertagini aytib berishni taklif qiladi.

Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o'zimizning o'zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi. „Zumrad va Qimmat" ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, „Ur to'qmoq" ertagi yolg'onchilikka, „Susambil" ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bola qalbiga ezgulik urug'ini sochadi.

1-1,5 yoshdagi bolalar uchun ertak mazmuni tushunarsiz bo'lishi mumkin, lekin ertakdagi „bobo", „buvi", „sichqoncha" kabi so'zlar biroz tanish bo'lib, bu ertakni bola uchun qiziqarli qiladi hamda uyqu oldidan aytib berish uni tinchlantiradi. 3 yoshdan keyin bolada obrazli tafakkur shakllana boshlaydi, u endi tasavvur qila oladi. Ularga endi murakkabroq mazmundagi sehrli ertaklarni taklif qilish mumkin. Shu

bilan birga maktabda ta'lim olayotgan boshlang'ich o'quvchilar bilan ertak terapiyani tashkil qilish, ularga dars jarayonida tanlangan ertak o'qib berish, va rolli sahna kurinishlar tashlik qilish ham juda samarali natijani beradi. O'quvchilar shu ertak qahramonlari rollini ijro qilish bilan birga uni his qilib kurish, har hil vaziyatlarda yo'l topaolish ko'nikmalari shakllanib boradi. Bunday usullar bilan o'quvchilarni hayolliiy dunyosidagi obrazlarni o'z hayotida gavdalantirish imkonini beradi.

Ota-onalarga maslahatlar:

1.Ota-onalar farzandiga ertakni o'qib emas, balki aytib bersalar maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ota-onaga dilbandining ertakga qanday munosabat bildirganligini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, ota-ona farzandi bilan birgalikda ertaklar olamiga sayr qiladi, bu esa bolaning unga yolg'iz sayohatidan ko'ra afzaldir.

2.Bolalar o'zgalar tomonidan tasvirlangan obrazlarni yaxshiroq qabul qilish qobiliyatiga ega. Shuning uchun farzandingizga ertak aytib berish chog'ida unda yozilgan barcha manzaralarni tasvirlab berishga harakat qiling.

3.Bolangizga ertakni o'zi tanlash imkonini bering. Agar u o'n marta „Qizil qalpoqcha“ haqida eshitishni xoxlasa, demak bu bekorga emas. Bu ertak uning ongi shakllanishiga nimadir bermoqda, unda qandaydir jarayon sodir bo'lmoqda.

4.Muhim bo'lgan yana bir qoida – bolaga ertaning chuqur ma'nosini tushuntirib bermaslik kerak. Aks holda ertak o'ladi - o'z ahamiyatini yo'qotadi va undan hech qanday naf bo'lmaydi.

5.Xalq ertaklariga iloji boricha tuzatish va o'zgartirishlar kiritmaslik kerak, aynisi real hayot bilan bog'liq bo'lgan. Bu o'zgartirishlar bolaning ertaklar olamini qabul qilishida qiyinchilik tug'diradi.

Ertakterapiyaning maqsadi va vazifasi bolalardagi agressivlik kayfiyatini yo'qotish, o'z-o'zini emotsional boshqarish va o'zgalar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdir. Buning uchun ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo'lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo'lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishlash yo'llaridan foydalaniladi.

Har bir bola bir yoki boshqa ertakni o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda katta ta'surot qoldiradi, boshqasi esa uning his-tuyg'ularini

qo'zg'atmay, yonidan o'tib ketadi. Lekin bu , “Hayotiy vaziyatlar daftarchasi yana bir katakchaga ko'paymadi” degani emas, u shunchaki bola bu kabi muammoga, masalan, kuyov va qaynona, kelin va qaynona o'rtasidagi tanlov muammosi, biror bir muhim va aziz narsasini yo'qotish yoki o'g'irlatish va hokazolarga duch kelmaguncha ta'sir kuchiga ega bo'lmaydi.

KONFLIKT SHAXSLAR O'RTASIDAGI QARASHLAR, QARAMA-QARSHILIKLAR NATIJASIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK HOLAT

Tillayeva Hamida

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21-maktab psixologi

Annatatsiya: Konfliktlar inson hayotining tabiiy tarkibiy qismi sifatida fikr yuritildi.

Conflicts are thought to be a natural part of human life.

Конфликты рассматривали как естественная часть человеческой жизни.

Kalitso'zi: Konflikt, to'qnashish, konfliktologiya, iqtisodiy konfliktlar, ijtimoiy konfliktlar.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida odamlar orasida o'zaro kelishmovchiliklar ,konflikt va konfliktlar mavjud bo'lib kelgan. Chunki har qanday taraqqiyotning asosida qarama-qarshilik va konflikt yotadi. Shaxs jamiyat taraqqiyotini amalga oshiruvchi asosiy kuch va vosita hisoblanib ,jamiyat va tabiatni o'ziga moslashtirish barobarida ,undagi bazi holatlarni taqiqlash bilan ham shug'ullanadi. Konflikt insoniyat paydo bo'lgan davrdanoq mavjud bo'lib ,uni ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganish borasidagi ilk qarashlar ham o'z tarixiga ega. Hayot tarzi ,mehnat faoliyati ,shaxslararo munosabat muhitining o'zgarayotganligi konfliktlarning ham o'ziga xos tomonlari mavjudligini ko'rsatmoqda.

Hech bir inson o'zini konfliktlardan doimiy muhofaza qilingan deb hisoblay olmaydi . chunki konfliktlar ba'zan qo'qqisdan , hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin . Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi bo'lib ,hech bir inson konfliktlardan o'zini “kafolatlanganman” deb ishonchbilan ayta olmaydi. Har birimiz bolalik davrlarimizdan konflikt vaziyatlarga tushamiz va bu holatlardan chiqib ketish yo'l va usullarini qidiramiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda ,konflikt ijtimoiy xodisa hisoblanadi. Chunki bu ko'pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqea va hodisalarni qamrab oladi hamda konflikt rivojidan har bir inson ,yaqin qarindoshlar ,mehnat jamoasi o'rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi zarar ko'rishi mumkin.

Konfliktlar inson hayotining tabiiy tarkibiy qismidir. Har doim konflikt vaziyatga tushib qolish imkoniyati mavjud bo'lib,har birimiz hech bo'lmaganda bir bor konflikt vaziyatlarning faol ishtirokchilari bo'lganmiz. O'zini konfliktlardan to'la ajratib olish ,yoki konfliktlardan himoya qilinganman,ulardan kafolatlanganman deb o'ylash ,noto'g'ridir.

Konflikt lotincha “konflikt ” so'zidan olingan bo'lib “to'qnashish ” ya'ni maqsad ,qiziqish ,nuqtai nazar ,fikrlar ,kishilarning o'zaro tasirlashuvdagi qarama qarshi yo'nalishlar borasida to'qnashishlardan iborat. Konflikt ijtimoiy psixologik muammo bo'lib, konfliktologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Konflikt muhokama yuritishda ,matnda ,nazariyada va umuman predmet ,hodisalarda biri ikkinchisini inkor etadigan ikki mulohazaning mavjudligi va ular o'rtasidagi munosabatlar.

Konflikt o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Konflikt keng va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'nodagi konflikt jamiyatdagi yangi va eski qarashlar o'rtasidagi kurashdir. Tor ma'nodagi iq turib himoya qilishida konflikt bir muommoni yechishda har bir shaxsning o'z fikrini qattiq turib himoya qilishida tyuzaga keladi. Masalan, har bir yangilik yaratulgunga qadar va yaratilgandan keyin ham ma'lum vaqt konfliktlarga uchraydi. Konflikt ijtimoiy psixologiyada muomalaning buzilishi yoki psixologik jihatdan ichki ruhiy kelishmovchilikdir. Umuman olganda, konflikt insonlar o'rtasida ijtimoiy va shaxsiy masalalarni yechishda vujudga keladigan holat ,lekin har qanday qarshilik konflikt bo'lavermaydi. Odamlar bir birining fikri bilan kelishmasligi

,tortishishuvi mumkin ,har biri o'z fikrida qoladi va baribir ko'p hollarda kelishib ishlashga majbur bo'lishadi.

Konflikt shaxslar o'rtasidagi qarashlar ,qiziqishlar qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan psixologik holat bo'lib ,shaxslarning o'zaro hamkorligi jarayonida yuzaga keladi.konflikt bor joyda rivojlanish bor ,ayni paytda ,ma'lum ma'noda orqaga qaytish ham kuzatiladi. Umuman olganda ,konflikt shaxslarning psixologik tuzilishga bog'liq bo'lsa-da, ammo hayotning o'zi konfliktsiz bo'lishi mumkin emas. Konfliktlarni baholash va tahlil etish ularni turlariga ko'ra guruhlash va tizimlashtirishni taqozo etadi. Sotsiologlar konfliktlarning makro va mikro darajasiga ,asosiy tiplariga ,yani ijtimoiy iqtisodiy ,milliy- etnik ,siyosiy tabiatiga e'tibor beradilar. Huquqshunoslar esa ichki va tashqi tizimli konfliktlar,ularning namoyon bo'lish sohasi, shuningdek, maishiy –oilaviy, madaniy va ijtimoiy mehnat hamda bozor iqtisodiyoti jarayonida keng xo'jalik yo'nalishidagi moliyaviy va mulkiy konfliktlarga ajratadilar. Boshqaruvda konfliktlarni tasniflash konfliktning elementlari ,xususiy holatlari ,ularning o'ziga xos namoyon bo'lish sabablariga ,konfliktli vaziyatga ,motivlariga ,qiziqishlarga alohida shaxsning faoliyati ,ijtimoiy guruh va jamiyat maqsadlariga tayanib amalga oshiriladi. Konfliktlarni ijtimoiy hayotda namoyon bo'lish shakliga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:iqtisodiy konfliktlar(insonning moddiy iqtisodiy faoliyati doirasida vujudga keladi);ijtimoiy konfliktlar (sotsial guruhlarining ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqadi);sinfiy konfliktlar (ijtimoiy sinflar o'rtasidagi tafovut asosiy konflikt manbai); siyosiy konfliktlar (ma'lum guruhlarining manfaatlari doirasidagi kurash); mafkuraviy konfliktlar (dunyoqarashlar o'rtasidagi tafovutlar asosida vujudga keladi); madaniy konfliktlar (turli madaniyat vakillari o'rtasidagi to'qnashuvlar jarayonida vujudga keladi); aksiologik konfliktlar (qarama qarshi qadriyatlarga ega har xil guruhlarini boshqarish oqibati tarzida); pozitsiyali konfliktlar (tashkiliy munosabatlar tuzilishidagi o'rniga qarab farq qiluvchi manfaatlari bir-biriga zid ijtimoiy guruh yoki shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi konfliktlar). Konfliktning o'ziga xususiyati buzish va buzilish xarakteriga egaligidir. Konfliktli holat jamoaning buzilishiga ,undagi ijtimoiy psixologik sharoitning

yomonlashuviga olib keladi. Konfliktli holatni hal qilish uchun uning tuzilishini o'rganib chiqish kerak.

Muzokara konfliktni hal qilish usuli sifatida .

Odamlar ba'zida bir birini tushunmaydi yoki o'y-fikrlarini aniq ifodalay olmaydilar. Ularning bir-birini tushunmasligi esa konfliktga olib kelishi mumkin. Quyida iliq muomala va qanday qilib hamsuhbatni to'g'ri tushunish va unga o'z o'ylaringizni aniq anglatish bo'yicha 10 maslahat keltirilgan .

1. Suhbat uchun qulay,tinch va to'g'ri joy tanlash. Muammoni tanaffus paytidagi tor karidorda ,darsga ikki minut vaqt qolgan paytda,shovqin orasida,bola yig'lab turganida ,opponentingiz ishga shoshilayotgan vaqtda, u bemor bo'lganida hal etish mushkul. Hamsuhbatingiz va o'zingiz tinch ,hech kim, halaqit bermaydigan ,ikkalangiz hech qayerga shoshilmay ,bafurja suhbat quradigan joy borligiga amin bo'ling. Suhbat uchun qulay joy bo'lsagina ,tomonlar orasidagi muloqot uchun sharoit yaratilgan bo'ladi.

2. Hamsuhbatingizning gaplarini bo'lmang. Sizning uzluksiz so'zlashingizni diqqat bilan eshitish mushkul. Shu bois, hamsuhbatingizga ham so'zlash imkonini bering va uning so'zlarini bo'lmay, sabr-qanoat bilan tinglang. Bizning tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , 30 sekundlik jimlik hali hech kimning joniga tahdid solmagan. 5-10 minutlik jimlik ham hali hech kim o'limga olib kelmagan . Tinchlaning , 10 minut birovni eshitib muammoni hal etish ,uni har 5minutda bo'lib,oxir oqibat hech narsaga ega bo'lmaslikdan afzaldir.Tinglovchi tomonidan ko'rsatilgan sukut bilan eshitish – opponentingizga yo'naltirilgan “Sening so'zlaring men uchun muhimdir” degan axboratni o'zida jamlaydi.Hamsuhbatingizni so'zlarini bo'lganda u o'z so'zlarini ,fikrlarini jamlay olmaydi,ularda uzilish sodir bo'ladi, buning oqibatida siz uning asl fikr va qarashlarini betartib qilasiz, xuddi shunday axborotlar sizga betartib keladi, ba'zi muhim bo'lgan fikrlar hayojon orasida yuqolib ham qoladi. Opponentingiz uchun muhim bo'lgan fikrni jamlab, sizga uzatish ancha mushkul bo'lgan vazifa. Siz uning sozlarini bo'lsangiz –mana shu muhim axborotdan mahrum bo'lib qolishingiz mumkin. Natijada, noto'g'ri xulosalarni qilishingiz mumkin.

Shu bois ,opponentingizning so'zlarnin bo'lmay, tinch eshitishga datlaning.

1. **Sabr –qanoatli bo’ling!** Ba’zan o’z fikrini to’g’ri ifodalab gap aytish uchun ham vaqt kerak. Nizo ichiga kerganlarga xos bo’lgan xususiyatlardan biri butun dardini dasturxon qilib ,konkret nizoga aloqador bo’lmagan axborotlarni bir boshdan bafurja bahs jarayoniga tortishdan iborat. Mamlakatimizda o’z oldiga qo’ygan huququiy demokratik,davlat fuqorolik jamiyati barpo etish, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini yanada erkinlashtirish vazifalari rahbar kadrlarning kasbiy mahorati ,ma’naviy qiyofasidagi axloqiy jihatlari masalalarining mavqeini yanada oshiradi. Davlatimiz rahbari kadrlar tarbiyasiga ,ma’naviyatiga ,salohiyatiga muhim ahamiyat berayotganligi ,rahbar kadrlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga da’vat etayotganligi boisida ham ana shu ehtiyoj yotadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning chuqur tahlil va tanqidiy yondashuviga asoslangan “Tanqidiy tahlil ,qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak ” nomli kitobida ta’kidlaganidek, ”bugungi kundagi eng muhim vazifamiz –mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash ,xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz ,avvalo ,rahbarlarning faoliyatidan mamnun bo’lishi kerak ”²⁴. Bu haqda so’z borganda ,necha ming yillik tarixga ega xalqimiz uchun jamoa bo’lib yashash tuyg’usi g’oyat muhim ahamiyat kasb etishini ,o’z navbatida ,munosib obro’- e’tibor ,hayotiy tajriba ,yuksak odob axloq fazilatlarini o’zida mujassam etgan ana shu jamoa raisi yoki oqsoqoli ,ya’ni rahbar shaxsning yetakchilik faoliyati hamisha odamlarni bir biriga yaqinlashtirishga ,bir birini qo’llab quvvatlab ,tinch farovon hayot kechirishiga zamin yaratib kelganini ta’kidlash lozim.

²⁴ Shavkat Mirziyoyev ,”Tanqidiy tahlil,qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”,-T.: O’zbekiston nashriyoti ,2017-yil

NUTQ TURLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Shodmonova Shoira

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 3-maktab psixologi

Annatatsiya: Inson shaxsi va individualligini tarkib toptirishda nutq va nutq turlarining ahamiyati haqida fikr yuritildi.

The importance of speech and types of speech in the formation of human personality and individuality is discussed

Обсуждалось значение речи и типов речи в формировании личности и индивидуальности человека

Kalit so'zi: Nutq va nutq faoliyati , verbal va nonverbal nutq, og'zaki nutq.

Psixologiya fanida nutqqa va nutq faoliyatiga bag'ishlangan bir talay ilmiy tadqiqot natijalari mavjud bo'lsa-da, lekin bu borada umumiylik tariflar birligi, uning evolutsion va ijtimoiy –tarixiy taraqqiyotiga oid qarashlarda mohiyat hamda shakl jihatdan o'xshashlik yo'q. Nutqning neyropsixologik asoslari mexanizmlari, artikulyatsion va fonetik apparatlari, psixolingvistik tuzilishi to'g'risida ilmiy-amaliy xususiyatli umumlashmalar hamda umumlashmalar umumlashmasi ishlab chiqilmagan.

Psixologlar tomonidan nutq psixologik muammo sifatida o'rganilishi ham o'ziga xoslik, uning qirralari, shakliy tuzilishi, mantiqan izchilligi, tasniflanishi mavjud bo'lib, ilmiy talqinining tub mohiyati, bayoniyligi bilan o'zaro tafovutlanadi. Yondashuvlar tahliliga to'xtalishdan oldin nutqning psixologik tavsiflari yuzasidan mulohaza yuritish, uning tatbiqiy jihati qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Psixolog mutaxassisligi uchun darslikda keltirilishicha, nutqning muayyan asoslarga suyangan holda noan'anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson –texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilgan bo'ladi: verbal va nonverbal.

Genetik kelib chiqish jihatidan nonverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so'zsiz nutq

turlarini paydo bo'lgan bo'lib ,u o'z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir.

Noverbal nutq turini shartli ravishda qo'yidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

Imo-ishora,

Mimika,

Pantomimika,

Exologik,yani aks sado,

Signifikatsiya,

Daktilogik(barmoq nutqi).

Yuz harakatlari yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o'zgalar fikriga javob qaytarish,tana a'zolari rangining o'zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo'luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi.

Yuz harakatlari ,tana a'zolari ,qaddi-qomat yordami bilan fikrlarni uzatish,syujetli qoidali ,ma'noli,dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimika deb ataladi. Pantomimika yumor hissini ,qo'rqinch tuyg'usini ,zahmat obrazini ,daxshat kechinmasini o'zida aks ettirib,ko'pincha kommunikativ funksiyani ijro qiladi,hissiy aloqa o'rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta'minlanadi.

Ayrim his-hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi ,tabiiy to'siqlarga urilib qaytuvchi aloqa vositasiga exologik yoki sado nutqi deyiladi. Exologik yoki aks ado nutq turi bir tomonlama aloqa negizida vujudga keladi,ko'pincha individual tovush harakati javob,masofa funksiyasini ijro etadi.

Noverbal turkumga keruvchi significatsiya boshqalardan o'z tuzilishi ,mazmuni shakli bilan keskin ajralib turadi. Aniq shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy yuklamani o'zida aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatli noverbal nutq turi significatsiya deyiladi. U belgilar ,signallar ,modellar shaklida ifodalanishi mumkin.

Noverbal nutqning yana bir turi daktilogik nutq deb ataladi.Inson tana a'zolari ,imo ishoralar ,mimika, xullas hissiyot yordami bilan muomala o'rnatishga qaratilgan aloqa vositasi daktilogik nutq deyiladi. So'z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma'noli qo'l,yuz harakatlariga, ayrim hayojonli sadoga ,qahr-g'azab ,iliq tabbasum ,qah-qahaga

ko'chiriladi. U Umumbashariy xususiyatli nutq vositasi daktilogiya fani nomi bilan yuritiladi va maxsus o'qitish ,o'rgatish orqali undan foydalanish ko'nikmasi hamda malakasi soqov yoki kar -soqov odamlarda shakllantiriladi.

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1)og'zaki, 2)yozma, 3)monologik,4)polilogik,5)tashqi,6)ichki, 7)ekspressiv, 8)impressive, 9)lakonik (qatra,yig'iq),10)epik (yoyiq), 11)affektiv (jahl holatidagi).

Insonning ijtimoiy –tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi qatorida og'zaki nutqni keltirish joiz. Og'zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo'lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko'rinishlarini qamrab oladi: monologik,diologik,polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv , impressive,lakonik,affektiv(his-hayajon,jahl).

Pauza ,mantiqiy urg'u,temp,tembr,chastota ,ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan,tilning barcha qoidalari ,qonunlari,shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi. Og'zaki nutq o'zining jarangdorligi ,ta'sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi , uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi uning keng qirrali ekanligini bildiradi.

Nutq va nutq faoliyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar ,ilgari surilgan ayrim g'oyalar mutloqlikka da'vo emas albatta, chunki ularning ko'pgina jihatlari ,qirralari, mexanizmlari, qonuniyatlari, tavsiflari chuqurroq izlanishni talab qiladi, ayrim o'rinlarda ularning har birini eksperimental tadqiq etishni taqozo qiladi, yangi metodikalar, testlar , trening ishlab chiqishni izlanish predmetiga olib kiradi. ,amaliy va nazariy muammolar yechimini tezroq hal qilishga safarbar etadi. Nutqning muomala jarayonidan kelib chiqib yondashish evaziga qiymatli materiallar to'plash mumkin hamda uning negizida har qaysi psixolog mutaxassisni notiqlik san'atiga o'rgatish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR TAFFAKURI

Mamatova Dilorom

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 28-maktabi psixologi

Annatatsiya: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlari va o'quvchilarning ilmiy tushunchalari haqida fikr yuritildi.

Important features of students of primary school age and scientific understanding of students are discussed.

Обсуждалось важная особенность маленьких пловцы школьного возраста и научное понимание пловцов.

Kalit so'zi: Kichik maktab yoshi, o'quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning rivojlanishi, o'quvchilarning nazariy tafakkuri.

Maktab ta'limi bolaning turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy hayoti, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o'zgartiradi, bolaning asosiy vazifasi o'qishdan iborat bo'lib qoladi. Yangi bilim, ko'nikma, malakalar egallashdan tabiat va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtira boshlaydi. Ta'lim o'quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlilikni, irodaviy zo'r berishlikni, faollikni, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o'rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallab boradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining muhim xususiyatlaridan biri - bu undagi o'ziga xos ehtiyojning mavjudligidir. Mazkur ehtiyoj o'z mohiyati bilan muayyan tartibdagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallashga, tevarak - atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lmasdan, balki faqat o'quvchi bo'lish istagining aynan o'zidan iboratdir. Bu ehtiyoj zamirida o'qishning tashqi alomatlari, ya'ni forma kiyish xohishi, o'z shaxsiy portfeliga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usi kabilar yotadi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash uning o'qishga nisbatan uning ijobiy munosabatini tarkib toptiradi. Maktab amaliyotida ko'pincha bolani og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho taassurotida o'z faoliyatini faollashtiradi. Ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto

o'quvchi dastlabki davrda "yaxshi" yoki "yomon" bahoning farqiga ham bormaydi, ko'proq uni nechta baho olganligi qiziqtiradi,xolos. Bu yoshda bola bahoning mohiyatini tushunib yetmasa-da , lekin o'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun muhim rol o'ynaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan yana bittasi-bu o'qituvchi shaxsiga nisbatan ishonch hissi va yuksak obro' tuyg'usining mavjudligi. Shuning uchun o'qituvchi bolaga tarbiyaviy , ta'limiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati shunday kattaki , uning siymosida aql idrokli, tiyrak, sezgir ,mehribon hatto donishmand inson gavdalanadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi obro'sidan oqilona foydalanib, o'quvchida uyushqoqlik ,mehnatsevarlik, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat ,diqqatni boshqarish, xulqni idora qilish,o'z o'zini qo'lga olish,o'z-o'ziga tasalli berish fazilatlarini shakllantirish va intilish faollik tuyg'ularini vujudga keltirish ta'lim jarayonida yuqori samara beradi. Pedagogik odob nazorat nuqtai nazaridan o'qituvchi obro'sini o'quvchilar davrasida to'kish yoki shaxsiyatiga tegish,mazax qilish mutlaqo mumkin emas.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni to'g'ri tarkib toptirish uchun o'qituvchi bola tafakkurining rivojlanishi xususiyatlarini,uning qonuniyatlarini puxta anglab olgan bo'lishi kerak. Fikr yuritish operatsiyalarining psixologik asoslari va mexanizmlarini bilmasdan turib, u bularni o'quvchilar ongiga singdira olishi mumkin emas. Tushunchalarni shakllantirishning asosiy manbalaridan biri -ularni umumlashtirishdir. Umumlashtirish operatsiyasining muhim sharti narsa va hodisalar o'rtasidagi umumiylik, o'xshashlik, o'ziga xos xususiyat, bog'lanish va o'zaro munosabatlarning muhim belgilarini topishdir.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari buyumlarning o'ziga beixtiyor tortuvchi tashqi belgilariga tayanib fikr yuritishni amalga oshiradilar: o'quvchi quyosh ,momoqaldiroq, sigir avtomobil , qush va boshqa narsalar to'g'risida fikr yuritish davomida "quyosh yoritadi,isitadi " , "sigir sut beradi " , "qushlar uchishadi" to'g'risidagi muhokamalarida dastavval buyumlarning xilma –xil harakatlari va ularga nisbatan berilgan harakatlar vujudga keladi.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari jism va predmetlarning muhim ichki belgilarini bevosita aniqlash kezida qiyinchiliklarga duch kelishadilar. Chunki, ular muhim bo'lmagan ,umumiy , xususiy, yagona singari termin xamda tushunchalarni anglab yetmaydilar. Bilish jarayoni ko'pincha tashqi belgilarga ,yaqqol alomatlariga qaratilgan bo'ladi

O'quvchilarda nazariy tafakkurni tarkib toptirishda matematika masalalarini yechish,grammatik kategoriyalarni o'zlashtirish va murakkab chizmalar bilan tanishtirish kabi muhim hollar muhim rol o'ynaydi. Albatta bu orqali turli muhokama ,munozara , mantiqan asoslash usullarini egallaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning rivojlanishi ta'lim jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Xulosa chiqarish dastavval ,bevosita idrok qilinayotgan yaqqol predmetlar asosida vujudga keladi. Bu o'quvchilarda bevosita kuzatish, idrok qilish jarayonlarida narsa va hodisalarning munosabatini , bog'lanishlarini aks ettirgan xulosa chiqarish imkoniyati tug'iladi. Keyinchalik esa ularda mavhum shart-sharoitlardan kelib chiqqan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi. Bu hol ko'rsatmalilik ,sxemalar ,chizmalar ,rasmlar va tanish misol hamda masalalar , hodisalarga asoslanish paytida o'z ifodasini topadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar deduktiv xulosa chiqarish usulini o'zlashtirib, yangi dalillar ,ichki bog'lanishlar va munosabatlarni tushuntirishda o'zlari oldin egallagan bilimlarini ,umumiy qonun qoidalarini to'g'ri qo'llash malakalarini rivojlantira boradilar. O'quvchilarning ta'lim jarayonida bilimlar tizimini barpo qilish jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Agar tahlil qilish analiz va sintez bo'lmasa, hatto psixik faoliyatning oddiy shakllari sezgi va idroklarning bo'lishi ham mumkin emas. O'quvchi analiz jarayonida yaxlit narsani bo'laklarga ajratish ularning munosabatini aniqlaydi, sintezda esa uning aksini ifodalaydi, ya'ni shu bo'laklarning yaxlit buyumga nisbatan aloqasini belgilaydi. So'zlarning gaplar, gaplardan esa yirik axborotlar va nihoyat asarlar vujudga keladi: g'ishtdan imorat ,tomchilardan ko'l barpo bo'ladi.

Bugungi kunda biz pedagog psixologlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda ulaning tafakkuri ,xotirasi va emotsional reaksiyasini o'rganuvchi bir

qator metod va trening mashg'ulotlardan keng foydalanib kelmoqdamiz. Bu metodikalar orqali o'quvchilarning maktabga bo'lgan munosabatini o'rganish, o'quvchilarning diqqat ,idrok ,mantiqiy tafakkurini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Shu bilan birga alohida keltirib o'tish joizki, maktabga qabul qilinishi kutilayotgan o'quvchilar bilan korreksion rivojlantiruvchi mashqlarning tashkil qilinishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Albatta bunday mashg'ulotlar o'z oldiga o'quvchilarni maktab ta'limiga moslashtirish ,ularda o'quv motivatsiyasini shakllantirish ,muloqot ko'nikmalari ,bir birini o'zaro tushunish ,sherikchilik ,o'zaro mas'uliyatni sezish kabi xislatlarni , bilish jarayonlari, jumladan diqqat ,sezgi ,idrok ,xotira, hayol ,tafakkur xususiyatlarini korreksiya qilish va rivojlantirishni asosiy maqsad qilib belgilab olingan .

TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BILAN ISHLASH

Aliqulova Gulshoda

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 22- aktabi psixologi

Annatatsiya: Tarbiyasi qiyin ,injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy, pedagogik va psixologik sabablari haqida fikr yuritildi.

The social ,pedagogical and psychological reasons for the origin of children with difficult upbringing ,whimsical ,negative behavior are discussed.

Показатели социальном педагогики и психологии происхождения детей после воспитания.

Kalit so'zi: tartib buzar guruhlar, shaxsning biologik o'sishi, shaxsning psixik o'sishi

Psixologlar kuzatuv va o'qituvchilar jamoasi har qancha o'rinishiga qaramasdan ,ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smir o'quvchilar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l –atvordagi nuqsonlarning xatti-harakati nosog'lomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ilmiy

asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha tarbiyasi qiyin ; injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari ,pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O'quvchilarda nojo'ya xatti –harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishni darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar ya'ni tartib buzar guruhlariga ajratiladi.

1.Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi.

2.Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi.

3.Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hislarning etishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoalari, oila azolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi.

4.Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

5.Maktab faoliyatidagi: o'qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.

6.Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri, madaniy-marifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Tarbiyasi qiyinlarni o'rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag'batlantirish, bo'ysundirishdan, qo'rqitish, sun'iy qiyin holatni yaratish singari usullardan foydalaniladi. Shulardan ayrimlarining mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Odatda novella, voqea, hikoya, sarguzasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish o'smirlar xatti-harakatining sabablarini o'rganishda yaxshi samara beradi. O'qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar xodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin o'smirlarga tegishli asardan parcha o'qib beriladi, so'ng ularda qanday qo'zgalish yoki tasirlanish paydo bo'layotganligi kuzatiladi. Tajriba qoidasiga binoan, o'qilgan parchada o'smirlarning sarguzashti, ajoyibot va g'aroyibotlar o'z aksini topishi shart.

Agar usul o'zining ijobiy natijasini ko'rsata olmasa boshqa vositalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Navbatdagi bosqichda ulardan o'qilgan asar personaji yoki bosh qahramonining o'rnida bo'lganida qanday ish tutishi so'raladi. Shu yo'l bilan har bir o'smirni, qanday hodisalar qiziqtirishi va unda qanday salbiy xatti-harakat yoki illat mavjudligi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda har bir o'smirdan asarning bosh obrazi yoki personajiga munosabatini so'rashi lozim. Chunki shaxsiy mulohazalar zaminida o'smirning ruhiy dunyosidagi turli kechinmalar aks etadi. Shu tufayli ularning nojo'ya xatti-harakatlari nimalar bilan bog'liq ekanligi o'qituvchiga ayon bo'ladi.

Tajriba o'tkazishda matnni o'qilganda psixologik pauzaga, ravon ohangga, o'qish surati va ritmiga alohida e'tibor berish lozim. Ana shu qoidalarga rioya qilinsagina matnning tasiri ortadi, o'smirdagi muayyan kechinmalarning tashqi ifodasi tez ko'riladi. O'smirlar xususiyatiga mos matnlarni tanlash, ularning hajmiga va mazmuniga e'tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanlangan matnlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning o'ziga xos va yosh xususiyatlariga, ichki imkoniyatlariga mutlaqo mos bo'lishi shart.

Qonunbuzarlikning sababini aniqlash usullaridan yana biri – syujetli fotosuratlar yoki rasmlar bilan tajriba o'tkazishdir. Buning ma'nosi va maqsadi o'smirlarning salbiy xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan qanday motivlar mavjudligini, shuningdek, ular qaysi ta'sirlarga osonroq berilishini aniqlashdir.

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi xususiyatlarni o'rganishning yana bir yo'li alohida-alohida suhbat otkazish orqali ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishdir. Suhbat kezida yaxshi va yomon xulq-atvor, xatti-harakatlar yuzasidan keng ma'lumotlar to'planadi. Mazkur jarayonda amalga oshiriladigan har xil xatti-

harakatlarni baholash, ularni sharhlab berish lozim. Xatti-harakatni baholashda o'smirlar qo'yilgan ayb yo tan olinadi yoki u mutlaqo inkor etiladi. Biroq o'tkazilgan suhbatlar o'smirning psixik dunyosiga shunday nozik ta'sir qilishi kerakki, natijada unda vijdon azobi, o'ng'aysizlik tuyg'usi vujudga kelsin. O'smir shaxsiyatiga tegadigan muomala qilish man etiladi. Hamma vaqt suhbat davomida iliq psixologik iqlim, do'stona munosabat, qulay mikromuhit bo'lmog'i shart. Faqat shundagina mavjud imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish mumkin. O'smirlar bilan suhbat orqali ularning kelajak rejalari, orzu-umidlari, intilishlari, jismoniy va aqliy mehnatga yaroqligi aniqlanadi.

Aynan shunday bolalar bilan ishlashda psixoprofilaktik ishlarning usullaridan biri psixologik-pedagogik konsiliumni qo'lay bilish ham yaxshi natija beradi. Psixologik-pedagogik konsilium o'qishda orqada qolish sabablarini yoki xulq-atvordagi kamchilik natijalarini muhokama qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Psixologik- pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium o'quvchilar, o'qituvchilar va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

DEVIANT VA DELIKVENT XULQ-ATVOR TUSHUNCHALARI

Tillayeva Hamida

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21-maktab psixologi

Annatatsiya: Delinkvent va deviant xulq atvorli O'smirlar bilan ishlash haqida fikr yuritildi.

There is talk of working with adolescents with delinquent and deviant behaviors.

Зашел разговор о работе с подростками с делинквентным и девиантным поведением.

Kalit so'zlar: Delinkvent xulq-atvor. Deviant xulq –atvor. O'smirlarning tipologik xususiyatlari.

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatadi. Hatto ular o'zlarida shakllangan ijobiy hislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlariga zarba berish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir. Biroq, psixologlar kuzatuv va o'qituvchilar jamoasi har qancha o'rinishiga qaramasdan, ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smir o'quvchilar ham uchrab turadi. Hozirgi kunda bunday yoshlar uchun delinkvent va deviant tushunchalari qo'llanilib kelinmoqda. Bu tushunchalarning asl ma'nosi, mohiyatiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Delinkvent xulq-atvor tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalarda uchraydigan xulq-atvor turlaridan biri bo'lib, jinoiy tartibda jazolanmaydigan va hali jinoyat darajasiga o'sib chiqmagan xulq-atvorning mayda buzilishlari hisoblanadi. Ular bolalarning darslarga kelmay qolishligi, ijtimoiy xavfli guruhlarining atrofida o'ralashib qolishligi, mayda bezorilik, zaif va kichkina bolalar ustidan mazax qilish, begonalardan aldab pul undirish, velosiped yoki mototsikllarni olib qochish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bunday bolalarning aksariyati noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalardir, bolalardagi xarakterning jiddiy buzilishi bilan bog'liq, ba'zi bolalarda esa o'zlari qilayotgan ishga fikri zikri bilan kirishib ketish holatlari kuzatiladi. Bunday xulq-atvorga ega yoshlarning o'z vaqtida aniqlanmasligi, ular bilan pedagogik-psixologik tadbirlarning o'tkazilmasligi oqibatida deviant xulq-atvorli o'quvchilar jamiyatga yetishib kelishi ihtimoli juda kattadir.

Deviant so'zi ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, chetga og'ish degan ma'noni bildiradi. Deviant xulq-atvor deganda rasman o'rnatilgan yoki ma'lum jamiyatda shakllangan axloqiy va huquqiy normalarga mos tushmaydigan va "buzg'unchi" ni ozodlikdan mahrum qilishga, davolashga, to'g'rilashga yoki jazoga olib keladigan xatti-harakatlar tushuniladi. Bu xatti-harakatlarning quyidagi turlarini farqlasa bo'ladi: jinoyatchilik, alkogolizm, narkomaniya, suitsid va h.

O'smir o'g'il –qizlar shaxsning kamol topishida o'z-o'zini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zini anglash jarayonida o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash ,o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular esa o'smirning psixik dunyosiga ,aqliy foliyatiga,tevarak atrofga munosabatining shakllanishiga ta'sir qiladi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, nomaqul ishlarni qiladilar. Ko'pincha ular o'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim kamchiliklarni tanqid qiladilar. Lekin yutuqlarni etirof qilishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga maqullashni va o'z talablarini o'zgalar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Bunday bolalar betga chopar, o'jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, zo'ravon bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli orqa qanotda turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, tasir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir. Ular tashviqotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab etadilar, biroq kompaniya fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar, biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xohishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomat

chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar, ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xohishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi, xolos.

Injiq tabiatli o'smirlar to'rtinchi guruhga mansub bo'lib, ular sinf jamoasida o'z o'rinlarini topa olmaganidan qayg'uradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon, arazchi bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek, kechinmalar bilan yashaydilar. Bunday holatning vujudga kelishiga asosiy sabab shaxsiy imkoniyatlardan ko'ra intilish, mayl va obro' ketidan quvishning ustunligidir. Ular jamoa a'zolarining hurmatiga sazovor bo'lishni xohlaydilar. Ko'pincha tundlik bilan ish tutadilar, biror narsaga xayrixohliklari yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy, quvvatiga ishonchsizlik ularga xos xususiyatlardir. Ular qonun va qoidalarni buzishga astoydil harakat qilmasalarda, ta'lim va tarbiya jarayonida qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda ma'suliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport sektsiyasini, tirik burchakni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fel-atvorlarini kamaytirish mumkin. Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qotib boriladi.

YOSHLARNI KASB TANLASHIDA OTA-ONALARNING TUTGAN O'RNI

Nodirabegim Ayupova
Namangan viloyati Chust tumani 75-maktab psixologi

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda kasb - bu maqsad emas, balki o'z ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish vositasi, yo'li. Zamonaviy dunyoda ikkinchi, uchinchi va har qanday ta'limni olish juda oson ekanligi bejizga emas. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunining qabul qilinishi bilan oila va ta'lim

muassasalari o'rtasida teng, ijodiy, manfaatli o'zaro hamkorlik uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Kalit so'zlar: tashabbuskor, malakali, shaxsiy qaror, kasbiy ta'lim, ehtiyojlar, motivlar, qobiliyatlar, ilmiy tadqiqotlar.

Yoshlarning kasbiy o'z taqdirini o'zi belgilashi murakkab, ko'p omilli va ko'p qirrali jarayondir. Ko'pgina fanlar bu jarayonning turli jihatlarini bilan shug'ullanadi. So'nggi yillardagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqola va kitoblar yoshlarning kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, mehnat hayotining boshlanishi, hayot yo'llari masalalariga bag'ishlangan.

Bolalik nihoyasiga yetmoqda va hayotning bu buyuk bosqichi, tugashi, shaxsning shakllanishiga olib keladi. Shaxsning yaxlit o'ziga xosligi, dunyoga ishonchi, mustaqilligi, tashabbuskorligi va malakasi yigitga jamiyat o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifani - o'z taqdirini o'zi belgilash, hayot yo'lini tanlashni hal qilish imkonini beradi.

O'smirlik davridagi kasb tanlash nafaqat yoshning shaxsiy qarori sifatida amalga oshirilishi hammaga ayon. U hali kelajakdagi hayotining barcha jabhalarini to'liq amalga oshirishga tayyor emas va kattalar, ayniqsa ota-onalarning yordamiga muhtoj.

15-17 yoshda, odatda, kasbiy o'zini o'zi belgilashga tayyorlik yo'q. O'qituvchilar va tengdoshlarning ta'siri minimaldir. Kasblar dunyosi, turli xil faoliyat turlarining tabiati va xususiyatlari to'g'risida xabardorlik ko'pincha kam. O'smirning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar va kompensatsiya imkoniyati kabi tushunchalarni bilishini etarli darajada adekvat deb hisoblash mumkin. Salomatlik holati, ushbu omillar tufayli kasb tanlashda mumkin bo'lgan cheklovlar, o'smirlar odatda oddiygina hisobga olinmaydi. Shu sababli, ota-onalar ishtirok etadigan professional maslahat eng samarali deb tan olinishi kerak.

O'smirlar kasb tanlashda yordam berish, ota-onalar u bilan nafaqat ma'lum kasblarning afzalliklari va kamchiliklarini, shuningdek, ushbu kasblar bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlarini muhokama qiladilar. Shu bilan birga, ota-onalar muqarrar ravishda psixologga aylanadilar, chunki o'rta maktab o'quvchisining ehtiyojlarini, motivlarini, qobiliyatlarini ochib berish, ular o'rtasidagi munosabatlarni baholash kerak.

Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi. Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga o'ngli ravishda yondashishga intiladilar]. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Shunday qilib, o'rganib chiqishim natijasida ota-onalarning kasb tanlashga ta'siri juda katta ekanligini ko'rsatdi. Masalan, sub'ektlarning yarmidan ko'pi kasb tanlashda tashqi motivlarga yo'naltirilgan. Ko'pincha kasb yaqin atrof-muhit ta'siri ostida tanlangan. Psixodiagnostika shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilari "o'qituvchi" va "shifokor" kabi kasblarni afzal ko'radilar, bu turdagi kasblarning mohiyati va talablari har doim ham o'quvchilarga ma'lum emas. Bundan tashqari, ko'proq e'tibor, yuqori mas'uliyat va ijodkorlikni talab qiladigan kasblar ko'pchilik sub'ektlarning temperamentiga mos kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Muvaffaqiyatli kasb tanlash - bu ma'naviy qoniqish, o'zini o'zi qadrlash; bu yuqori mehnat unumdorligi, yuqori sifatli mahsulotlardir. Kasb tanlash

- bu shaxs va jamiyat manfaatlarining yaqinlashishi, shaxsiy va umumiy manfaatlarining uyg'un kombinatsiyasi mumkin va zarur bo'lgan nuqta hisoblanadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) Климов Е. А. Как выбрать профессию — М.: Просвещение, 1990. — 158 с.
- 2) Кудрявцев Т. В. Психология профессионального обучения и воспитания. — М.: МЭИ, 1987. — 143 с.
- 3) Ратанова Т. А., Шляхта И. Ф. Психодиагностические методы изучения личности. — М.: Педагогика, 1998. — 267 с.
- 4) Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
- 5) Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - 97 b

ЁШЛАРНИ АХБОРОТ ХУРУЖЛАРИДАН ҲИМОЯЛАШ МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ҲОЛАТИ

О.М.Зарипов

*Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани 107-мактаб психологи,
М.Р.Ҳакимов*

Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани 107-мактаб ўқитувчиси

XXI асрнинг юксак даражадаги инфор­мацион-технологиялар асри эканлиги унинг инсон омилига, жамиятга, ёшлар он­гига кўрсатаётган таъсири барчамизга аниқ, шундай шароитда улғайиб, вояга етаётган ёшларимиз онгига ижобий таъсир кўрсатиш, уларнинг ижтимоий хулқини бошқаришнинг замонавий самарали механизмларини ишлаб чиқиш ва илмий изланишларда синовдан ўтказиш фан ва амалиёт учун ўта долзарб вазифалардандир.

Инсоният пайдо бўлганидан бошлаб, одамлар турли имо-ишоралар, овозлар ҳаракатлар орқали шахслараро муносабатда бўлганлар. Ахборотларнинг

инсонларнинг тараққиётидаги ўрни, унинг зарурлиги тўғрисидаги фикрлар бизгача етиб келган. Бундай ёзма манбаларга VI-VII асрларда яратилган Авесто, XI асрда яратилган Унсурмаоили Кайковуснинг “Қобуснома”, Абу Наср Форобийнинг “Фозил шаҳар одамлари ” асари, Абу Райҳон Берунийнинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар ”, Юсуф Хос Хожибнинг “Қутадғу билиг” ва бошқа кўплаб илмий-адабий, тарихий маданий меросимиз намуналарини мисол келтиришимиз мумкин. Бу асарларда ёшларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари, ахлоқий ҳислатлари, одоби, ҳаётлари, ўз турмуш мазмунини белгилашда ахборотларнинг ўрни, устоз-шогирд, оила муносабатлари масалалари кенгроқ баён қилинганлиги эътиборга моликдир.

Зардўштийлик динининг муқаддас китоби бўлган “Авесто”нинг асосини ташкил қилган ғоялари бугунги кунда ҳам ёшларимизни тўғри тарбиялашда, уларда ижтимоий-психологик хусусиятларнинг ижобий ўзгаришда муҳим ҳисобланади. Асарда Зардўшт қуйидагича мурожаат этади: “Ҳар бирингиз яхши хулқингиз билан меҳр қўйинг”, эй мардум ўзгаларнинг яхши маслаҳатларига қулоқ тутинг ва уларга равшан андиша билан қаранг. Яхши билан ёмонни фарқлашга диққат қилинг. Ҳар бир эркак ва аёл фурсатни бой бермай, ўзи тўғри йўлни танласин [141].

Қатор давлатлар томонидан қўлланилаётган “психологик уруш” олиб бориш методлари аслида қадимги эрамиздан олдинги VI асрда яшаган Хитой файласуфи ва ҳарбий арбоби Сунь Цзи қўлланмаларида жуда аниқ ифодалаб берилган. Улар қуйидагилардан иборат:

1. Душманингизнинг мамлакатидаги ҳамма яхши нарсаларини пароканда қилинг .
2. Душманнинг кўзга кўринган арбобларини жинояткорона ишларга жалб қилинг.
3. Душман раҳбарларининг обрўсини тўкинг ва пайти келганда уларни жамоатчилик олдида изза қилинг.
4. Шу мақсадда энг қабиҳ ва разил одамлар билан ҳамкорликдан фойдаланинг.

5.Ўзингизга душман мамлакат фуқаролари орасида низо ва тўқнашувлар келтириб чиқаринг.

6.Ёшларни кексаларга қарши гиж-гижланг.

7.Ҳукуматнинг ишига барча воситалар билан халал беринг.

8.Ахборот ва шериклар сотиб олиш учун таклиф ва совғаларга сахий бўлинг.

9.Умуман пулни ҳам, ваъдаларни ҳам аяманг, чунки улар ажойиб натижалар беради.[119;44-б]

Инсониятнинг қадимий китоби “Авесто”да шахсдаги индивидуал-психологик хусусиятлар намоён бўлишида “яхши фикр”ларнинг ўрни муҳимлигига катта эътибор қаратганлар, ёлғон хабарларга қарши курашга доимо тайёр туриши қайд этилган:“Яхши ниятли киши дарғазаб бўлмайди, жаҳолатларга берилмайди”-дея таъкидлайди.[143;3]

Асосан, Авесто таълимотида инсоннинг баркамол шахс бўлиб шаклланишида унинг ниятлари, амаллари фикрлари билан уйғун бўлиши лозимлиги ғояси устувор ҳисобланади. Кайковус ўзининг 44 бобдан иборат ушбу асарида шахс тарбиясига алоҳида эътибор қаратади, инсон руҳиятида содир бўладиган психологик хусусиятларнинг сабабларини излайди. Асарда ёшларнинг хулқ-атворида феълига, характер хусусиятларига алоҳида эътибор бериб ёшлар ёшлик даврлариданоқ илм олишлари зарурлигини таъкидлайди.

Олим “Қобуснома” асарида ёшларнинг билимни эгаллашларига доир бир қатор фикрларни айтади:“Агар молсизликдан қашшоқ бўлсанг,ақлдан бой бўлмоққа сай кўргузгилки, мол била бой бўлгандан , ақл била бой бўлган яхшироқдир, нединким ақл била мол жам этса бўлар, аммо мол била ақл ўрганиб бўлмас. Билгил, ақл бир молдурки,уни ўғри ололмас, у ўтда ёнмас, сувда оқмас”[143;24]

Шарқ алломаларидан Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шаҳри” асарида ёшлардаги ахлоқий тарбиянинг усуллари, шахслараро муносабатлар, ёш авлодни муносиб тарбиялаш, уларнинг психологик хусусиятлари ва одоб-ахлоқига алоҳида эътибор бериш зарурлигини таъкидлайди:“Ҳар бир инсон табиатан

шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга мухтож бўлади, у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиши учун инсонлар жамоасига эҳтиёж туғилади...”[145]

Олим ўз асарида комил инсон, шахснинг камолоти, ёшлар тарбиясига алоҳида эътибор қаратади. Фозил жамоадагина етук ахлоқли ёшлар, юксак фазилатли инсонлар вояга етади дейди. Мутафаккир аввало жамиятнинг асосини ташкил қилувчи ёшлар ўзларининг ахлоқ-одоби билан давлат ва жамиятга муносиб хизмат қилсаларгина, шаҳарлар фозиллар шахрига айланишини эътироф этади.

Ёшларни муносиб тарбиялаш зарурлиги улар келажакнинг давомчиси эканлигини англаб етган Соҳибқирон Амир Темур мамлакатнинг осойишталиги, фаровонлиги, аввало уларнинг тарбиясида ва дипломатик алоқаларда халқ ва давлат ўртасида алоқадорлик, мамлакат аҳолиси ўртасида тарқаладиган турли ахборот ва хабарларнинг давлат ва фуқароларнинг ижтимоий ҳаётига таъсир кўрсатишига алоҳида эътибор қаратади. Унинг шахс, давлатни бошқариш шахслараро муносабатлар, қўл остидаги фуқаролар ва ёшларнинг ҳимоясига алоҳида эътибор қаратганлиги “Темур тузуклари” асарида ўзига хос тарзда баён этилган. Унга кўра: ...“дўсту-душманни муросаю мадора рутбасида тутдим. Дўст-душмандан кимки менга илтижо қилиб келса, дўстларга шундай муомала қилдимки, дўстлиги янада ортди, душманларга шундай муносабатда бўлдимки, уларнинг душманлиги дўстликка алмашди”[147;35]

Шу билан биргаликда Амир Темур ғаразгуй,бузуқи ҳасадгуй одамлар шахс давлат ва жамиятга ўзларининг ёлғон ахборотлари билан путур етказиб, давлат фуқароларига душманлик қилишларини алоҳида таъкидлайдилар, бу ҳолатлар салтанат парчаланишининг асосий сабабларидан бири эканлигини таъкидлайди.

Алишер Навоий илм сўз ва ахборотлардан унумли фойдаланиб, у орқали ёшлар ўзларидаги ярамас одат ва ахлоқий психологик хусусиятларини тузатиш зарурлигини таъкидлайди. Шоир асарлари ёшлар яхшилик ва ёмонликни англашларида, эзгуликка интилиб, ёмон психологик хусусиятлар ва ёвузликлардан асранишда асосий дастурил амал хисобланади.

Профессор В.М.Каримова тадқиқот ишларини кузатар эканмиз шахснинг шаклланишида шахснинг касбий камолотида ижтимоий установкаларнинг таъсирини ижтимоий-психологик омилларнинг таъсири бўлишини ёритиб берганлар.

Профессор В.М.Каримованинг ёзишича “Шахснинг ижтимоий-психологик қиёфаси масаласи ҳам бугунги кундаги ўзгаришлар ва маънавий жиҳатдан покланиш даврида ўта муҳим соҳадир. Зеро, ҳар бир шахснинг жамиятда рўй бераётган туб ислохотларга муносабати, уларни идрок қилиш ва англаш даражаси, ўз-ўзига нисбатан муносабатининг табиати, ҳулкидаги ижтимоий мотивлар ва йўналишлар катта аҳамиятга эгадир. Айниқса, боланинг вояга етиш жараёнида унинг ижтимоийлашуви, яъни ижтимоий муносабатлар муҳитига кириб бориши, ижтимоий таъсирларни онгига сингдириши ва у ёки бу турдаги ҳуққ андозаларини мустаҳкамлаш, мафкуравий дунёқарашининг шаклланиши жараёнларининг психологик табиатини текшириш баркамол шахсни вояга етказиш дастурини яратиш учун зарур. Лекин ҳар бир шахсда бу жараён ўзига хос тарзда рўй бериши сабабли, ижтимоий психологияда унинг ижтимоий типлари фарқланади ва ҳар бир мураббий ёки тарбиячи уларни билиши амалий аҳамият касб этади. Жамият миқёсида рўй берадиган оммавий ҳодисалар ҳам ижтимоий психология учун татбиқий аҳамиятга эга. Чунки алоҳида шахс тарбиясида оммавий ҳодисаларнинг, катта гуруҳларнинг таъсирини инкор этиш масалага бир ёқлама ёндашишга баробардир. Масалан, шахс учун у мансуб бўлган миллат, элат ёки халқнинг руҳияти, унинг онгидаги асрлар давомида сақланиб келаётган анъаналар, расм-русумлар, ақидалар, удумлар, фаолият стереотиплари каби ўз муайян таъсир кучига эга. Миллатнинг руҳи илк болаликдаёқ шахс онгига у ўзлаштирган миллий тил орқали оила муҳитида шаклланади”.[65;10]

Э.Ғ.Ғозиев шахснинг касби, меҳнат, ўйин, ўқиш фаолияти натижалари унинг ёшига, индивидуал-психологик хусусиятларига, унинг раҳбар ёки ходим даражасидаги мавқеига боғлиқ равишда намоён бўлишини кўрсатиб берган.

Р.С.Самаров шахсий – индивидуал хусусиятларини фаолият билан мос тушишини даражавий жиҳатларини аниқлаган.[123;43]

Республикаимиз психологлари томонидан ёшларни ахборот хуружларидан психологик ҳимоялаш масалаларига доир бир қатор илмий изланишлар олиб борилган . Бу ушбу муаммоларни турли жиҳатларини янада чуқурроқ ўрганиш имконини беради. Шу билан бирга ёш авлодни онгли равишда ахборотлардан тўғри фойдаланиш,ўқувчи ёшларнинг психологик иммунитетини шакллантириш доирасидла ечими топилмаган муаммолар ҳам талайгина.Чунки жамиятимиз аъзоларининг асосий қисми бўлган ўқувчи ёшларда ахборт хуружларига қарши психологик иммунитетни шакллантириш асосий вазифадир.Ёшларнинг индивидул-психологик хусусиятларида ўзини-ўзи баҳолаш, масалага бир ёқлама ёндошиш ҳолатлари кўп учрайди. Бугунги кунда ўқувчи ёшларни ахборот хуружларидан психологик ҳимоялаш кечиктириб бўлмайдиган асосий вазифалардан ҳисобланади. Бу муҳим жиҳатлар етарли даражада тадқиқ этилмагандир.

Адабиётлар таҳлилидан кўринадикки хориж, Россия ва ўзбек психологиясида ўқувчи ёшларнинг индивидуал-психологик хусусиятлари, ахборот психологик хуружлар, ахборотлардан фойдаланиш маданиятини шакллантириш масалалари бир қанча ўрганилган, лекин бизнинг тадқиқотимиз доирасида белгилаб олинган ёшларни ахборот хуружларидан психологик ҳимоялаш, ўқувчи ёшларнинг ўзига хос ижтимоий-психологик хусусиятларини шаклланишида атроф-муҳитдаги шахслараро муносабатларнинг таъсири, ахборот билан шуғулланишда турли психологик ўзгаришларнинг намоён бўлиши, ўз кучига ишонч, кундалик ахборот хуружларидан психологик ҳимояланишнинг турли усул ва услублари, ёшларнинг ёшига хос ўзгарувчан жиҳатлари тадқиқот предмети сифатида ўрганилмаган.

Ёшларни ахборот хуружларидан психологик ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик муаммоларини ўрганиш бўйича ўрганишнинг аҳволи, ижтимоий тармоқлар орқали тарқатилаётган салбий ахборотлар таъсиридан ҳимояланиши зарур бўлган ўқувчи ёшларнинг ёш ва индивидуал-психологик хусусиятлари, уларнинг шахси ҳамда ўқувчи ёшларни салбий ахборот хуружларидан психологик ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик омилларини ўрганиш натижаларига асосланиб, қуйидаги хулосаларга келинди.

1. Ўқувчи ёшларни салбий ахборот хуружларидан психологик ҳимоялашда шахс давлат ва жамиятнинг манфаатларини ҳимоя қилишда таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг таъсирини кучайтириш зарур.

2. Ҳозирги вақтда таълим тизимидаги ва АКТ мутахассислари билан ҳамкорликда ўқувчи ёшларга ижтимоий тармоқлар орқали кўрсатиладиган салбий ахборот хуружларининг таъсирларини олдини олишга қаратилган ижтимоий-психологик дастурлар бўйича самарали фаолият олиб бориш ишларини такомиллаштириш.

3. Ёшларда ижтимоий тармоқлардаги салбий ахборотлар таъсирига берилмасдан, маълумотлар ва ахборотларни қабул қилиш ва ўрганишда психологик таҳлил қила олиш хусусиятларини шакллантириш.

4. Бугунги кунда ёшларга салбий психологик таъсир кўрсатаётган ахборот таҳдидларининг нафақат янгилик тарзида турли компьютер ўйинлари ва сериаллар ахборий хуружларнинг яширин ғоявий кўриниши эканлиги тушунтирилди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017-80 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни, 2016 йил 14 сентябрь. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 37-сон, 426-модда.

5. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон. – 2016. – 56-б.

6. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураамиз. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016. – 488 б.

7. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.

8. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

O'QUVCHILARNING KASB-HUNARGA QIZIQISHLARI ASOSIDA KASB-HUNARNI TO'G'RI EGALLASHLARIGA KO'MAKLASHISH. KASB TANLASHDA IQTIDOR VA QOBILIYATNING O'RNI

Egamberdiyeva Dilnoza Otoxon qizi
Namangan viloyati Uychi tumani 2-maktab psixologi

Maqsad: kasbni o'z qiziqish, layoqat, qobiliyatiga va jamiyatning ehtiyojlariga mosligi asosida tanlashga o'rgatishdan iborat.

Vazifa: kasbiy maqsadlarga erishish yo'llarida qiyinchiliklarni anglash va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rgatish.

Qobiliyatlar kiziqish va mayllar bilan mahkam bog'liq bo'ladi hamda odamning kasbga layoqatini ko'rsatuvchi belgilarning ajralmas kismi hisoblanadi.

Xo'sh, qobiliyatning o'zi nima? Odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan har qanday individual psixologik xususiyatni qobiliyat deb hisoblash mumkin. Qobiliyatni faqat bilim va malakalardan iborat deb hisoblab bo'lmaydi. Masalan, agar odam hidlarning bir-biridan farqini yaxshi bilsa va ularni esda saqlab qola olsa, u holda bunday fazilat ximik uchun, degustator uchun, oshpaz va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun juda zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. Basharti, kishining xotirasida juda ko'p raqamlar, harflar, so'zlar yoki tashqi alomatlar yaxshi (mustahkam) saqlanib qoladigan bo'lsa, u kishi mana shu o'z xotirasidagi ma'lumotlarni kerak paytda ishlata olsa, u holda bu ham juda zarur fazilat, matematikka, dasturchiga, konstruktorga va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi.

Har qanday faoliyat muayyan qobiliyatlar jamini ishlatishni taqozo etadi. Masalan, veterinariya feldsheri yoki shifokor kuzatuvchan yoki tashabbuskor kishi bo'lishi, chuqur aqlidrokka ega bulgan chaqkon-epchil odam bulmog'i, o'z ishiga g'oyat halol munosabatda bo'lishi kerak.

Yakuniy bosqich.

O'tilgan mavzuni savol-javob asosida mustahkamalsh:

Uyga vazifa. O'quvchilarning mustaqil ishlashlari va mavzuni mustahkamlash maqsadida topshiriq va nazorat savollari berish.

B/B/B – usulida jadvalni to'ldirib kelish.

O'quvchilarni kasbga qiziqishi va qobiliyatlarini o'rganish

Ishdan maqsad: O'quvchilarni kasbga qiziqishi va qobiliyatlarini o'rganishda "Kasbiy maslahat varaqasi" va "Kasb tanlash varaqasini" o'rni va rolini o'rganish.

Bajariladigan ishlar:

1. O'quvchilarning kasbga qiziqishi va qobiliyatini o'rganishga oid xujjatlarni o'rganish.

2. Ularda ifodalangan, shu jumladan uzluksiz pedagogik amaliyot davridagi vazifalarni bajarish yo'llarini bayon qilish.

3. Olingan ma'lumotlarni batafsil taxlil qilib, ishning natijalari to'g'risida referat yozish.

O'quvchilarning kasbga qiziqish va qobiliyatlarini o'rganishga oid hujjatlar

O'quvchilarning kasbga qiziqish va qobiliyatlarini o'rganishga oid maxsus xujjatlarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish ishi maktablarda keng yo'lga qo'yilgan. Quyida chiqqan "Kasbiy maslahat varaqasi" va "Kasb tanlash varaqasi" ni namuna tariqasida keltiramiz va shular asosida har bir maktab o'z xujjatlarini ishlab chiqishi mumkin.

Kasbiy maslahat varaqasi

1. Tibbiy ma'lumotnoma

- salomatligining umumiy xolati;
- nuqsonlar va normadan chetga chiqish;
- surunkali kaslliklar;
- kelgusida egallanadigan kasb yuzasidan shifokorning tavsiyalari.

1. Ota-onalar haqidagi ma'lumotnoma:

- ota-ona qanday kasbni tavsiya qiladi;
- bolani mazkur kasbni egallashga tayyorlash bo'yicha oila qanday yordam berayotir;
- bola bo'sh vaqtida nima bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi;

- bola maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda qanday to'garaklarda qatnashgan.

2. O'quvchilar uyushmasining ma'lumotnomasi ko'rsatilishi kerak:

- bolaning axloqiy sifatleri;
- bola qanday jamoatchilik va mehnat vazifalarini yomon bajaradi, qanday vazifalarni bajarishdan bosh tortadi;

- bolaning kasb tanlashi munosabati bilan murabbiyning tavsiyasi.

3. Mehnat o'qituvchisining ma'lumotnomasi:

- bolaning mehnatga munosabati;
- bola nima bilan bajonidil shug'ullanadi, nimadan bosh tortadi;
- intizomlilik darajasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini qanday bajaradi;
- bolaning zexni o'tkiroligi, topqirligi, tadbirkorligi qay darajada;
- bola psixomotorikasining hususiyatlari: harakatning aniqligi, tezligi va muvofiqligi, vaziyatlardan ta'sirlanishning tezligi;
- uzoq davom etadigan qizg'in mehnatgaqobiliyati;
- bolaga maslahat.

5. Jismoniytarbiya o'qituvchisining ma'lumotnomasi:

- bolaning jismoniy tayyorgarligi va sportga yaroqliligi;
- sportning usevgan turi;
- jismoniy chidamliligi;
- bolaga maslahat.

6. Ashulla o'qituvchisining ma'lumotnomasi:

- bolaning musiqiy qobiliyati;
- uning xushovozligi;
- bolaga maslahat.

7. Rasm o'qituvchisining ma'lumotnomasi:

- bolaning rasm chizishga va chizmachilikka qobiliyati;
- bolaga maslahat.

8. Boshqa fan o'qituvchilarining ma'lumotnomalari:

- bolaning fanni o'zlashtirishi;

- fanga qiziqishi;
- ijodkorlik nimada paydo bo‘ladi;
- fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarda qatnashadimi;
- dasturidan tashqari fanni bilishi;
- o‘qituvchilarning maslahatlari.

9. To‘garak rahbarlarining ma’lumotnomalari:

- bolaning to‘garakda qachondan buyon shug‘ullanishi;
- bolaga maslahat.

Sinf rahbarining xulosalari.

Ilmiy bo‘lim mudiri va direktorning tavsiyalari.

Varaqa to‘ldirilgan vaqt.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ғозиев Э.Ғ. Психология методологияси: ўқув қўлланма. – Т.: Noshir, 2013.
2. Ғозиев Э.Ғ. Психология (Ёш даврлари психологияси). –Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
3. Internet ma’lumotlari.

МУНДАРИЖА

Murodullayeva Dilbar Muhammadiyevna	Yoshlarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishida oilaning oʻrni	4
Toʻrayeva Zohidaxon Saydaxmadovna	Болаларда жаҳли тезлик ва уни йўқотиш йўллари	13
Toshmatova Zilolaxon Abdusattarovna	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirishda dastlabki pedagogik xususiyatlari	16
Abdurahmonova Munosib Abdurashitovna	Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar xotirasi xususiyatlari	19
Yuldasheva Gulshanoy Kozimjonovna	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida rostgoʻylik xususiyatlarini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish	23
Umarova Mohira Qodir qizi	Birinchi sinf oʻquvchilarining maktabga moslashuvda emotsional – irodaviy sifatlarni rivojlantiruvchi korreksion mashgʻulotlar	27
Toshmatova Sarvinoz Abduqaxorovna	Fanlarni oʻzlashtirishi past boʻlgan oʻquvchi yoshlarda muammolarning sabablari va ularga yordam koʻrsatish	31
Xamraqulova Marxabo Sultonovna	Boshlangʻich sinflarda zamonaviy texnikalardan foydalanishning ahamiyati va bola psixologiyasiga taʼsiri	35
Eshchanova Feruza Kenjaevna	Ilk oʻspirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari	39
Urolova Umida Arshidin qizi	Pedagog faoliyatida kompetentlik darajasining ahamiyati	43
Axmedova Durdona Orif qizi	Muloqot jarayonida suhbatdoshda atraktsiyani shakllantirishga doir psixologik usullardan foydalanish	46
Mustafayeva Madina Xaydarovna	Boshlangʻich taʼlimda didaktik oʻyinlardan foydalanish	51
Namozova Latofat Rustamovna	Konfliktli vaziyatda muomala madaniyati va toʻgʻri muloqot qoidalari	54
Xalbaeva Gulnoza Arshidinovna	Мактабгача ёшдаги болаларларнинг психологик хусусиятлари таҳлили	58
Bobojonova Odila Otanazarovna	Ertak terapiya orqali bolaga taʼsir etish usullari	63
Bobojonova Odila Otanazarovna	Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishning oʻziga xos psixologik omillari	67
Jumaniyozova Muhayyo Shuxrat qizi	Bolani maktabga psixologik jixatdan tayyorlashda oiladagi tarbiyaning oʻrni	71
Yusupova Sevara Odilbekovna	Nikoh oldi omillari haqida yoshlar tasavvurlarini shakllantirish	74
Матназарова Фотима Мақсудовна	Психогимнастика машғулотлари ёрдамида бошланғич синф ўқувчиларидаги рухий зўриқишларини олдини олиш	77
Yusupova Sevara Odilbekovna	Zamonaviy taʼlim-tarbiya jarayonini toʻgʻri tashkil etishda didaktik oʻyinlar va ertak terapiya orqali taʼsir etish usullari	81
Matnazarova Zuxra Maqsudovna	Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oilaning salohiyati	85
Matnazarova Zuxra Maqsudovna	Maktab psixologining oʻquvchilar bilan oʻtkazadigan individual suhbat usullari	89
Qarriyeva Gulshan Zarifboyevna	Muloqot jarayonining ijtimoiy –psixologik xususiyatlari	92
Qarriyeva Gulshan Zarifboyevna	Oʻqituvchi kasbiy tayyorgarligi psixologik muammo sifatida	95
Qodirova Norjonov Ergash qizi	Ijtimoiy-psixologik muammolari boʻlgan ayollarga psixologik yordam koʻrsatishda innovatsion yondashuv	99
Qodirova Norjonov Ergash qizi	Bugungi kun ijtimoiy-psixologik muammolarning oʻziga xos xususiyatlari	103

Quramboyeva Rayxon Ulugbekovna	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning dolzarb muammolari va oila psixologiyasi fanining o'qitilishi	107
Quramboyeva Rayxon Ulugbekovna	Yoshlarda kuzatiladigan jahli tezlik va uni bartaraf etish yo'llari	111
Жуманиёзова Мухайё Шухрат қизи	Ёшларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашда oilaning салоҳияти	114
Matnazarova Fotima Maqsudovna	Bolalar tarbiyasida oila va oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlari	118
Surayyo Xurramova Uralovna	Giperaktiv o'quvchilar bilan olib boriladigan diagnostik ishlar va psixologik tavsiyalar	122
Suyunova Charos Xolboyevna	O'qituvchining dars o'tish mahorati va vizual intellekti xususiyatlari	126
Sharipova Shahnoza Ro'zmatovna	O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda maktab jamoasi va otalarning o'rni	130
Назарова Шохиста Азамкуловна	Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг психологик ривожланишида диққатни жамловчи ўйинларнинг аҳамияти	134
Muxammadiyeva Nodira Ismoilovna	Kompyuter va internet tarmoqlarining bolalar va o'smirlar ma'naviyatiga ijobiy va salbiy ta'siri	137
Бозорова Нилуфар Нажмиддинқизи	Ўсмир ёшларда ҳуқуқий муносабат шаклланишининг психологик омиллари	141
Ortiqboyeva Tamara Musurmonqulovna	Agressiya-bola psixik taraqqiyotidagi inqirozdir!	148
Xoldarova Surayyo Azimovna	Maktab o'quvchilarining salomatligi va kasb tanlashga qo'yiladigan talablar	153
Qo'shaqova Shaxnoza Abdubannonovna	Yoshlarning xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida pedagogning tutgan o'rni	157
Valiyeva Khilolabonu Khusniddin qizi, Asiljanova Shokhsanam Doniyorovna	Impediments of teaching writing and approaches of resolving it effectively	161
Valijanovna Dilorom Olimjanovna	O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda maktab psixologining o'rni	167
Karimova Gulxumor Shodi qizi	O'smirlik davrida gender identifikatsiya namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	171
Bozorova Gulsora G'ulomjonovna	Muvaffaqiyatga erishishning psixologik omillari	175
Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida tarbiyachilarning roli	178
Inog'omova Elnora	Treningda ertak terapiyaning qo'llanishiga doir ma'lumotlar tahlili	182
Hamroyeva Xurshida	Ta'lim muassasasi rahbarining sifat va qirralari	188
Babaxonova Maftuna Kadamboyevna	Emotsiyalar va ularning sog'ligimizga ta'siri	191
Babaxonova Maftuna Kadamboyevna	Kasbiy qiziqish va moyilliklarni shakllantirish	193
Xo'janiyozova Dilafr'o'z Hayitmamatovna, Jumaniyozova Nafisa Saparboyevna	Milliy didning psixologik mexanizmlari	194

Мусурмонкулова Дилбар Бектемировна	Таълим жараёнида ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишнинг педагогик ва психологик асосларини яратиш	196
Маматов Шахриддин Шавкат ўғли	Ўзбекистон талаба-ёшларининг камолотида тарбиянинг ўрни	200
Маматмуротова Ойбек Камол ўғли	Интернет ахборот оқимининг ўқувчи-ёшлар онгига салбий таъсирини ўрганишнинг муҳим жиҳатлари	205
Karimova Nigora Xalilovna	Maktabda psixologning o'rni	210
Baltayeva Ikbal Tadjibayevna, Shomurotov Hamdambek Qo'shnazar o'g'li	Avesto - xalq eposining ilk namunasi sifatida	212
G'oziyeva Barno Karimjonovna	O'smirlik yoshida o'qish faoliyatining xususiyatlari va aqliy taraqqiyot	216
G'oziyeva Barno Karimjonovna	Bolalarda psixologik rivojlanish sharoitlari va uni harakatga keltiruvchi kuchlar	218
Bo'ranova Gulchexra O'ktamovna	Maktabda o'qishning mohiyati va uning psixologik qonuniyatlari	220
Bo'ronova Gulchexra O'ktamovna	Kichik maktab yoshidagi davrda shaxsning rivojlanish xususiyatlari	222
Muydinova Madina, Qosimjonova Xamidaxon, Isaqova Xabiraxon, Hudoyberdiyeva Huvaydo	Multimediani ta'limda qo'llashning asosiy afzalliklari	225
Бўриева Зебинисо Кахрамоновна	Шахс креативлигининг психологик тадқиқи	230
Shomurodova Feruza	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi	234
Shomurodova Feruza	O'smirlik davri psixologiyasi	237
Дадақўзиева Марғубахон Рахнамоевна	Тарбияси қийин ўқувчиларни диагностика қилиш ва унинг психокоррекцияси	241
Mavlanova Maxfuza Shuhratovna	Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari sabab va yechimlari	244
Mavlanova Maxfuza Shuhratovna	Oilaviy munosabatlarning bola shaxsida ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shakllanishiga ta'siri	248
Maxmudova Zulayxo Shavkatovna	Biz zo'ravonlikka qarshimiz	252
Gulzoda Erkayeva	Xotiraning bolalarda rivojlanishi	257
Gulzoda Erkayeva	Hunar-zar, kasbkor-zargar	259
Umarov Abdug'affor	Globalashuv jarayonida o'smir ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining bulling holatiga ta'siri	261
Содиқова Насиба Наимовна	Интернетнинг бола ва ўсмир психик ривожланишига таъсири	264
Murodov Sanjar	O'smirlarda diniy ong rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari	267
Ешмуратов Калмурат Оразбаевич	Ёшларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашда оиланинг салоҳияти	271
Davirova Xulkarxon Berdibekovna	Bola psixologiyasida o'yin faoliyatining roli	275
Қурбанова Сурайё Тўйназар қизи	Бошқарувда лидерлик сифатларининг психологик асослари	278
Po'latova Nodira	Psixologik va fiziologik stress	283
Munira Sanayeva	Kommunikativ qobiliyatning rahbar faoliyatidagi ahamiyati	286

Sanayeva Shohista	O'qitish jarayonida ertak terapiyaning ahamiyati	289
Tillayeva Hamida	Konflikt shaxslar o'rtasidagi qarashlar, qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga keladigan psixologik holat	293
Shodmonova Shoir	Nutq turlarining psixologik tavsifi	298
Mamatova Dilorom	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar taffakuri	301
Aliqulova Gulshoda	Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash	304
Tillayeva Hamida	Deviant va delikvent xulq-atvor tushunchalari	307
Nodirabegim Ayupova	Yoshlarni kasb tanlashida ota-onalarning tutgan o'rni	310
Отабек Зарипов, Машраб Хакимов	Ёшларни ахборот хуружларидан ҳимоялаш муаммосининг илмий-назарий асослари ва унинг ўрганилиш ҳолати	313
Egamberdiyeva Dilnoza Otoxon qizi	O'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlari asosida kasb-hunarni to'g'ri egallashlariga ko'maklashish. Kasb tanlashda iqtidor va qobiliyatning o'rni	320
МУНДАРИЖА		324

